O‘**ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASI**

JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGINING 35 YILI: TARAQQIYOT, ISLOHOTLAR VA YANGI O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI TO‘PLAMI

2026-yil 25-avgust



Toshkent

KBK – 63.3

O‘ -63

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Jamoat xavfsizligi universiteti Kengashida ma’qullangan. 2026 yil _____ __1__ -sonli bayonnoma.

“O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yili: taraqqiyot, islohotlar va Yangi O‘zbekiston strategiyasi” // Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami 2026-yil 25 avgust. – Toshkent., O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2026. – 389bet.

O‘zbekiston Respublikasi 1991 yilda 31 avgustda Mustaqillkga erishganidan keyin, milliy tiklanishda, yuksalish sari ildam odimlash borasida katta ishlarbi amalga oshirdi. Har bir sohada huquqiy asoslarni yangilab, takomillashtirish, huquqiy demortatik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurish yo‘lidan bordi.

Ushbu to‘plamda Yangi O‘zbekistonda olib borilgan davlat qurilishi va boshqaruvi, sud-huquq, qonunchilik, ijtimoiy- iqtisodiy, ma’naviy sohalarda olib borilgan islohotlar, mamlakatni rivojlantirish istiqbollari hamda taraqqiyot strategiyasiga oid zamonaviy tadqiqotlar va yangicha yondashuvlar borasida taklif va tavsiyalarni qamrab olgan maqolalar aks etgan. **Maqolalardagi ma’lumotlarning asosli ekanligiga va imloviy holatiga mualliflar javobgardirlar.**

Mas’ul muharrir: Turayeva S. R. - Jamoat xavfsizligi universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi professori, tarix fanlari doktori, dotsent.

Tahrir hay’ati:

Tolipov A.A. - Jamoat xavfsizligi universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi boshlig‘i, sotsiologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Mirzayev G‘.R. - Jamoat xavfsizligi universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi boshlig‘i o‘rinbosari, tarix fanlari doktori, dotsent.

Rasulova N. S. - Jamoat xavfsizligi universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi professori, tarix fanlari doktori, dotsent.

© O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2026

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yillik qutlug‘ sanasi mamlakatimiz hayotidagi muhim tarixiy bosqichlardan biridir. Mustaqillik yillari xalqimizning milliy davlatchilik, ozodlik va taraqqiyot yo‘lidagi ezgu orzu-intilishlari amalga oshgan, yurtimizning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy hayotida tub o‘zgarishlar yuz bergan davr sifatida tariximizdan munosib o‘rin egallaydi. SHu nuqtai nazardan, **“O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yili: taraqqiyot, islohotlar va Yangi O‘zbekiston strategiyasi”** mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyani o‘tkazish mustaqillik yillarida bosib o‘tilgan murakkab va sharafli yo‘lni xolisona tahlil qilish, erishilgan natijalarni baholash, mavjud muammolarni chuqur o‘rganish hamda istiqboldagi vazifalarni belgilash nuqtai nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonning davlat mustaqilligi mamlakatimiz tarixida yangi davrni boshlab berdi. Mustaqil davlat sifatida o‘z taraqqiyot yo‘lini belgilash, milliy manfaatlarga asoslangan tashqi va ichki siyosat yuritish, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Milliy davlatchilik an’analari tiklandi, o‘zbek xalqining boy tarixiy-madaniy merosi, milliy qadriyatlari va ma’naviy salohiyatiga yangicha munosabat shakllandi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakat oldida juda murakkab va mas’uliyatli vazifalar turgan edi. Iqtisodiy tizimni tubdan o‘zgartirish, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tish, aholining ijtimoiy himoyasini ta’minlash, davlat va jamiyat boshqaruvining yangi

institutlarini shakllantirish, milliy armiya va tashqi siyosat tizimini barpo etish kabi vazifalar izchil amalga oshirildi. Eng muhimi, mustaqil taraqqiyotning milliy modeli shakllantirilib, uning asosida xalq manfaatlari, ijtimoiy barqarorlik va uzoq muddatli strategik maqsadlar ustuvorligi ta’minlandi.

O‘tgan 35 yil davomida O‘zbekiston iqtisodiyotida ham katta o‘zgarishlar amalga oshirildi. Ishlab chiqarishning yangi tarmoqlari shakllandi, sanoat va qishloq xo‘jaligida modernizatsiya jarayonlari kuchaydi, transport-kommunikatsiya infratuzilmasi rivojlandi. Mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalari kengayib, O‘zbekiston jahon iqtisodiy makonida o‘z o‘rnini tobora mustahkamlab bormoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, investitsiyaviy muhitni yaxshilash, xususiy sektorning iqtisodiyotdagi rolini oshirish, raqobat muhitini rivojlantirish va raqamli iqtisodiyotni joriy etishga qaratilgan islohotlar yangi bosqichga ko‘tarildi.

Bugungi kunda “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi mamlakat taraqqiyotining mazmun-mohiyatini belgilab berayotgan keng qamrovli strategik konsepsiya sifatida namoyon bo‘lmoqda. Uning markazida inson qadri, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash, qonun ustuvorligini mustahkamlash, ochiq va samarali davlat boshqaruvini shakllantirish, iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish hamda jamiyatda ijtimoiy adolatni ta’minlash kabi ustuvor maqsadlar mujassamdir.

Yangi O‘zbekiston strategiyasida inson va uning manfaatlari eng oliy qadriyat sifatida qaralmoqda. Bu tamoyil ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya, bandlik, uy-joy, yoshlar siyosati, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash kabi sohalardagi islohotlarning mazmunida yaqqol namoyon

bo‘ladi. Zamonaviy va bilimli avlodni tarbiyalash, ta’lim sifatini oshirish, ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan vazifalar sifatida belgilanmoqda.

Shu bilan birga, mustaqillik yillarida milliy ma’naviyat va madaniyatni rivojlantirish, tarixiy xotirani tiklash, buyuk ajdodlarimiz ilmiy va ma’naviy merosini o‘rganish borasida ham salmoqli ishlar amalga oshirildi. Milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, yurt taqdiriga daxldorlik tuyg‘usini yuksaltirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biriga aylandi. Bugungi kunda tarixni xolisona o‘rganish va uni yosh avlodga to‘g‘ri etkazish, milliy qadriyatlarni zamonaviy taraqqiyot talablari bilan uyg‘unlashtirish muhim ilmiy va ma’rifiy vazifadir.

Mazkur konferensiya to‘plamiga kiritilgan maqolalarda mustaqillik yillar O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yillik tarixi mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida tub o‘zgarishlar va yangilanishlar davri bo‘ldi. 1991 yilda davlat mustaqilligiga erishilishi bilan O‘zbekiston o‘zining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot yo‘lini mustaqil belgilash imkoniyatiga ega bo‘ldi. Mustaqillik yillarida milliy davlatchilik asoslari shakllantirildi, bozor iqtisodiyotiga o‘tishning huquqiy va institutsional poydevori yaratildi, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati institutlari rivojlantirildi.

Ayniqsa, so‘nggi yillarda islohotlar mazmunan yangi bosqichga ko‘tarilib, “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi asosida davlat va jamiyat hayotini modernizatsiya qilish, inson qadrini yuksaltirish, qonun ustuvorligini ta’minlash va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan

keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham xalqparvar davlat barpo etish, adolat va qonun ustuvorligini ta’minlash, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, inson kapitalini yuksaltirish hamda faol fuqarolik jamiyatini rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

1. Davlat qurilishi sohasidagi islohotlar

Mustaqillikning dastlabki yillarida eng muhim vazifalardan biri milliy davlatchilik tizimini barpo etish va mustaqil davlat boshqaruvining huquqiy asoslarini yaratishdan iborat edi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinishi bilan davlat hokimiyati va boshqaruvining asosiy prinsiplari, inson huquq va erkinliklari, fuqarolarning davlat va jamiyat hayotidagi ishtiroki kafolatlari belgilab berildi.

Mustaqillik yillarida davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlariga bo‘linishi prinsipi bosqichma-bosqich takomillashtirildi. Parlamentning roli va vakolatlari kengaytirildi, hududiy vakillik organlarining faoliyati takomillashtirildi. Davlat boshqaruvi tizimida zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish, davlat organlarining aholi oldidagi mas’uliyati va hisobdorligini oshirishga e’tibor kuchaytirildi.

Ayniqsa, 2017 yildan boshlab davlat boshqaruvini isloh qilish jarayoni yangi bosqichga ko‘tarildi. Davlat organlarining xalq bilan muloqotini kuchaytirish, byurokratik to‘siqlarni qisqartirish, davlat xizmatlarini aholiga yaqinlashtirish va raqamlashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Davlat organlarining ochiqligi va

hisobdorligini kuchaytirish, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

SHu ma’noda, mustaqillikning 35 yillik davrini davlat qurilishi nuqtai nazaridan ikki muhim bosqich sifatida baholash mumkin: dastlab milliy davlatchilikning huquqiy va institutsional asoslarini yaratish, keyingi bosqichda esa ushbu tizimni xalqparvar, ochiq, samarali va raqamli boshqaruv tamoyillari asosida takomillashtirish.

2. Huquq-tartibot va sud-huquq sohasidagi islohotlar

Mustaqil O‘zbekistonda huquqiy davlat barpo etishning muhim sharti sifatida qonun ustuvorligini ta’minlash va inson huquqlarini himoya qilishga alohida e’tibor berildi. Milliy qonunchilik tizimi shakllantirildi, huquqni muhofaza qiluvchi va sud organlarining faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy baza yaratildi.

Sud-huquq tizimida amalga oshirilgan islohotlarning asosiy maqsadi sudlarning mustaqilligini mustahkamlash, fuqarolarning sud orqali himoyalanish imkoniyatlarini kengaytirish va odil sudlov sifatini oshirishdan iborat bo‘ldi. Keyingi yillarda sudlarning ochiqligi, sud qarorlarining asoslanganligi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish masalalariga yanada katta ahamiyat berildi.

Huquq-tartibot tizimida ham profilaktika, jamoat xavfsizligi, fuqarolar bilan ochiq muloqot va huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan yondashuvlar kuchaydi. Davlat siyosatida inson huquqlari va manfaatlarini ta’minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini oshirish muhim ustuvor vazifalar sifatida belgilandi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida “adolat va qonun ustuvorligi” mamlakat taraqqiyotining eng asosiy shartlaridan biri sifatida belgilangani ham huquqiy islohotlarning strategik ahamiyatini ko‘rsatadi.

3. Iqtisodiyot sohasidagi islohotlar

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston iqtisodiyotini ma’muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tkazish jarayoni amalga oshirildi. Bu jarayonda mulkchilik munosabatlarini o‘zgartirish, xususiy mulk va tadbirkorlikni rivojlantirish, milliy moliya va bank tizimini shakllantirish, iqtisodiy boshqaruv institutlarini yaratish kabi muhim vazifalar hal etildi.

Iqtisodiyotning strategik tarmoqlarini modernizatsiya qilish, yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, transport va kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligini isloh qilish va eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi.

So‘nggi yillarda iqtisodiy islohotlarning mazmuni yanada liberallashtirish tomon yo‘naltirildi. Tashqi savdo, soliq va moliya siyosatida islohotlar amalga oshirildi, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, xususiy mulk daxlsizligini ta’minlash, investitsiyalarni jalb qilish va hududlarni jadal rivojlantirishga e’tibor kuchaytirildi. Iqtisodiy siyosatda aholi farovonligini oshirish va kambag‘allikni qisqartirish ham alohida yo‘nalishga aylandi. Bu esa iqtisodiy o‘sishni faqat makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan emas, balki aholi daromadlari, bandligi va turmush sifati bilan bog‘liq holda baholashga o‘tishni anglatadi.

4. Ta’lim sohasidagi islohotlar

Mustaqillik yillarida ta’lim tizimi milliy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biri sifatida qaraldi. Ta’limning huquqiy asoslari yaratildi, maktabgacha, umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim tizimlarini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirildi.

So‘nggi yillarda ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar yanada kengaydi. Maktabgacha ta’lim qamrovini oshirish, umumiy o‘rta ta’lim mazmunini yangilash, zamonaviy darsliklarni joriy etish, o‘qituvchilarning maqomi va kasbiy nufuzini yuksaltirish, oliy ta’limga qamrovni kengaytirish kabi vazifalar ustuvor ahamiyat kasb etdi.

2022–2026 yillarga mo‘ljallangan xalq ta’limini rivojlantirish milliy dasturida milliy o‘quv dasturini joriy etish, zamonaviy darsliklarni yaratish, o‘qituvchilarning ijtimoiy va kasbiy mavqeini oshirish, pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlash kabi vazifalar belgilangan.

Ta’lim sohasidagi islohotlarning strategik ahamiyati shundaki, mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyoti bevosita inson kapitaliga bog‘liq. Shu sababli zamonaviy bilim, kasbiy ko‘nikma, raqamli savodxonlik va ilmiy-tadqiqot salohiyatini rivojlantirish Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi.

5. Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish va mahalla tizimi

O‘zbekistonda mahalla instituti azaldan aholining o‘zini o‘zi boshqarish, jamoaviy hamjihatlik va ijtimoiy ko‘makning muhim shakli bo‘lib kelgan. Mustaqillik yillarida mahallaning huquqiy maqomi mustahkamlanib, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining jamiyat hayotidagi o‘rni kengaytirildi.

Keyingi bosqichda mahalla nafaqat ijtimoiy masalalarni hal qiluvchi, balki hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholi bandligi va tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashda faol ishtirok etuvchi institutga aylantirilmoqda.

2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida “faol mahalla” modelini joriy etish, mahallalarga aholi muammolarini bevosita hal qilish uchun zarur resurs va imkoniyatlar berish, hokim yordamchilari va yoshlar etakchilari faoliyatini yo‘lga qo‘yish, mahallalarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish vazifalari belgilangan. Bunda asosiy e’tibor “mahallada muammoni aniqlash — mahallaning o‘zida echim topish” tamoyiliga qaratilmoqda. Davlat dasturlarini tuman va shahar emas, balki mahalla kesimida amalga oshirish, aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot qilish va davlat xizmatlarini aholiga yaqinlashtirish mahalliy boshqaruvning yangi mazmunini belgilab bermoqda. 2023 yilgi davlat dasturida ham har bir tuman, shahar va mahalla kesimida amaliy chora-tadbirlarni belgilash hamda jamoatchilik ishtirokida hisobdorlikni kuchaytirish vazifalari ko‘rsatilgan.

Bugungi bosqichda mahalla fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi sifatida davlat organlari bilan aholi o‘rtasidagi eng yaqin bo‘g‘inlardan biriga aylanmoqda. 2026 yilga oid rasmiy murojaatda ham mahalla infratuzilmasini yaxshilash va odamlarning islohotlar natijasini bevosita mahalla darajasida his qilishi ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Umuman olganda, O‘zbekistonning 35 yillik mustaqillik taraqqiyoti davlat va jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarini qamrab olgan

bosqichma-bosqich islohotlar jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi. Davlat qurilishi sohasida milliy davlatchilik va zamonaviy boshqaruv institutlari shakllantirilgan bo‘lsa, huquq-tartibot sohasida qonun ustuvorligi va inson huquqlarini ta’minlashga qaratilgan mexanizmlar rivojlantirildi.

Iqtisodiyotda bozor munosabatlariga o‘tish, xususiy mulk va tadbirkorlikni rivojlantirishdan iqtisodiyotni liberallashtirish va transformatsiya qilishgacha bo‘lgan jarayon bosib o‘tildi. Ta’lim sohasida milliy ta’lim tizimining huquqiy va institutsional asoslari yaratilib, keyingi bosqichda sifat, inson kapitali va zamonaviy kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berildi. Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish sohasida esa mahalla institutining huquqiy va amaliy imkoniyatlari kengaytirilib, uni aholi muammolarini bevosita hal qilishga qodir bo‘lgan faol jamoat institutiga aylantirish jarayoni kuchaydi.

Shu tariqa, mustaqillikning 35 yillik tajribasi O‘zbekistonda davlat qurilishi va jamiyat taraqqiyotining dastlabki milliy asoslarini yaratishdan zamonaviy, inson manfaatlariga yo‘naltirilgan “Yangi O‘zbekiston” modelini shakllantirishgacha bo‘lgan murakkab va muhim tarixiy jarayonni qamrab oladi. Bu jarayonning asosiy mazmunini inson qadrini yuksaltirish, qonun ustuvorligini ta’minlash, iqtisodiy erkinlikni kengaytirish, sifatli ta’lim va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish kabi maqsadlar tashkil etadi.

Davlat rahbari tomonidan “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim- tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-

tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni (2020 y. 6 noyabr PF-6108) ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon Intellektual Mulki Tashkiloti (WIPO) tomonidan nashr etilgan 2025 yilgi Global innovatsiyalar indeksi (GII) hisobotida 139 davlatning innovatsion rivojlanish ko‘rsatkichlari hamda dunyo miqyosidagi 100 ta yirik innovatsiya klasterining faoliyati chuqur tahlil qilindi. Yangi O‘zbekistonda ilm- fan taraqqiyotiga katta e’tibor qaratilmoqda Oxirgi e'lon qilingan Global innovatsiyalar indeksi–2025 yil hisobotiga ko‘ra, O‘zbekiston 139 ta mamlakat orasida **79-o‘rinni** egalladi. Shuningdek, mamlakatimiz ushbu reytingda Markaziy Osiyo mintaqasi bo‘yicha yetakchi deb topilgan[1]. Markaziy Osiyo davlatlari bo‘yicha GIIda O‘zbekiston 79-o‘rin (2020 yilga nisbatan 14 pog‘ona yuqori) bilan liderlikni egallagan. Undan keyin Qozog‘iston (81-o‘rin), Qirg‘iziston (96-o‘rin) va Tojikiston (108-o‘rin) ketma-ketlikdan joy olgan. O‘zbekiston “Tadbirkorlik siyosati va madaniyati” (3-o‘rin) “Mehnat unumdorligi o‘sishi” (6-o‘rin), startaplarni moliyalashtirish (6-o‘rin), **“Fan va muhandislik yo‘nalishlari bo‘yicha bitiruvchilar”** soni (13-o‘rin) va **“YaIMning ta’limga xarajatlar ulushi”** (24-o‘rin) indikatorlari bo‘yicha 139 ta mamlakat ichida ijobiy natijani qayd etgan. Bu iqtisodiy samaradorlikning ortib borayotganidan dalolat beradi.

O'zbekistonda davlat tomonidan ta'limga yo'naltiriladigan xarajatlar Yalpi ichki mahsulotning (YaIM) **5,5% dan 6,5% gacha** bo'lgan qismini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich xalqaro miqyosda inson kapitalini rivojlantirish va ta'lim sifatini yaxshilash uchun belgilangan maqsadli

[1] Review.uz

ko'rsatkichlarga mos keladi. Biroq, ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga sarmoyalar ulushi (98-o‘rin), adabiyot, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha PISA shkalasi (84-o‘rin), kam uglerodli energiyadan foydalanish (118-o‘rin) kabi indikatorlar pastligicha qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmoniga muvofiq O‘zbekiston 2030 yilga qadar Global innovatsiya indeksi da Top-50 talik mamlakatlar ro‘yxatiga kirishi belgilangan. Bu maqsadga yoshlarimiz ildam qadam bilan doimo o‘z ustida ishlab, ilg‘or bilimlarni egallashga sayi -harakat qilishi lozim. E’tiboringiz uchun rahmat.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i, yuridik fanlar doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist.

Rustambayev M.X

YALPI MAJLISDADGI MA’RUZALAR

YANGI O‘ZBEKISTONNING IJTIMOIY QIYOFASI

Tolipov A.A.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi

boshlig’I, sotsiologiya fanlari

bo’yicha falsafa doktori (PhD)

XXI asrda jamiyat taraqqiyotini faqat iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari orqali baholash yetarli emas. Zamonaviy taraqqiyot konsepsiyalarida inson kapitali, ijtimoiy farovonlik, ta’lim sifati, fuqarolik faolligi, ijtimoiy tenglik, huquq va erkinliklarning kafolatlanganligi hamda jamiyatning innovatsion salohiyati davlat rivojining muhim mezonlari sifatida qaralmoqda. Shu nuqtayi nazardan O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jamiyatning iqtisodiy va siyosiy tizimlarinigina emas, balki uning ijtimoiy qiyofasini ham o‘zgartirmoqda.

Yangi O‘zbekiston fenomenini aynan shu nuqtayi nazardan anglash muhim. Chunki Yangi O‘zbekiston tushunchasi ma’lum bir siyosiy davr yoki davlat dasturining nomi bo‘libgina qolmay, jamiyatning rivojlanish falsafasini ifodalovchi tushunchaga aylanmoqda. Uning markazida inson, uning qadr-qimmati, huquq va erkinliklari, munosib hayot kechirishi va o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish g‘oyasi turibdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida ham mamlakat taraqqiyotining bosh maqsadi inson manfaatlari, uning huquq va erkinliklari hamda

munosib hayotini ta’minlash bilan bog‘lanadi. Mazkur yondashuv ijtimoiy taraqqiyotning markaziga davlat yoki institutlarni emas, balki insonni qo‘yish zarurligini anglatadi.2

2023-yilda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi ushbu jarayonning muhim huquqiy bosqichi bo‘ldi. Konstitutsiyada O‘zbekistonning ijtimoiy davlat sifatidagi maqomi mustahkamlandi. Insonning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmati oliy qadriyat sifatida e’tirof etilishi jamiyatning ijtimoiy qiyofasini belgilovchi fundamental konstitutsiyaviy mezonga aylandi.3

Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy qiyofasini tavsiflashda, avvalo, “inson qadri” tushunchasining mazmuniy jihatdan yangilanayotganiga e’tibor qaratish lozim. Inson qadrini e’tirof etish faqat deklarativ tamoyil emas, balki davlat siyosati, huquqiy mexanizmlar va ijtimoiy institutlar faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi kerak. Shu ma’noda inson qadri — fuqarolarning xavfsizligi, huquq va erkinliklari, sifatli ta’lim va tibbiy xizmatlardan foydalanishi, munosib mehnat qilishi, ijtimoiy himoyaga ega bo‘lishi hamda o‘z kelajagini mustaqil belgilash imkoniyatlarining yaxlit tizimidir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquqlari va erkinliklariga oid normalarning sezilarli darajada kengaytirilgani jamiyatning huquqiy qiyofasini ham o‘zgartirishga xizmat qilmoqda. Bunda davlat va fuqaro o‘rtasidagi munosabatlarda inson manfaatlarining ustuvorligi, ijtimoiy

Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. — Toshkent, 2023.

davlat tamoyillari va huquqiy kafolatlarning kuchaytirilishi yangi ijtimoiy munosabatlarning konstitutsiyaviy asoslarini yaratmoqda.4

Shu bilan birga, ijtimoiy davlat tushunchasini faqat aholiga nafaqa va moddiy yordam beruvchi davlat sifatida tushunish to‘g‘ri emas. Zamonaviy ijtimoiy davlat insonning davlat yordamiga doimiy ehtiyojmandligini emas, balki uning mustaqil hayot kechirishi uchun zarur imkoniyatlarni yaratishni nazarda tutadi. Ya’ni ijtimoiy siyosatning mohiyati “yordam berish”dan “imkoniyat yaratish”ga, “muammoni bartaraf etish”dan “muammoning kelib chiqish sabablarini kamaytirish”ga tomon siljishi lozim.

Shu jihatdan kambag‘allikni qisqartirish siyosati Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy qiyofasini belgilovchi muhim yo‘nalishlardan biridir. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, amalga oshirilgan manzilli chora-tadbirlar natijasida kambag‘allik darajasi 11 foizdan 8,9 foizga kamaygan, bir millionga yaqin fuqaro kasb-hunarga o‘qitilib, ish bilan ta’minlanishiga ko‘maklashilgan. Mazkur jarayonni faqat statistik ko‘rsatkich sifatida emas, balki ijtimoiy siyosat paradigmasining o‘zgarishi sifatida baholash zarur.

Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy qiyofasini belgilovchi ikkinchi muhim omil — inson kapitalining rivojlanishidir. Bugungi global raqobat sharoitida mamlakatning asosiy boyligi tabiiy resurslar bilangina emas, balki bilimli, malakali, kreativ va innovatsion fikrlaydigan insonlar bilan belgilanadi. Shu sababli ta’lim tizimining modernizatsiyasi Yangi O‘zbekiston ijtimoiy transformatsiyasining markaziy yo‘nalishlaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir, II bo‘lim: Inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari. — Toshkent, 2023.

Ta’limning jamiyat hayotidagi ahamiyati uning faqat mutaxassis tayyorlash funksiyasi bilan cheklanmaydi. Ta’lim insonning dunyoqarashini, ijtimoiy mas’uliyatini, huquqiy va siyosiy madaniyatini, tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantiradi. Demak, ta’lim tizimidagi sifat o‘zgarishlari jamiyatning kelajakdagi ijtimoiy qiyofasini ham belgilaydi.5

Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar masalasi ham alohida strategik ahamiyatga ega. Yoshlar mamlakat aholisining katta qismini tashkil etishi sababli ularning ta’lim olishi, kasb egallashi, bandligi, tadbirkorlik va innovatsion faoliyatga jalb etilishi mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Yoshlarni faqat davlat siyosatining obyekti sifatida emas, balki mamlakat taraqqiyotining faol subyekti sifatida ko‘rish yangi ijtimoiy tafakkurning muhim belgisi hisoblanadi.

Bu jarayonda fuqarolik faolligining ortib borishi ham Yangi O‘zbekiston ijtimoiy qiyofasining muhim ko‘rsatkichidir. Zamonaviy jamiyatda davlatning barcha muammolarni mustaqil ravishda hal qilishi mumkinligi haqidagi an’anaviy tasavvur tobora o‘z o‘rnini davlat, fuqarolik jamiyati institutlari, mahalla, nodavlat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari va fuqarolarning hamkorligiga asoslangan modelga bo‘shatmoqda.

Mahalla institutining rivojlanishi ham shu nuqtayi nazardan alohida ahamiyatga ega. Mahalla nafaqat ma’muriy-hududiy birlik, balki jamiyatdagi ijtimoiy birdamlik, o‘zaro yordam, ijtimoiy mas’uliyat va jamoaviy muammolarni hal qilishning tarixiy instituti sifatida namoyon

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi rasmiy axborot materiallari: “Ijtimoiy himoya va bandlik”. 2026-yilgi ma’lumotlar.

bo‘lmoqda. Zamonaviy sharoitda mahalla faoliyatining davlat boshqaruvi bilan uyg‘unlashuvi uning ijtimoiy funksiyalarini yanada kuchaytirishi mumkin.

Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy qiyofasida gender munosabatlarining o‘zgarishi ham muhim o‘rin tutadi. Xotin-qizlarning ta’lim olishi, mehnat bozorida faol ishtirok etishi, tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi va davlat boshqaruvida vakilligining ortishi jamiyatning ijtimoiy strukturasiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Rasmiy ma’lumotlarda 2025-yilda oliy ta’limga qabul qilingan talabalarning 49 foizini qizlar tashkil etgani, xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 35 foizga yetgani qayd etilgan. Bu ko‘rsatkichlar gender tengligi masalasining faqat huquqiy emas, balki amaliy ijtimoiy jarayonga aylanayotganini ko‘rsatadi.

Biroq jamiyatning ijtimoiy qiyofasini faqat ijobiy statistik ko‘rsatkichlar bilan baholash ilmiy jihatdan yetarli emas. Har qanday transformatsion jarayonda qarama-qarshiliklar mavjud bo‘ladi. Hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar, ta’lim sifati bilan bog‘liq muammolar, yoshlar bandligi, mehnat migratsiyasi, uy-joy masalasi, ekologik xavflar, raqamli tengsizlik va ijtimoiy xizmatlarning sifatini oshirish zarurati hali ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Ayniqsa, raqamli transformatsiya sharoitida jamiyatning yangi ijtimoiy qiyofasi bilan bog‘liq masalalar yanada murakkablashmoqda. Raqamli texnologiyalar davlat xizmatlaridan foydalanishni soddalashtirishi, ta’lim va axborot olish imkoniyatlarini kengaytirishi bilan birga, raqamli tengsizlik, axborot xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va mediasavodxonlik kabi yangi

muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu sababli raqamlashtirishni faqat texnologik jarayon emas, balki ijtimoiy transformatsiyaning muhim omili sifatida baholash zarur.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi ushbu jarayonlarning uzoq muddatli institutsional asoslarini belgilashga qaratilgan. Strategiyada barqaror iqtisodiy o‘sish, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya, ekologik barqarorlik, adolatli va zamonaviy davlat boshqaruvi hamda xavfsizlik kabi yo‘nalishlarning o‘zaro bog‘liqligi nazarda tutilgan. Bu esa Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy qiyofasi birgina soha doirasida emas, balki iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy va ma’naviy omillarning o‘zaro ta’siri asosida shakllanishini anglatadi.

Shuningdek, Yangi O‘zbekiston ijtimoiy qiyofasining muhim belgisi sifatida davlat va jamiyat munosabatlarida kommunikativ modelning kuchayib borayotganini ko‘rsatish mumkin. Fuqarolarning murojaatlari, jamoatchilik muhokamalari, ochiq ma’lumotlar, ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar orqali davlat organlari bilan jamiyat o‘rtasidagi aloqa kanallari kengaymoqda. Biroq mazkur jarayonning haqiqiy samarasi nafaqat axborot almashinuvi, balki fuqarolar fikrining davlat qarorlarida qay darajada hisobga olinishi bilan o‘lchanishi lozim.6

Ijtimoiy falsafa nuqtayi nazaridan qaraganda, Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy qiyofasi uchta asosiy transformatsiya bilan tavsiflanishi mumkin. Birinchidan, “davlat — jamiyat” munosabatlarida inson manfaatlarining ustuvorligi kuchaymoqda. Ikkinchidan, ijtimoiy siyosatning passiv yordam modelidan faol imkoniyat yaratish modeliga

---

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi rasmiy axborot materiallari. Ijtimoiy himoya va bandlik yo‘nalishidagi 2026-yil ma’lumotlari.

o‘tish jarayoni kuzatilmoqda. Uchinchidan, jamiyat a’zolarining davlat va jamoat hayotidagi ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan institutsional mexanizmlar rivojlanmoqda.

Shu bilan birga, Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy qiyofasini shakllantirish jarayoni hali yakunlangan hodisa emas. U doimiy rivojlanadigan, ichki ziddiyatlar va yangi chaqiriqlar ta’sirida takomillashadigan ijtimoiy jarayondir. Shuning uchun “Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy qiyofasi”ni tayyor va o‘zgarmas model sifatida emas, balki inson, jamiyat va davlat o‘rtasidagi munosabatlarning yangi mazmunini shakllantirayotgan transformatsion jarayon sifatida tushunish ilmiy jihatdan to‘g‘riroqdir.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy qiyofasi mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning bevosita ijtimoiy natijasi sifatida shakllanmoqda. Uning asosiy belgilarini inson qadri va huquqlarining ustuvorligi, ijtimoiy davlat tamoyillarining mustahkamlanishi, kambag‘allikni qisqartirish, inson kapitalini rivojlantirish, ta’lim va sog‘liqni saqlash imkoniyatlarini kengaytirish, yoshlar va xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish hamda raqamli transformatsiyani jadallashtirish kabi yo‘nalishlarda ko‘rish mumkin. Biroq Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy qiyofasi faqat erishilgan natijalar bilan emas, balki mavjud muammolarni ochiq tan olish va ularni ilmiy asoslangan mexanizmlar orqali hal qilish qobiliyati bilan ham belgilanadi. Ijtimoiy taraqqiyotning

haqiqiy mezoni davlat dasturlarining soni emas, balki ularning oddiy fuqaro hayotida qanday real o‘zgarishlar yaratishi bilan o‘lchanadi.7

Shu ma’noda Yangi O‘zbekistonning istiqboldagi ijtimoiy modeli bilimli, huquqiy madaniyatga ega, ijtimoiy mas’uliyatli, raqamli kompetensiyalarga ega, tashabbuskor va faol fuqaroga tayanishi lozim. Davlat siyosatining vazifasi esa bunday shaxsning rivojlanishi uchun teng imkoniyatlar, adolatli ijtimoiy muhit va samarali institutlarni yaratishdan iborat.

Demak, Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy qiyofasi — bu shunchaki jamiyatdagi tashqi o‘zgarishlar yig‘indisi emas. U insonning davlat va jamiyatdagi o‘rni, uning huquq va imkoniyatlari, ijtimoiy mas’uliyati, ta’lim va bilimga munosabati, fuqarolik faolligi hamda kelajak haqidagi tasavvurlarining o‘zgarishi bilan bog‘liq murakkab ijtimoiy-falsafiy hodisadir. Uning muvaffaqiyati esa eng avvalo inson manfaatlarini amaliy hayotda ta’minlash, ijtimoiy adolatni mustahkamlash va har bir fuqaroning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun real imkoniyat yaratish darajasi bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. — Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. — Toshkent, 2023.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son Farmoni. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
7. Vaxabov A.V., Zaxidova Sh.Sh., Xajibakiyev Sh.X. va boshqalar. Ijtimoiy siyosat. — Toshkent: Mumtoz so‘z, 2019.
8. Abduraxmanova G.Q., Abduramanov X.X. Ijtimoiy sohalar va inson taraqqiyoti. — Toshkent, 2018.
9. To‘ychiyeva S., Norbekov A. Ijtimoiy siyosat. — Toshkent, 2010.
10. Shayusupova N.T., Arabov N.U., Nasimov D.A. Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy himoya. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2014.
11. Sen A. Development as Freedom. — New York: Oxford University Press, 1999.
12. Castells M. The Rise of the Network Society. — 2nd ed. — Oxford: Wiley-Blackwell, 2010.
13. Giddens A. The Constitution of Society: Outline of the Theory of Structuration. — Cambridge: Polity Press, 1984.
14. World Bank. The World Bank in Uzbekistan: Social and Economic Development Reports. — Washington, D.C.
15. United Nations Development Programme. Human Development Report. — New York: UNDP.

MILLATLARARO TOTUVLIK SIYOSATI– TURLI MILLAT VA ELAT VAKILLARI O‘RTASIDA DO‘STLIK VA BAG‘RIKENGLIK GAROVI

Mirzayev Gulom Rizoqulovich,

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra boshlig‘i o‘rinbosari, tarix fanlari doktori, dotsent,

.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlashicha, “bizning qadimiy va sahovatli zaminimizda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo‘stlik, ezgulik, qalb sahovati va tom ma’nodagi bag‘rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo‘lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi. ... Yurtimizda hukm surayotgan do‘stlik va birdamlik muhiti – tinchlik va barqarorlik, amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini yanada yuksaltirishning eng muhim omilidir” [1., 295-296.].

Mamlakatimizda milliy o‘zlikni saqlab qolish, etnik qadriyatlarni rivojlantirish bilan bog‘liq jarayonlarga, yaqin o‘tmishdagidan farqli ravishda millatchilikning o‘sishi deb emas, balki tabiiy-tarixiy jarayon sifatida qaralmoqda va tegishli institutsional asoslar yaratilmoqda. Xususan, etnomadaniy ehtiyojlarini to‘laqonli qondirish, milliy urf-odatlar va an’analar rivojlanishiga har tomonlama shart-sharoit yaratish maqsadida Respublikadagi turli millatlarga mansub milliy-madaniy markazlar faoliyatiga keng yo‘l ochib berilganini qayd etish lozim.

Muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev haqli ravishda ta’kidlaganlaridek, “***Hech kimga sir emas, hozirgi vaqtda dunyoning***

turli mintaqalarida o‘zaro shafqatsiz raqobat, millatlararo va dinlararo ziddiyatlar, separatizm, millatchilik, radikalizm kabi tahdidlar tobora kuchayib bormoqda. Ana shunday tahlikali vaziyatda mamlakatimizda yashayotgan turli millat va dinga mansub insonlar o‘rtasida do‘stlik va hamjihatlikni mustahkamlash, go‘zal diyorimizda barqaror va bardavom taraqqiyotni ta’minlash, xalqimizning bunyodkorlik salohiyatini, uning ertangi kunga bo‘lgan ishonchini oshirish barchamizning, avvalo, rahbar va mutasaddilarning nafaqat vazifasi, balki muqaddas insoniy burchidir”[8].

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan millatlararo totuvlik siyosatidan ko‘zlangan maqsad – turli millat va elat vakillari o‘rtasida **do‘stlik va bag‘rikenglik muhitini yanada mustahkamlash, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash hamda xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini rivojlantirish**dan iborat. Shu o‘rinda aytish joizki, ***millatlararo totuvlik*** *bu – umumbashariy qadriyat bo‘lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqa va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, tinchlik va barqarorlikning kafolati bo‘lib xizmat qiladi [3., 103/].*

E’tiborli jihati, 2017 yilda mustaqil O‘zbekiston tarixida ilk bora mamlakatimizga BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining din va e’tiqod erkinligi bo‘yicha maxsus ma’ruzachisi Ahmad Shahid tashrif buyurdi. Uning tavsiyalari asosida 2018 yil 4 may kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi din va e’tiqod erkinligini ta’minlash bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlanib ijrosi yo‘lga qo‘yildi.

[8] https://oyina.uz/kiril/posts/7795#:~:text=%D0%B1%D0%B0%D1%80 (Мурожаат этилган сана: 3.07.2022.).

Xalqaro hamjamiyat mamlakatimizning millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash borasidagi faoliyatini yuqori baholadi va O‘zbekiston tajribasiga katta qiziqish bilan qaradi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017 yil 19 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta’minlash, e’tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslikka ko‘maklashishga qaratilgan “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklif etilishi hamda ushbu hujjatning 2018 yil 12 dekabrda qabul qilinishi bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Mazkur sohada olib borilgan islohotlar doirasida erishilgan muhim natijalardan biri sifatida 2018 yilda AQSH Davlat departamenti O‘zbekistonni diniy erkinlik borasida “alohida tashvish uyg‘otuvchi mamlakatlar” ro‘yxatidan chiqarganini ko‘rsatish mumkin.

2020 yil 13 oktyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi sessiyasida bo‘lib o‘tgan saylovlarda O‘zbekiston milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo‘yicha kengashi a’zoligiga uch yil muddatga – 2021-2023 yillarga saylandi. Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo bo‘lgan 193 davlatdan 169 tasi ovoz berganligi mamlakatimizda vijdon erkinligini ta’minlashda erishilgan ulkan tajribaga ko‘rsatilgan yuksak ehtiromdir.

Ta’kidlash joizki, ushbu saylovda eng ko‘p ovoz berilgan davlat O‘zbekiston bo‘lganligi, yurtimizda millati va dinidan qat’i nazar, inson

huquqlarini ta’minlashga qaratilgan, shu jumladan, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik sohasida olib borilayotgan siyosatning yuksak e’tirofidir.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan oqilona milliy siyosat natijasida tele-radio ko‘rsatuv va eshittirishlar 12 tilda efirga uzatilmoqda, gazeta va jurnallar 14 tilda chop etilmoqda hamda mamlakatimizdagi 10 000 tadan ortiq umumta’lim maktabining 2037 tasida ta’lim 7 tilda, ya’ni qoraqalpoq, rus, tojik, turkman, qirg‘iz va qozoq tillarida olib borilmoqda. Bundan tashqari, mamlakatimizdagi arman, grek, gruzin, koreys, polyak, rus, tatar, xitoy, yahudiy va boshqa milliy madaniy markazlarda tashkil etilgan “Yakshanba maktablari”da yoshlarga o‘z ona tili, urf-odatlari va an’analari, madaniyati va san’atidan saboq beriladi [4.].

Mamlakatda umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirish xususida Konstitutsiya, qonun ustuvorligi, demokratiya, inson huquqlari va erkinliklariga sodiqlik asosiy qadriyat sifatida belgilanadi. Fuqarolarda umumiy mas’uliyat va fidoyilik tuyg‘usini rivojlantirishi natijasida umumfuqarolik qadriyatlari shakllantirilishiga keng imkoniyat yaratildi. Kishilarning irqi, millati, tili, dini, jinsi yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, hammaga teng munosabatda bo‘lishga e’tibor qaratilishi [5., 13/], jamiyatda bag‘rikengliklik tuyg‘ularining kamol topishini ta’minladi.

Mustaqillik yillarida mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan har bir millat vakili munosib taqdirilanib kelmoqda. Jumladan, milliy madaniy markazlarning 500 dan ortiq faoli davlat mukofotlariga

sazovor bo‘ldi, orden va medallar bilan taqdirlandi, jumladan, 14 nafariga “O‘zbekiston Qahramoni” yuksak unvoni berildi [4.].

O‘zbekiston Respublikasining Yangilangan Konstitutsiyasida qayd etilganidek, “O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi” [5., 13.].

“O‘zbekiston–2030” strategiyasining (2026 yil 16 fevraldagi PF№21) beshta ustuvor yo‘nalishidan “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish” (5) yo‘nalishida belgilab berilgan Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatini xalq va davlatning manfaatlaridan kelib chiqqan holda izchil amalga oshirish (95-maqsad), Jamiyatda millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini rivojlantirish (100-maqsad)ga alohida e’tibor qaratadi [6.].

Asosiy qonunimiz va qonun hujjatlarida belgilangan qoidalarni hayotga keng tatbiq etish, millatlararo munosabatlar sohasida Yangi O‘zbekiston davlat siyosatini ro‘yobga chiqarish maqsadida samarali tizim yo‘lga qo‘yildi.

Jumladan, 2024 yilda o‘tgan saylovlar natijasida saylangan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyat, Toshkent shahar va tuman (shahar)lar Kengashlari deputatlarining 11,2 foizini mamlakatimizda yashayotgan boshqa millat vakillari tashkil qiladi. Ulardan 175 nafari tojik, 111 nafari qozoq, 33 nafari turkman, 29 nafari rus, 21 nafari qirg‘iz va boshqa millatga mansub [4.].

Mamlakatimiz tarixida ilk bor aralash saylov tizimi — majoritar va proporsional saylov tizimi asosida saylangan Qonunchilik palatasi deputatlarining 12,7 foizi - 5 nafari rus, 3 nafardan qozoq va tojik, 2 nafari koreys, 1 nafardan turkman va qirg‘iz millatiga mansubligi yurtimizda yashayotgan turli millat vakillari Yangi O‘zbekistonning bunyodkorlari ekanligidan dalolat beradi [4.].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 19 martdagi “Umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashni yangi bosqichga olib chiqishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-52 son Farmoni [7.] hamda mazkur farmon ijrosini ta’minlash maqsadida “O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-115-son Qarori [8.] chiqqanligi O‘zbekistonda umummilliy totuvlikni ta’minlash va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashni yangi bosqichga olib chiqishda muhim hujjat sanaladi.

Darhaqiqat, sohani tubdan isloh qilish to‘g‘risidagi Farmon asosida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi negizida **O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasi** tashkil etildi [9.].

Qo‘mitaning millatlararo munosabatlar hamda xorijdagi vatandoshlar masalalari sohasida davlat siyosatini amalga oshiruvchi, davlat organlari va tashkilotlarning ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini

muvofiqlashtiruvchi vakolatli respublika ijro etuvchi hokimiyat organi cifatida statusi oshirilib, vakolat va imkoniyatlari kengtirtirildi. Bu esa, o‘z navbatida, Yangi O‘zbekistonda millatlararo totuvlikni ta’minlashning muhim omili sanalgan umummilliy birdamlik tuyg‘ularini shakllantirishda yangi davrni boshlab berdi.

Bir so‘z bilan aytganda, mamlakatimizda millatlararo totuvlik siyosatini mustahkamlash maqsadi yo‘lida istiqomat qilayotgan millatlar uchun turli sohalarda faoliyat ko‘rsatishlari, teng huquqli erkin fuqaro sifatida bir butun holda yashashlari uchun davlatimiz tomonidan barcha sharoitlar yaratilganligining guvohi bo‘lamiz! Shu bois, mamlakatimizda turli millatga mansub yurtdoshlarimiz O‘zbekiston ularning Vatani ekanini tobora teranroq anglab yetmoqdalar, milliy madaniyatlarining gullab-yashnashini butun O‘zbekiston taraqqiyotining bir qismi sifatida qabul qilmoqdalar va islohotlarning amalga oshirilishiga o‘z hissalarini qo‘shishga intilmoqdalar.

Muxtasar qilib aytganda, Yagona va ko‘pmillatli xonadonimiz – jonajon O‘zbekistonimiz oldida barchamizning farzandlik burchimiz borligi ma’lum. Muqaddas o‘zbek diyorida yashovchi har bir kishi o‘zining ana shu burchini qalb qo‘ri, aql-idroki va iste’dodi bilan ado etishi ham qarz, ham farzdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 295-296.

2. https://oyina.uz/kiril/posts/7795#:~:text=%D0%B1%D0%B0%D1%80 (Мурожаат этилган сана: 3.07.2022.).

3. Қабилов Ш.Р. Маънавий оламни асраш қайғуси. Президент Ислом Каримовнинг «Юксак маънавият – енгилмас куч» асарини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. «O‘qituvchi», 2011. 101-б.
4. Ўзбекистон Республикаси Миллатлараро муносабатлар ва хориждаги ватандошлар масалалари бўйича Қўмитаси жорий архиви материаллари.
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023. – B.13.
6. “Ўзбекистон–2030” стратегияси (2026 йил 16 феврал). // Халқ сўзи, 2026 йил 17 феврал.
7. Янги Ўзбекистон газетаси, 2025 йил 21 март.
8. https://lex.uz/uz/docs/-7438958 (Мурожаат этилган сана: 09.07.2025.).
9. Янги Ўзбекистон газетаси, 2025 йил 21 март.

MILLIY MUSTAQILLIK – YANGI O‘ZBEKISTONNING MUSTAHKAM ASOSIDIR

Saitxodjayev Xusan Bekjanovich
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining
Quruqlikdagi qo‘shinlar instituti
Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik
kafedrasi professori, falsafa fanlari nomzodi, dotsent.

Ma’lumki, har yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligi bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida qarori e’lon qilinadi. Bu yil ham O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini keng

nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.04.2026 yildagi PQ-120-son qarori qabul qilindi. Qaror bilan **“Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!”**[1] degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan g‘oyaviy-badiiy konsepsiya va dastur tasdiqlandi.

Ushbu qarorda O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini munosib va tantanali nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish hamda uni yuqori saviyada o‘tkazish doirasida o‘tgan yillar davomida erishilgan yutuq va natijalarni, mamlakatimizning qudrati va salohiyati, xalqaro maydondagi obro‘-e’tibori tobora yuksalib borayotganini, amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini aholining keng qatlamlariga yanada chuqurroq yetkazish hamda xalqaro jamoatchilikka keng targ‘ib qilishga alohida e’tibor qaratilishi lozimligi ta’kidlangan.

Bugungi ilmiy-amaliy anjuman ham ana shu qarorlarda belgilangan vazifalarning amalda izchil ro‘yobga chiqarilayotganining yaqqol ifodasidir. Zero, bunday ilmiy anjumanlar mustaqilligimiz g‘oyalari, mamlakatimiz taraqqiyoti, amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati hamda ularning ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazishda muhim ma’rifiy va ilmiy muloqot maydoni bo‘lib xizmat qiladi.

Xo‘sh, mustaqillik nima? “Mustaqillik” degan so‘z atigi o‘n bir harfdan iborat. Biroq uning mazmun-mohiyati shunchalik kengki, uni bir necha jumla yoki bir necha sahifa bilan to‘liq ifodalash mushkul.

“Mustaqillik” tushunchasi turli ilmiy manbalarda uning siyosiy, huquqiy va falsafiy jihatlarini qamrab olgan holda talqin etiladi. Jumladan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da mustaqillik “**Mustaqil holat; bog‘liq, qaram bo‘lmagan holat; davlatning ichki va tashqi ishlarini boshqa davlatga qaram bo‘lmagan holda amalga oshirishi”[2] sifatida izohlanadi. “Jahon falsafasi qomusi”da esa mazkur tushuncha “Insonning erkin va ozod ravishda, o‘z ixtiyori bilan boshqalarga bo‘ysunmasdan faoliyat yuritishi, shuningdek, millat, davlat va jamiyat hayoti hamda taraqqiyotining ustuvor maqsad va vazifalarini mustaqil ravishda belgilab, amalga oshirishini anglatuvchi tushuncha”**[3.846] sifatida ta’riflanadi.

Mazkur ta’riflar mustaqillikning asosiy mazmun-mohiyatini to‘liq aks ettirsa-da, uning huquqiy tabiatiga alohida e’tibor qaratish muhimdir. Shu nuqtai nazardan, biziningcha, “**Mustaqillik – bu huquq”dir**. Chunki mustaqillik, eng avvalo, davlat, millat va xalqning o‘z taqdirini mustaqil belgilash, ichki va tashqi siyosatini erkin yuritish, milliy manfaatlarini himoya qilish hamda taraqqiyot yo‘lini mustaqil tanlash huquqini ifodalaydi. Agar ushbu huquq mavjud bo‘lmasa, mustaqillikning siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy mazmuni to‘liq ro‘yobga chiqmaydi. Demak, mustaqillik nafaqat siyosiy holat yoki falsafiy kategoriya, balki davlat suverenitetining huquqiy asosini tashkil etuvchi fundamental huquqiy qadriyat ham hisoblanadi.

Mustaqillik bizga o‘z taqdirimizni o‘zimiz belgilash huquqini berdi. U bizga erkin fikrlash, o‘z ona tilimizda so‘zlash, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, ta’lim olish, mehnat qilish, tadbirkorlik bilan shug‘ullanish, e’tiqod erkinligi va qonun bilan

kafolatlangan boshqa ko‘plab huquq hamda erkinliklarni taqdim etdi. Bugungi shu yerda erkin yig‘ilib, mustaqilligimiz haqida fikr almashayotganimiz, o‘z qarashlarimizni ochiq va erkin bayon etayotganimiz ham mustaqillikning buyuk samarasidir. Agar yurtimiz mustaqillikka erishmaganida, ehtimol, bugun biz mustaqillikning qadri, uning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyati haqida shunday erkin mulohaza yuritish imkoniyatiga ega bo‘lmas edik. Shuning uchun ham mustaqillik nafaqat davlatimizning siyosiy maqomi, balki har birimizning erkin fikrlashi, o‘z munosabatini erkin bildirishi va kelajakni mustaqil ravishda barpo etishi uchun mustahkam huquqiy va ma’naviy zamin yaratgan buyuk ne’matdir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida **“O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat”**[4], deb belgilab qo‘yilgan. Bu mustaqillikning eng asosiy huquqiy asosi ekanligidan dalolatdir.

Mustaqillik quyidagi muhim jihatlarda namoyon bo‘ladi: siyosiy mustaqillik; iqtisodiy mustaqillik; huquqiy mustaqillik; ma’naviy mustaqillik; madaniy mustaqillik; axborot xavfsizligi; milliy xavfsizlik. Mazkur yo‘nalishlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, davlat barqarorligi va taraqqiyotini ta’minlaydi.

“Mustaqillik” tushunchasining mazmun-mohiyatini to‘laqonli anglash uchun, avvalo, ***“milliy mustaqillik”*** tushunchasining ma’no-mazmunini, uning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini chuqur anglash lozim. Mustaqillik umumiy siyosiy-huquqiy kategoriya sifatida davlatning suverenligi va mustaqil taraqqiyotini anglatsa, milliy mustaqillik

xalqning milliy o‘zligini anglashi, milliy qadriyatlari, tili, madaniyati, tarixi va ma’naviy merosini saqlash hamda rivojlantirishga asoslangan keng qamrovli ijtimoiy-falsafiy hodisa hisoblanadi. Shu ma’noda milliy mustaqillik mustaqillikning eng muhim va mazmunan boy ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Demak, milliy mustaqillikni anglamasdan turib, mustaqillikning haqiqiy mazmun-mohiyatini to‘liq anglash mushkul.

Mustaqil davlat barqaror rivojlanishi uchun bir qator fundamental tamoyillarga tayanadi: Ularning eng muhimlari quyidagilardan iborat.

Birinchidan, davlat suvereniteti. Suverenitet mamlakatning ichki va tashqi siyosatini mustaqil belgilash, milliy manfaatlarini himoya qilish hamda xalqaro munosabatlarda teng huquqli subyekt sifatida ishtirok etishini ta’minlaydi. *Ikkinchidan*, qonun ustuvorligi. Huquqiy davlatning asosiy belgisi barcha davlat organlari va fuqarolarning Konstitutsiya hamda qonunlarga so‘zsiz amal qilishi hisoblanadi. Qonun ustuvorligi ta’minlangan jamiyatdagina adolat, tenglik va inson huquqlari to‘liq kafolatlanadi. *Uchinchidan*, inson qadrini yuksaltirish. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida inson manfaatlari davlat siyosatining markaziga qo‘yilgan. Bu esa mustaqillikning ijtimoiy mazmunini yanada boyitadi. *To‘rtinchidan*, milliy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillar uyg‘unligi. Mustaqil davlat o‘z milliy an’analariga tayangan holda jahon sivilizatsiyasi yutuqlarini ham qabul qiladi. Bu jarayon milliy taraqqiyotning barqarorligini ta’minlaydi. *Beshinchidan*, ochiqlik va xalqaro hamkorlik. Zamonaviy dunyoda hech bir davlat tashqi aloqalarsiz rivojlana olmaydi. Shu sababli mustaqillik

tashqi dunyodan uzilish emas, balki milliy manfaatlar asosida teng huquqli hamkorlikni anglatadi.

Milliy mustaqillikning tarixiy ahamiyati shundan iboratki, eng avvalo: milliy davlatchilik tiklandi, davlat ramzlari qabul qilindi, milliy armiya tashkil etildi, milliy valyuta joriy qilindi, Konstitutsiya qabul qilindi, bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni boshlandi, tashqi siyosatda mustaqil yo‘l belgilandi. Shu bilan birga, xalqning milliy qadriyatlari, urf-odatlari, diniy bag‘rikenglik va ma’naviy merosi qayta tiklandi. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Amir Temur kabi buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy va ma’naviy merosi chuqur o‘rganila boshlandi. Mustaqillik tufayli milliy o‘zlikni anglash jarayoni yanada kuchaydi. Yosh avlodda Vatanga muhabbat, milliy g‘urur va fidoyilik tuyg‘ulari shakllantirildi.

“Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi 2016 yildan boshlab mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichini ifoda etuvchi konsepsiya sifatida shakllana boshladi. U 2017–2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi orqali amaliy mazmun kasb etdi va 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi qabul qilinishi bilan davlat taraqqiyotining ustuvor g‘oyasi sifatida mustahkamlandi. Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida milliy mustaqillikning o‘rni sezilarli darajada ortib bormoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda “***Inson qadri uchun”*** degan ezgu tamoyil asosida Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Yangi O‘zbekiston g‘oyasining markazida ***inson manfaatlari, adolatli jamiyat, kuchli iqtisodiyot va ochiq davlat boshqaruvi turibdi.*** Bu islohotlarning asosiy

yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish; sud-huquq tizimini takomillashtirish; korrupsiyaga qarshi kurash; raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish; ta’lim tizimini isloh qilish; ilm-fan va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash; xususiy mulk daxlsizligini ta’minlash; tadbirkorlikni rivojlantirish; kambag‘allikni qisqartirish. Bu jarayonlar mustaqillikning mazmunini yanada boyitib, uning amaliy ahamiyatini kuchaytirmoqda.

Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – mustaqillik kafolati. Huquqiy davlat qurish mustaqillikning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi. 2023 yilda umumxalq referendumi asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya inson qadri, ijtimoiy davlat tamoyili va inson huquqlarini yanada mustahkamladi. Konstitutsiyada: inson huquqlari oliy qadriyat sifatida belgilandi; ijtimoiy davlat prinsiplari kuchaytirildi; ta’lim va tibbiyot sohalari kafolatlari kengaytirildi; xususiy mulk himoyasi mustahkamlandi; fuqarolarning ijtimoiy huquqlari kengaytirildi. Bu islohotlar mustaqillikning huquqiy poydevorini yanada mustahkamlamoqda.

Milliy qadriyatlar va ma’naviyat – mustaqillik poydevori. Har qanday davlatning taraqqiyoti, eng avvalo, uning ma’naviyati bilan belgilanadi. Mustaqillik yillarida: milliy an’analar qayta tiklandi, davlat tilining nufuzi oshdi, milliy bayramlar keng nishonlanmoqda, tarixiy obidalar qayta ta’mirlandi, diniy erkinlik ta’minlandi, ma’naviy-ma’rifiy ishlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Yoshlarda Vatanga muhabbat, milliy g‘urur, fuqarolik mas’uliyati, bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik tuyg‘ularini shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: “**Yangi O‘zbekistonni faqat bilimli, vatanparvar va yuksak ma’naviyatli yoshlar bilan birgalikda barpo etamiz”**,[5] deb bejizga ta’kidlamaydi. Bu g‘oya mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning ma’naviy asosini tashkil etadi.

Milliy xavfsizlik va mustaqillik. Zamonaviy dunyoda davlat mustaqilligini saqlash faqat qurolli kuchlar bilan emas, balki iqtisodiy barqarorlik, axborot xavfsizligi, kiberxavfsizlik, ma’naviy immunitet va aholi birdamligi bilan ham ta’minlanadi. Shu nuqtai nazardan: milliy armiyani modernizatsiya qilish; axborot makonini himoya qilish; ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash; millatlararo totuvlikni saqlash; diniy bag‘rikenglikni ta’minlash; mamlakat xavfsizligining muhim yo‘nalishlari hisoblanadi.

Xalqaro maydonda O‘zbekistonning nufuzi. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston jahon hamjamiyatining teng huquqli a’zosiga aylandi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi 100 dan ortiq xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar hamda moliyaviy institutlar bilan samarali hamkorlik qilib kelmoqda. 159 ta davlati bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatgan bo‘lib, mamlakatning ochiq, pragmatik va o‘zaro manfaatli tashqi siyosati natijasida xalqaro maydondagi nufuzi va hamkorlik geografiyasi izchil kengayib bormoqda. O‘zbekistonning ochiq va pragmatik tashqi siyosati mamlakatimiz nufuzini yanada oshirmoqda.

Xulosa. Milliy mustaqillik – xalqimizning eng buyuk tarixiy yutug‘i, milliy taraqqiyotning mustahkam poydevori va Yangi O‘zbekistonni barpo etishning bosh omilidir. Mustaqillik tufayli mamlakatimizda demokratik davlatchilik tizimi shakllandi, iqtisodiyot

barqaror rivojlanmoqda, inson huquqlari kafolatlanmoqda, milliy qadriyatlar tiklandi va xalqaro maydonda O‘zbekistonning obro‘-e’tibori yuksaldi.

Bugungi kunda har bir fuqaroning muqaddas burchi – mustaqillikni asrab-avaylash, uning qadriga yetish, Vatan ravnaqu uchun halol mehnat qilish va Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishdan iborat. Mustaqillik – bu faqat bayram emas, balki ulkan mas’uliyat, yuksak ishonch va har bir fuqaroning Vatan oldidagi muqaddas burchidir. Uni asrash, mustahkamlash va kelgusi avlodlarga yanada qudratli davlatni meros qilib qoldirish barchamizning umumiy vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.04.2026 yildagi 120-sonli qarori.

2. https://izoh.uz/word/mustaqillik. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.

3. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. –T.: 2023. B. 846.

4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent.: 2023 1-modda.

5. https://lex.uz/uz/docs/5219940/ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ ТАРАҚҚИЁТНИНГ ЯНГИ БОСҚИЧИ: КЕНГ ҚАМРОВЛИ ИСЛОҲОТЛАРНИНГ МУҲИМ НАТИЖАЛАРИ.

Худойқулов Йўлчи Азамқулович

Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети "Ижтимоий-гуманитар фанлар" кафедраси доценти, фалсафа фанлари номзоди, доцент.

Ислоҳотларнинг янги босқичи — бу шунчаки янги дастурлар ёки лойиҳалар эмас. Бу — давлат ва инсон ўртасидаги муносабатларнинг тубдан янгиланиши, бошқарувнинг марказига оддий фуқаро манфаати қўйилиши демакдир. Аввал одам идора эшигини қоқиб, ёрдам сўраб борса, энди идора ходими одамнинг олдига келиб, «сизга қандай кўмак берай?» деб сўрайдиган замон бошланди. Мана шу оддий, аммо туб ўзгариш — бутун ислоҳотларнинг калитидир.

Соғлиқни сақлаш тизимидаги ўзгаришлар ҳам инсон қадрини улуғлашнинг ёрқин намунасидир. Тиббий муассасалар замонавийлаштирилди, тез тиббий ёрдам хизмати янгиланди, аҳолини профилактик кўрикдан ўтказиш кенг йўлга қўйилди. Оналик ва болаликни муҳофаза қилиш, кам таъминланган оилаларга бепул тиббий хизмат кўрсатиш давлатнинг доимий эътиборида. Инсоннинг соғлиги, унинг тинч ва хавфсиз ҳаёти — булар давлат ғамхўрлигининг марказида турибди. «**Инсон – жамият – давлат»** - мана шу уч сўзда бугунги ислоҳотларнинг бутун фалсафаси мужассамлашгандир.

Ҳар қандай бинонинг мустаҳкамлиги пойдеворига боғлиқ бўлганидек, ҳар қандай давлатнинг қудрати ўз фуқаросига бўлган муносабатидан бошланади. Янги Ўзбекистонда инсон, унинг ҳаёти, эркинлиги, шаъни ва қадр-қиммати олий қадрият деб эълон қилинди. Бу ғоя 2023 йил 30 апрелда умумхалқ референдумида қабул қилинган янги таҳрирдаги Конституциямизнинг ўзагига айланди. Асосий Қонунимиз энди ҳар бир инсоннинг ҳимоячиси, унинг ҳақ-ҳуқуқларининг кафилидир.

Бу сўзлар қоғозда қолиб кетмади. Ижтимоий ҳимоя тизими бутунлай янги босқичга кўтарилди. «Темир дафтар», «Аёллар дафтари», «Ёшлар дафтари» каби ташаббуслар орқали ёрдамга муҳтож ҳар бир оила аниқланиб, унга манзилли кўмак кўрсатила бошланди. Ким қийналаётган бўлса — ёлғиз она, ногиронлиги бор инсон, кам таъминланган хонадон — ҳеч бири давлат эътиборидан четда қолмайдиган бўлди.

Натижалар эса ўзини кутдирмади. Агар бир неча йил аввал мамлакатда камбағаллик даражаси 23 фоизни ташкил этган бўлса, изчил саъй-ҳаракатлар туфайли бу кўрсаткич 2024 йил якунида 8,9 фоизга, кейинчалик эса янада пасайиб борди. Бир сўз билан айтганда, етти ярим миллиондан зиёд ватандошимиз камбағаллик исканжасидан халос бўлди. Бу — қуруқ рақам эмас, балки миллионлаб оилаларнинг дастурхонига кирган барака, болалар юзидаги табассум, эртанги кунга бўлган ишончдир.

Бу натижаларга осонликча эришилмади. Ҳар бир маҳаллага бориб, муҳтож оилаларни аниқлаш, уларга иш ўрни яратиш, тадбиркорликка йўналтириш, зарур бўлса — бепул касб ўргатиш

йўлга қўйилди. Оғир кунларда, масалан, жаҳонни ларзага солган пандемия даврида давлат ўз фуқаросини ёлғиз қолдирмади: юз минглаб оилаларга бепул дори-дармон, озиқ-овқат ва ижтимоий нафақалар етказиб берилди. Миллионлаб инсонлар «камбағаллик қопқони»га тушиб қолишдан асраб қолинди. Мана шу — инсонни улуғлаган давлатнинг асл қиёфасидир.

Дарахт мевасидан танилганидек, ислоҳотлар ўз самарасидан билинади. Иқтисодиётимиз сўнгги йилларда икки баробар ўсди, жон бошига тўғри келадиган даромад уч ярим минг долларга яқинлашди. Бу ортда эса тинимсиз меҳнат, тадбиркорликка очилган кенг йўл ва одамларнинг ўз кучига бўлган ишончи туради.

Илгари ишбилармон одам ҳар қадамда тўсиққа урилса, бугун унга «қани, ишлаб кўр, биз сенга ёрдам берамиз» деб қўл чўзилмоқда. Тадбиркорларга солиқ имтиёзлари, арзон кредитлар, ер участкалари ажратилмоқда. Ҳар бир маҳаллага бизнес муҳитини олиб кириш, ҳар бир оилани даромад манбаи билан таъминлаш давлат сиёсатининг устувор йўналишига айланди. Қишлоқларда одамларга томорқа учун ер берилди, серзомин экинлар экиш ва уни кафолатли сотиб олиш тизими йўлга қўйилди.

Янги заводу фабрикалар, замонавий йўллар, кўприклар, электр тармоқлари — булар қоғоздаги режа эмас, кўз ўнгимизда бунёд бўлаётган воқеликдир. Ҳар бир очилган корхона минглаб ватандошларимизга иш ўрни, оилаларга ризқ-рўз демакдир. Ишсизлик даражаси йилдан-йилга камайиб, миллионлаб фуқаролар муносиб иш билан таъминланмоқда. Инфратузилма ривожланиб,

энг чекка қишлоқларгача тоза ичимлик суви, табиий газ ва интернет етиб бормоқда.

Буюк келажак мактаб партасидан, боғча остонасидан бошланади. Аждодларимиз бешик берган илм-фан юртида бугун янги бир уйғониш — Учинчи Ренессанс куртаклари ниш урмоқда. Бу борадаги ўзгаришлар ҳар қандай одамни ҳайратга солади.

Мана, айрим рақамларга эътибор беринг. Бир пайтлар бутун мамлакатда атиги 5 минг 200 та боғча бўлган бўлса, бугун уларнинг сони 38 мингтага етди — қарийб саккиз баробар кўпайди! Мактабгача таълим қамрови 27 фоиздан 78 фоизга кўтарилди. Бу — юз минглаб болакайларнинг мактабга пухта тайёрланиб бораётгани, оналарнинг эса меҳнат қилиш ва ўз салоҳиятини рўёбга чиқариш имконига эга бўлаётгани демакдир.

Олий таълим соҳасидаги ўзгаришлар эса бениҳоя. Университетлар сони 77 тадан 202 тага, талабалар сони эса 250 мингдан бир ярим миллионга ошди. Энди ёшларимиз олий маълумот олиш учун узоқ юртларга кетишга мажбур эмас — сифатли таълим уларнинг ёнида. Президент мактаблари, ижод ва ихтисослаштирилган мактабларнинг иқтидорли битирувчилари дунёнинг Гарвард, Принстон, Кембриж каби энг нуфузли даргоҳларига грант асосида ўқишга кирмоқда. Бу — Ўзбекистон ёшларининг жаҳон майдонида беллаша олишини кўрсатувчи ёрқин далил.

Ёшлар сиёсати давлатимизнинг бош устувор йўналишларидан бирига айланди. Ёшларни қўллаб-қувватлаш, уларнинг билим ва салоҳиятини оширишга кенг имконият яратиш, тадбиркорлигини

рағбатлантириш — булар эртанги кунимизга қўйилаётган мустаҳкам пойдевордир. Зеро, аҳолимизнинг ярмидан кўпи ёшлар экан, уларнинг келажаги — миллатнинг келажагидир.

Соғлом жамиятни танасидаги қон айланишига қиёслаш мумкин — фикр эркин айланса, жамият ҳам соғлом бўлади. Сўнгги йилларда одамлар ўз фикрини дадил айтадиган, муаммосини очиқ кўтарадиган бўлди. Ижтимоий тармоқлар, оммавий ахборот воситалари жамиятнинг ойнасига айланди. Танқид энди айб эмас, балки камчиликларни бартараф этиш, ишни яхшилаш воситаси сифатида қабул қилинмоқда.

Давлат органлари халққа бекиёс яқинлашди. Президентнинг Халқ қабулхоналари ва виртуал қабулхонаси орқали ҳар бир фуқаро ўз дарди ва таклифини бевосита давлат раҳбариятига етказиш имконига эга бўлди. Мансабдорнинг иши энди «одамлар ташвиши билан яшаш» тамойили асосида баҳоланмоқда. Кимки халқ хизматини лозим даражада бажармаса, ундай раҳбар ўз ўрнини бўшатишга мажбур.

Айниқса, маҳалла тизимининг кучайгани алоҳида эътиборга молик. Асрлар давомида халқимизнинг таянчи, ўзаро ёрдам ва ҳамжиҳатлик маскани бўлган маҳалла яна оила ва давлат ўртасидаги мустаҳкам кўприк вазифасини тиклади. Маҳалладаги «Ёшлар етакчиси», «Хотин-қизлар фаоли», маҳалла раиси — булар одамларнинг дарду ташвишини биринчи бўлиб эшитадиган, уларга ёрдам қўлини чўзадиган инсонлардир. Давлат маҳаллаларни ривожлантиришга, уларнинг инфратузилмасини яхшилашга катта маблағ йўналтирмоқда.

Янги Ўзбекистон — бу бир кишининг ёки бир гуруҳ одамнинг эмас, балки бутун бир миллатнинг умумий асаридир. Уни осмондан фаришталар қуриб бермайди. Уни биз — ҳар бир меҳнаткаш деҳқон, фидойи ўқитувчи, меҳрибон шифокор, ташаббускор тадбиркор, билимли ёш ўз меҳнати, ҳалоллиги ва Ватанга бўлган чексиз садоқати билан барпо этамиз.

Албатта, олдинда ҳали қилиниши керак бўлган ишлар кўп. Ҳар қандай улуғ иш каби, бу йўлда ҳам қийинчилик ва синовлар учрайди. Аммо энг муҳими — йўналиш тўғри танланган, мақсад аниқ, иродамиз бут. Биз бошлаган эзгу ишлар авлодларимиз ҳаётини янада фаровон, юртимизни янада қудратли қилишига шак-шубҳа йўқ.

Фойдаланилган адабиётлар.

1)Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2017.

2)Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.

3)Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистонда эркин ва фаровон яшайлик. 5-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2023.

4)Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. – Т.: Ўзбекистон, 2022.

YANGI O‘ZBEKISTONDA TA’LIM –TARBIYA, ILM-FAN SOHASIDA OLIB BORILGAN ISLOHOTLAR, NATIJALAR, MUOMMO VA KELAJAK STRATEGIYASI

Turayeva Sayyora Rustambayevna

O‘zbekiston Respublikasi

Jamoat xavfsizligi Universiteti,

professori, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Bugungi kunda mamlakat taraqqiyotini faqat tabiiy resurslar, iqtisodiy imkoniyatlar yoki moliyaviy kapital bilan belgilab bo‘lmaydi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, barqaror taraqqiyotning eng muhim omili — insonning bilimi, tafakkuri, kasbiy mahorati va yaratuvchanlik qobiliyatidir. Shu ma’noda, Yangi O‘zbekistonda ta’lim va ilm-fanni rivojlantirish davlat siyosatining strategik yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan, ilk kunlaridan ta’lim tizmini isloh qilishga e’tibor qaratda. Bir necha bosqichda ta’lim to‘g‘ristdagi qonunga o‘zgartirish kiritilib takomillashtirildi. Mustaqil O‘zbekiston tarixida **«Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun 3 marta asosiy yangi tahrirda qabul qilingan**:

1992 yil 2 iyul — mustaqil O‘zbekistonning birinchi «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni qabul qilingan edi. U 44 moddadan iborat bo‘lgan. **1997 yil 29 avgust** — yangi tahrirdagi «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi. SHu kuni «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida»gi qonun ham qabul qilingan. **2020 yil 23 sentyabr** — hozirgi amaldagi «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun **O‘RQ-637-son** bilan qabul qilindi. U 75

moddadan iborat bo‘lib, avvalgi 1997 yilgi qonunni bekor qilgan. YAngi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi **2023 yil 30 aprelda referendum orqali qabul qilingan**. Unda ta’limga oid asosiy qoidalar **50–52-moddalarda** mustahkamlangan. Ushbu o‘zgarishlar mamlakatimizda inson intellektual salohiyatini oshirishga, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan maqsadli o‘zgarishlardir.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’limni inson kapitalini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida baholab, rivojlangan davlatlarda bolaning ta’limi va tarbiyasiga kiritilgan investitsiya jamiyatga yuqori iqtisodiy va ijtimoiy samara berishini ta’kidlaydi.[1, 224-b.] Bu yondashuv ta’limni oddiy ijtimoiy soha emas, balki milliy taraqqiyotning uzoq muddatli investitsiyasi sifatida ko‘rish zarurligini anglatadi.

Yangi O‘zbekiston g‘oyasining markazida inson qadri, uning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, bilimli va mustaqil fikrlaydigan avlodni tarbiyalash maqsadi turibdi. Shu sababli maktabgacha ta’limdan tortib oliy ta’lim va ilmiy tadqiqotlargacha bo‘lgan yagona zanjirni takomillashtirishga katta e’tibor berilmoqda.

Ta’lim-tarbiya tizimidagi islohotlarning asosiy yo‘nalishlari

So‘nggi yillarda O‘zbekiston ta’lim tizimida institutsional va mazmuniy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Maktabgacha ta’lim qamrovini kengaytirish, umumiy o‘rta ta’lim mazmunini yangilash, ixtisoslashtirilgan va Prezident maktablarini rivojlantirish, oliy ta’lim muassasalari sonini ko‘paytirish hamda ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish ana shunday islohotlarning asosiy ko‘rinishlaridir.

Ayniqsa, maktab ta’limida o‘quvchining faqat ma’lumotni yodlab olishi emas, balki uni tahlil qilish, mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish va yangi g‘oyalarni ilgari surish qobiliyatini shakllantirishga e’tibor kuchaymoqda. Bu esa ta’limning reproduktiv modelidan kompetensiyaviy yondashuvga bosqichma-bosqich o‘tishni talab qiladi.

Prezidentning 2024 yildagi ta’lim sohasiga oid taqdimotida “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ta’lim tizimi islohotlari eng ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangani qayd etilgan. Mamlakatda Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘i kengayib, ularda zamonaviy va aniq fanlarga ixtisoslashgan ta’lim modellari joriy etilmoqda. Oliy ta’limda ham miqdoriy o‘sish bilan bir qatorda mazmuniy o‘zgarishlarga e’tibor qaratilmoqda. Xususan, ta’lim dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, dual ta’limni rivojlantirish, zamonaviy kasb va mutaxassisliklarni joriy qilish hamda oliy ta’lim muassasalarining ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorligini kuchaytirish dolzarb vazifaga aylandi.

2025 yilda oliy ta’lim sohasida 1200 dan ortiq ta’lim dasturining xalqaro andozalarga moslashtirilgani, yangi muhandislik va texnologik yo‘nalishlar ochilgani qayd etildi. Shuningdek, dual ta’lim doirasida talabalarni korxonalarga biriktirish ishlari kengaytirilmoqda. Ta’limning sifati uning tarbiyaviy mazmunidan ajralgan holda tasavvur qilinishi mumkin emas. Bilimli, ammo ijtimoiy mas’uliyat hissi past bo‘lgan shaxs jamiyat taraqqiyotiga kutilgan darajada hissa qo‘sha olmaydi. SHu bois YAngi O‘zbekiston ta’lim siyosatida bilim bilan birga vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga hurmat, mehnatsevarlik,

tashabbuskorlik va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirishga ham ahamiyat berilmoqda.

Yoshlar bilan ishlashda “Besh tashabbus”, “Zakovat”, talabalar sport ligasi va ma’naviy-ma’rifiy loyihalarning yo‘lga qo‘yilishi ta’lim-tarbiya jarayonini auditoriya bilan cheklab qo‘ymaslikka xizmat qilmoqda. 2025 yilda ham yoshlarning intellektual, ma’naviy va sport loyihalariga jalb etilishini yanada kengaytirish vazifalari belgilangan. Bunday yondashuvning muhim jihati shundaki, yosh avlodda nafaqat kasbiy bilim, balki ijtimoiy faollik va tanqidiy tafakkur ham shakllantiriladi. Zero, kelajakda mamlakatni boshqaradigan, yangi texnologiyalar yaratadigan va ilmiy kashfiyotlarni amalga oshiradigan avlodning intellektual salohiyati bilan bir qatorda ma’naviy qiyofasi ham muhimdir.

Intellektual tadqiqotlar va ilm-fan sohasidagi o‘zgarishlar

YAngi O‘zbekistonda ilm-fanni rivojlantirish ta’lim islohotlarining mantiqiy davomi sifatida qaralmoqda. Universitet, ilmiy-tadqiqot instituti va ishlab chiqarish o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash orqali ilmiy natijalarni amaliyotga tatbiq etish maqsad qilinmoqda.

Prezident asarlarida ham mamlakat taraqqiyoti uchun zamonaviy ilm-fan yutuqlarini o‘zlashtirish, yangi ilmiy maktablarni shakllantirish va iqtidorli yoshlarni tadqiqotchilikka jalb qilish zarurligi ta’kidlangan.[2, 211–212-b.] Bu g‘oya bugungi kunda ilmiy-tadqiqotlarni grant asosida qo‘llab-quvvatlash, doktorantura tizimini takomillashtirish va ilmiy natijalarni iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etish jarayonlarida namoyon bo‘lmoqda.

Fanlar akademiyasi tizimida yangi ilmiy tashkilotlarning tashkil etilishi, ilmiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, olimlar va yosh tadqiqotchilarni rag‘batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ilm-fanning institutsional salohiyatini oshirdi. 2023 yilda rasmiy ma’lumotlarda Akademiya tizimidagi muassasalar soni qariyb 1,5 barobar ko‘paygani, doktorlar va ilmiy xodimlarni moddiy rag‘batlantirish choralari kuchaytirilgani qayd etilgan. Shu bilan birga, intellektual tadqiqotlarning haqiqiy samarasi faqat maqolalar yoki dissertatsiyalar soni bilan emas, balki ularning ilmiy yangiligi, amaliy qiymati va iqtisodiyot hamda ijtimoiy sohalardagi muammolarni hal etishdagi hissasi bilan o‘lchanishi kerak.

Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 29 oktyabrda “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishishi mamlakatimizda ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risidagi munosabatlarni tartibga solishda muhim qadam bo‘ldi.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabda qabul qilingan “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi (PF-6097) Farmonida, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, ilmiy-intellektual hamda moliyaviy resurslarni to‘liq safarbar etgan holda ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, istiqbolda ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish maqsad etib belgilandi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev boshchiligida ilm-fan va innovatsion tadqiqotlarni rivojlantirish borasida tub burilishga ega bo‘lgan ijobiy islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘z navbatida mamlakatimizda ilm-fanni yanada rivojlantishga va ilmiy tadqiqotlarni qamrovini kengaytirishga talab va zaruriyat oshib bormoqda. Shu bilan birga ilm-fanni rivojlanishini ta‘minlash borasidagi o‘zgarishlar ushbu soha bo‘yicha yetarli bilim, ko‘nikmaga va tajribaga ega bo‘lgan mutaxassislarga ham ehtiyojning ortishiga olib keladi.

Davlat rahbari tomonidan “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim- tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni (2020 y. 6 noyabr PF-6108) ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon Intellektual Mulki Tashkiloti (WIPO) tomonidan nashr etilgan 2025 yilgi Global innovatsiyalar indeksi (GII) hisobotida 139 davlatning innovatsion rivojlanish ko‘rsatkichlari hamda dunyo miqyosidagi 100 ta yirik innovatsiya klasterining faoliyati chuqur tahlil qilindi. Yangi O‘zbekistonda ilm- fan taraqqiyotiga katta e’tibor qaratilmoqda Oxirgi e'lon qilingan Global innovatsiyalar indeksi–2025 yil hisobotiga ko‘ra, O‘zbekiston 139 ta mamlakat orasida **79-o‘rinni** egalladi. Shuningdek, mamlakatimiz ushbu reytingda Markaziy Osiyo mintaqasi bo‘yicha yetakchi deb topilgan[9]. Markaziy Osiyo davlatlari bo‘yicha GIIda O‘zbekiston 79-o‘rin (2020 yilga nisbatan 14 pog‘ona yuqori) bilan liderlikni egallagan. Undan keyin Qozog‘iston (81-o‘rin), Qirg‘iziston (96-o‘rin) va Tojikiston (108-o‘rin) ketma-ketlikdan joy olgan. O‘zbekiston “Tadbirkorlik siyosati va madaniyati” (3-o‘rin)

[9] Review.uz

“Mehnat unumdorligi o‘sishi” (6-o‘rin), startaplarni moliyalashtirish (6-o‘rin), **“Fan va muhandislik yo‘nalishlari bo‘yicha bitiruvchilar “** soni (13-o‘rin) va **"YaIMning ta’limga xarajatlar ulushi"** (24-o‘rin) indikatorlari bo‘yicha 139 ta mamlakat ichida ijobiy natijani qayd etgan. Bu iqtisodiy samaradorlikning ortib borayotganidan dalolat beradi.

O'zbekistonda davlat tomonidan ta'limga yo'naltiriladigan xarajatlar Yalpi ichki mahsulotning (YaIM) **5,5% dan 6,5% gacha** bo'lgan qismini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich xalqaro miqyosda inson kapitalini rivojlantirish va ta'lim sifatini yaxshilash uchun belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga mos keladi. Biroq, ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga sarmoyalar ulushi (98-o‘rin), adabiyot, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha PISA shkalasi (84-o‘rin), kam uglerodli energiyadan foydalanish (118-o‘rin) kabi indikatorlar pastligicha qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmoniga muvofiq O‘zbekiston 2030 yilga qadar Global innovatsiya indeksi da Top-50 talik mamlakatlar ro‘yxatiga kirishi belgilangan. Bu maqsadga yoshlarimiz ildam qadam bilan doimo o‘z ustida ishlab, ilg‘or bilimlarni egallashga sayi -harakat qilishi lozim.

Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari uchun ilg‘or yechimlarni yarata oladigan yangi avlod ilmiy kadrlarni tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish, ilmiy kengashlar faoliyatida zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish, izlanuvchilarni tayyorlashda ustuvorlik mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi ijrosini ta’minlash maqsadida 2026 yil 26 mayda “Yangi avlod ilmiy kadrlarni tayyorlash va ularni attestatsiya qilish

tizimini takomillashtirish” (PF98) to‘g‘risida Prezident farmoni qabul qilindi. Ilmiy darajaga talabgor nomzodlarga qo‘yilgan talablarda o‘zgarishlar e’lon qilindi. Ushbu Farmonning asosiy maqsadi oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimini takomillashtirish, doktorantlar tayyorlash jarayonlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, dissertatsiya tadqiqotlarining sifati, ilmiy va amaliy ahamiyatini oshirish hisoblanadi. **Ilmiy kadrlar tayyorlashning quyidagicha ustuvor yo‘nalishlari belgilab olindi:** (a) raqamli va axborot texnologiyalari, jumladan, sun’iy intellekt, kiberxavfsizlik, ma’lumotlar tahlili va raqamli yechimlarni ishlab chiqish; (b) atom va qayta tiklanuvchi energiya manbalari, shu jumladan, vodorod texnologiyalari, energiya tejamkorligi va energiyani saqlash tizimlari;(v) agroinnovatsiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi, urug‘chilik, seleksiya, gen texnologiyalari; (g) tibbiyot va biotexnologiyalar, jumladan, biomeditsina, genetika, farmatsevtika, telemeditsina va yuqumli kasalliklarning oldini olish; (d) suv resurslaridan oqilona foydalanish va iqlimga barqarorlikni ta’minlash, jumladan, cho‘llanishning oldini olish va iqlim o‘zgarishiga moslashish; (j) yangi materiallar va ilg‘or ishlab chiqarish texnologiyalari, shu jumladan, nanotexnologiyalar, additiv ishlab chiqarish, robototexnika va avtomatlashtirilgan tizimlar; (z) seysmik xavfsizlikni ta’minlashdir.

Bugungi kun tadqiqotchisi zamonaviy ilm - fan metodlarining kun sayin taraqqiy etayotgan yangi usullarini o‘z tadqiqotlarida qo‘llay olishi ko‘zda tutilgan. Jumladan, axborat asri bo‘lgan hozirgi zamaonda tadqiqotchi suniy intellektdan foydalanish madaniyatini va jarayonini o‘rgangan bo‘lishi davr taqazosidir. Suniy intellekt imkoniyatlaridan

to‘g‘ri foydalanish tadqiqotchidan o‘ziga xos bilim, malaka va ko‘nikmalarni talab qiladi.

Amalga oshirilgan islohotlar natijasida ta’lim tizimida bir qator ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda.

Birinchidan, ta’lim bilan qamrov sezilarli darajada oshdi. Ayniqsa, maktabgacha ta’limda qamrovning kengayishi bolalarni erta yoshdan rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. 2024 yilda maktabgacha ta’lim qamrovi 74,6 foizga etgani va keyingi besh yilda uni 80 foizgacha oshirish maqsad qilingani ma’lum qilingan. Ikkinchidan, oliy ta’lim olish imkoniyatlari kengaydi. Yangi universitetlar va filiallarning tashkil etilishi, ta’lim shakllarining diversifikatsiya qilinishi hamda xorijiy universitetlar bilan hamkorlikning rivojlanishi yoshlarning zamonaviy bilim olish imkoniyatlarini oshirdi.

Uchinchidan, ilmiy faoliyatni rag‘batlantirish mexanizmlari kuchaydi. Olimlar, professor-o‘qituvchilar va doktorantlarning moddiy qo‘llab-quvvatlanishi ilmiy kasbning jozibadorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

To‘rtinchidan, xalqaro hamkorlik kengaymoqda. Xorijiy universitetlar bilan qo‘shma dasturlar, xalqaro akkreditatsiya, ilmiy loyihalar va akademik almashinuvlar O‘zbekiston ta’lim tizimining global ta’lim makoniga integratsiyalashuvini tezlashtirmoqda.

Sohada saqlanib qolayotgan muammolar

Shunga qaramay, ta’lim va ilm-fan sohasida hal qilinishi zarur bo‘lgan muammolar mavjud.

Eng avvalo, ta’lim qamrovining oshishi avtomatik ravishda ta’lim sifati oshganini anglatmaydi. Ta’lim sifatida hududlar o‘rtasidagi

tafovut, pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi, o‘quv-metodik materiallarning sifatini yaxshilash va zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish masalalari dolzarbligicha qolmoqda.

Ikkinchi muhim muammo — ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiyaning hali etarli darajaga etmaganidir. 2025 yildagi rasmiy muhokamalarda oliy ta’lim muassasalarida ilmiy salohiyat 41 foizdan 45 foizga oshgani bilan birga, ayrim tadqiqotlar sanoat va ishlab chiqarishdagi zamonaviy tendensiyalarni etarlicha qamrab olmayotgani qayd etilgan.

Uchinchi muammo — akademik halollik masalasi. Ilmiy maqola, dissertatsiya va boshqa tadqiqot ishlarida manbadan to‘g‘ri foydalanish, iqtibos keltirish, mualliflik huquqiga rioya qilish va mustaqil ilmiy fikr yuritish madaniyatini kuchaytirish zarur.

To‘rtinchi muammo — ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish. Universitetda yaratilgan innovatsiya laboratoriya doirasida qolib ketmasdan, patent, startap, texnologiya yoki raqobatbardosh mahsulotga aylanishi kerak.

Kelajak strategiyasi: bilimdan innovatsiyaga

Yaqin istiqbolda O‘zbekiston ta’lim va ilm-fan siyosati “bilim berish” modeli bilan cheklanib qolmasdan, “bilim yaratish — innovatsiyaga aylantirish — iqtisodiy va ijtimoiy samara olish” zanjiriga asoslanishi maqsadga muvofiq.

2026 yilda oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflarda 10 ta oliy ta’lim tashkilotiga milliy tadqiqot universiteti maqomini berish, ularda ilmiy klasterlar tashkil

etish, ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishda ustuvor yo‘nalishlarga e’tiborni kuchaytirish va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishni kengaytirish rejalari belgilandi.

Kelajak strategiyasida quyidagi vazifalar ustuvor bo‘lishi lozim:

1. Maktab ta’limi sifatini birinchi o‘ringa qo‘yish. Qamrov bilan bir qatorda o‘quv natijalari, funksional savodxonlik va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini baholash tizimini takomillashtirish.

2. Pedagog maqomini yanada kuchaytirish. O‘qituvchining jamiyatdagi nufuzini oshirish bilan birga uning uzluksiz kasbiy rivojlanishini samarali tizimga aylantirish.

3. Intellektual yoshlar ekotizimini yaratish. Maktab — universitet — ilmiy laboratoriya — startap — ishlab chiqarish zanjiri orqali iqtidorli yoshlarni ilmiy faoliyatga erta jalb qilish.

4. Ilm-fanni iqtisodiyot bilan bog‘lash. Davlat mablag‘lari hisobidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda amaliy natija va texnologik transfer ko‘rsatkichlarini kuchaytirish.

5. Akademik halollikni institutsional qadriyatga aylantirish. Plagiatga qarshi kurashish faqat texnik tekshiruv bilan cheklanmasdan, talabalar va tadqiqotchilarda manba bilan ishlash madaniyatini shakllantirishga asoslanishi kerak.

6. Raqamli va sun’iy intellekt texnologiyalaridan oqilona foydalanish. Ta’lim jarayonini shaxsiylashtirish, ilmiy ma’lumotlarni tahlil qilish va yangi tadqiqot metodlarini joriy etishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.

7. Xalqaro ilmiy hamkorlikni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish. Xorijiy universitetlar bilan hamkorlikni faqat qo‘shma ta’lim

dasturlari emas, balki qo‘shma laboratoriyalar, xalqaro grantlar va yuqori darajadagi tadqiqotlar bilan boyitish.

Xulosa qilib aytganda, YAngi O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya va intellektual tadqiqotlar sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatni uzoq muddatli taraqqiyotga olib chiqishga qaratilgan kompleks jarayondir. Maktabgacha ta’lim qamrovining kengayishi, umumiy o‘rta ta’limni modernizatsiya qilish, oliy ta’lim imkoniyatlarining ortishi, ilm-fanni qo‘llab-quvvatlash va innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish mazkur jarayonning muhim natijalaridir.

Biroq erishilgan natijalarni mustahkamlash uchun asosiy e’tibor miqdordan sifatga, ta’limdan kompetensiyaga, ilmiy maqoladan amaliy natijaga, innovatsiyadan tijoratlashtirishga qaratilishi lozim.

Yangi O‘zbekistonning kelajak taraqqiyoti, avvalo, bilimli, mustaqil fikrlaydigan, milliy qadriyatlarga sodiq va global raqobatga tayyor avlodni tarbiyalashga bog‘liq. Shu ma’noda ta’lim va ilm-fanga sarmoya kiritish — bu bugungi kun xarajati emas, balki mamlakatning ertangi intellektual, iqtisodiy va ma’naviy salohiyatiga kiritilayotgan strategik investitsiyadir. Yoshlat ta’lim tarbiyasiga e’tibor- bu kelajakka, O‘zbekistonning ertangi kuniga e’tinorni anglatadi. Zero, Imom Buxoriy aytganidek, “Ilimdan boshqa najod yo‘q va bo‘lmagay”. Ertangi kunimiz taraqqiyoti yoshlarimizni qanday ta’lim, tarbiya olayotganiga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. — B. 224-.

2. Mirziyoyev SH.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. — Toshkent: “O‘zbekiston”, 2022. —B. 211–212.

3. Mirziyoyev SH.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. —B. 230.

4. Mirziyoyev SH.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. —B. 150.

5. Mirziyoyev Sh. Yangi O`zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo`lini qat'iy davom ettiramiz.(6-jildi) – Toshkent. “O‘zbe kiston” 2023. - 520 b.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni.

6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси (24.01.2020) // https://president.uz/uz/lists/view/3324

7. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, 52-модда // https://lex.uz/docs/6445145/

8. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. PF-4947 son. 2017 yil 7 fevral.

9. Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va o‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida. PF-5106-son. 2017 yil 5 iyul.

10. Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. VMQ-304 son. 2017 yil 22 may.

МУСТАҚИЛЛИК НЕЪМАТИ: ЖАМОАТЧИЛИК НАЗОРАТИ — ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИНИНГ АСОСИЙ БЕЛГИСИ ВА ЯНГИ БОСҚИЧИ

Расулова Нодира Сардаровна,

Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети профессори, тарих фанлари доктори, доцент

Фуқаролик жамиятининг энг муҳим белгиси фуқароларнинг давлат тузилмалари фаолияти устидан тўлиқ назоратни амалга оширишларида намоён бўлади. Бунда фуқаролар давлат учун эмас, балки давлат фуқаролар учун хизмат қилиши тамойили устуворлик касб этиб, ҳар бир фуқаронинг инсон, шахс ва жамият аъзоси сифатидаги имкониятлари тўлиқроқ юзага чиқади.

Президент Ш.Мирзиёев ўз маърузаларида «Биз янги Ўзбекистонни халқимиз билан биргаликда барпо этамиз, деган улуғвор мақсадни ўз олдимизга қўйганмиз»[1] деб бежиз таъкидламаган эди. Зеро, Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 2-моддасида: «Давлат халқ иродасини ифода этиб, унинг манфаатларига хизмат қилади. Давлат органлари ва мансабдор шахслар жамият ва фуқаролар олдида масъулдирлар»[2], деб мустаҳкамлаб қўйилганлиги бугунги кунда амалга оширилаётган ислоҳотлар — «Халқ давлат органларига эмас, давлат органлари халққа хизмат қилиши» лозимлиги ғояси — ушбу конституциявий норма мазмунига тўлалигича мос тушади.

Ўзбекистоннинг янги таҳрирдаги Конституциясининг 36-моддасига кўра, фуқароларимиз жамият ва давлат ишларини

бошқаришда бевосита ҳамда ўз вакиллари орқали иштирок этиш ҳуқуқига эга. Бундай иштирок ўзини ўзи бошқариш, референдумлар ўтказиш ва давлат органларини демократик тарзда шакллантириш, шунингдек, давлат органларининг фаолияти устидан жамоатчилик назорати воситасида амалга оширилади.

Давлат органлари ва муассасалари фаолияти устидан жамоатчилик назоратини ташкил этиш ҳамда амалга ошириш соҳасидаги муносабатларни тартибга солиш мақсадида 2018 йил 12 апрелда Ўзбекистон Республикасининг «Жамоатчилик назорати тўғрисида»ги қонуни қабул қилинди. Ушбу қонунга кўра, жамоатчилик назорати давлат органларига мурожаатлар ва сўровлар, жамоатчилик муҳокамаси, жамоатчилик эшитуви, жамоатчилик мониторинги, жамоатчилик фикрини ўрганиш, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари томонидан давлат органлари мансабдор шахсларининг ҳисоботлари ва ахборотини эшитиш каби шаклларда амалга оширилади[3].

Юртимизда жамоатчилик назоратини амалга ошириш ва бу соҳани тартибга солиб турувчи ҳуқуқий базани такомиллаштириш борасида изчил ишлар олиб борилмоқда. 2018 йил 4 майдаги Президент фармони билан «Фуқаролик жамиятини ривожлантиришга қўшган ҳиссаси учун» кўкрак нишонининг таъсис этилиши[4], шунингдек Президентнинг 2018 йил 4 июлдаги «Давлат органлари ҳузурида жамоатчилик кенгашлари фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори[5] бу борадаги ишларни жадаллаштиришда катта аҳамият касб этди. Ушбу қарорда давлат органлари ҳузуридаги жамоатчилик кенгашининг асосий

вазифалари, функциялари ва ваколатлари белгилаб берилган бўлиб, у доимий фаолият юритувчи маслаҳат-кенгаш органи сифатида, тавсиявий хусусиятга эга қарорлар қабул қилади.

Ш.Мирзиёев тўғри таъкидлаганидек, «...Конституция ва қонун устуворлигига эришишда жамоатчилик назоратидан кўра самарали восита йўқ»[6]. Жамоатчилик назорати демократия ва халқ ҳокимиятчилигининг муҳим институти ҳисобланиб, давлат органлари фаолияти устидан назоратни амалга ошириш орқали фуқароларнинг ҳуқуқлари ҳамда қонуний манфаатлари муҳофазасини таъминлашга хизмат қилади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти ташаббуси билан жамоатчилик назоратини янада кучайтириш, давлат ва жамият ўртасида ўзаро яқин ҳамкорлик ўрнатиш мақсадида 2020 йилда Жамоатчилик палатаси ташкил этилди. Палата аҳоли фикрини мунтазам равишда ўрганиб бориши, уларнинг ечимини топиш бўйича давлат идоралари олдига аниқ вазифаларни қўйиши белгиланган; «жамоатчилик эшитуви», «жамоатчилик мониторинги», «жамоатчилик экспертизаси», «жамоатчилик ташаббуси» каби таъсирчан назорат шакллари ҳаётга татбиқ этилди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 25 октябрдаги «Жамоатчилик фикри асосида шакллантириладиган лойиҳаларни молиялаштириш кўламини кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарорига асосан 2022 йил июль–сентябрь ойларида ўтказилган ташаббусли бюджетлаштириш жараёнларида ҳар бири 2 мингдан ортиқ овоз тўплаган, лекин ғолиб деб

топилмаган 364 та лойиҳани амалга ошириш учун қўшимча 335 млрд сўм маблағ ажратилди.

Инсон манфаатларини таъминлаш, халқнинг муаммо ва эҳтиёжларини билиш ва ҳал этиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Виртуал ва Халқ қабулхоналари ташкил этилди. Бугунги кунда республика бўйича жами 222 та Халқ қабулхонаси фаолият юритиб, улар орқали фуқаролар билан бевосита мулоқот таъминланмоқда (Тошкент вилояти — 23, Фарғона вилояти — 20, Самарқанд вилояти — 17 та ва бошқа вилоятлар кесимида)[7]. Ушбу тузилмалар жойлардаги муаммоларни чуқур таҳлил этиш механизми ҳамда давлат органлари ва мансабдор шахсларнинг жамият олдидаги масъулиятини ошириш, уларнинг фаолиятини баҳолаш мезонига айланди. Бугунги кунда давлат бошқаруви аппаратини сақлаш билан боғлиқ харажатларни мақбуллаштириш, коррупциявий омилларни бартараф этиш ҳамда бюджет маблағларининг сарфланиши устидан таъсирчан жамоатчилик назоратини ўрнатиш мақсадида «онлайн қабул», «виртуал ташриф» каби тизимлар жорий этилди.

Жамоатчилик назоратини техник жиҳатдан янада такомиллаштириш мақсадида 2026 йил 1 апрелда Президентнинг «Аҳоли билан мулоқот тизимини самарали ташкил қилиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги фармони имзоланди. Шу йилнинг 1 майидан бошлаб Виртуал қабулхонага келиб тушган мурожаатлар устидан реал вақт режимида назорат ўрнатилди: белгиланган муддатдан кечиккан мурожаатлар автоматик равишда

юқори турувчи давлат органига ўтказилади, мурожаатлар «шошилинч», «одатий» ва «маслаҳат талаб қилувчи» тоифаларга ажратилади, назоратга қайтарилган мурожаатлар эса 3 иш куни ичида қайта кўриб чиқилиши белгиланган. Фармонга мувофиқ, давлат органлари ва ташкилотлари раҳбарларининг мурожаатлар билан ишлаш бўйича ҳисоботлари энди ҳар чоракда камида бир марта парламент палаталарида эшитилмоқда, ҳудудларда эса ҳокимлар ва маҳаллий идоралар раҳбарлари ҳисоботлари тегишли кенгашларда муҳокама қилинмоқда. Бу — жамоатчилик назоратининг мурожаатлар билан ишлаш даражасидаги энг сўнгги, техник жиҳатдан такомиллашган механизми ҳисобланади.

Шунингдек, жамоатчилик муҳокамаси натижаларини «Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари муҳокамалари портали» (regulation.gov.uz) мисолида яққол кўриш мумкин: минглаб норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳалари жамоатчилик муҳокамаси учун жойлаштирилиб, уларнинг аксарияти бўйича муҳокамалар якунланмоқда.

Манзилли бюджет харажатлари устидан жамоатчилик назоратини амалга ошириш учун «Очиқ бюджет» портали ишга туширилган бўлиб, фуқаролар ушбу портал орқали давлат бюджети ва унинг ижроси ҳақидаги маълумотларни олиш билан бирга, бюджет қонунчилиги бузилаётгани ҳақидаги хабарларни ҳамда бюджет жараёнини такомиллаштириш бўйича таклифларни юборишлари мумкин. «Очиқ бюджет» ахборот портали орқали ҳар йили 2 марта ўтказиладиган «Ташаббусли бюджет» тизими

фуқароларга кўпчиликнинг муаммоларини биргаликда овоз бериш орқали ҳал этиш имконини беради.

Давлат ҳокимияти органларининг парламент ҳамда маҳаллий кенгашларга ҳисобдорлиги йўлга қўйилиши ва «Электрон ҳукумат» тизимининг жорий этилиши жамоатчилик назоратининг янада кучайишига олиб келди. Натижада бугун юртимизда ягона интерактив давлат хизматлари портали (my.gov.uz), очиқ маълумотлар портали (data.egov.uz), норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини муҳокама қилиш портали (regulation.gov.uz), «Лицензия» ахборот тизимлари комплекси, «Ягона дарча» марказлари фаолиятини автоматлаштириш бўйича ахборот тизими каби юзлаб рақамли хизматлар фаолият юритмоқда.

2023 йилдан бошлаб аҳоли орасидаги ижтимоий муаммоларни аниқлаш ва ҳал қилиш тизимини такомиллаштириш мақсадида ҳар ойда маҳалла кенгашида тегишли давлат органлари ва ташкилотлари раҳбарларининг ҳисоботларини эшитиш амалиёти йўлга қўйилиб, жамоатчилик назоратининг янги шакли — «маҳалла назорати» гуруҳлари ва «маҳалла раиси сўрови» институтлари жорий этилди. Президент топшириғига кўра, «рақамли маҳалла» тизими ва «халқ назорати» платформаси такомиллаштирилиб, фуқаролар «xalqnazorati.uz» иловаси орқали маҳаллий муаммолар бўйича мурожаатлар йўллаш ва уларни назорат қилиш имконига эга бўлдилар.

Жамоатчилик палатаси тасарруфидаги «Mening fikrim» веб-портали фуқароларнинг жамият ва давлат ишларини бошқаришда иштирок этиш имкониятларини кенгайтириш, давлат ҳокимияти

вакиллик органлари фаолиятининг очиқлигини таъминлаш мақсадида яратилган бўлиб, фуқаро ушбу портал орқали давлат ва жамият аҳамиятига молик муҳим масалалар юзасидан қонунчиликка таклифларни электрон жамоавий мурожаат шаклида юбориши мумкин.

Сўнгги йилларда фуқаролик жамиятининг энг асосий субъектларидан бири — сиёсий партияларга нафақат сайловларда эркин қатнашиши учун кенг имкониятлар яратилди, балки уларнинг ижро ҳокимияти устидан назорати ҳам таъминланмоқда. Сиёсий партиялар жамоат ва ўз электорати манфаатларидан келиб чиқиб, жамоатчилик назоратини амалга ошириш ҳуқуқига ҳам эгадирлар; сайлов жараёнларида сайлов участкаларидаги маҳаллий кузатувчиларни сиёсий партиялар ва фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларининг вакиллари ташкил этади.

Жамиятимизда очиқлик ва ошкораликни ривожлантириш, давлат идоралари ва уларнинг мансабдор шахслари фаолияти устидан жамоатчилик назоратини ўрнатишда оммавий ахборот воситаларининг ҳам ўрни беқиёсдир — сўнгги йилларда рўйхатдан ўтган ОАВ сони изчил ўсиб бормоқда, бу эса ахборот майдонининг кенгайиши ва жамоатчилик назорати имкониятларининг ортишидан далолат беради.

Халқ хизматидаги адолатли ва замонавий давлатни барпо этиш мақсадида жамоатчилик муҳокамаси натижалари асосида ишлаб чиқилган «Ўзбекистон — 2030» стратегиясида ҳам маҳаллий кенгашлар фаолиятида жамоатчилик иштироки учун зарур шароитларни яратиш, фуқаролик жамияти институтларини кенг

жалб қилиш, уларнинг фаолиятини босқичма-босқич рақамлаштириш, давлат органлари раҳбарлари ва уларнинг ўринбосарлари фаолиятини жамоатчилик фикри асосида баҳолаш амалиётини йўлга қўйиш, жамиятда коррупцияга нисбатан муросасиз муносабатни шакллантириш каби устувор вазифалар белгилаб олинган. 2026 йил 16 февралда Президентнинг ПФ-21-сон Фармони билан «Ўзбекистон — 2030» стратегияси «Маҳаллани ривожлантириш ва жамиятни юксалтириш йили» доирасида янги босқичга олиб чиқилди — бу жамоатчилик назорати механизмларининг маҳалла даражасида янада чуқурлашишини назарда тутади.

Жамоатчилик назорати натижасида мамлакатда давлат органлари фаолияти холисона ўрганилиб, уларнинг камчиликлари кўрсатилади, турли хил қонун бузилишларининг олди олинади, қонунлар ижроси таъминланиб, уларни тайёрлашда жамоатчилик иштироки таъминланади, жамиятдаги турли муаммоларнинг тезкор ҳал қилинишига ҳамда аҳолининг хоҳиш-иродасини ифода этишига янада кенг шароит яратилади. Яна бир муҳим жиҳати шундаки, жамоатчилик назорати нафақат бажарилаётган ишлар сифатини назорат этиш, балки фойдаланилмаётган имкониятларни ишга солиб юборишни ҳам назарда тутади.

Республикамизда жамоатчилик назоратига конституциявий мақом берилган. Янги Ўзбекистонда фуқароларнинг жамият ва давлат ишларини бошқаришдаги иштироки, жумладан, давлат органларининг фаолияти устидан жамоатчилик назоратини ривожлантириш ва такомиллаштириш йўли билан амалга

оширилиши мамлакатимизда фуқаролик жамиятининг тўлиқ шаклланишига ҳамда мустаҳкамланишига кенг имкониятлар яратади. Мамлакатда жамоатчилик назорати қанчалик кучли бўлса, давлат ҳам шунчалик халқчил, эркин ва адолатли бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

11. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси (24.01.2020) // https://president.uz/uz/lists/view/3324
12. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, 2-модда // https://lex.uz/docs/6445145/
13. Ўзбекистон Республикасининг «Жамоатчилик назорати тўғрисида»ги қонуни (12.04.2018) // https://lex.uz/docs/3679092
14. «Фуқаролик жамиятини ривожлантиришга қўшган ҳиссаси учун» кўкрак нишонини таъсис этиш чора-тадбирлари тўғрисида Президент Қарори (14.11.2018) // https://lex.uz/docs/4060213
15. https://lex.uz/docs/3808838
16. Мирзиёев Ш.М. Конституция ва қонун устуворлигига эришишда жамоатчилик назоратидан кўра самарали восита йўқ (07.12.2019) // https://president.uz/uz/3118
17. pm.gov.uz — Виртуал ва Халқ қабулхоналари статистикаси (12.08.2026 ҳолатига кўра)
18. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 1 апрелдаги «Аҳоли билан мулоқот тизимини самарали ташкил қилиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги Фармони // https://lex.uz/

19. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 16 февралдаги ПФ-21-сон Фармони// https://lex.uz/

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: УЛУҒ МАҚСАДЛАР ВА ИСТИҚБОЛ САРИ

Хотамов Шуҳрат Носирович

Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети доценти, пед.ф.б.ф.д, доцент (PhD)

Аннотация. Мақолада Ўзбекистон олдида улкан режалар, истиқболли мақсадлар, инновацион иқтисодиёт, рақамли технологиялар, “яшил энергетика”, инсон капитали ва Учинчи Ренессанс ғояси, саноатни технологик модернизатция қилиш, сунъий интеллект ва IT соҳасини кенг ривожлантириш, таълим ва илм-фан, спорт каби стратегик вазифалар тўлиқ очиб берилган. Шу билан бирга мақолада, транспорт-логистика тизими, Марказий Осиёда иқтисодий ва геосиёсий ҳолати, экологик барқарорлик ва “яшил иқтисодиёт” каби масалалар таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: стратегия, модернизатция, инноватция, ренессанс, инфратузилма, сунъий интеллект, инжиниринг, молия, халқаро муносабат, цивилизатцион, суверенитет, модел, ресурс, рақамли технологиялар, “яшил энергетика”, логистика.

Мустақиллик-бир марта эришиладиган ютуқ эмас, у ҳар куни, ҳар авлод томонидан янгиланиши, мустаҳкамланиши ва бойитилиши керак бўлган давомий жараёндир. Янги Ўзбекистон-бу жараённинг навбатдаги, энг масъулиятли ва энг умидбахш иштирокчисидир.

Ўзбекистоннинг сўнгги 35 йиллик тараққиёт йўли, аввало, давлат мустақиллигини мустаҳкамлаш ва замонавий миллий давлатчиликни шакллантиришнинг мустаҳкам асосидан иборатдир.

Мамлакатимизнинг мустақил давлатга айланиши нафақат сиёсий ўзгариш, балки инсон онги, қадриятлари ва жамият тафаккурининг тубдан янгиланишига сабаб бўлди. Миллий конститутциямиз қабул қилинди, давлат рамзлари яратилди, миллий армия ва мустақил ташқи сиёсатнинг шаклланиши янги тарихий босқични бошлаб берганини кўриш мумкин.

Мустақиллик аввало, халқнинг ўз тақдирини ўзи белгилаш ҳуқуқи, инсон ва миллатнинг эркинликка интилишининг тарихий ифодасидир. Давлатчиликнинг тикланиши орқали жамиятда миллий ўзлик англанди, тарихий хотира қайта уйғонди. Бу тарихий натижалар келажакда миллий бирликни сақлаш, давлат суверенитетини ҳимоя қилиш ва глобал ўзгаришлар шароитида мустақил тараққиёт моделини давом эттириш учун мустаҳкам пойдевор бўлиб хизмат қилиб келмоқда.

Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичида қабул қилинган Ҳаракатлар стратегияси, Тараққиёт стратегияси ва Ўзбекистон – 2030 стратегияси ўзаро мантиқий ва тарихий давомийлик асосида шаклланган ягона тараққиёт тизими сифатида миллий тараққиёт даврининг мустаҳкам асосига айланди. Ҳаракатлар стратегияси мамлакатда демократик ислоҳотлар, давлат бошқарувини модернизатция қилиш, иқтисодий либераллашув ва жамиятни очиқлаштиришнинг институтционал пойдеворини яратган бўлса, Тараққиёт стратегияси ушбу ислоҳотларни инсон қадрини улуғлаш,

ижтимоий адолат ва фуқаролик жамиятини мустаҳкамлаш тамойиллари асосида чуқурлаштирди. Ўзбекистон – 2030 стратегияси эса аввалги икки босқичда тўпланган сиёсий, иқтисодий ва маънавий тажрибани умумлаштириб, мамлакатни инновацион, рақобатбардош ва барқарор ривожланган давлатга айлантиришнинг узоқ муддатли моделини белгилаб берди. Бу уч стратегия “ислоҳот – такомиллашув – барқарор тараққиёт” занжири асосида миллий тараққиётнинг эволютцион модели сифатида намоён бўлди.

Бугун Ўзбекистон олдида улкан режалар, истиқболли мақсадлар турибди. Айниқса, инновацион иқтисодиёт, рақамли технологиялар, “яшил энергетика”, инсон капитали ва Учинчи Ренессанс ғоясини амалга ошириш устувор бўлиб қолмоқда. Мамлакатимиз ўз олдига юқори даромадли давлатлар қаторига қўшилиш, саноатни технологик модернизатция қилиш, сунъий интеллект ва IT соҳасини кенг ривожлантириш, таълим ва илм-фанни халқаро стандартлар даражасига олиб чиқиш каби стратегик вазифалар қўйди. Шу билан бирга, транспорт-логистика тизимини кучайтириш, Марказий Осиёда иқтисодий ва геосиёсий марказлардан бирига айланиш, экологик барқарорлик ва “яшил иқтисодиёт” ни ривожлантириш ҳам узоқ муддатли мақсадлар сифатида қаралмоқда. Бу мақсадларнинг дебочаси сифатида рақамлаштириш жараёнлари жадаллаштирилмоқда, янги университетлар ва технологик парклар ташкил этилмоқда, хорижий инвеститциялар жалб қилинмоқда, давлат бошқаруви тобора очиқ ва самарали тизимга ўтказилмоқда. Бу жараёнлар Ўзбекистоннинг

анъанавий жамиятдан билим ва инновацияларга таянувчи цивилизацион тараққиёт моделига ўтишини англатиб, келажак тараққиётининг марказида табиий бойлик эмас, балки интеллектуал салоҳият ва инсон қадри туриши асосий тамойилга айланмоқда.

Ўзбекистоннинг 35 йиллик тараққиёт даври тарихий трансформатция жараёни сифатида жамият сиёсий, иқтисодий, ижтимоий ва маънавий жиҳатдан янги босқичга кўтарилди. Энг муҳими, ҳар биримизнинг онг-у шууримизда инсон қадри ва миллий манфаатлар устувор деган ғоя шаклланиб, келажакка ишонч билан қараш мустаҳкамланди. Ўзбекистон тажрибасида миллий анъаналар ва модернизатция уйғунлиги барқарор тараққиётнинг муҳим шартига айланди. Келажакда Учинчи Ренессанс ғояси, инновацион иқтисодиёт ва маърифатли жамият қуриш мақсадлари мамлакат тараққиётининг асосий ўналиши бўлди. Шу маънода, сўнгги 35 йилда қўлга киритилган улкан ютуқлар нафақат яқин ўтмиш натижаси, балки келажак тараққиёти учун стратегик таянч вазифасини бажаради.

Давлатни давлат сифатида дунёга танитаётган йўналишлардан бири бўлган спортда қўлга киритган ютуқларимиз мисолида кўришимиз мумкин.

Шунинг билан бирга Мамлакатнинг нуфузини профессионал спортчилар бир неча карра оширади. Ҳаммамизга маълумки, дастлаб спортчиларни тайёрлаш тизимининг ҳолати яхши эмас эди. Сабаби бу тизим истиқлолнинг дастлабки йилларида молиявий қийинчиликлар туфайли заифлашди. Энди эса спорт мактаблари,

олимпия захиралари ва қўшимча қўллаб-қувватлаш дастурлари орқали профессионал спорт янги тараққиёт босқичига чиқди.

Бугун тараққий этган давлатларнинг асосий салоҳияти унинг соғлом ва бақувват ёш авлодидир. Соғлом авлод вояга етишида спорт фаолиятининг роли беқиёс бўлиб, Ўзбекистонда спорт инфратузилмаси кенгайтирилди, маҳалла спорт майдончалари, мактаб спорт заллари, оммавий спорт тадбирлари тизимли тарзда кўпайтирилди. Бугун ёшларнинг 50 фоиздан ортиғи доимий жисмоний фаолликка жалб этилди.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, Ўзбекистон терма жамоалари сўнгги йилларда бокс, кураш, дуздо, шахмат, футбол, гимнастика ва бошқа спорт турларида жаҳон миқёсида катта муваффақиятларга эришмоқда. Бугун мамлакатимизда хориждан малакали мураббийлар жалб қилиш, замонавий спорт тиббиёти, аналитик ва технологик қўллаб-қувватлаш спорт натижаларини яхшилашнинг муҳим омилларига айланди.Ўзбекистон 1994-йилдан Жаҳон Олимпия қўмитасига аъзо бўлгандан сўнг бир қатор ютуқларни қўлга киритди. 2016-йил Риода 13 медал, 2020-йил Токиода 15 медал, 2024-йил эса Париждаги бу натижаларни айтиб ўтиш жоиз. Ундан ташқари, паралимпия ҳаракати ҳам тобора ривожланмоқда, бу йўналишдаги спортчиларимиз натижалари ҳам юқорилаб бормоқда. Мамлакатимиз бу соҳада кучли 15 таликка кирди, келажакда Олимпияда медалини қўлга киритиш бўйича ТОП-10 мамлакатлари қаторига кириши мақсад қилинмоқда ва бунинг учун етарли имкониятлар мавжуд.

Бундан ташқари, бугунги кунда мамлакатларнинг рақобатбардош бўлиши учун замонавий технологиялар, жумладан, IT, сунъий интеллект, инжиниринг, молия, халқаро муносабатлар соҳаларида билимлар зарур бўлмоқда. Шу билан бирга, инглиз, хитой, араб, немис каби жаҳон тилларини билиш ёшларнинг глобал меҳнат бозорида ўрин олишини таъминлайди. Ўзбекистонда замонавий технологияларни, хорижий тилларни ўқитиш кенгайтирилмоқда, мактаблар, тил марказлари, хорижий тил олимпиадалари ўтказилмоқда. Бугун ўзбек ёшлари хорижий тиллар сертификатларини олиш бўйича дунё рейтинггида юқори ўринларни эгаллашмоқда. Сўнгги йилларда мамлакатимизда ёшлар интеллектуал салоҳиятини ошириш мақсадида президент мактаблари, ихтисослаштирилган мактаблар, халқаро олимпиадаларга тайёрлов тизими кенгайтирилди. Билимлар беллашуви, илмий мусобақалар ва халқаро академик алмашинув дастурлари кучайтирилди.

Буюк рус олими Дмитрий Менделеев айтганидек: “Мамлакат бойлиги ер остидаги ресурсларда эмас, балки одамларнинг онгидадир”. Ўзбекистон мустақиллигини эълон қилган биринчи кунлардан бошлаб таълим тизимига инвеститция давлат стратегиясининг ўзагига айланди. Буни рақамлар ҳам тасдиқлайди.

Олий таълимга қамров кўрсаткичидаги ўзгариш, айниқса, диққатга сазовор. 1991-йилда 22 фоиз бўлган ОТМга қамров 2016-йилга келиб 9 фоизга тушди, бу вақтда университетга кириш имтиёзлари сезиларли даражада қийинлашди ва давлат буюртмаси чекланганди. Бироқ 2017-йилдан бошлаб олий таълимга

инвеститсиялар кескин ошди, янги университетлар очилди, хорижий университетларнинг 30 дан ортиқ филиали фаолият бошлади, давлат гранти сони кенгайди. Натижада 2025-йилда қамров 42 фоизга кўтарилди.

Хорижий университет филиалларининг ташкил топиши ўзбек таълим тизимидаги сифат инқилобига асос солди. Вестминстер университети, Инха университети, Турин политехника университети, Герман халқаро университети, Корея-Ўзбекистон технологиялар университети ва бошқаларнинг ҳар бири нафақат таълим, балки маданий алоқалар ва илмий ҳамкорликнинг кўприги бўлиб хизмат қилмоқда.

Хулоса ўрнида шуни айтиш таъкидлаб ўтиш лозимки, Мустақиллик-бу бир куни эълон қилинадиган, кейин аста-секин унутиладиган ҳодиса эмас. У ҳар кун мустаҳкамланиши, ривожланиши ва авлоддан авлодга ўтказилиши керак бўлган тушунча. Ўзбекистон 35 йиллик мустақиллик тажрибасида айнан шу масалани-мустақиллик тафаккурини шакллантириш масаласини-давлат сиёсатининг марказий ўқига айланганини кўриш мумкин.

Албатта, Миллий суверенитет ва давлат мустақиллиги ҳар қайси мамлакатнинг сиёсий, ижтимоий, иқтисодий, маданий тараққиётининг энг асосий шарти ва гаровидир. Бу ҳал қилувчи омиллар давлатнинг халқаро ҳуқуқ субекти сифатида дунё ҳамжамиятида муносиб ўрин эгаллаши, халқнинг тинч ва фаровон ҳаётини таъминлаш, унинг барча манфаатларини ҳимоя қилишга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 7-февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони. // Халқ сўзи 2017-йил 8-февраль. № 28 (6722)-сон. – Б. 1-4.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-йил 28-январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли., // Янги Ўзбекистон газетаси. 2022-йил 1-февраль. №-544. – Б. 1-3.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023-йил 11-сентябрдаги “Ўзбекистон-2030” стратегиясини тасдиқлаш тўғрисидаги фармони. №-158-сон. https://lex.uz/docs/6600413 (мурожаат санаси 07.12.2025 йил);

4. Ҳайдаров А.У., Янги Ўзбекистонда жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасидаги ислоҳатларнинг таҳлили // Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети Жамоат хавфсизлиги илмий амалий журнали № Махсус сон., – Тошкент., 2023-йил, – Б.131-134. (Мустақилликнинг 32 йиллиги).

5. “Ягона ватан, ягона халқ бўлиб, янги ҳаёт ва келажак яратамиз!” Фото альбом китоб, Республика маънавият ва маърифат маркази ижтимоий-маънавий тадқиқотлар институти,Тошкент «Маънавият» 2026

6. “Ўзбекистон Республикасининг Миллий хавфсизлик концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги қонуни (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 11-12-

сон, 295-модда) //http:www. lex.uz.// Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси (мурожаат санаси 21.02.2024 йил).

BMT FAOLIYATI SAMARADORLIGI MINTAQAVIY XAVFSIZLIK VA BARQARORLIKNI TA’MINLASHDAGI MUHUM TENDENSIYA

Asrorjon Sattorov
Jamoat xavfsizligi unversiteti dotsenti

Jahonda mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash, dunyo mamlakatlarini murosaga chorlaydigan, iqlim muammolarini bartaraf etsihga va dunyo davlatlarini bunga munosib hissa qo‘shishga va unga chorlashga undovchi eng muhum platforma hozirda shubxasiz Birlashgan Millatlar Tashkiloti hisoblanadi. Tashkil etilganiga mana bu yil 80 yil to‘lish arafasida turgan ushbu xalqaro tashkilotning hozirda 194 ta a’zo davlatlari mavjud bo‘lib, ushbu mamlakatlar BMTga a’zolik orqali xalqaro munosabatlarda teng huquqli hisoblanadi. BMTning so‘ngi ko‘p a’zolik davri shibxasiz to‘qsoninchi yillarnig dastlab ki yillari bo‘ldi deyish mumkin. Shu vaqtdan etiboran O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining teng huquqli a’zosi ham bo‘ldi. Sobiq ittifoq parchalanishi asnosida ushbu yirk tashkilotning a’zolari soni yana bir nechta teng huquqli mustaqil a’zolar bilan boydii deyish mumkin.

Hozir BMTning 80 yilligi sammiti arafasida mamlakatimiz rahbari AQSHga bir necha kunlik tashrifi doirasida mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikka xizmat qiladigan ko‘p tomonlama hamkorlik borasida juda

katta muzokaralar olib bormoqda. Xususan AQSHning o‘ttizdan ortiq iqtisodiy, mineral hom ashyo bilan shug‘illanuvchi yirik kompaniyalari rahbarlari bilan muzokaralar olib borildi.

Ushbu muzokaralar chog‘ida AQSH prezidenti Donald Trumpning ishonchi va sog‘inchli salomlarini davlatimiz rahbariga yetkizishmoqda.

Xususan, AQSH prezidentining Janubiy va Markaziy Osiyo bo‘yicha maxsus vakili Serjio Gorning 2025 yilnng 22-sentabr kuni BMT Bosh assambleyasi 80-yubiley sessiyasi tadbirlari doirasida O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan uchrashuvidan keyin tadbirni yoritish uchun Nyu Yorkda bo‘lib turgan o‘zbekistonlik jurnalistlar uni savolga tutishdi. Xususan, undan Donald Trampning O‘zbekistondan kutilmalari qanday ekani hamda Shavkat Mirziyoyev bilan uchrashuv qanday o‘tgani haqida so‘ralgan edi.

“Aytmoqchimanki, prezident sizning prezidentingiz bilan shu oy boshida gaplashgandi. U o‘zining samimiy salomini yetkazishimni so‘radi. U sizning prezidentingizni juda hurmat qiladi.

Bugun ko‘rganimizdek, prezidentingiz haqiqiy natijalar ko‘rsatmoqda. AQShdagi eng yirik kompaniyalar O‘zbekiston bilan ajoyib bitimlar imzoladi. Bu prezidentingiz rahbarligi va bizning prezidentimizning hamkorlikka tayyorligidan tayyorligidan dalolat beradi.

Shuning uchun biz bu borada ishlashni intiqlik bilan kutami”, deya uning so‘zlarini keltirmoqda maxsus sahifalar. O‘zbekiston prezidenti bilan qaysi mavzular muhokama qilingani to‘g‘risidagi savolga u shunday javob qaytargan: *“Munosabatlarni, hamkorlikni kuchaytirish, biznes va xavfsizlik masalalari. Biz ko‘p masalalarni muhokama qildik.*

Sizning ajoyib prezidentingiz Oq uyda iliq kutib olindi. Prezidentimiz u bilan muloqot qilishni intizorlik bilan kutmoqda” degan maxsus vakil[1.123].

Demak, AQSHning sobiq prezidenti Jo Bayden davrida to‘xtab qolgan aloqalar samaradorligi yangi sahifalar ichmoqda va strategik sheriklikning yangi pog‘onaga olib chiqmoqda.

BMT Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashda bir qator rezaulyutsiyalar qabul qilgan bo‘lib hozirda samarali qo‘llanilib kelinmoqda. Xususan, mamlakatimiz rahbari tashabbusi bilan qabul qilingan bir qator rezalyustsiya va konvensiyalar mintaqah hududida izchil barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda.

2022-yil 22-iyun kuni BMT Bosh Assambleyasining "**Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta’minlash bo‘yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash"** rezolyusiyasi qabul qilinganligan edi.

BMTning yuqori minbaridan O‘zbekiston Prezidenti 2017-yil noyabr oyida Samarqandda Markaziy Osiyo bo‘yicha xalqaro konferensiya o‘tkazishni taklif qilgan edi. Ushbu tadbir juda yuqori darajada o‘tkazildi va forum doirasida bildirilgan bir qator tashabbuslar Markaziy Osiyoda yangi muhitni – “Samarqand ruhi” shakllanishiga asosiy poydevor bo‘ldi. Shu jumladan, Samarqanddagi konferensiya yakunida qabul qilingan qo‘shma Kommyunikeda mintaqa davlatlari o‘rtasida tizimli muloqot, amaliy hamkorlik va yaxshi qo‘shnichilikni mustahkamlash hamda oqilona murosaga asoslangan hamkorlikning qat’iy tarafdori ekanliklari qayd etib o‘tilgan edi.

Shu bilan birga tadbir ishtirokchilari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, xavfsizlik va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlash bo‘yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga doir maxsus rezolyusiyasini qabul qilish to‘g‘risidagi taklif bilan chiqishdi.

Ushbu taklif xalqaro hamjamiyat tomonidan to‘liq qo‘llab-quvvatlandi. Qisqa vaqt ichida rezolyusiya loyihasi O‘zbekiston tomonidan Markaziy Osiyoning barcha davlatlari bilan hamkorlikda ishlab chiqildi hamda hujjatni maslahatlashuvlarida yaqin hamkor davlatlar, jumladan Rossiya, Xitoy, AQSH va YEI faol va konstruktiv tarzda ishtirok etdi. Umuman olganda Yevropa, Shimoliy va Janubiy Amerika, Osiyo va Afrikaning 55 mamlakati ushbu rezolyusiya hammualliflari bo‘ldi.

Rezolyusiyani o‘ziga xos muhim jihatlari shundan iborat ediki, ushbu tarixiy hujjatni qabul qilinishi Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi mintaqaviy hamkorlikni yangi sahifasi ochilganidan dalolat berdi. Bu o‘z navbatida quyidagi omillarda ifodasini topdi.

Birinchidan, ushbu rezolyusiya Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqada umumiy manfaatlar yo‘lida o‘zaro ishonch va yaxshi qo‘shnichilikni har tomonlama mustahkamlashga bo‘lgan kuchli siyosiy irodasini, mamlakatlarimiz o‘rtasidagi hamkorlikni yanada faollashtirishga bo‘lgan intilishini ko‘rsatdi. Mintaqa mamlakatlari butun jahon hamjamiyatiga Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida mintaqada boshlangan yaxshi qo‘shnichilik va hamkorlikni chuqurlashtirish bo‘yicha jarayonlar qat’iy siyosiy tanlovga va tarixiy

zaruriyatlarga asoslangan bo‘lib, qaytarib bo‘lmas xarakterga ega ekanligini namoyon qildilar.

Ikkinchidan, mintaqa davlatlari birinchi marta yagona xalqaro hujjatda Markaziy Osiyo mamlakatlarining o‘zaro hamkorlikdagi ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha umumiy va har tomonlama konsensusni, shuningdek, o‘zaro hamkorlikni barcha Markaziy Osiyo mamlakatlari manfaatlariga javob beradigan muhim yo‘nalishlarida olib borish bo‘yicha kelishuvga erishganlarini xalqaro hamjamiyatga namoyon qilishdi.

Uchinchidan, ushbu rezolyusiyaning yana bir muhim jihati – hujjatda Markaziy Osiyo mamlakatlari mintaqa taqdiri uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga tayyorligini tasdiqlaganliklaridir. Mintaqa davlatlari mavjud dolzarb masalalar va muammolarni hal qilishda tashqi kuchlar aralashuvisiz o‘zaro muloqot va manfaatlarini hurmat qilish asosida yechishga kelishib olishdi. Buni yaqqol misoli sifatida may oyida tojik-qirg‘iz chegarasida sodir bo‘lgan noxush vaziyatda Markaziy Osiyo davlatlari ma’suliyat bilan yondashganliklarini ko‘rib o‘tdik.

Xususan, O‘zbekiston Prezidenti SH.Mirziyoyev qisqa muddat ichida qo‘shni davlat rahbarlari bilan telefon orqali muloqot qildi va ularni mavjud ziddiyatni faqat do‘stona ruhda va yaxshi qo‘shnichilikga asoslangan muloqot orqali hal qilishga chaqirdi. Shu bilan birga, O‘zbekiston tomoni yuzaga kelgan vaziyatni yechishda har taraflama yordam berishga tayyorligi aytib o‘tildi. Qozog‘iston Prezidenti Q.To‘qayev ham nizolashayotgan tomonlarga barcha bahsli masalalar faqat muzokaralar yo‘li bilan hal qilinishi lozimligini ta’kidlagan edi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, albatta bunday o‘zaro ishonchga asoslangan va davlatlar mintaqa kelajagi uchun umumiy ma’suliyatni his qiladigan muhit o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mamlakatimiz ushbu yo‘nalishda izchil, chuqur o‘ylangan va shu bilan birga tashabbuskor tashqi siyosat olib bormoqda, tarixiy meyorlar bo‘yicha qisqa vaqt mobaynida keng miqyosli ishlarni amalga oshirildi.

Endilikda Markaziy Osiyo mamlakatlari rahbarlari say-harakatlari natijasida mintaqada barqarorlik ta’minlanishi, barcha bahsli masalalarni tinch yo‘l, ochiq va ishonchli muloqot orqali mustaqil ravishda hal etilishi mumkinligiga ishonch hosil qilindi.

Barcha amaliy harakatlar va eng muhimi qat’iy siyosiy iroda tufayli davlat chegaralari, savdo aloqalari, transport kommunikatsiyalari, hududlar hamkorligi kabi ko‘plab masalalar bo‘yicha o‘zaro manfaatli yechimlar topishga erishildi.

Bu o‘z navbatida mintaqada shakllangan mutlaqo yangi, o‘zaro ishonch va yaxshi qo‘shnichilik muhitining konseptual asosi bo‘lmish BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyusiyasidagi prinsiplari hayotda tadbiq bo‘layotganligidan yaqqol dalolat beradi[1.129].

BMT bilan keng ko‘lamli va turli sohalardagi hamkorlik bugungi kundagidek yuqori pallaga ko‘tarilmagan.

Mintaqadagi ijobiy tendensiyalarni turli siyosiy tahlilchilar va siyosatshunoslar ijobiy baholab kelmoqda.

O‘zbekistonning tashqi siyosatdagi manfaatini ta’minlash jarayoni haqida fikr yuritar ekan siyosatshunos Sayfiddin Jo‘rayev so‘nggi yillarda mamlakatimizda yuz berayotgan yangi o‘zgarishlar, siyosiy-huquqiy,

ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarni bilan uyg‘unligini ta’kidlaydi. Siyosiy tahlilchi O‘zbekiston o‘z manfaatlaridan kelib chiqib, mavjud vaziyatni tahlil qilib borayotgani, tegishli xulosalar chiqarib, tashqi siyosat bo‘yicha strategik qarorlar qabul qilinmoqdaligi, tegishli vazifalar ijrosini ta’minlanayotganligini izohlaydi. Bunday sharoitda O‘zbekiston hududiy yaxlitligi, suverenitetini saqlash, ishonchli sheriklar topishga harakat qilyapti va bunga erishyapti ham. Bu borada xalq va davlat manfaatlari uyg‘unlashtirilib, 2030-yilgacha mo‘ljallangan reja belgilangan va vazifalarni hozir amalga oshirishga kirishilgan. Asosiysi, davlat manfaati ta’minlanishiga oid qoida va meyorlar, maqsad, yo‘nalish va vazifalardan kelib chiqib, hatti-harakatlar muayyan mantiq asosida olib borilyapti. Birinchidan, tashqi siyosatni amalga oshirishda mamlakat tinchligi va xavfsizligini himoyalash, davlat mustaqilligi, suvereniteti va hududiy yahlitligini muntazam ta’minlash va mustahkamlash, xavfsiz va barqaror rivojlanishi uchun qulay tashqi shart-sharoit yaratish, respublika atrofida do‘stona, yaxshi qo‘shnichilik muhitini shakllantirish, qolaversa vatanimizni xalqaro nufuzini oshirish davlatimiz manfaatining asosiy yo‘nalishlari bo‘lib qolmoqda. Bu harakatlar jamiyat barqaror rivojlanishi uchun fuqarolar, mulk shakldidan qat’i nazar barcha ishlab chiqarish subyektlarining xorijiy mamlakatlar bilan aloqalari jarayonidagi manfatlarini himoya qilish va ilgari surish bo‘yicha faoliyat yuritayotgan davlat hokimiyati idoralari, keng jamoatchilik, fuqarolik jamiyati institutlari bilan muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunga kelib, O‘zbekiston ob’ektiv ravishda Markaziy Osiyoning kelajagi uchun alohida mas’uliyatni o‘z zimmasiga olgan. Bu

omilbiz mintaqaning barcha mamlakatlari bilan umumiy chegaralarga ega ekanligimiz bilan izohlanadi. Mamlakatimizda Markaziy Osiyo aholisining yarmidan ko‘pi, mintaqadagi barcha xalqlarning yirik jamoalari yashaydi. O‘zbekiston taraqqiyotining deyarli barcha hayotiy muhim masalalari – suvdan tortib, transport yo‘laklari, mintaqaviy xavfsizlik va savdo-sotiqqacha chegaradosh davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik va oldindan taxmin qilish mumkin bo‘lgan munosabatlarga bog‘liq[2.].

Aynan shuning uchun ham O‘zbekiston rahbari 2016 yilda Parlamentga yo‘llagan birinchi murojaatnomasida ustuvor yo‘nalishlarni aniq belgilab, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan munosabatlarni mustahkamlashni birinchi o‘ringa qo‘ygan edi. “Mamlakatimizning milliy manfaatlarini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan Markaziy Osiyo mintaqasi O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Biz yaqin qo‘shnilarimiz Turkmaniston, Qozog‘iston, Tojikiston va Qirg‘iziston bilan ochiq, do‘stona va pragmatik siyosat olib borishga sodiq qolamiz”, deb ta’kidladi Shavkat Mirziyoyev.

Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi hamkorlik istiqboli savdo, investitsiya, transport, energetika va innovatsiya, “yashil” texnologiya sohalaridagi munosobatlarni yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha aniq loyiha va dasturlar amalga oshirish, turizm, ta’lim, sog‘liqni saqlash, fan va madaniyat sohalarida ko‘p qirrali munosobatlarni kengaytirish, mintaqa barqarorligi va xavfsizligini ta’minlash yuzasidan mushohada yuritish, zamonaviy muloqotni yo‘lga qo‘yishga kirishildi. Jarayonning davomiyligi taraqqiyot drayverlarini aniqlash asosida qaror qabul qilishga

shart-sharoit va imkoniyat beruvchi mexanizm sifatida o‘z o‘rniga egaligi va mintaqa rivojlanishiga sezilarli ta’sir etuvchi tartib ekanini ko‘rsatadi. Markaziy Osiyo keyingi yillarda iqtisodiy o‘sish va faol investitsiya markazlaridan biri sifatida jadal rivojlanmoqda. Jumladan, oxirgi 7 yilda mintaqa iqtisodiyoti 6,3 foiz o‘sib, 450 milliard dollarga yaqinlashdi. Tashqi savdo aylanmasi ikki barobar ko‘payib, qariyb 225 milliard dollarni tashkil etdi.

Osiyoda regional barqarorlik va xavfsizlik hamda keng qamrovli iqtisodiy bozor shakllanishi ham investorlarning mintaqaga qiziqishini oshirmoqda. Jumladan, 2016-2022 yillarda Markaziy Osiyoga investitsiya kiritilishi jahondagi umumiy hajm – 1,6 foizdan 2,8 foizga ko‘tarilib, 2022 yil qariyb 40 milliard dollarni tashkil etgan. Bu 2016 yil ($26,7 mlrd)ga nisbatan 50 foiz ko‘p. “Boston Consulting Group” bashoratiga ko‘ra, 2030-yilgacha Markaziy Osiyo 170 milliard dollarlik investitsiya jalb qila oladi. Shuning 40-70 milliard dollari xom-ashyo bo‘lmagan sohalarga yo‘naltiriladi.

Xullas, O‘zbekiston tashqi siyosati, ayniqsa yangi mintaqaviy diplomatiyasi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va gumanitar sohalardagi hamkorlikni yanada rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlarini har tomonlama muhokama qilishga imkon beradi. Mintaqaning tashqi dunyoga ochiqligi, hamkorlikka tayyorligi boshqa mamlakatlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan munosabatlarni diversifikasiya qilish bo‘yicha olib borayotgan siyosatining o‘ziga xos xususiyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T. 2022. 456 b.

2. Komilov A.H. O‘zbekiston tashqi siyosatida yangi Markaziy Osiyo. // https://www.uwed.uz/news/279

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHGA DOIR ISLOHOTLARNING ILMIY ASOSLARI

Xaknazarov Xudoyberdi Dilmurodovich

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Maxsus fakulteti boshlig‘i, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Bugungi globallashuv va ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar sharoitida jamoat xavfsizligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Jamiyat hayotida yuz berayotgan siyosiy, iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy o‘zgarishlar jamoat xavfsizligiga tahdid va xavf-xatarlarning shakllari hamda ko‘lamini kengaytirib, ularni oldindan aniqlash, baholash va samarali bartaraf etishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlarni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish, uning institutsional va huquqiy asoslarini mustahkamlash, davlat organlari faoliyatining samaradorligini oshirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirish masalalari alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur jarayon boshqaruvning samarali mexanizmlarini joriy etish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish, raqamli

texnologiyalardan foydalanish, profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish va aholining xavfsizlikni ta’minlashdagi ishtirokini kengaytirish kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi. Shu sababli jamoat xavfsizligini ta’minlashga doir islohotlarning ilmiy asoslarini tadqiq etish, ularning nazariy-metodologik mazmunini ochib berish hamda mavjud mexanizmlarning samaradorligini ilmiy jihatdan baholash mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarning dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev so‘zlari bilan aytganda “Profilaktika ishlari tahlilga asoslanishi kerak. Har bir huquqni muhofaza qilish organida jinoyatchilikning joyi va turi bo‘yicha chuqur ma’lumot bo‘lishi, buning uchun davlat idoralari, jamoat tashkilotlari muntazam birga ishlashi zarur. Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, prokuratura – hammasi xalqqa xizmat qilishi kerak. Shu bilan birga, jamiyatda ham jaholatga qarshi ma’rifat kuchli bo‘lishi lozim. Muhit shunday bo‘lishi kerakki, hech kim jinoyatga qo‘l ura olmasin” [1].

Yuqoridagi islohotlarda 2021-yil 29-noyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-27-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi alohida tarixiy ahamiyat kasb etdi [2]. Konsepsiyada jamoat xavfsizligi milliy xavfsizlikning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan hamda uni ta’minlash davlat tomonidan amalga oshiriladigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa kompleks tashkiliy chora-tadbirlarni qamrab oluvchi yaxlit tizim sifatida talqin etilgan.

Shu jihatdan maqolaning asosiy maqsadi Yangi O‘zbekiston sharoitida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimining tarixiy

transformatsiyasini tahlil qilish, zamonaviy yondashuvlarning shakllanish omillarini aniqlash va ularning amaliy ahamiyatini statistik hamda institutsional ma’lumotlar asosida baholashdan iborat.

Agar mazkur sohaning tarixiy-tadrijiy rivojlanishiga e’tibor qaratilsa

1990-yillar jamoat xavfsizligi tizimining milliy asoslari shakllangan davr bo‘ldi. Bu davrda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vakolatlari, jamoat tartibini saqlash mexanizmlari, jinoyatchilikka qarshi kurashishning huquqiy asoslari va fuqarolarning xavfsizligini ta’minlashning tashkiliy mexanizmlari takomillashtirildi.

Keyingi bosqichda, ayniqsa 2000-yillar va 2010-yillarning birinchi yarmida, jamoat tartibini saqlash bilan bir qatorda huquqbuzarliklar profilaktikasiga ham tobora katta e’tibor qaratila boshlandi. Bu esa jamoat xavfsizligini ta’minlash tarixida muhim metodologik o‘zgarish bo‘ldi. Chunki profilaktik yondashuv jinoyat sodir etilgandan keyin unga javob berishdan ko‘ra, jinoyatga olib keluvchi omillarni oldindan aniqlash va bartaraf etishga yo‘naltiriladi.

Raqamlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak O‘zbekistonda qayd etilgan jinoyatlar soni 1991-yilda 88 630 tani, 1995-yilda 67 026 tani, 2000-yilda 73 904 tani, 2010-yilda 90 050 tani va 2015-yilda 87 946 tani tashkil etgan. 2017-yilda esa mazkur ko‘rsatkich 73 692 taga tushgan [6]. Biroq ushbu raqamlarni bevosita jinoyatchilikning real kamayishi yoki ko‘payishi sifatida talqin qilish yetarli emas, chunki jinoyatlarni qayd etish, murojaatlarni ro‘yxatga olish va statistik hisob yuritish mexanizmlaridagi o‘zgarishlar ham ko‘rsatkichlarga ta’sir qiladi.

Demak tarixiy tahlilda statistik ma’lumotlarni faqat miqdoriy ko‘rsatkich sifatida emas, balki davlatning jinoyatchilikni aniqlash va qayd etish siyosatidagi o‘zgarishlar bilan birgalikda baholash muhimdir.

Yangi O‘zbekiston sharoitida 2017-yildan boshlab amalga oshirilgan islohotlar jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimining rivojlanishida yangi tarixiy bosqichni boshlab berdi. Mazkur bosqichning asosiy xususiyati davlat organlari faoliyatini aholiga yaqinlashtirish, huquqni muhofaza qilish faoliyatida inson manfaatlarini ustuvor qo‘yish, profilaktik ishlarning samaradorligini oshirish va xavfsizlikni ta’minlashning zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish bilan belgilanadi.

2021-yil 2-apreldagi PQ-5050-son Prezident qarori ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan muhim normativ-huquqiy qadam bo‘ldi. Ushbu yo‘nalish keyinchalik ichki ishlar organlarini xalqchil va professional tuzilmaga aylantirish konsepsiyasi bilan yanada rivojlantirildi [3].

2023-yil 20-yanvardagi PQ-10-son qaror bilan ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirilgan yangi mexanizmlar belgilandi [4]. Qarorda zamonaviy jinoyatchilikka qarshi kurashish usullariga mos ravishda xodimlarning kasbiy, jismoniy, jangovar va psixologik tayyorgarligini takomillashtirish, kadrlar bilan ishlashni raqamlashtirish, korrupsiyaning oldini olish va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Bu o‘zgarishlar jamoat xavfsizligi tarixida boshqaruv paradigmasining o‘zgarishini ko‘rsatadi. Avvalgi tizimda xavfsizlikni ta’minlashning asosiy og‘irligi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning bevosita faoliyatiga tushgan bo‘lsa, yangi modelda davlat organlari, mahalla, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa jamoatchilik institutlari o‘rtasidagi hamkorlik tizimning muhim tarkibiy qismiga aylandi.

Mazkur raqamlar jamoat xavfsizligi siyosatida yangi muammolar paydo bo‘layotganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, mulkiy jinoyatlarning ayrim turlari, internet va raqamli xizmatlar bilan bog‘liq firibgarliklar zamonaviy xavfsizlik siyosatining yangi yo‘nalishlarini shakllantirmoqda.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashning Yangi O‘zbekiston davridagi eng muhim zamonaviy xususiyatlaridan biri raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishidir.

Raqamlashtirish xavfsizlik tizimida uchta asosiy imkoniyatni yaratmoqda: birinchidan, hodisalarni real vaqt rejimida kuzatish; ikkinchidan, xavfli vaziyatlarni avtomatik aniqlash; uchinchidan, turli idoralarning ma’lumotlarini yagona axborot makonida birlashtirish.

“Xavfsiz shahar” tizimining rivojlanishi mazkur jarayonning eng ko‘zga ko‘ringan misollaridan biridir. 2026-yilgi rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, tizim doirasida yagona platforma, 13 ta ma’lumotlarni qayta ishlash markazi, yagona elektron xarita, 42 750 ta intellektual kamera hamda 17 ta yong‘in xavfsizligi monitoring tizimi faoliyat yuritmoqda [10].

Bu ko‘rsatkichlar jamoat xavfsizligini ta’minlashda texnologik infratuzilmaning qanchalik katta ko‘lamga ega bo‘lib borayotganini ko‘rsatadi.

Intellektual videokuzatuv tizimlarida oddiy tasvirni qayd etishdan tashqari, yuz qiyofasidan shaxsni aniqlash, davlat raqam belgilarini aniqlash va xavfli holatlarni real vaqt rejimida kuzatish imkoniyatlari kengaymoqda. Masalan, 2026-yilda Zangiota tumanida 60 ta mahalla bo‘yicha jami 1 993 ta intellektual kamera o‘rnatish rejalashtirilgan bo‘lib, dastlabki bosqichda 14 ta mahallada 373 ta kamera o‘rnatilgani ma’lum qilingan [11].

2026-yil boshida respublika hududlarida Yangi yil va “Prezident archasi” tadbirlarining 253 ta obyektida 1 561 ta intellektual videokuzatuv kamerasi o‘rnatilib, yagona platformaga integratsiya qilingan. Bu xavfsizlikni ta’minlashda mavsumiy va ommaviy tadbirlar uchun ham raqamli monitoring tizimlaridan foydalanish kengayayotganini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, raqamlashtirish jamoat xavfsizligi tarixida yangi texnologik bosqichni shakllantirmoqda. Biroq texnologiya o‘z-o‘zidan xavfsizlikni ta’minlamaydi. Uning samaradorligi ma’lumotlarning sifati, inson huquqlarini himoya qilish, axborot xavfsizligi, xodimlarning malakasi va idoralararo hamkorlik darajasiga bog‘liq.

Jamoat xavfsizligi tizimini tarixiy jihatdan o‘rganishda jinoyatchilik tarkibidagi o‘zgarishlar alohida ahamiyatga ega. Chunki xavfsizlik tizimining rivojlanishi ko‘p jihatdan jamiyatda yuzaga kelayotgan yangi xavf-xatarlarning tabiatiga bog‘liq.

Mazkur dinamikani to‘g‘ri talqin qilish uchun statistik qayd tizimidagi o‘zgarishlar va jinoyatlarni aniqlash darajasining oshishini ham hisobga olish zarur. Shu bois qayd etilgan jinoyatlar sonining ko‘payishini avtomatik tarzda xavfsizlik darajasining yomonlashuvi sifatida baholash metodologik jihatdan to‘g‘ri emas.

Ayni vaqtda jinoyat tarkibidagi ayrim o‘zgarishlar zamonaviy xavflarning tabiatini ko‘rsatadi. Masalan, firibgarlik jinoyatlari 2017-yildagi 9 645 tadan 2025-yilda 44 127 taga yetgan. Bu 4,6 baravardan ortiq o‘sishni anglatadi. Ushbu holat raqamli iqtisodiyot, elektron to‘lovlar, internet xizmatlari va masofaviy aloqa imkoniyatlarining kengayishi bilan birga kiber va raqamli firibgarlikning yangi xavf sifatida kuchayib borayotganini ko‘rsatadi [7].

Aksincha, talonchilik va bosqinchilik kabi ochiq zo‘ravonlik elementlari mavjud jinoyatlarning 2017-yildagi 1 189 tadan 2025-yilda 540 tagacha kamayishi jamoat joylarida an’anaviy jinoyatlarning ayrim turlariga qarshi kurashish mexanizmlari samaradorligi bilan bog‘liq ijobiy tendensiyalarni ko‘rsatishi mumkin.

Demak, XXI asrning uchinchi o‘n yilligida jamoat xavfsizligi siyosati faqat ko‘chadagi tartibni ta’minlash bilan cheklanmaydi. Raqamli firibgarlik, axborot xavfsizligi, ommaviy tadbirlar xavfsizligi, transport xavfsizligi, favqulodda vaziyatlar, terrorizm va ekstremizmning yangi ko‘rinishlari ham yagona xavfsizlik tizimining tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Yangi O‘zbekiston sharoitida jamoat xavfsizligini ta’minlashning muhim jihatlaridan yana biri davlat organlari bilan jamiyat o‘rtasidagi hamkorlik munosabatlarining tobora kuchayib borayotganidir.

2021-yilda qabul qilingan Jamoat xavfsizligi konsepsiyasida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolar jamoat xavfsizligini ta’minlash jarayonida ishtirok etuvchi subyektlar sifatida belgilangan. Mazkur yondashuv tarixiy nuqtayi nazardan muhim o‘zgarish bo‘lib, xavfsizlikni ta’minlash borasidagi mas’uliyatning davlat organlarigina emas, balki jamiyat bilan ham bo‘lishilishini anglatadi.

Mahalla tizimining jamoat xavfsizligi masalalariga faol jalb qilinishi hududlarda mavjud muammolarni yanada aniq va tezkor aniqlash imkoniyatini yaratadi. Chunki mahalla darajasida oilaviy nizolar, yoshlar bilan bog‘liq muammolar, ishsizlik, ijtimoiy himoyaga ehtiyojmand shaxslar hamda boshqa xavf omillari haqidagi ma’lumotlarni tezkor ravishda aniqlash va tegishli choralarni belgilash mumkin.

Mazkur yondashuv “inson – davlat” munosabatlari nuqtayi nazaridan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy jamoat xavfsizligi tizimida fuqaro faqat nazorat qilinishi lozim bo‘lgan obyekt sifatida emas, balki xavfsizlikni ta’minlash jarayonining faol va bevosita ishtirokchisi sifatida qaralishi zarur.

Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy jamoat xavfsizligi modelining samaradorligi uchta asosiy darajadagi hamkorlikka bog‘liq bo‘ladi: davlat organlari o‘rtasidagi idoralararo hamkorlik, davlat organlari va mahalla o‘rtasidagi hamkorlik hamda davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlik.

Yangi O‘zbekiston sharoitida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarni tarixiy jihatdan uchta asosiy yo‘nalish bo‘yicha baholash mumkin.

Birinchidan, institutsional transformatsiya jarayoni amalga oshirilmoqda. Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyati bir nechta davlat organlarining alohida va parallel faoliyati sifatida emas, balki o‘zaro hamkorlik, muvofiqlashtirish va yagona maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatga asoslangan yaxlit tizim sifatida shakllanmoqda.

Ikkinchidan, metodologik transformatsiya jarayoni kuzatilmoqda. Bunda faqat sodir bo‘lgan hodisalarga javob qaytarishga asoslangan reaktiv yondashuv bilan cheklanib qolmasdan, profilaktika, prognozlash va xavflarni oldindan aniqlashga qaratilgan mexanizmlar ham izchil rivojlantirilmoqda.

Uchinchidan, texnologik transformatsiya amalga oshirilmoqda. Intellektual videokameralar, yagona elektron xaritalar, ma’lumotlarni qayta ishlash markazlari, sun’iy intellekt elementlari hamda situatsion boshqaruv markazlarining joriy etilishi jamoat xavfsizligini ta’minlashning zamonaviy texnologik infratuzilmasini shakllantirmoqda.

Kelgusida mazkur tizimni rivojlantirish bir qator muhim yo‘nalishlarda davom ettirilishi mumkin. Birinchi navbatda, katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali turli xavf-xatarlarni prognozlash imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Ikkinchidan, turli davlat organlari va tashkilotlarning axborot tizimlarini yanada chuqur integratsiya qilish muhim. Uchinchidan, raqamli xavfsizlik hamda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish talab etiladi. To‘rtinchidan, xodimlarning zamonaviy texnologiyalardan

samarali foydalanish bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bunda texnologik taraqqiyot va inson huquqlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash muhim shartlardan biri hisoblanadi. Jamoat xavfsizligini ta’minlashning asosiy maqsadi nazorat choralarini kuchaytirishdan iborat bo‘lmasdan, avvalo fuqarolarning huquq va erkinliklari, hayoti hamda qonuniy manfaatlarini yanada samarali himoya qilishga qaratilishi lozim.

Yangi O‘zbekiston sharoitida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar mamlakatning mustaqillik davridagi tarixiy taraqqiyotining yangi bosqichini ifodalaydi. Mustaqillikning dastlabki yillarida milliy xavfsizlik va jamoat tartibini ta’minlashning huquqiy hamda tashkiliy asoslarini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan bo‘lsa, bugungi bosqichda mazkur tizimni profilaktik, raqamli, integratsiyalashgan va inson manfaatlariga yo‘naltirilgan model asosida rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

2021-yilda Jamoat xavfsizligi konsepsiyasining qabul qilinishi ushbu transformatsiyaning muhim tarixiy-huquqiy bosqichlaridan biri bo‘ldi. Mazkur konsepsiyada jamoat xavfsizligini ta’minlash faqat bitta davlat organining faoliyati emas, balki davlat organlari, mahalla, fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolarning o‘zaro hamkorligiga asoslangan yaxlit tizim sifatida belgilandi.

Statistik ma’lumotlar ham jamoat xavfsizligi sohasida yangi vazifalar va tahdidlar yuzaga kelayotganini ko‘rsatadi. 2017–2025-yillar davomida qayd etilgan jinoyatlar tarkibida muayyan o‘zgarishlar kuzatilgan. Xususan, firibgarlik jinoyatlarining keskin ko‘payishi

xavfsizlik siyosatida raqamli va axborot texnologiyalari bilan bog‘liq tahdidlarga qarshi kurashish yo‘nalishini yanada kuchaytirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, talonchilik va bosqinchilik kabi ayrim an’anaviy jinoyatlarning kamayishi jamoat xavfsizligini ta’minlashning an’anaviy mexanizmlarida ham ijobiy natijalarga erishilayotganini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, zamonaviy jamoat xavfsizligi modeli tarixiy tajriba va innovatsion yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unligi asosida rivojlanmoqda. Uning kelgusidagi samaradorligi davlat organlari va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash, xavflarni oldindan prognozlash, raqamli texnologiyalardan oqilona va samarali foydalanish, inson huquqlarining ishonchli kafolatlarini ta’minlash hamda jamoat xavfsizligi sohasida professional kadrlar tayyorlash sifatini oshirish bilan bevosita bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jamoat xavfsizligini ta’minlashda yangi tizim: hamma xizmatlar bir joyda. Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 7-ichki ishlar bo‘limiga tashrifi. https://www.gazeta.uz/oz/2019/01/10/xavfsizlik-tizim/

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son Farmoni. “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. https://lex.uz/docs/-5749291

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi PQ-5050-son qarori. “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini

ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”. https://lex.uz/docs/-5353841

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi PQ-10-son qarori. “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. https://lex.uz/docs/-6364837

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-martdagi PQ-4229-son qarori. “Transport va turizm obyektlarida jamoat xavfsizligini ta’minlashning samarali tizimini joriy etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. https://lex.uz/docs/-4229310

6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Ijtimoiy-iqtisodiy holat bo‘yicha statistik ma’lumotlar. Huquqbuzarlik va jinoyatchilik statistikasi, 1991–2025-yillar. https://siat.stat.uz/data/800/?lang=uz

7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. “Ro‘yxatga olingan firibgarlik jinoyatlari soni (jami)” statistik ma’lumotlar bazasi. SIAT. https://siat.stat.uz/data/901/?lang=uz&utm_source

8. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. “Ro‘yxatga olingan o‘g‘rilik jinoyatlari soni (jami)” statistik ma’lumotlar bazasi. SIAT. https://siat.stat.uz/data/888/?utm_source

9. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. “Ro‘yxatga olingan talonchilik va bosqinchilik jinoyatlari soni (jami)” statistik ma’lumotlar bazasi. SIAT.

10. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi. “Xavfsiz shahar” tizimlarini rivojlantirish markazi materiallari, 2024–2026-yillar.

11. Prezident Toshkent IIBB qo‘riqlash xizmati va “Xavfsiz shahar” tizimi faoliyati bilan tanishdi. https://www.gazeta.uz/oz/2026/01/27/security-service/

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING TASHKILIY-HUQUQIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Rashidov Rustam Rasulovich,

harbiy fanlar doktori (DSc)., dotsent

Milliy xavfsizlik tizimining bir qismi bo‘lgan jamoat xavfsizligi avvalo shaxs va jamiyatning hayotiy muhim manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo‘lsa-da, u milliy xavfsizlikning asosiy tarkibiy tuzilmasi bo‘lmish davlatning holatiga ham bevosita ta’sir qiladi. Chunki, alohida bir shaxsning yoki jamiyatdagi muayyan ijtimoiy qatlamning muammolari, manfaatlari yuqori darajaga ko‘tarilib bevosita davlat ahamiyatiga ega muammoga aylanadi hamda davlat manfaatlariga ta’sir qiladi.

Shu o‘rinda jamoat xavfsizligi o‘zi nima, ushbu tushuncha yana qanday kategoriyalar bilan aloqador degan savollar paydo bo‘lishi tabiiy.

“Jamoat xavfsizligi” tushunchasi haqida to‘g‘ridan-to‘g‘ri gapirishdan oldin, “xavfsizlik” tushunchasini kategoriya sifatida ilmiy tahlil qilish zarurdir.

Zamonaviy bosqichda kechayotgan turli siyosiy, ijtimoiy jarayonlarni kuzatish va ilmiy jihatdan o‘rganish natijasida aytish mumkinki “xavfsizlik”, “jamiyat”, “jamoat tartibi”, “jamoat xavfsizligi” kabi tushunchalarni alohida tadqiq qilishga bo‘lgan ehtiyoj oshib bormoqda. Jumladan, “xavfsizlik” tushunchasi, uning xavf va tahdid kabi kategoriyalari, obyekti va subyekti, sohalari hamda xavfsizlik tizimining ijtimoiy-falsafiy va siyosiy-huquqiy mazmuni dunyoda kechayotgan voqea va hodisalar ta’sirida bosqichma-bosqich (evolyusion) tarzda mazmunan o‘zgarib, rivojlanib kelmoqda. Zamonaviy ilm-fan doirasida “xavfsizlik” tushunchasiga alohida konsepsiya sifatida qarash va yondashish mavjud. Shundan ham ko‘rinib turibdiki, hozirgi davrda “xavfsizlik” tushunchasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, ushbu tushunchaning barcha aloqador jihatlari yuzasidan keng qamrovli o‘rganishlar, tadqiqotlar olib borish va davom ettirish zaruriyatini davrning o‘zi talab qilmoqda.

Avvalo, xavfsizlikni tushunishda “xavf-xatarning yo‘qligi holati” degan yondashuvni ko‘rib chiqish lozim bo‘ladi. Ushbu yondashuv mavjud bo‘lishiga qaramasdan, amalda hech qanday tahdid va xavf-xatar bo‘lmasligi holatini topishni o‘zi imkonsiz. Ushbu fikrni “to‘liq xavfsizlik prinsipial jihatdan mavjud emas”, shu sababli oddiy fuqarodan tortib davlat miqyosiga qadar jamiyat va davlatdagi xavfsizlikni ta’minlanganlik holatidan doimiy ogoh bo‘lib turishi maqsadga muvofiqligiga e’tibor qaratmoqchimiz. Bu borada bildirilgan

“xavfsizlik – bu xavfning yo‘qligi emas, balki undan himoyalanganlik holati” degan ta’kidni eslab o‘tish o‘rinli bo‘ladi.

Jamoat xavfsizligi va milliy xavfsizlik tushunchalari ma’lum bir yaqinligi va o‘xshashligiga qaramasdan, ushbu tushunchalar bir xil ma’noni anglatishi to‘g‘risidagi xulosaga kelish mutlaqo asossizdir, chunki tadqiqotchilarning aksariyati jamoat xavfsizligi milliy xavfsizlikning turlaridan biri ekanligini qayd etib o‘tishgan.

Umuman olganda, jamoat xavfsizligi davlat milliy xavfsizligining muhim bir qismi hisoblanadi.

“Jamoat xavfsizligi” tushunchasini nazariy o‘rganish natijasida aytish mumkinki, ushbu tushunchaga turli mualliflar tomonidan turlicha ta’riflar berilganligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekistonda ta'lim-tarbiya tizimida, ayniqsa, «Temurbeklar maktabi» kabi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari orqali yosh avlodda Vatanga muhabbat, xalqimizning tinchliksevar an'analariga sadoqat va diniy bag‘rikenglik tushunchalarini singdirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu maktablar va boshqa ta'lim maskanlarida o‘tkaziladigan «Tinchlik – buyuk ne'mat», «Vatan tinchligi – qo‘riqchilari» kabi ma'rifiy tadbirlar, davra suhbatlari, musobaqa va tanlovlar orqali yoshlarda mafkuraviy immunitet hamda turli buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi ongli munosabat shakllantirilmoqda.

O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti kabi nufuzli tuzilmalarda tinchlikni mustahkamlash, qurolsizlanish, ekologik xavfsizlik va gender tenglik masalalarini ilgari surmoqda. 2020-yilda BMT Bosh Assambleyasida qabul qilingan «Ma'rifat va diniy bag‘rikenglik» rezolyusiyasi aynan O‘zbekiston tashabbusi bilan ishlab chiqilgan bo‘lib, bu hujjat bugungi kunda dunyo miqyosida tinchlik madaniyatini yoyishda muhim yo‘nalishga aylandi.

Shu boisdan, O‘zbekiston misolida tinchlikni saqlash nafaqat ichki barqarorlik, balki global hamjamiyatda ishonch va hamkorlikni oshiruvchi strategik resurs sifatida qaralishi lozim. Mamlakatimizda olib borilayotgan barcha islohotlar, xalqaro tashabbuslar va ma'naviy-ma'rifiy sa'y-harakatlar bir narsaga – abadiy tinchlik va adolatli dunyoni qurishga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy dunyoda tinchlikning qadri har qachongidan ham yuqori va muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tinchlik — bu faqatgina xavfsizlik omili emas, balki insoniy qadr-qimmat,

taraqqiyot va baxtli kelajakning bosh shartidir. Biz barqarorlik va osoyishtalikni saqlash uchun nafaqat davlat miqyosida, balki har bir oila va jamiyat a'zosi darajasida mas'uliyatni his qilishimiz lozim. Global tahdidlarga qarshi ma'rifat, bag‘rikenglik va qat'iy hamjihatlik bilan javob berish orqali dunyoda va yurtimizda tinchlikni bardavom ta'minlashga erishish mumkin. O‘zbekistonning bu boradagi tajribasi va salohiyati kelajakda ham mintaqa va dunyo uchun namuna bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

3. Ergashev I. Globallashuv va zamonaviy xalqaro munosabatlar. – Toshkent: Akademiya, 2018.

4. Jo‘raev T. Geosiyosat va xavfsizlik asoslari. – Toshkent: Sharq, 2019.

5. Saidov A. Inson huquqlari va tinchlik madaniyati. – Toshkent: Adolat, 2020.

7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik strategiyasi. – Toshkent, 2020.

8. O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha bo‘lgan taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: Adolat, 2020.

O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY SHERIKLIK MUNOSABATLARI EVOLYUTSIYASI

Nishanbayeva E.Z.
O‘zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti dotsenti,
tarix fanlari doktori(DSc)

So‘nggi ellik yillik davr davomida turli mamlakatlarda aholi hayotini yaxshilashga qaratilgan harakatlar tarixiga nazar solsak, ularning barchasida ham fuqarolik jamiyatini mamlakatni isloh qilish ishlariga jalb qilish masalasida bir xil yondashuv bo‘lmagan. Ayrim davlatlar bu jarayonlarda faqat chet el ko‘magiga tayanishga harakat qilgan bo‘lsa, ba’zi davlatlarda bir guruh hamfikrlar kuchigagina ishonilib, keng ijtimoiy bazaga tayanmasdan tub o‘zgarishlarni amalga oshirishga harakat qilingani kuzatiladi. Bir qator mamlakatlarda esa bunday islohotlarni faqat davlatning o‘zi o‘z kuchigagina tayangan holda amalga oshirishga harakat qilingani ma’lum. Ko‘p hollarda faqat davlat apparatiga tayanib, ijtimoiy hamkorlik imkoniyatlarini inkor qilgan holda boshlangan bunday islohotlar jamiyat tomonidan qo‘llanmagani uchun ham ijobiy samara keltirmaganligi borasida tarixdan ko‘plab misollar keltirish mumkin.

O‘zbekistonda ham ijtimoiy sheriklik munosabatlari mustaqillikning dastlabki yillaridan tub o‘zgarishlarning natijadorligi davlat organlari, NNT, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘lib keldi.

Bu xususda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Bizning yana bir muhim vazifamiz – fuqarolar, davlat va jamiyat o‘rtasida o‘zaro mas’uliyat, huquq va burch bog‘liq ekaniga oid prinsipni izchil amalga oshirishdan iborat. Bu prinsip mamlakatimiz oldida turgan muhim vazifalarni hal qilishda davlat va fuqarolik jamiyati o‘rtasida samarali hamkorlikni ta’minlaydigan konstitutsiyaviy asosdir. Biz barchamiz – fuqarolar ham, jamiyat ham, davlat ham Vatanimiz ravnaqi uchun, mamlakatimizda tinchlik-barqarorlikni mustahkamlash

uchun, tarixiy, ma’naviy va madaniy merosimizni saqlash, boyitish va kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish uchun birdek mas’ulmiz”[1], deb alohida ta’kidlagan edi. Shu nuqtai nazardan fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy huquq va erkinliklarining muhofazasini ta’minlash, jamiyatdagi barqarorlikka erishish, aholi va davlat o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni yuqori bosqichga ko‘tarish”[2], ijtimoiy sheriklik munosabatlarini natijadorligiga erishish muhim masalalardan bo‘lib bordi.

Iqtisodchi olima M.Mirzakarimova “Ilmiy adabiyotlarda va amaliyotda ijtimoiy sheriklik bir xil bo‘lmagan va ko‘p jihatli ibora sifatida tavsiflanadi.

Ba’zilar uni ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, sinflar, jamoalar va ma’lum tuzilmalar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning o‘ziga xos turi sifatida; boshqalar davlat organlari, ishlovchilar va ish beruvchilar vakillari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar mexanizmi sifatida; uchinchilar esa yollanma ishchilar va ish beruvchilarning teng huquqli hamkorligi asosida maqbul muvozanatni va ularning asosiy qiziqishlari o‘xshashligiga va boshqa tomondan, mazkur tushunchani aniqlashtiradigan boshqa nuqtai nazarlarga qaramasdan, ularning asosiy qiziqishlarining amalga oshirilishini ta’minlaydigan bozor iqtisodiyotiga xos ijtimoiy mehnat munosabatlarining alohida turi sifatida izohlaydilar”[3] deb ta’kidlaydi.

Bizning nazarimizda bu mualliflik yondashuvida davlat organlari NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining o‘zaro manfaatli aloqadorligini ta’minlash xususiyatlari e’tibordan chetda qolgan bo‘lib, ijtimoiy sheriklik munosabatlarining toraytib quyadi.

Ijtimoiy sheriklik jamiyatda ehtimolli nizolarni maqbul yo‘l bilan hal etish, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni qo‘llab-quvvatlashni ham nazarda tutadi. Keyingi paytlarda turli yo‘nalishdagi ilmiy doira vakillarining unga qiziqishi ortishi mazkur fenomendan hayotning turli jabhalarida foydalanish imkoni keng ekanligidan dalolat beradi.

O‘zbekistonda ijtimoiy sheriklik munosabatlarining evolyutsiyasi haqida shuni alohida ta’kidlash lozimki, insoniyat tarixiy rivojlanishining barcha bosqichlarida adolatli va erkin jamiyat barpo etish orzusi bilan yashab keldi.

Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy sheriklik munosabatlarining genezisi va evolyutsiyasi haqida ma’lumot beruvchi nazariy manbalarni, shuningdek, bu sohaga oid g‘oyalar va konsepsiyalarni o‘rganish, mazkur jarayonda ham ijobiy, ham ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarni amalga oshirishga to‘sqinlik qiluvchi, salbiy hodisalarni aniqlashga imkon beradi. Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy sheriklik o‘zining rivojlanish va takomillashish jarayonida o‘ziga xos xususiyatlarga ega, bu tajriba barcha rivojlangan mamlakatlarda turli ijtimoiy munosabatlarni nazorat qilishda qo‘llanilishi mumkin. Hozirgi kunda ijtimoiy sheriklik bilan bog‘liq bo‘lgan va insoniyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan g‘oyalar jamiyat taraqqiyoti, undagi siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy barqarorlikni saqlashda faol qo‘llanilmoqda.

O‘zbekistonda ham mustaqillikning ilk kunlaridan mamlakatda kechayotgan jarayonlarga aholining keng ishtiroki uchun imkoniyat yaratish, ularni islohotlarga jalb etish, dahldorlik hissini shakllantirish

ishlari jadallashdi. O‘zbekistonda ijtimoiy sheriklik sohasida amalga oshirilgan ishlar bir nechta bosqichga bo‘lindi.

Birinchi bosqich: 1991-2000 - yillarda mamlakat hayotida iz qoldirgan o‘tish davri, tom ma’noda tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan davr bo‘ldi. Bu davrda va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish bilan bog‘liq birinchi galdagi islohot va o‘zgarishlar amalga oshirildi. Bu davrda ilk demokratik institutlar shakllanishi boshlandi. (siyosiy partiyalar, NNT, fuqarolik jamiyatining institutlari va h.k). Rivojlanishning kelgusi bosqichida bu institutlar fuqarolik jamiyatini shakllanishi, xususan ijtimoiy sheriklik munosabatlarining subyekti sifatida mamlakat tarixiy rivojida muhim o‘rin egalladi. NNT hamda fuqarolik institutlari shakllanishi, jamiyatda kechayotgan jarayonlarda ishtirokini ta’minlash maqsadida 1991- yil 15- fevralda 223-XII – son O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi”[4], 1991-yil 26-iyunda Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi” Qoraqalpog‘iston Respublikasining Qonuni qabul qilindi[5]. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi, “Jamoat fondlari to‘g‘risida”gi boblarda belgilab berildi[6]. 1999- yil 14- aprelda 763-1-son “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Shundan so‘ng Respublika hayotida aholini ijtimoiy himoyasi, ta’lim, ilmfan, yosh avlodni tarbiyalash, madaniyat va san’at, sog‘liqni saqlash, shuningdek, tarixiy, ma’naviy qadriyatlar masalalarini hal qilishda

mustaqillikning ilk yillardan boshlab turli darajadagi jamoat birlashmalari,

nodavlat notijorat tashkilotlar tashkil etildi. Jumladan, “Ulug‘bek” nomidagi respublika iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi, “Navro‘z”
hayriya jamg‘armasi, Respublika “Mahalla” hayriya jamg‘armasi, “Mehrshafqat”, “Sog‘lom avlod uchun” jamg‘armasi, Ijodkor yoshlarning
“Iste’dod” Respublika jamg‘armasi, “Umid”, “Ustoz”, “Oltin meros”, O‘zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash “Nuroniy” jamg‘armasi
kabilar tashkil etildi.

Ikkinchi bosqich: 2001-2010-yillar, jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiyalashtirish davri bo‘ldi. Bu davr ijtimoiy sheriklik jamiyatdagi turli guruh, qatlam, millat va din vakillarining turli sohalardagi manfaatlarini uyg‘unlashtirish asosida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish shaklida namoyon bo‘ldi. Shuningdek, ijtimoiy sheriklik fuqarolik jamiyati institutlarining roli va ta’sirini oshirish, huquq va vakolatlari doirasini yanada kengaytirish omili sifatida namoyon bo‘ldi. Ko‘ppartiyaviylik tizimining meyoriy-huquqiy asoslari shakllantirildi, ikki palatali parlamentga o‘tildi. 2007-yil 3-yanvarda O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-76-son “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunlari ijtimoiy sheriklikni mustahkamlashdagi muhim asos bo‘ldi. 2008-yil 3-iyulda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi bilan Senat “Nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. NNTlarning huquqiy asoslari takomillashtirildi.

Uchinchi bosqich: 2010-2016- yillarni o‘z ichiga olib, O‘zbekistonda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish borasida jiddiy islohotlar oshirildi. Mamlakatda fuqarolik jamiyatni rivojlantirish, uning huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ko‘plab hujjatlar qabul qilindi. Bu davrda mamlakatda «Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» qabul qilindi. Konsepsiyada belgilangan vazifalarni ijro etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi senati 2014- yil 28- avgustda “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonun hujjatini ko‘rib chiqdi. Yig‘ilishda qonunda belgilangan mamlakatni modernizatsiya qilish va demokratik yangilashning ustuvor yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy sheriklining asosiy sohalari, chunonchi aholini ijtimoiy muhofaza qilish, aholi bandligini ta’minlash, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash, atrof – muhitni muhofaza qilish, aholi salomatligii saqlash, arkamolavlodni tarbiyalash, xotin -qizlar huquqlarini himoya qilish, aholining huquqiy bilimini oshirish kabi masalalar o‘rin oldi. Qonun qabul qilinishidan avval Belgiya, Janubiy Koreya, Germaniya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya, kanada, AQSH, Yaponiya va boshqa davlatlarning ijtimoiy sheriklikning huquqiy tartibga solish mexanizmi ishlab chiqildi[7]. 2014-yil 25-sentabrda esa O‘RQ-376 - son O‘zbekiston Respublikasining “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi[8]. Unda aynan ijtimoiy sheriklik sohalari belgilandi. Nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining davlat

organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoatchilik-maslahat organlari faoliyatida ishtirok etishi, birgalikda tadbirlar, maslahatlashuvlar va muzokaralar o‘tkazish, birgalikdagi loyihalar va rejalarni ishlab chiqish hamda ijtimoiy sheriklik subyektlari o‘rtasida o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, axborot almashish kabi sheriklikning asosiy shakllari belgilab berildi.

Undan tashqari «Ekologik nazorat to‘g‘risida»gi[10], «Davlat boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida»gi[11] Qonunlar qabul qilindi. Ijtimoiy sheriklik fuqarolik jamiyati institutlarining roli va ta’sirini oshirish, huquq va vakolatlari doirasini yanada kengaytirish omili sifatida namoyon bo‘ldi. Ijtimoiy sheriklik asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirishda, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash borasida davlat organlarining jamoat tashkilotlari bilan hamkorligining mexanizmlarini takomillashtirish-ning to‘laqonli huquqiy tayanchi bo‘lib xizmat qilishiga shart-sharoit yaratildi. Xususan, yuqorida qayd etilgan qonunlar asosida fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat-notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim subyektiga aylandi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a’zo davlatlarning Parlament Assambleyasi tomonidan 2006-yil 16- noyabrda qabul qilingan «Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida»gi namunaviy qonun[12] O‘zbekistonda bu munosabatlarning shakllanishi va rivoji uchun ham xizmat qildi. Mamlakatimizda ushbu qonunning loyihasi dastlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011- yil 14- yanvardagi PF-3562-sonli Farmoyishi bilan tasdiqlangan Komissiya tomonidan ishlab chiqildi[13].

Ushbu Komissiya tarkibining qariyb yarmini nodavlat sektor vakillari tashkil etganligi, qonunning nechog‘li nodavlat notijorat tashkilotlari manfaatlarini aks ettirishga qaratilganligini bildirdi.

Ta’kidlash lozimki, qonunning loyihasini tayyorlashda, avvalo, ijtimoiy sheriklik sohasidagi huquqni qo‘llash amaliyoti, bu boradagi milliy qonunchilik, umume’tirof etilgan prinsiplar va xalqaro huquq normalari hamda ushbu masala bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi o‘rganib chiqildi.

Biroq, amaliyotda kuzatuvlardan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, nodavlat notijorat tashkilotlarning maqsad va vazifalari doirasi kengayganligi, faoliyat sohasi ko‘payganligi va ularning yangi qirralari ochilayotganligi, nodavlat notijorat tashkilotlarning jamiyat hayotiga integratsiyasi kuchayotganligi munosabati bilan ayrim nodavlat notijorat tashkilot-larning faoliyatiga oid qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Istiqlol davrida mamlakatimizda nodavlat notijorat tashkilotlarning samarali faoliyat yuritishi uchun normativ-huquqiy bazalarni takomillashtirishga katta e’tibor qaratildi. Bugungi kunda ularning huquqiy maqomi, roli va ahamiyatini kuchaytirishga qaratilgan 200 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilindi[14].

To‘rtinchi bosqich: 2017-yilda boshlanib, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning amaliy jihatlarini namoyon bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Yuqoridagi keltirilgan 200 dan ortiq hujjatlarning asosiylari shu davrda ham qabul qilindi. Ayni paytda mamlakatni tubdan isloh qilishga qaratilgan “2017-2021- yillarda O‘zbekiston Respublikasini

rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”[15] mamlakat rivojining yangi bosqichini boshlab berdi.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi qabul qiligach, Xalq qabulxonalari va virtual qabulxonalar tashkil etildi. Fuqarolik jamiyati institutlari hamda NNTlarning jamiyatda tutgan o‘rni va mavqeini oshirishga maqsadida davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi ijtimoiy sheriklik aloqalarini yanada mustahkamlashning samarali usullaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-maydagi “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi maxsus Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonga muvofiq Prezident huzurida davlatning va fuqarolik institutlarini jamiyat hayotini yanada har tamonlama jadal rivojlantirish asosida hamkorlik harakatlarini birlashtiruvchi zamonaviy demokratik institutlar faoliyatini samaradorligini ta’minlashga qaratilgan Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha Maslahat kengashi tashkil etildi.

Harakatlar strategiyasida keyin O‘zbekistonda 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi hamda “O‘zbekiston 2030” strategiyasi ishlab chiqildi. Ushbu strategiyalar va 2023-yilda qabul qilingan Yangi tahrirdagi Konstitutsiya mamlakatimizda ijtimoiy sheriklik munosabatlarini yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Shu ma’noda Ijtimoiy sheriklik jamiyat rivojining strategik nuqtai nazaridan fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi demokratik aloqadorlikning o‘ziga xos modeli hamdir. Uning o‘ziga xos jihati shundan iboratki, bunday fenomen negizida hozirgi zamon talablariga

javob bera oladigan yangi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar shakllandi. Bu borada ijtimoiy sheriklik fuqarolik jamiyati instituti vakillarining birgalikdagi va yakka tartibdagi xatti-harakati samaradorligini oshirish, ularning faoliyat ko‘lamini kengaytirish uchun muhim omillardan biriga aylanadi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, ijtimoiy sheriklik munosabatlarining evolyutsiyasini o‘rganishga intilish qadim zamonlardan beri mavjud. Ijtimoiy sheriklik nazariyasi hozirgi sharoitda ijtimoiy fanlardagi muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lsada, uning shakllanish tarixi, evolyutsiyasi, Yangi O‘zbekistonni barpo etishdagi ahamiyati nisbatan kam o‘rganilgan muammolar sirasiga kiradi.

Foydalanilgan manbalar.

1.Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi// https://www.prezident.uz/uz/lists/view/

2.Ахмедшаева, М. А. Социальное партнёрство - необходимое условие углубления демократических реформ в Узбекистане / М. А. Ахмедшаева // Сборники конференций НИЦ Социосфера. – 2014. – № 54. – С. 7-11.

3.Mirzakarimova M., Xaydarov M. Ijtimoiy sheriklik va samarali bandlik. Monografiya. - Toshkent: 2014. –B.4.

4.https://lex.uz/docs/111825?ONDATE2=18.05.2022&action=compare.

5.https://joqargikenes.uz/oz/1770.html.

6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.”Адолат” миллий ҳуқуқий ахборот маркази nashriyoti. Toshkent: 2023. –B.39-42.

7.Xidirov Q. Demokratik taraqqiyot mezoni // Xalq so‘zi. 2014 йил,№26

8.O‘zbekiston Respublikasining 25 sentabr 2014 yil O‘RQ-376-son “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonuni. https://lex.uz/docs/2468214?ONDATE2=21.04.2021&action=compare.

9.O‘zbekiston Respublikasining 25 sentabr 2014 yil O‘RQ-376-son “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonuni. https://lex.uz/docs/2468214?ONDATE2=21.04.2021&action=compare.

10.O‘zbekiston Respublikasining «Ekologik nazorat» to‘g‘risidagi 2013 yil 27 dekabrdagi O‘RQ-363-sonli Qonuni // https://lex.uz/acts/2304953

11.O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi” to‘g‘risidagi 2014 yil 5 maydagi O‘RQ-369-sonli Qonuni // https://lex.uz/docs/2381133?ONDATE=15.09.2017.

12.Информационный бюллетень, 2007, №39. –М.: –С. 12.

13.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 14 yanvardagi «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish sohasini amalga oshirish chora-tadbirlari» to‘g‘risidagi F-3562-sonli Farmoyishi // https://lex.uz/docs/2269329?ONDATE=14.01.2011

14.Maxmudov B. Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini tartibga solishning huquqiy jihatlari // Международный научный журнал «Научный импульс». -№8(100), часть март, 2023. – 34 бет.

15.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi

2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni // https://lex.uz/docs/3107036#3109146

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA DAVLAT TILIDA ISH YURITISH MADANIYATI VA HARBIY SOHADA TERMINOLOGIYANI MILLIYLASHTIRISH MASALALARI

Botirova Soliyaxon Ro‘zivoyevna
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Toshkent “Temurbeklar maktabi”
harbiy-akademik litseyi
ona tili va adabiyot fani bosh o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada mustaqillikning 35 yilligi arafasida davlat tilida ish yuritish madaniyatini yuksaltirish hamda harbiy soha terminologiyasini milliylashtirish masalalari tahlil etiladi. PF-5850 va PF-6084-son farmonlar asosida yaratilgan huquqiy-institutsional muhit, Atamalar komissiyasining amaliy faoliyati yoritilib, “Temur tuzuklari”, “Boburnoma” kabi manbalardagi tarixiy harbiy leksika zamonaviy harbiy hujjatchilik tili bilan qiyoslanadi. H.Dadaboyev, A.Madvaliyev, N.Mahmudov qarashlari qiyosiy o‘rganilib, terminologiyani milliylashtirishning tabaqalashtirilgan tamoyillari yuzasidan muallifning shaxsiy xulosalari bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: *davlat tili, ish yuritish madaniyati, harbiy terminologiya, atamalarni milliylashtirish, Atamalar komissiyasi, tarixiy harbiy leksika, harbiy ta’lim.*

Аннотация. В статье анализируются вопросы повышения культуры делопроизводства на государственном языке и

национализации военной терминологии в условиях Нового Узбекистана. Освещаются правовая и институциональная база, созданная указами ПФ-5850 и ПФ-6084, практическая деятельность Терминологической комиссии; историческая военная лексика «Уложения Тимура» и «Бабур-наме» сопоставляется с языком современного военного делопроизводства. На основе сравнительного анализа взглядов Х.Дадабаева, А.Мадвалиева и Н.Махмудова излагаются авторские выводы о дифференцированных принципах национализации терминов.

Ключевые слова: *государственный язык, культура делопроизводства, военная терминология, национализация терминов, Терминологическая комиссия, историческая военная лексика, военное образование.*

Abstract. The article analyses the enhancement of record-keeping culture in the state language and the nationalisation of military terminology in the context of New Uzbekistan. It reviews the legal and institutional framework created by Decrees PF-5850 and PF-6084 and the practical work of the Terminology Commission, and compares the historical military lexicon of the “Tuzuk-i Timuri” and the “Baburnama” with the language of modern military paperwork. Drawing on a comparative study of the views of H. Dadaboyev, A. Madvaliyev and N. Mahmudov, the author formulates conclusions on differentiated principles for nationalising military terms.

Keywords: *state language, record-keeping culture, military terminology, nationalisation of terms, Terminology Commission, historical military lexicon, military education.*

Mustaqillikning o‘ttiz besh yillik tarixi — bu, avvalo, milliy o‘zlikni anglash va ona tilimizning davlat tili sifatidagi qomatini tiklash tarixidir. 1989-yil 21-oktabrda “Davlat tili haqida”gi Qonunning qabul qilinishi istiqlol sari qo‘yilgan ilk dadil qadamlardan bo‘lgan bo‘lsa, 1995-yilda uning yangi tahriri qabul qilindi, oradan o‘ttiz yil o‘tib esa Prezidentimizning 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son Farmoni til siyosatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Farmonda ta’kidlanganidek, har qaysi mustaqil davlat “...ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga jiddiy ahamiyat qaratishi tabiiydir”. Ayni shu hujjat bilan 21-oktabr yurtimizda O‘zbek tili bayrami kuni etib belgilandi.

2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son Farmon bilan tasdiqlangan 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan Konsepsiya davlat tilining qo‘llanish maydonini yanada kengaytirdi: unda davlat boshqaruvi, bank-moliya tizimi, huquqshunoslik va diplomatiya qatorida harbiy ish sohasida ham o‘zbek tilining imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishish strategik maqsad sifatida belgilandi. Zero, davlat tili kazarmadan tortib shtab xonasigacha, harbiy qasamyod matnidan jangovar buyruqqacha bo‘lgan butun makonda to‘laqonli yashamas ekan, uning davlat tili maqomi to‘kis bo‘lmaydi.

Til va tafakkur birligi xususida mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub”da shunday yozadi: “Til muncha sharaf bila nutqning olatidur va ham nutqdurki, agar nopisand zohir bo‘lsa, tilning ofatidur” [1, 16-b.]. Hazrat “Muhokamat ul-lug‘atayn”da esa turkiy tilning tuganmas boyligini ilmiy dalillar bilan isbotlab bergan edi [2, 36-

b.]. Demak, so‘zning salohiyati uni qo‘llovchining madaniyati bilan o‘lchanadi. Harbiy xizmatchi uchun esa so‘z — ikkinchi qurol: buyruqning aniq ifodasi ba’zan taqdirlarni hal qiladi.

Konsepsiyaning bosh maqsadlaridan biri — barcha davlat organlari va tashkilotlarida davlat tilida ish yuritish salohiyatiga ega malakali kadrlar faoliyatini ta’minlashdir. Bu talab harbiy tuzilmalarga ham to‘liq taalluqli: shtab hujjatidan tortib o‘quv-jangovar reja-konspektigacha bo‘lgan barcha bitiklar davlat tilida puxta yuritilishi zamon talabiga aylandi. Ana shu o‘rinda harbiy ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining zimmasiga alohida mas’uliyat yuklanadi: ular kursantga nafaqat imlo qoidasini, balki so‘zga sadoqatni — hujjatga davlatchilik ramzi sifatida qarash madaniyatini singdirishlari lozim.

Ayni paytda harbiy soha o‘tgan asrda deyarli to‘liq rus tilida shakllangan hujjatchilik an’anasini meros qilib oldi. Shu bois Yangi O‘zbekiston sharoitida ikki vazifa uzviy bog‘liqlikda hal etilishi lozim: birinchidan, davlat tilida ish yuritish madaniyatini yuksaltirish; ikkinchidan, harbiy terminologiyani ilmiy asosda milliylashtirish.

Bugun harbiy qismlar va ta’lim muassasalarida buyruq (prikaz), farmoyish (rasporyajeniye), bayonnoma (protokol), dalolatnoma (akt), ma’lumotnoma (spravka), tavsifnoma (xarakteristika), yo‘riqnoma (instruksiya) kabi atamalar rasmiy muomalada mustahkam o‘rin oldi. Sobiq “voyenkomat” bugun Mudofaa ishlari bo‘limi, “voyenniy bilet” harbiy guvohnoma, “ustav” nizom, “prisyaga” Harbiy qasamyod, “stroyevaya podgotovka” saf tayyorgarligi, “karaulnaya slujba” qorovul xizmati deb yuritilmoqda. Qizig‘i shundaki, qorovul so‘zi asli turkiycha

bo‘lib, rus tiliga “karaul” shaklida o‘zlashgan va endilikda o‘z bag‘rimizga qaytgan “sayyoh so‘z”lardan biridir. O‘quv-jangovar faoliyat sohasida ham milliy atamalar izchil qaror topmoqda: jangovar tayyorgarlik, otish tayyorgarligi, saf mashqi, qo‘riqlash va mudofaa, o‘q-dorilar, aloqa ta’minoti, tibbiy ta’minot kabi birikmalar bugun har qanday reja-konspektning tabiiy tiliga aylandi. Kuzatuvlarimiz shuni ko‘rsatadiki, davlat tilidagi namunaviy raport uch unsurning uyg‘unligini talab qiladi: aniq adresat (kimga), lo‘nda bayon (nima yuzasidan) hamda imzo va sana; ana shu oddiy qolipni puxta egallagan kursant murakkabroq hujjatlarni ham bexato tuza oladi.

H.Dadaboyev ta’kidlaganidek, “harbiy leksika o‘zbek tilining qadimiy qatlamlaridan biri bo‘lib, uning hamma rivojlanish bosqichlarida kuzatiladi” [5, 37-b.]. Qadimgi turkiy yodgorliklarda cherik, sü (qo‘shin), alp, tuman, ming kabi birliklar faol qo‘llangan; temuriylar davri manbalarida tavachi, hiravul, chandovul, barong‘or (o‘ng qanot), javong‘or (so‘l qanot), g‘ul (markaz) singari atamalar butun bir jangovar tartibot tizimini ifodalagan. “Boburnoma”da qo‘shin tuzilishi aynan shu istilohlar vositasida hayratlanarli aniqlik va ixchamlikda tasvirlanadi [4, 214-b.]. Sohibqiron Amir Temurning “...davlat ishlarining to‘qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim” degan e’tirofi [3, 89-b.] harbiy tafakkurimizda so‘z va tadbir qilichdan ustun qo‘yilganini ko‘rsatadi. Demak, milliylashtirish uchun tayanch xayoliy emas, tarixan sinalgan zaxiradir: H.Dadaboyev tuzgan “Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati” [6, 75-b.] ana shu zaxirani tizimlashtirib berdi, olimning H.Yodgorov bilan hammualliflikdagi “O‘zbek harbiy terminologiyasi”

o‘quv qo‘llanmasi esa sohani alohida fan sifatida o‘qitish imkonini ochdi.

H.Dadaboyev tarixiy manbalardagi harbiy leksikani milliylashtirishning tabiiy tayanchi deb biladi va istiqlol yillarida bu jarayon jonlanganini qayd etadi [5, 41-b.]. A.Madvaliyev esa atamashunoslikda tizimlilik, ma’no aniqligi va xalqaro an’anaga hurmatni ustuvor sanaydi: barqarorlashgan baynalmilal terminlarni sun’iy siqib chiqarish, olimning fikricha, ilmiy muloqotga rahna solishi mumkin [7, 112-b.]. N.Mahmudov til taraqqiyotida me’yor va tabiiylikni himoya qilib, har qanday yangilik avvalo tilning ichki qonuniyatlari hamda xalq didi sinovidan o‘tishi lozimligini uqtiradi [8, 19-b.]. Ko‘rinadiki, uch olim bir-birini inkor etmaydi, balki masalaning uch qirrasini — tarixiy davomiylik, ilmiy tizimlilik va kommunikativ maqbullikni yoritadi.

Demak, harbiy terminologiyani milliylashtirishda yagona andoza emas, tabaqalashtirilgan yondashuv samaralidir. Birinchi guruh — tilda yashab turgan yoki oson tiklanadigan tarixiy atamalar (qorovul, saf, qo‘shin, bo‘linma, qism, tug‘, posbon): ular ikkilanmay me’yorlashtirilishi kerak. Ikkinchi guruh — kalka va yangi yasalmalar (o‘qotar qurol, zirhli texnika, uchuvchisiz uchish apparati): ular sohaviy ekspertiza hamda jamoatchilik sinovidan o‘tib, bosqichma-bosqich joriy etiladi; “tikuchar” taklifining taqdiri ham aynan shu sinovga bog‘liq. Uchinchi guruh — jahon standartiga aylangan baynalmilal terminlar (radar, raketa, batalon, poligon): ularni saqlash xalqaro harbiy-texnikaviy hamkorlik hujjatlari bilan moslik nuqtayi nazaridan maqsadga muvofiqdir.

Yangi atamani me’yorlashtirishda to‘rt mezonga tayanish muhim: ma’no aniqligi, ixchamlik, tilning so‘z yasash qoliplariga mosligi hamda uyadoshlik, ya’ni atamaning mavjud termin qatoriga tabiiy kirisha olishi. Chunonchi, “uchuvchisiz uchish apparati” birikmasi ma’no jihatidan benuqson, ammo cho‘ziq; jonli nutqda esa “dron” o‘zlashmasi yashab turibdi. Bunday dubletlik holatlarida rasmiy hujjatda to‘liq milliy shaklni, tezkor muloqotda qisqa muqobilni qo‘llash, vaqt sinovi qaysi birini tanlashini kuzatish oqilona yo‘ldir. Aslida bu yo‘l yangilik emas: Alisher Navoiy davridayoq turkiy istilohlar forsiy va arabiy muqobillar bilan yonma-yon yashab, tilning o‘z saralash qudrati orqali muomalada mustahkamlangan edi.

Shuni ham alohida ta’kidlash joizki, ish yuritish madaniyati atamalar ro‘yxatidan ko‘ra kengroq tushunchadir. U rasmiy-idoraviy uslubning aniqlik, lo‘ndalik, bir ma’nolilik talablariga rioya etishni, imlo va tinish belgilarining qat’iy me’yorini, harbiy hujjatga xos buyruq ohangining tilimiz tabiatiga uyg‘un ifodasini qamrab oladi. Buyruq matnidagi bitta noaniq so‘z — safdagi bitta noto‘g‘ri qadam demakdir. Shu ma’noda har bir shtab xodimi, har bir kursant uchun til madaniyati harbiy intizomning uzviy qismi sifatida qaralishi lozim. Ayni paytda ikki xavfdan — loqayd aralash nutqdan ham, tilni “tozalash” bahonasidagi sun’iy so‘z yasashdan ham birdek saqlanish zarur.

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, mustaqillik yillarida, ayniqsa, 2019-yildan keyingi davrda davlat tilining harbiy sohaga izchil kirib borishi uchun mustahkam huquqiy-institutsional asos yaratildi. Ikkinchidan, harbiy ish yuritishda buyruq, bayonnoma, dalolatnoma, ma’lumotnoma singari milliy hujjat nomlari barqarorlashtirish ishlarini

izchil davom ettirishni taqozo etadi. Uchinchidan, “Temur tuzuklari”, “Boburnoma” va boshqa yodgorliklardagi tarixiy harbiy leksika milliylashtirishning ishonchli manbayi bo‘lib, tabaqalashtirilgan yondashuv — tarixiy atamalarni tiklash, yangi yasalmalarni sinovdan o‘tkazish, baynalmilal terminlarni saqlash — ilmiy jihatdan eng asosli yo‘ldir. To‘rtinchidan, harbiy ta’limda til madaniyati harbiy intizomning unsuri sifatida o‘qitilishi kursantning kasbiy va ma’naviy kamolotiga birdek xizmat qiladi. Zero, qilich davlatning kuchini ko‘rsatsa, so‘z uning ruhini ko‘rsatadi: davlat tilida bexato bitilgan har bir harbiy hujjat mustaqillik sha’niga qo‘yilgan ehtirom belgisidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub / Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 14-jild. – Toshkent: Fan, 1998.
2. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug‘atayn / Mukammal asarlar to‘plami. 16-jild. – Toshkent: Fan, 2000.
3. Temur tuzuklari / A.Sog‘uniy va H.Karomatov tarjimasi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Sharq, 2002.
5. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Nodirabegim, 2019. – 117 b.
6. Dadaboyev H. Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati. – Toshkent, 2024. – 341 b.
7. Madvaliyev A. O‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.
8. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig‘i. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.

YANGI O ‘ZBEKISTON TA‘LIM ISLOHOTLARI SHAROITIDA “TEMURBEKLAR MAKTABI”DA MATEMATIKA FANIDAN INDIVIDUAL MUSTAQIL ISHLAR UCHUN DIDAKTIK MAJMUA YARATISH METODIKASI

Shoyliyev Salohiddin Baxtiyarovich,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Toshkent —*“Temurbeklar maktabi”*
\ harbiy-akademik litseyi matematika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Zamonaviy ta‘lim islohotlari va kompetensiyaviy yondashuv sharoitida o‘quvchida mustaqil bilim olish, o‘z-o‘zini nazorat qilish va mas’uli yatli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi mustaqil ta‘lim faoliyatining ahamiyati tobora ortib bormoqda, ayniqsa «Temurbeklar maktablari” kabi harbiylashtirilgan tartib-intizomli ta’lim muassasalarida bu ko‘nikmalar o‘quvchining kelgusi harbiy xizmat faoliyati uchun ham zaruriy sifatlardan hisoblanadi. Biroq amaliyotda mustaqil ta’lim ko‘pincha oddiy uy vazifasi bilan cheklanib qolmoqda, bu esa o‘quvchida mustaqil fikrlash va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini yetarlicha rivojlantirmaydi. Shu sababli maqolaning maqsadi —“Temurbeklar maktabi”da matematika fanining istalgan mavzusi uchun qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan individual mustaqil ishlar didaktik majmuasini qanday ishlab chiqish lozimligini yagona, ilmiy asoslangan metodik algoritm orqali asoslashdan iborat. Tadqiqot metodologiyasini ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, o‘quv amaliyotini kuzatish, didaktik modellashtirish hamda topshiriqlarni murakkablik darajasi bo‘yicha tabaqalashtirish tashkil etadi. Ishlab chiqilgan sakkiz bosqichli algoritm — didaktik tahlil,*

maqsadlarni belgilash, nazariy minimum, namunaviy yechim, tabaqalashtirilgan topshiriqlar, amaliy vaziyatlar, refleksiya, monitoring va baholash — mazkur maqolada "To‘plamlar va ular ustida amallar" mavzusi misolida bosqichma-bosqich namoyish etiladi. Natijalar algoritmning universal xususiyatga ega ekanligini, uni matematika fanining boshqa mavzulariga va "Temurbeklar maktabi"ning boshqa fanlariga ham tatbiq etish mumkinligini ko‘rsatadi. Maqolaning amaliy ahamiyati shundaki, u o‘qituvchilarga har qanday mavzu bo‘yicha mustaqil ishni ilmiy asoslangan tartibda loyihalashtirish imkonini beruvchi tayyor metodik vositani taqdim etadi, bu esa Yangi O‘zbekistonda ta‘lim sifatini oshirish va mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga qodir raqobatbardosh kadrlar tayyorlash vazifasiga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *didaktik majmua yaratish metodikasi, mustaqil ta’lim, "Temurbeklar maktabi", kompetensiyaviy yondashuv, ta’lim islohotlari, tabaqalashtirilgan topshiriqlar, to‘plamlar nazariyasi.*

Mustaqil ta‘lim faoliyati zamonaviy pedagogikada o‘quvchining bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash, shuningdek mustaqil fikrlash, o‘z-o‘zini nazorat qilish va mas’uli yatli qaror qabul qilish kabi amaliy faoliyatda namoyon bo‘ladigan kompetensiyalarni shakllantirishning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi: aynan mustaqil ish jarayonida o‘quvchi tayyor bilimni qabul qiluvchidan o‘z bilim olish faoliyatini mustaqil rejalashtiruvchi va nazorat qiluvchi shaxsga aylanadi. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan ta‘lim tizimini tubdan yangilashga qaratilgan islohotlar va kompetensiyaviy yondashuv sharoitida aynan shu —

o‘quvchining mustaqil bilim olish faoliyatini ilmiy asoslangan tizim orqali tashkil etish — dolzarb pedagogik vazifalardan biriga aylanmoqda.

Bu vazifa Yangi O‘zbekistonda tashkil etilgan “Temurbeklar maktablari” sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu ta‘lim muassasalari yosh avlodni yuksak bilim, mustahkam intizom va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga, kelajakda mamlakat mudofaasi va jamoat xavfsizligini ta’minlashga qodir raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi. Harbiylashtirilgan tartib-intizom sharoitida o‘quvchi nafaqat o‘qituvchi rahbarligida, balki mustaqil ravishda ham bilim olishga, o‘z vaqtini to‘g’ri taqsimlashga o‘rganishi lozim, bu esa uning kelgusi harbiy xizmat faoliyatida ham zarur bo‘ladigan sifatlardir.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, “Temurbeklar maktablari”da ham, boshqa umumta’lim muassasalarida bo‘lgani kabi, matematika fanidan mustaqil ta’lim ko‘pincha uy vazifalari yoki qo‘shimcha mashqlar bilan cheklanib qolmoqda, natijada o‘quvchining mustaqil fikrlashi, o‘z-o‘zini nazorat qilishi va refleksiya ko‘nikmalari yetarli darajada rivojlanmaydi. Shu sababli “Temurbeklar maktabi” sharoitida matematika fanidan individual mustaqil ishlar didaktik majmuasini qanday ishlab chiqish lozimligini — uni alohida bir vosita sifatida emas, balki istalgan mavzu uchun qo‘llash mumkin bo‘lgan yagona, ilmiy asoslangan metodik algoritm ko‘rinishida shakllantirishni — asoslash dolzarb pedagogik masala hisoblanadi. Mazkur maqolada aynan shunday — “Temurbeklar maktabi” da matematika fanining istalgan mavzusi uchun didaktik majmua yaratishning metodik algoritmi asoslanadi, uning amaliy qo‘llanilishi esa “ To‘plamlar va ular ustida amallar” mavzusi misolida

bosqichma-bosqich ko‘rsatib beriladi. Bunday yondashuvning amaliy ahamiyati shundaki, u o‘qituvchiga istalgan mavzu bo‘yicha mustaqil ishni ilmiy asoslangan tartibda tez va sifatli loyihalashtirish imkonini beruvchi tayyor metodik vositani taqdim etadi.

Matematika fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish masalasi pedagogika va xususiy metodika sohasida bir qator tadqiqotlarda yoritilgan. Bozarov D.U. matematika fanini o‘rganishda o‘quvchilarda mustaqil ishlash malakalarini shakllantirishning nazariy-amaliy jihatlarini tahlil qilib, topshiriqlarni oddiydan murakkabga o‘tish tamoyili asosida tuzish zarurligini asoslaydi [1, 126-b.]; ammo bu tamoyil yagona didaktik majmua tarkibida boshqa komponentlar — nazariy eslatma, monitoring va baholash — bilan bog‘liq holda ko‘rsatilmagan. Qurbonova M.F. mustaqil ishlarni tashkil etishni o‘quvchilarning o‘quv-bilish kompetentsiyalarini shakllantirish va xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashning samarali vositasi sifatida baholaydi [2, 1668-b.], biroq bunday tayyorgarlikni ta’minlovchi aniq metodik algoritm tadqiqotda keltirilmagan. Терехова Н.В. va Овчинникова С.В. texnik OTMlarda talabalarning mustaqil ishi (SRS)ning didaktik funksiyalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida asoslab, uning auditoriya va auditoriyadan tashqari turlarini ko‘rsatadilar [3, 219-b.]; bu yondashuv oliy ta‘lim sharoitiga mo‘ljallangan bo‘lib, umumta‘lim va harbiy-akademik litsey sharoitiga bevosita moslashtirilmagan. Белоконова С.С. va Медведкин Н.А. zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish mustaqil ta’limni individuallashtirish imkonini berishini ko‘rsatadilar [4, 21-b.], Уразикова Ю.В. esa internet-resurslardan foydalanishning o‘quvchida

o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi rolini asoslaydi [5, 162-b.]; ikkala tadqiqotda ham texnologik vosita alohida omil sifatida ko‘rilib, uni yagona didaktik tizim komponentlari bilan bog'lash masalasi chetda qolgan.

Tahlil qilingan manbalarning umumiy xulosasi shundan iboratki, ularning har biri mustaqil ta’limni tashkil etishning alohida jihatini — tamoyillarni, kompetensiyaviy asoslarni yoki texnologik vositalarni — muvaffaqiyatli yoritgan, biroq bu jihatlarni nazariy minimum, namunaviy yechim, tabaqalashtirilgan topshiriqlar, amaliy vaziyatlar, refleksiya hamda monitoring-baholashni o‘z ichiga oluvchi yagona, istalgan mavzuga tatbiq etiladigan metodik algoritm ko‘rinishida birlashtirish masalasi, xususan “Temurbeklar maktabi” ga xos harbiylashtirilgan ta‘lim sharoitida, yetarlicha ishlab chiqilmagan. Mazkur bo‘shliq ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi ilmiy-pedagogik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish, “Temurbeklar maktabi”dagi o‘quv amaliyotini kuzatish va umumlashtirish, didaktik modellashtirish hamda topshiriqlarni murakkablik darajasi bo‘yicha tabaqalashtirish usullariga asoslanadi. Ushbu usullar asosida matematika fanining istalgan mavzusi uchun qo‘llash mumkin bo‘lgan didaktik majmua yaratishning sakkiz bosqichli metodik algoritmi ishlab chiqildi.

1. Didaktik tahlil. mavzuning o‘quv dasturidagi o‘rni, undan oldingi va keyingi mavzular bilan bog'liqligi hamda o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi aniqlanadi.

2. Maqsadlarni belgilash. mavzu bo‘yicha o‘quvchi egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar aniq shakllantiriladi.

3. Nazariy minimum. mavzuning eng zarur tushuncha va formulalari qisqa, tushunarli shaklda bayon etiladi.

4. Namunaviy yechim. nazariy minimumga asoslangan holda kamida bitta to‘liq yechilgan masala keltiriladi.

5. Tabaqalashtirilgan topshiriqlar. tayanch, o‘rta va yuqori darajadagi topshiriqlar tizimi tuziladi.

6. Amaliy vaziyatlar. mavzu o‘quvchining kundalik yoki kasbiy, jumladan harbiy-amaliy, faoliyati bilan bog'liq real vaziyatlar orqali mustahkamlanadi.

7. Refleksiya. o‘quvchiga xato yechim yoki noaniq mulohaza taqdim etiladi, uning vazifasi xatoni topish, tushuntirish va to‘g‘ri yechimni keltirishdan iborat bo‘ladi.

8. Monitoring va baholash. o‘quvchi natijalari oddiy monitoring varag‘ida qayd etiladi va oldindan belgilangan mezonlar asosida baholanadi.

Ushbu bosqichlar ketma-ketligi quyidagi sxemada aks ettirilgan:

Sxema. Didaktik tahlil → Maqsadlarni belgilash → Nazariy minimum → Namunaviy yechim → Tabaqalashtirilgan topshiriqlar → Amaliy vaziyatlar → Refleksiya → Monitoring va baholash.

Algoritmning har bir bosqichidagi maqsad, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati hamda kutilayotgan natija 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval. Didaktik majmua yaratish algoritmi bosqichlari

Bosqich	**Maqsad**	**O‘qituvchi faoliyati**	**O‘quvchi faoliyati**	**Kutilayotgan natija**
1.	Mavzuning	Mavzuni	Mavzu	Majmua

Bosqich	Maqsad	O‘qituvchi faoliyati	O‘quvchi faoliyati	Kutilayotgan natija
Didaktik tahlil	o‘quv dasturidagi o‘rnini va o‘quvchilar tayyorgarligini aniqlash	oldingi/keyingi mavzular bilan bog'liqligini tahlil qiladi	bo‘yicha dastlabki bilim darajasini namoyon etadi	mazmunining o‘quvchi imkoniyatiga moslashtirilishi
2. Maqsadlarni belgilash	Egallanishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni aniqlash	O‘quv maqsadlarini aniq va o‘lchanadigan shaklda shakllantiradi	Maqsadlar bilan tanishadi va ularni tushunib oladi	Mustaqil ish yo‘nalishining aniqligi
3. Nazariy minimum	Mavzuning zarur tushuncha va formulalarini qisqa bayon etish	Asosiy tushunchalarni ixcham shaklda taqdim etadi	Nazariy materialni mustaqil o‘zlashtiradi	Mustaqil ish uchun tayanch bilim
4. Namunaviy yechim	Nazariy minimumni amaliy namunada	Kamida bitta to‘liq yechilgan masalani	Yechim mantig'ini kuzatadi va tahlil qiladi	Topshiriqlarni bajarish uslubini o‘zlashtirish

Bosqich	Maqsad	O‘qituvchi faoliyati	O‘quvchi faoliyati	Kutilayotgan natija
	ko‘rsatish	izohlaydi		
5. Tabaqalashtirilgan topshiriqlar	Turli tayyorgarlik darajasiga individual yondashuvni ta'minlash	Tayanch, o‘rta va yuqori daraja topshiriqlarini tuzadi	O‘z darajasiga mos topshiriqni mustaqil bajaradi	Bosqichma-bosqich murakkablashuvchi ko‘nikma
6. Amaliy vaziyatlar	Mavzuni real hayotiy/kasbiy vaziyatga tatbiq etish	Kundalik yoki harbiy-amaliy mazmundagi masala tanlaydi	Nazariy bilimni amaliy masalada qo‘llaydi	Bilimning amaliy ahamiyatini anglash
7. Refleksiya	O‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmasini rivojlantirish	Xato yechim yoki noaniq mulohaza taqdim etadi	Xatoni topadi, tushuntiradi va to‘g‘rilaydi	Mustaqil tahlil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmasi
8. Monitoring va baholash	Natijalarni vaqt bo‘yicha kuzatib borish	Monitoring varag‘ini yuritadi, mezonlar asosida	O‘z natijasi bo‘yicha aloqa oladi	Progressni izchil kuzatish va o‘z vaqtida tuzatish

Bosqich	Maqsad	O‘qituvchi faoliyati	O‘quvchi faoliyati	Kutilayotgan natija
		baholaydi		

“To‘plamlar va ular ustida amallar” mavzusi yuqorida asoslangan algoritmning barcha bosqichlarini amalda namoyish etish uchun namuna sifatida tanlangan.

1. Didaktik tahlil. mavzu matematika kursida o‘rganiladi va undan keyingi kombinatorika, statistika hamda ehtimollar nazariyasi mavzularini o‘zlashtirish uchun tayanch hisoblanadi.

2. Maqsad. o‘quvchi to‘plamlarning kesishmasi, birlashmasi va ayirmasi tushunchalarini bilishi, ularni sonli va matnli masalalarni yechishda qo‘llay olishi lozim.

3. Nazariy minimum. to‘plamlarning kesishmasi ($A \cap B$) — ikkala to‘plamga ham tegishli elementlar; birlashmasi ($A \cup B$) — kamida bitta to‘plamga tegishli barcha elementlar; ayirmasi ($A \setminus B$) — A ga tegishli, lekin B ga tegishli bo‘lmagan elementlar. Ikki va uch to‘plam uchun elementlar sonini hisoblashda $|A \cup B| = |A| + |B| - |A \cap B|$ hamda $|A \cup B \cup C| = |A| + |B| + |C| - |A \cap B| - |B \cap C| - |A \cap C| + |A \cap B \cap C|$ formulalaridan foydalaniladi.

4. Namunaviy yechim. $A = \{2,4,6,8,10,12\}$ va $B = \{3,6,9,12,15\}$ to‘plamlari berilgan bo‘lsin. $A \cap B$ ni topish uchun ikkala to‘plamga ham tegishli elementlar aniqlanadi: $A \cap B = \{6,12\}$. $A \cup B$ ni topish uchun esa ikkala to‘plamning barcha elementlari takrorlanmasdan yoziladi: $A \cup B = \{2,3,4,6,8,9,10,12,15\}$.

5. Tabaqalashtirilgan topshiriqlar. Oddiydan murakkabga tamoyili asosida tuzilgan topshiriqlar tizimi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval. “To‘plamlar va ular ustida amallar” mavzusi bo‘yicha tabaqalashtirilgan topshiriqlar

Daraja	Topshiriq mazmuni
1. Tayanch daraja	A = {2,4,6,8,10,12}, B = {3,6,9,12,15} to‘plamlari uchun A∩B va A∪B ni toping.
2. Tayanch daraja	A = {x | x 12 soni bilan qoldiqsiz bo‘linadigan natural son, x ≤ 50} to‘plamini sanab yozing.
3. O‘rta daraja	A = {x∈Z | -4≤x≤4}, B = {x∈Z | x²≤9} to‘plamlari berilgan. A\B va B\A to‘plamlarini toping.
4. O‘rta daraja	Sinfdagi 32 o‘quvchidan 20 tasi shaxmat, 15 tasi shashka to‘garagiga qatnaydi, 9 tasi ikkalasiga ham qatnaydi. Hech qaysi to‘garakka qatnashmaydigan o‘quvchilar sonini toping.
5. Yuqori daraja	A, B, C to‘plamlar uchun |A|=15, |B|=18, |C|=12, |A∩B|=6, |B∩C|=5, |A∩C|=4, |A∩B∩C|=2 ma'lum. |A∪B∪C| ni toping.
6. Amaliy topshiriq	Litseyning bir kursida 40 nafar kursantdan 22 tasi otish mashqida, 19 tasi jismoniy tayyorgarlik musobaqasida ishtirok etgan, 8 tasi ikkalasida ham qatnashgan. Faqat bitta musobaqada qatnashgan kursantlar sonini toping.
7. Milliy	A va B to‘plamlar uchun |A|=11, |B|=9, |A∩B|=5 ma'lum.

Daraja	Topshiriq mazmuni
sertifikat / SAT uslubidagi topshiriq	|A∪B| nechaga teng? A) 10 B) 15 C) 20 D) 25. Javobingizni asoslang.
8. Refleksiv topshiriq	O‘quvchi A={1,2,3}, B={3,4,5} to‘plamlari uchun “A∩B=∅, chunki A va B turli sonlardan iborat” deb yozgan. Xatoni toping, tushuntiring va to‘g‘ri yechimni keltiring.

6. Amaliy vaziyat. Mazkur bosqichda o‘quvchilar mavzuni real hayotiy yoki kasbiy vaziyatlar bilan bog‘liq masalalar orqali mustahkamlaydi. “To‘plamlar va ular ustida amallar” mavzusi uchun namunaviy amaliy topshiriq 2-jadvalning 6-bandida keltirilgan.

7. Refleksiya. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida xato yechimni tahlil qilishga oid refleksiv topshiriq tavsiya etiladi. Mazkur mavzu bo‘yicha namunaviy refleksiv topshiriq 2-jadvalning 8-bandida berilgan.

8. Monitoring va baholash. tayanch daraja topshiriqlarining to‘g'ri bajarilishi — “qoniqarli ” baho uchun asos; o‘rta daraja va amaliy topshiriqning to‘g'ri yechilishi — “yaxshi” baho uchun asos; yuqori daraja, milliy sertifikat uslubidagi hamda refleksiv topshiriqning barchasi to‘g‘ri va asoslab bajarilishi — “a’lo” baho uchun asos. Natijalar mavzu, sana, bajarilgan daraja va xatolar tavsifini o‘z ichiga

olgan oddiy monitoring varag‘iga qayd etiladi, bu o‘quvchi progressini vaqt bo‘yicha kuzatib borish imkonini beradi.

Taklif etilgan didaktik majmua yaratish algoritmining amaliyotga tatbiq etilishi bir qator afzalliklarni ko‘rsatadi. Birinchidan, algoritmning didaktik tahlil va maqsadlarni belgilash bosqichlari mazmunni har bir mavzu va o‘quvchilar guruhi xususiyatlariga moslashtirish imkonini beradi, bu esa uni nafaqat “To‘plamlar va ular ustida amallar” , balki matematika fanining boshqa mavzulari — masalan, funksiyalar, statistika yoki geometriya mavzulari uchun ham qo‘llash mumkinligini ko‘rsatadi. Ikkinchidan, nazariy minimum va namunaviy yechim bosqichlari o‘quvchiga mustaqil ishni boshlash uchun zarur tayanch nuqtani beradi, bu vazifani tushunmay qolish holatlarini kamaytiradi. Uchinchidan, tabaqalashtirilgan topshiriqlar bosqichi turli tayyorgarlik darajasidagi o‘quvchilarga individual yondashuvni ta’minlaydi va har bir o‘quvchini o‘z darajasidan asta-sekin yuqoriga ko‘tarilishga undaydi. To‘rtinchidan, amaliy vaziyatlar va refleksiya bosqichlari o‘quvchida mavzuni real hayotiy va, jumladan, harbiy-amaliy vaziyatlarga tatbiq etish hamda o‘z xatolarini mustaqil tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Beshinchidan, monitoring va baholash bosqichi o‘qituvchiga har bir o‘quvchining natijalarini vaqt bo‘yicha kuzatib borish va zarur hollarda o‘z vaqtida tuzatish kiritish imkonini beradi.

Algoritmning muhim xususiyati uning universalligidir: sakkiz bosqichli tuzilma mavzuga bog‘liq bo‘lmagan umumiy mantiqqa asoslangani sababli, uni matematika fanining istalgan mavzusiga, shuningdek “Temurbeklar maktablari” ning boshqa fanlariga ham tatbiq etish mumkin. Bu, o‘z navbatida, o‘qituvchining metodik tayyorgarlikka

sarflaydigan vaqtini qisqartiradi va mustaqil ishlar sifatini oshiradi. Kengroq nuqtai nazardan, taklif etilgan metodika o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, o‘z-o‘zini nazorat qilish va mas’uliyat kabi sifatlarni shakllantirish orqali ularning kelgusi harbiy va huquqni muhofaza qilish sohasidagi kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshirishga, demak, Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta‘lim islohotlari va mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga qodir raqobatbardosh kadrlar tayyorlash vazifasiga bilvosita xizmat qiladi. Tadqiqotning cheklovi shundaki, taklif etilgan algoritmning samaradorligi hozircha bitta mavzu misolida ko‘rsatib berilgan; uni turli mavzular va o‘quvchi guruhlarida tizimli qo‘llash natijalarini miqdoriy baholash keyingi tadqiqotlar mavzusi bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, matematika fanidan individual mustaqil ishlar uchun didaktik majmua yaratishda tizimli metodik yondashuvni qo‘llash mustaqil ta’limni samarali tashkil etishning muhim shartlaridan biridir. Maqolada tavsiya etilgan didaktik majmua yaratish algoritmi o‘qituvchilarga har qanday mavzu bo‘yicha mustaqil ishlarni izchil rejalashtirish, ularni o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga mos holda tashkil etish hamda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Mazkur metodik tavsiyalarni amaliyotga joriy etish matematika ta’limi sifatini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil ta’lim kompetensiyalarini rivojlantirish va “Temurbeklar maktablari” da individual mustaqil ta’limni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bozarov D.U. Matematika fanidan mustaqil ishlash malakalarini shakllantirish yo‘llari // Yangi O‘zbekiston ilmiy tadqiqotlar jurnali. — 2025. — 2-jild, 6-son, 2-qism. — B. 125–127.
2. Qurbonova M.F. Mustaqil ishlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarni PIRLS xalqaro baholash dasturiga tayyorlash // Scientific progress. — 2021. — Vol. 2, Issue 1. — B. 1665–1671.
3. Терехова Н.В., Овчинникова С.В. Организация самостоятельной работы студентов при изучении математических дисциплин в техническом вузе // Современное педагогическое образование. — 2024. — № 11. — С. 218–222.
4. Белоконова С.С., Медведкин Н.А. Использование современных информационных технологий в организации самостоятельной работы в обучении математики. — 2022. — В. 16–28.
5. Уразикова Ю.В. Организация самостоятельной работы обучающихся при помощи интернет-ресурсов как фактор их успешности в цифровой образовательной среде // Вестник Московского городского педагогического университета. Серия «Педагогика и психология». — 2022. — Т. 16, № 3. — С. 155–171.

YANGI O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI HUKUMATNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Abdullayev Diyorbek Azadovich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi

Hozirgi kunda raqamlashtirish va raqamli transformatsiya barcha sohalarni qamrab olgan bo‘lib, davlat va jamiyat hayotidagi eng muhim mavzulardan biriga aylandi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida raqamli hukumatni takomillashtirish istiqbollari nafaqat texnologik modernizatsiya, balki davlat boshqaruvi samaradorligini institutsional jihatdan mustahkamlash jarayoni sifatida qaralishi zarur. Istiqbolli rivojlanish uch asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: birinchidan, raqamli inklyuziyani kengaytirish; ikkinchidan, “servis davlat” modelini to‘liq joriy etish; uchinchidan, ma’lumotlarga asoslangan ochiq va natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimini shakllantirish.

Shu bilan birga, raqamli hukumatning takomillashtirilishi Yangi O‘zbekiston siyosiy modernizatsiyasining ichki mantiqini ham ifoda etadi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining siyosiy-huquqiy mazmuni raqamli transformatsiyani faqat texnik yangilanish emas, balki davlat hokimiyati subyektlari, fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolarning o‘zaro munosabatlarini qayta formatlaydigan chuqur siyosiy jarayon sifatida talqin etadi. Mazkur jarayon David Iston ta’kidlagan “kirish-chiqish” (input–output) modelida fuqarolarning talab va manfaatlarini raqamli kanallar orqali tezroq qabul qilish, ularni siyosiy qarorlar va davlat dasturlari ko‘rinishida tezkor qayta ishlab, jamiyatga ochiq va hisobdor formatda yetkazish bilan tavsiflanadi.

Raqamli hukumatning istiqbollari, aslida, mamlakat siyosiy tizimida “hisobdor davlat” konsepsiyasini institutsional darajada mustahkamlashga xizmat qiladi. Chunki raqamli boshqaruv mexanizmlari orqali qaror qabul qilish jarayonining izchilligi, davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining kengayishi, ochiq ma’lumotlar va raqamli hisobotlar amaliyoti siyosiy tizim legitimligini mustahkamlovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon

bo‘ladi. Shu ma’noda, raqamli hukumatni rivojlantirish bo‘yicha belgilangan maqsadlar O‘zbekistonda demokratiya sifatini oshirish, fuqarolarning siyosiy ishtiroki va davlatga bo‘lgan ishonchini kuchaytirish bilan bevosita bog‘langan bo‘lib, bu jarayon siyosiy transformatsiyaning “yumshoq” va evolyutsion yo‘l bilan amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi.

Yana bir muhim jihat shundan iboratki, raqamli hukumatning istiqbollari “Yangi O‘zbekiston – xalqchil davlat” konsepsiyasi bilan uyg‘un holda fuqaroni faqat xizmat oluvchi subyekt emas, balki davlat siyosatini hamkorlikda shakllantiruvchi faol siyosiy aktor sifatida ko‘rish zaruratini kuchaytiradi. Strategiya doirasida ko‘rilayotgan chora-tadbirlar, jumladan, raqamli platformalar orqali kollektiv fikr almashinuvi, onlayn muhokamalar, jamoatchilik eshituvi va so‘rovnomalari mexanizmlari fuqarolik jamiyati institutlarini davlat boshqaruvining ajralmas hamkori sifatida kuchaytirish imkonini bermoqda. Natijada raqamli hukumat Yangi O‘zbekiston sharoitida nafaqat texnik innovatsiya, balki davlat–jamiyat munosabatlarining yangi siyosiy modeli sifatida maydonga chiqmoqda.

Strategiya doirasida belgilangan raqamli transformatsiyaning eng muhim istiqbol yo‘nalishlaridan biri mamlakatni mintaqaviy “IT-HUB”ga aylantirish, IT-xizmatlar eksportini 5 milliard AQSH dollariga yetkazish va BMT Elektron hukumat rivojlanish indeksi bo‘yicha dunyoning TOP-30 mamlakati qatoriga kirish maqsadidir[1]. Bu maqsad bevosita PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston – 2030” Farmoni va raqamli hukumat siyosatining amaldagi yo‘nalishlari bilan uyg‘unlashgan bo‘lib, davlat sektorida raqamli infratuzilmani to‘liq

modernizatsiya qilish, optik tolali tarmoqlar va keng polosali internet bilan 100 foiz qamrovga erishish hamda barcha aholi punktlarini yuqori tezlikdagi internet bilan ta’minlash orqali elektron xizmatlarning hududlar kesimidagi asimmetriyasini kamaytirishni nazarda tutadi. Bunda raqamli hukumat endilikda faqat “onlayn xizmatlar to‘plami” emas, balki iqtisodiyotning raqamli sektori, eksportga yo‘naltirilgan IT-klasterlar, startap ekotizim va xalqaro raqamli kompaniyalar uchun ochiq “Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi” bilan birgalikda kompleks siyosiy-iqtisodiy platforma sifatida shakllanib bormoqda[2].

“Raqamli hukumatni takomillashtirish istiqbollari”ning ikkinchi muhim blokini davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimini to‘liq raqamlashtirish orqali “Servis davlat” modeliga o‘tish tashkil etadi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida 77-maqsad raqamli xizmatlar ulushini 100 foizga yetkazish, barcha davlat xizmatlarini elektron formatda ko‘rsatish, ularning kamida yarmiga faqat Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaat qilish tartibini joriy etish vazifasini qo‘yadi. Shu bilan birga, kompozit va proaktiv xizmatlar sonini ko‘paytirish, kamida 300 xil xizmatni xususiy sektor subyektlari orqali taqdim etish, litsenziya va ruxsat berish tartib-taomillarini sezilarli qisqartirish ko‘zda tutilgan[3]. Bu siyosiy-huquqiy yo‘nalish amalda “byurokratik davlat”dan “servis davlat”ga o‘tishning raqamli mexanizmi bo‘lib, fuqarolarning davlat idoralari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotini minimallashtirib, ularning vaqt va transaksion xarajatlarini kamaytirishga, korrupsiya risklarini pasaytirishga, shu bilan birga davlat boshqaruvining legitimligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Raqamli xizmatlarning “3 qadam”, “foydalanuvchi uchun moslashtirilgan”,

“barchasi bitta mobil ilovada” tamoyillari asosida standartlashtirilishi esa OECD raqamli hukumat siyosatining foydalanuvchiga yo‘naltirilganlik va “data-driven public sector” prinsiplari bilan uyg‘un bo‘lib, Yangi O‘zbekiston modelining global standartlarga integratsiyalashuvini kuchaytiradi.

Mazkur model davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishning uchta asosiy parametrini mustahkamlaydi: birinchidan, xizmat ko‘rsatish vaqtining qisqarishi; ikkinchidan, fuqarolarning davlat bilan bevosita aloqalarining minimallashuvi orqali korrupsiyaviy risklarning kamayishi; uchinchidan, davlat xizmatlari ko‘rsatish jarayonining standartlashuvi va avtomatlashtirilishi natijasida tranzaksiya xarajatlarining pasayishi. Shu jihatdan, “servis davlat” konsepsiyasi raqamli hukumatning amaliy samaradorlik mezonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Raqamli hukumatni takomillashtirish istiqbollari uchinchi yo‘nalish sifatida davlat boshqaruvini raqamli ma’lumotlarga tayanadigan, natijaga yo‘naltirilgan va ochiq hisobdorlik asosida ishlaydigan tizimga aylantirishni nazarda tutadi. PF-158 Farmonida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini ijro etish ustidan monitoring va jamoatchilik nazorati mexanizmlari alohida belgilangan: Adliya vazirligi, Hisob palatasi, “Taraqqiyot strategiyasi” markazi va “Yuksalish” umummilliy harakati strategiya bajarilishini muntazam raqamli monitoring qilish, natijalarni har oy Respublika komissiyasiga taqdim etish hamda BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg‘unlikni tahlil qilishga mas’ul etib belgilanadi[4]. Bunda alohida siyosiy ahamiyatga ega nuqta – “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi – xalq strategiyasi” shiori ostida

maxsus onlayn portal ishga tushirilishi, unda fuqarolar belgilangan maqsad va indikatorlar bo‘yicha islohotlar ijrosini baholashi, o‘z fikr-mulohazalari va tashabbuslarini yo‘llashi ko‘zda tutilganidir. Bu mexanizm raqamli hukumatni faqat “hizmat ko‘rsatuvchi platforma” emas, balki deliberativ siyosiy ishtirok va jamoatchilik nazoratini raqamli formatda amalga oshiruvchi demokratik institut sifatida rivojlantirish istiqbolini ochadi[5].

To‘rtinchidan, strategiya raqamli hukumatni hududiy boshqaruv va mahalliy demokratiya bilan integratsiya qilish istiqbollarini ham aniq belgilab beradi. 74-76-maqsadlarda mahalla institutini “jamoatchilik va davlat organlari o‘rtasidagi tayanch ko‘prik”ga aylantirish, mahallalarda 100 dan ortiq davlat xizmatlarini “bir qadamda” ko‘rsatish, mahalla jarayonlarini 100 foiz raqamlashtirish va “elektron xizmat nuqtalari”ni ishga tushirish vazifalari qo‘yilgan. Shu bilan bir qatorda, hokimliklarning funksiyalarini optimallashtirish, vakolatlarning bir qismini mahalliy darajaga desentralizatsiya qilish, mahalliy kengashlar faoliyatini bosqichma-bosqich raqamlashtirish, “vakolatlar reyestri”ni yaratish kabi chora-tadbirlar rejalashtirilgan. Mazkur yo‘nalish raqamli hukumatni vertikal boshqaruv iyerarxiyasining yuqori pog‘onasidagina emas, balki mahalla darajasiga qadar “singdirish” orqali siyosiy ishtirokni hududiy darajada kengaytirish, xizmatlar sifatini real vaqt rejimida monitoring qilish va mahalliy siyosiy institutlar javobgarligini oshirishga qaratilgan. Natijada “Servis davlat” modeli mahalla darajasida raqamli jamoatchilik kengashlari, ochiq byudjet va “mahalla tashabbusi” kabi mexanizmlar bilan boyib, fuqarolarning kundalik

hayotidagi aniq muammolarni tezkor yechishning yangi siyosiy-texnologik formatlari yuzaga keladi.

Beshinchidan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi raqamli hukumat istiqbollarini sektorlar kesimida chuqurlashtirish orqali “butun davlat miqyosida raqamli boshqaruv” konsepsiyasini shakllantiradi. Masalan, sog‘liqni saqlash sohasida barcha tibbiyot muassasalarini 100 foiz raqamlashtirish, birlamchi bo‘g‘in xizmatlarini raqamli registrlar va klinik protokollar asosida optimallashtirish, yuqori texnologik tibbiy xizmatlar va telemeditsina imkoniyatlarini kengaytirish vazifalari belgilangan. Qishloq xo‘jaligida suv resurslarini boshqarish, irrigatsiya tizimi va suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish raqamli monitoring tizimlari orqali amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, bu “aqlli qishloq xo‘jaligi” va “aqlli suv xo‘jaligi” elementlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Energetika sohasida esa barcha turdagi energiya resurslari hisobini yuritishni to‘liq raqamlashtirish, bozorni tartibga soluvchi mustaqil regulyator faoliyatini raqamli ma’lumotlar bazalariga tayanib tashkil etish, hisoblagichlar va “aqlli” tarmoqlar orqali iste’molni boshqarish kabi vazifalar qo‘yilgan. Ushbu chora-tadbirlar raqamli hukumatni alohida “IT-loyiha” emas, balki sog‘liqni saqlash, energetika, suv xo‘jaligi, transport-logistika, atrof-muhitni muhofaza qilish kabi strategik tarmoqlarning boshqaruv paradigmasini tubdan o‘zgartiradigan transversal siyosiy institutsiya sifatida shakllantirish istiqbolini anglatadi.

Oltinchidan, raqamli hukumatni takomillashtirish istiqbollari bevosita normativ-huquqiy islohotlar va davlat huquqiy siyosatining modernizatsiyasi bilan chambarchas bog‘langan. 80-maqsad doirasida

qonunchilik hujjatlarini maqbullashtirish, tartibga solish yukini kamida 30 foizga qisqartirish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladigan qonunlarning ulushini 60 foizga yetkazish, normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini 100 foiz monitoring qilish kabi vazifalar raqamli normativ boshqaruvning tamoyillarini shakllantirmoqda. Qonun ijodkorligi jarayonini reglamentlash, tartibga solish ta’siri bahosini (RIA) keng qo‘llash, “korrupsiyadan xoli qonunchilik” tamoyilini raqamli ekspertiza va “compliance-an’analar” bilan uyg‘unlashtirish korrupsiyani qabul qilish indeksida kamida 50 pog‘onaga ko‘tarilish maqsadi bilan bevosita bog‘langan. Shu orqali raqamli hukumat faqat xizmat ko‘rsatish emas, balki normativ boshqaruvning shaffofligi, huquqiy ishonch va institutsional legitimlikni kuchaytirish uchun ham asosiy vosita sifatida shakllanadi[6].

Yettinchidan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining amalga oshirilishi fonida O‘zbekistonning xalqaro reytinglar va indekslardagi ko‘rsatkichlari raqamli hukumat istiqbollarini baholash uchun muhim empirik mezon sifatida namoyon bo‘lmoqda. BMT Elektron hukumat rivojlanish indeksi bo‘yicha 2024-yilgi hisobotda O‘zbekiston 0,7999 ko‘rsatkich bilan 193 davlat orasida 63-o‘rinni egallab, “juda yuqori EGDI” guruhiga kirgani, avvalgi hisobotga nisbatan 6 pog‘onaga ko‘tarilgani qayd etilgan[7]. 2025-yilga kelib mamlakat nafaqat EGDI, balki GovTech Maturity Index bo‘yicha ham yuqori natijalarga erishib, raqamli davlatni rivojlantirishda ilg‘or islohotchilar qatoriga yaqinlashgani ta’kidlanmoqda[8]. Bu tendensiyalar “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan TOP-30 maqsadining siyosiy-institutsional asoslari yetarli ekanini, biroq kelgusi bosqichda raqamli

xizmatlar sifatini oshirish, fuqarolar ishtirokini kengaytirish va ma’lumotlarga asoslangan boshqaruvni chuqurlashtirish talab etilishini ko‘rsatadi. Shunday ekan, istiqbolda nafaqat ko‘rsatkichlarning miqdoriy o‘sishi, balki raqamli hukumatning adolat, ochiqlik, hisobdorlik va inson huquqlarini ta’minlashdagi sifat jihatidan o‘rnini mustahkamlash hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Nihoyat, PF-158 doirasida raqamli hukumatni takomillashtirishning siyosiy istiqbollari xavfsizlik, kiberbarqarorlik va axborot suverenitetini ta’minlash bilan chambarchas bog‘langan. Strategiyada fuqarolarning axborotni erkin izlash va tarqatish huquqlarini kafolatlash bilan bir qatorda, milliy internet makonida kiberxavfsizlikni kuchaytirish, destruktiv axborot oqimlari va radikallashuvning oldini olish, axborotdan foydalanish madaniyatini yuksaltirish vazifalari belgilangan. Bu, bir tomondan, global raqamli makonda ochiqlik va erkinlik tamoyillariga sodiqlikni, ikkinchi tomondan esa milliy axborot infratuzilmasi, ma’lumotlar bazalari va strategik tizimlarni himoya qiluvchi mustahkam kiberxavfsizlik arxitekturasini barpo etishni nazarda tutadi. Strategiyaning ushbu yo‘nalishlari amalga oshirilishi natijasida O‘zbekistonda raqamli hukumat faqat xizmat ko‘rsatish va boshqaruv samaradorligini oshirish vositasi emas, balki milliy xavfsizlikning muhim komponenti, suverenitet va siyosiy barqarorlikni mustahkamlovchi kompleks siyosiy institut sifatida shakllanib borishi ko‘zda tutilgan.

Raqamli hukumatni takomillashtirish istiqbollarining navbatdagi fundamental yo‘nalishi – bu davlat boshqaruvi tizimida institutsional uyg‘unlik va platformaviy boshqaruv tamoyillarini shakllantirishdir.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi davlat sektorini raqamli o‘zgartirishda “bitta ekotizim” yondashuvini davlat siyosatining ustuvor tamoyili sifatida belgilaydi. Bu yondashuvga ko‘ra, davlat xizmatlari, ma’lumotlar almashinuvi, idoralararo integratsiya va boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish jarayonlari bir-biri bilan to‘liq bog‘langan, o‘zaro mos va sinxron ishlaydigan yagona raqamli boshqaruv arxitekturasiga asoslanishi lozim. Mazkur tamoyil Castells ta’riflagan “tarmoqlashgan davlat modeli”ning O‘zbekiston sharoitiga mos, yanada amaliy ko‘rinishidir.

Yangi O‘zbekiston sharoitida raqamli hukumatning yana bir muhim istiqboli – bu GovTech ekotizimini shakllantirish va davlat boshqaruvini innovatsion texnologik yechimlar bilan integratsiyalashdir. GovTech – bu faqat texnologik loyiha emas, balki davlat boshqaruvining yangi falsafasi bo‘lib, unda davlat xizmatlari, boshqaruv jarayonlari va siyosiy ishtirok sun’iy intellekt, big data, raqamli identifikatsiya, bulut texnologiyalari va avtomatlashtirilgan analitik platformalar orqali amalga oshiriladi. BMTning E-Government Survey hisobotlarida qayd etilishicha, raqamli hukumatning yangi bosqichi aynan GovTech yechimlarining davlat sektoriga chuqur singdirilishi bilan belgilanmoqda.

O‘zbekiston uchun bunday model bir necha strategik ustunliklarni beradi:

1. **Davlat funksiyalarining avtomatlashtirilishi** – xizmatlar tezlashadi, inson omilidan keladigan xatolar kamayadi, korrupsion risklar qisqaradi.

2. **Samaradorlikning o‘lchanishi** – ma’lumotlar asosida qaror qabul qilish, idoralar faoliyatini natijadorlik indikatorlari bo‘yicha baholash imkoniyati oshadi.

3. **Fuqarolar bilan muloqotning yangi formati** – real vaqt rejimida raqamli dialog, muammolarga tezkor javob, ochiq axborot oqimi shakllanadi.

4. **Jamoatchilik ishtirokining kuchayishi** – ONLAYN monitoring, reytinglar, “xalq bahosi”, ochiq budjet, ochiq ma’lumotlar siyosati fuqarolarning siyosiy faolligini oshiradi.

Shuningdek, raqamli hukumatni takomillashtirish istiqbollari siyosiy modernizatsiya jarayoni bilan ham bevosita bog‘liqdir. Yangi O‘zbekiston siyosiy tizimida ustuvor bo‘lgan “hisobdor davlat”, “samarali boshqaruv”, “fuqaroga yo‘naltirilgan xizmatlar”, “ochiq hukumat” tamoyillarining amalda ro‘yobga chiqishi aynan raqamli boshqaruv mexanizmsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Davlat hokimiyati organlarining legitimligi, siyosiy jarayonlarda fuqarolik ishtiroki, davlat–jamiyat o‘rtasidagi ishonchning mustahkamlanishi kabi indikatorlar zamonaviy sharoitda raqamli hukumatning sifatiga bevosita bog‘liq bo‘lib bormoqda.

Raqamli hukumat istiqbollarining yana bir strategik yo‘nalishi – bu xalqaro standartlar va global indikatorlar bilan uyg‘unlashuvdir. O‘zbekistonning EGDI, E-Participation Index, GovTech Maturity Index kabi reytinglarda barqaror o‘sish qayd etilayotgani mamlakatda raqamli boshqaruv tizimining siyosiy-institutsional asoslari tobora mustahkamlanib borayotganini ko‘rsatadi. Kelgusida ushbu reytinglarda TOP-30 va undan yuqori pog‘onalarga intilish davlat sektorini yanada

chuqur integratsiyalangan, zamonaviy, ochiq va mobil boshqaruv modeliga o‘tkazishni talab qiladi. Bu jarayon, o‘z navbatida, demokratik ishtirokni kengaytirish, huquqiy davlat tamoyillarini kuchaytirish, siyosiy tizimning barqarorligini oshirish kabi siyosiy maqsadlar bilan uzviy bog‘liqdir.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining raqamli davlat infratuzilmasini takomillashtirishga oid bandlari, hamda keyingi yillarda qabul qilingan qaror va amaliy chora-tadbirlar aniq ko‘rsatdiki – O‘zbekiston raqamli hukumatni nafaqat konsepsiya darajasida, balki amalda keng qamrovda joriy etish bosqichiga o‘tdi. Bugungi kunda quyidagi asosiy yo‘nalishlarda sezilarli natijalar va istiqbollar shakllangani ko‘zga tashlanadi.

Bugungi kunda “Raqamli hukumat” va “Servis davlat” konsepsiyalari doirasida davlat xizmatlarini raqamlashtirish va onlayn ko‘rsatish jadal davom etmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yilda yangi qaror bilan (“Raqamli hukumat” dastur doirasida) jami 41 ta ustuvor loyiha tasdiqlangan, va bunda davlat xizmatlarining onlayn ko‘rsatish ulushini 70 % ga yetkazish maqsadi qo‘yilgan.

Xuddi shunday ma’lumotga ko‘ra, 2026-yildan boshlab hududlarda mahalliy darajadagi xizmatlar – ya’ni mahalla, oilalar, ijtimoiy yordam, kadastr va ko‘chmas mulk reyestri – “Raqamli mahalla” platformasi orqali raqamlashtiriladi[9].

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasidagi raqamli transformatsiya bandlari nafaqat davlat xizmatlariga, balki boshqa tarmoqlar – ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya, kadastr, hududiy boshqaruv, “mahalla” tizimi kabi ko‘plab sohalarga integratsiyalashgan. Bu esa

raqamli hukumatni faqat bir sektor darajasidagi loyiha emas, balki butun davlat boshqaruvi arxitekturasini tubdan qayta loyihalash mexanizmi sifatida ko‘rish imkonini beradi[10].

Xususan, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarida elektron hujjat va xizmatlar, telemeditsina, onlayn darsliklar va elektron sog‘liq registrlari joriy etilishi;

Mahalla va ijtimoiy himoya tizimlarida “Raqamli mahalla”, yagona reyestrlar bilan aholi ma’lumotlarini yuritish va xizmat ko‘rsatish;

Qishloq xo‘jaligi, irrigatsiya, energetika, infratuzilma singari sohalarda raqamli monitoring, ma’lumotlar bazasi, integratsiya va boshqaruv – “aqlli davlat”, “aqlli infratuzilma” konsepsiyalari orqali amalga oshirilishi;

Demak, “raqamli hukumat” O‘zbekiston uchun ko‘p-tarmoqli, davlat boshqaruvi va ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning integratsiyalashgan, zamonaviy va samarali institutsional modeli sifatida shakllanmoqda.

Shu bilan birga, Raqamli hukumatning istiqbolli yo‘nalishlarini baholashda “raqamli tafovut” va “raqamli inklyuziya” kategoriyalari markaziy ahamiyat kasb etadi. Raqamli tafovut infratuzilmadagi farqlar bilan cheklanmay, siyosiy resurslarga kirish, raqamli kompetensiyalar va ishtirok motivatsiyasidagi nomutanosiblikni ham qamrab oladi; shu bois raqamli xizmatlar yirik shaharlar va iqtisodiy faol guruhlar doirasida konsentratsiyalashsa, uzoq muddatda siyosiy tengsizlik risklari kuchayadi. Shuning uchun raqamli inklyuziya uch yo‘nalishda yuritilishi zarur:

1) infratuzilma – hududlar bo‘yicha yuqori tezlikdagi internet qamrovini tenglashtirish;

2) institutsional – raqamli xizmatlardan foydalanishdagi huquqiy-tashkiliy to‘siqlarni minimallashtirish va xizmat dizaynini soddalashtirish;

3) madaniy-ma’rifiy – raqamli savodxonlik hamda axborot xavfsizligi va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish.

Shuningdek, raqamli hukumatning tez sur’atlar bilan rivojlanishi siyosiy tizim uchun yangi imkoniyatlar bilan birga, yangi xavflarni ham yuzaga chiqaradi. Masalan, ma’lumotlar konsentratsiyasi va algoritmik boshqaruvning kuchayishi shaffoflik va demokratik nazorat mexanizmlari yetarli bo‘lmagan sharoitda “raqamli byurokratiya” riskini keltirib chiqarishi mumkin. Bunday sharoitda qaror qabul qilish jarayonlari texnik va algoritmik tuzilmalar ichida “yashirinib qolishi”, fuqarolar esa ushbu jarayonlarni mustaqil baholash imkoniyatidan mahrum bo‘lishi ehtimoli bor. Shu bois, raqamli hukumatni takomillashtirish jarayonida “texnik samaradorlik” bilan bir qatorda “demokratik nazorat” va “inson huquqlari kafolatlari”ning ham muvozanatini ta’minlash talab etiladi.

Biroq, raqamli hukumatning rivojlanishida bir qator muammolar ham mavjud va kelajak istiqbollari shu muammolarga yechim topishga bog‘liq:

– Hududlar – shaharlar va qishloqlar o‘rtasida infratuzilma farqi mavjud: internet tezligi, optik tolali aloqa, mobil tarmoqlar, ma’lumot atlashtirish infratuzilmasi kabi imkoniyatlar noteng. Bu raqamli xizmatlarning hududiy teng qamrovini cheklaydi.

– Fuqarolarning raqamli savodxonligi yetarli emasligi, xizmatlardan foydalanish, identifikatsiya, e-imzo, onlayn portal orqali

murojaat qilish bo‘yicha malaka va ko‘nikmalar yetishmasligi – bu holat davlat xizmatlaridan keng foydalanishni cheklashi mumkin.

– Ma’lumotlar xavfsizligi, ma’lumotlar markazlari, kiberhujumlar, elektron identifikatsiya va personal ma’lumotlarni himoya qilish masalalari – raqamli hukumatning suverenitet va fuqarolar huquqlarini himoya qilish nuqtai nazaridan alohida e’tibor talab qiladi.

– Shu sababli “raqamli hukumat”ning kelajak istiqbollari faqat ko‘rsatkichlarni oshirish emas, balki:

– raqamli infratuzilmani hududiy tenglik asosida kengaytirish,

– raqamli savodxonlik va “raqamli inkluziya” dasturlarini kuchaytirish,

– ma’lumotlar xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha xalqaro standartlarga mos normativ-huquqiy bazani mustahkamlash,

– fuqarolar ishtiroki va jamoatchilik nazoratini chuqurlashtirish – orqali “raqamli davlat” tushunchasini jamiyatda chuqur integratsiyalangan, demokratik va barqaror institutga aylantirishdan iborat bo‘lishi zarur.

Bugungi kunda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va unga muvofiq qabul qilingan qaror hamda chora-tadbirlar yordamida O‘zbekiston raqamli hukumatni konseptual bosqichdan amaliy, integratsiyalashgan va tarmoqlararo boshqaruv – xizmatlar tizimiga aylantirishda sezilarli yutuqlarga erishmoqda. Elektron davlat xizmatlari ko‘lamining kengayishi, yagona ma’lumotlar markazining ochilishi, xizmatlar portali, identifikatsiya tizimlari (OneID, e-imzo), idoralararo integratsiya platformasi, fuqarolarga xizmat ko‘rsatish soddaligi orqali byurokratiya

va korrupsiyani qisqartirish, shuningdek davlat–fuqaro aloqasining raqamli formati keng tarqalmoqda.

Shunday ekan, yuqoridagi tahlilidan kelib chiqadigan asosiy xulosalardan biri: Raqamli hukumat – bu faqat xizmatlari ko‘rsatilayotgan platforma emas, balki davlat boshqaruvi, ijtimoiy xizmatlar va fuqarolik institutlari arxitekturasini tubdan qayta shakllantiruvchi kompleks, transvers siyosiy institutsiya bo‘lib rivojlanishi zarur.

Umuman olganda, Yangi O‘zbekiston sharoitida raqamli hukumatni takomillashtirish istiqbollari davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishning evolyutsion bosqichiga o‘tish bilan bog‘liq. Kelgusida asosiy ustuvorlik texnologik kengayish emas, balki ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv, algoritmik shaffoflik, hududiy raqamli tenglik va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilishi zarur. Faqat shu shartlar bajarilgandagina raqamli hukumat siyosiy tizim barqarorligi va legitimligini mustahkamlovchi strategik institut sifatida to‘liq shakllanishi mumkin.

Foydalangan manbalar.

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi” to’g’risidagi farmoni// manba: https://lex.uz/ru/docs/-6600413

2.https://dgov.uz/uz/?utm_sourcehttps://dgov.uz/en/?utm_source=chatgpt.com

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi” farmoni// manba: https://lex.uz/ru/docs/-6600413

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi” farmoni// manba: https://lex.uz/ru/docs/-6600413
5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PQ-300 sonli qarori
6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PQ-300 sonli qarori
7.United Nations Department of Economic and Social Affairs. UN E-Government Survey 2024.// https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/Data/Country-Information/id/186-Uzbekistan?utm_source
8.https://asr.gov.uz/en/uzbekistan-hosts-the-2025-un-public-service-forum/?utm_source
9.https://yuz.uz/uz/news/mamlakatda-raqamli-texnologiyalar-joriy-etilishini-yanada-jadallashtirish-chora-tadbirlari-belgilandi
10.https://yuz.uz/uz/news/ozbekistonda-raqamli-transformatsiya-kelajakni-istiqbollari

O’ZBEKISTONDA FUQAROLARNING O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH ORGANLARI FAOLIYATIDA IJTIMOIY SHERIKLIK MEXANIZMLARINI OPTIMALLASHTIRISH

Axmadaliyeva Sevinchbonu Rustamjon qizi
O’zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

O‘zbekistonda ijtimoiy sheriklik munosabatlarini yanada takomillashtirish va ularning samaradorligini oshirish bevosita uchinchi

sektorning eng ommaviy va mikrosotsial bo‘g‘ini hisoblangan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari (mahalla instituti) faoliyati bilan uzviy bog‘liqdir. Siyosiy tizimni modernizatsiya qilish sharoitida mahalla shunchaki jamoat tashkiloti emas, balki davlat organlari, biznes tuzilmalari va aholi o‘rtasidagi ijtimoiy sheriklik mexanizmlarini quyi bo‘g‘inda muvofiqlashtiruvchi bosh koordinatorga aylanmoqda[1]. Shu sababli, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatida ijtimoiy sheriklik instrumentlarini optimallashtirish, ularning huquqiy-funksional salohiyatini yuksaltirish zamonaviy siyosatshunoslik fanining ustuvor vazifalaridan biridir.

Siyosiy institutlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida mahalla institutining institutsional arxitekturasi tubdan yangilandi. Ayniqsa, hududlarda joriy etilgan "Mahalla yettiligi" (mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, soliq ko‘makchisi va ijtimoiy xodim) tizimi quyi bo‘g‘inda ijtimoiy sheriklikni amalga oshirishning mutlaqo yangi, o’ziga xos institutsional modelini shakllantirdi [2]. Bu tizim orqali davlat o‘zining ijtimoiy va iqtisodiy resurslarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri mahalla darajasiga tushirib, ijtimoiy muammolarni "pastdan yuqoriga" tamoyili asosida hal etish imkoniyatiga ega bo‘ldi [3].

Biroq, zamonaviy ijtimoiy-siyosiy amaliyotda mahalla organlarining ijtimoiy sheriklik salohiyatidan foydalanishda bir qator funksional nomutanosibliklar va optimallashtirishni talab etuvchi jihatlar ko‘zga tashlanmoqda. Xususan, joylarda mahalla organlari hamon davlat idoralarining quyi ijrochisi (byurokratik subyekti) sifatida ko‘p hollarda

ortiqcha hisobotlar va ma’muriy topshiriqlar bilan qolmoqda. Bu esa ularning mustaqil jamoat instituti sifatida ijtimoiy sheriklik loyihalarini tashkil etish funksiyasini cheklab qo‘yadi[4].

Aksariyat mahalla qo‘mitalari mahalliy muammolarni hal etish uchun davlat grantlari yoki ijtimoiy buyurtmalar tanlovlarida mustaqil loyiha tashabbuskori sifatida qatnasha olmaydilar, chunki ularda loyihaviy menejment bo‘yicha professional kadrlar va ko‘nikmalar yetishmaydi[5]. Shuningdek, joylardagi professional nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) va mahalla organlari o‘rtasida qo‘shma ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha tizimli aloqalar yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan[6].

Ushbu muammolarni bartaraf etish va ijtimoiy sheriklik mexanizmlarini optimallashtirish uchun quyidagi strategik yo‘nalishlarni amalga oshirish ilmiy-amaliy jihatdan asoslanadi:

Birinchidan, "Mahalla – NNT – Biznes" uch tomonlama sheriklik modelini raqamli platformalar orqali optimallashtirish. Mahalliy darajadagi ijtimoiy muammolarni (ishsizlik, ekologiya, kambag‘allik, sotsial infratuzilma) hal etishda faqatgina davlat byudjetiga tayanmasdan, xususiy biznesning ijtimoiy mas’uliyati hamda professional NNTlarning innovatsion loyihalarini mahallaga jalb etish mexanizmini yaratish lozim[7]. Buni to‘liq raqamlashtirish, ya’ni "Raqamli mahalla" tizimi doirasida ijtimoiy sheriklik loyihalari xaritasini shakllantirish samaradorlikni oshiradi[8].

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy sheriklik munosabatlari an’anaviy byurokratik muloqotdan "platformaviy ekotizim" formatiga o‘tmoqda. "Mahalla – NNT – Biznes" modeli (keyingi o‘rinlarda —

MNB modeli) mahalliy hamjamiyatning ehtiyojlarini aniqlash, nodavlat sektorning (NNT) innovatsion yechimlarini qo‘llash va xususiy sektorning (Biznes) resurslarini safarbar qilishni ko‘zda tutadi. Raqamli platformalar bu uchlik o‘rtasida tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va ishonchni oshirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi[9].

Xorijiy davlatlar tajribasiga nazar soladigan bo’lsak, Germaniyada mahalliy hamjamiyatlar va biznes o‘rtasidagi sheriklik "Smart City" (Aqlli shahar) va "Smart Village" (Aqlli qishloq) konsepsiyalari doirasida raqamlashtirilgan. Buning o‘ziga xosligi — "Cross-sectoral collaboration" (tarmoqlararo hamkorlik) platformalarining mavjudligidir. Masalan, München Digital yoki Berlin Smart City platformalari orqali Mahalliy hamjamiyat muammolarni (masalan, keksalar parvarishi yoki ekologiya) onlayn xaritaga joylashtiradi, NNTlar (Germaniyada "Wohlfahrtsverbände") ushbu muammolarga loyiha taklif qiladi, biznes sub’ektlari esa o‘zlarining "Ijtimoiy mas’uliyat" mablag‘larini aynan shu platforma orqali aniq maqsadli tarzda yo‘naltiradi.

Germaniya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, platforma nafaqat mablag‘ yig‘ish vositasi, balki loyihalar monitoringi va shaffof hisobot berish markazidir. Bu tizim Germaniyada "Subsidiaritlik" tamoyilini (muammoni eng quyi bo‘g‘inda hal qilish) raqamli darajaga ko‘tardi[10].

Janubiy Koreya tajribasi ham O‘zbekiston uchun eng yaqin modeldir, chunki ularning "Saemaul Undong" (Yangi qishloq harakati) ruhi bizning Mahalla tizimiga o‘xshash. Bugungi kunda Koreya bu modelni raqamli platformalar orqali optimallashtirgan. Koreyada "Local

Community Smart Platform" tizimi joriy etilgan bo‘lib, u quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- Hamjamiyat a’zolari, biznes va NNTlar o‘rtasidagi kelishuvlar blokcheyn asosida amalga oshiriladi. Bu mablag‘larning korrupsiyasiz sarflanishini 100% kafolatlaydi.
- Biznes vakillari mahalla aholisiga o‘z xizmatlarini (masalan, ta’mirlash, yetkazib berish) platforma orqali taklif qiladi, evaziga hamjamiyat tomonidan "ijtimoiy ballar" yoki soliq imtiyozlariga ega bo‘ladi.
- Davlat platformada faqat moderator va kafil sifatida qatnashadi, moliyaviy oqimlar esa bevosita Biznesdan NNTga (mahalliy loyiha uchun) o‘tadi[11].

Xitoyda esa ijtimoiy sheriklik modeli "Grid Management" (to‘rsimon boshqaruv) tizimiga asoslangan. Har bir mahalla raqamli to‘rlarga bo‘lingan bo‘lib, ularning har biri bo‘yicha katta ma’lumotlar (Big data) yig‘iladi.

Xitoy modelining optimallashgan jihati shundaki, tizim mahalladagi demografik holatni (masalan, ishsiz yoshlar soni) tahlil qilib, avtomatik tarzda ushbu hududdagi tegishli biznes subyektlariga ijtimoiy buyurtma yoki kadrlar tayyorlash taklifini yuboradi. Ijtimoiy sheriklikda faol qatnashgan biznes subyektlari va NNTlar esa o‘zlarining "ijtimoiy reytingini" oshirib boradi, bu esa ularga kredit olishda va davlat tenderlarida ustunlik beradi[12].

Xalqaro tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, MNB modelini optimallashtirish uchun faqat veb-sayt yaratish yetarli emas. Tizim iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmiga ega bo‘lishi shart.

Tahlillar asosida O‘zbekistonda quyidagi "Digital Mahalla Ecosystem" modelini yaratishni taklif etishimiz mumkin, ya’ni mahalladagi har bir ehtiyoj (masalan, "Kutubxona qurish" yoki "Tikuvchilik sexini ochish") loyiha ko‘rinishida joylashtiriladi. Mahalla o‘z muammosini hal qilish uchun platformadagi reytingi baland NNTni hamkor sifatida tanlaydi. Tadbirkor esa ushbu loyihaga homiylik qiladi yoki o‘z investitsiyasini kiritadi. Buning evaziga tizim avtomatik tarzda uning ijtimoiy mas’uliyat koeffitsientini hisoblab, soliq bazasini kamaytirish bo‘yicha tuman moliya bo‘limiga xabar yuboradi[13].

Germaniya, Janubiy Koreya va Xitoy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, raqamli platformalar ijtimoiy sheriklikni deklarativlikdan real iqtisodiy jarayonga aylantiradi. O‘zbekistonda "Mahalla – NNT – Biznes" modelining optimallashuvi nafaqat ijtimoiy muammolarni yechadi, balki jamiyatda "hamjihatlik iqtisodiyoti" shakllanishiga xizmat qiladi. Raqamli ekotizim sharoitida Mahalla endi passiv qabul qiluvchi emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning faol va raqamli subyektiga aylanishi zarur.

Ikkinchidan, mahalla organlariga davlat ijtimoiy buyurtmalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirish mexanizmini joriy etish. Amaldagi qonunchilikka ko‘ra, ijtimoiy buyurtmalar asosan yirik NNTlarga beriladi. Mahalliy ahamiyatga molik ijtimoiy dasturlarni (masalan, hududdagi keksalar yoki nogironligi bor shaxslarga uzoq muddatli ijtimoiy xizmat ko‘rsatish, yoshlarni kasbga yo‘naltirish) amalga oshirish uchun mahalla institutlariga "ijtimoiy tadbirkorlik" subyekti sifatida grant va buyurtmalar olish huquqiy imkoniyatlarini kengaytirish zarur[14]. Siyosatshunos Sh. Jo‘rayev ta’kidlaganidek, bu qadam

mahallaning moliyaviy avtonomligini ta’minlash va uning ijtimoiy kapitalini yuksaltirishga xizmat qiladi[15].

Mahalla organlariga davlat ijtimoiy buyurtmalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirish mexanizmi — bu davlat boshqaruvini desentralizatsiya qilish va ijtimoiy adolatni ta’minlashning eng qisqa yo‘lidir. Amaldagi tizimda buyurtmalar asosan yuqori turuvchi organlar yoki yirik NNTlar orqali o‘tsa, yangi modelda Mahalla ijtimoiy xizmatlarning bevosita buyurtmachisi va sub’ekti sifatida namoyon bo‘ladi.

An’anaviy ijtimoiy buyurtma modelida davlat organlari muammolarni makro-darajada aniqlaydi va yechimlarni "yuqoridan" taklif etadi. Mahalla organlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri buyurtma berish mexanizmi esa Mahalliy ehtiyojlarni baholash tamoyiliga tayanadi. Bunda mahalla o‘z hududidagi ishsizlik, nogironlik yoki ekologik muammolarni davlatdan ko‘ra aniqroq bilishi va resurslarni nuqtali yo‘naltirishi asosiy ilmiy argument hisoblanadi[16].

Xorijiy davlatlar tajribasiga nazar tashlaydigan bo’lsak, Germaniyada "Kommune" (mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari) ijtimoiy xizmatlar uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri federal byudjetdan mablag‘ oladi. Ular ushbu mablag‘ni mahalliy NNTlarga ijtimoiy buyurtma sifatida berishda to‘liq mustaqildir. Bu "Subsidiaritlik" tamoyilining amaliy ifodasidir. Janubiy Koreyada esa "Dong" (mahalla ma’muriyati) o‘z hududidagi ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun maxsus fondlarga ega. Ular davlat ijtimoiy buyurtmasini bajarishda hududdagi tadbirkorlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzish huquqiga ega. Xitoyning yirik shaharlarida "Resident Committees" (Aholi qo‘mitalari)

hukumatdan ijtimoiy xizmatlarni sotib olish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri kvotalar oladi. Bu tizim orqali mahalla byurokratik zanjirlarsiz o‘z ehtiyojlarini qondiradi[17].

O’zbekiston sharoitida mexanizmni optimallashtirish uchun esa "Mahalla-Buyurtma" raqamli moduli zarur. Bu modul quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- Mablag‘lar ijrochiga faqat bosqichma-bosqich natijalar ko‘rsatilganda avtomatik o‘tkaziladi.
- Ijtimoiy buyurtma doirasida amalga oshirilgan ishlar (masalan, yangilangan bolalar maydonchasi yoki o‘qitilgan xotin-qizlar) xaritada vizuallashtiriladi.
- Barcha moliyaviy operatsiyalar aholi uchun ochiq ko‘rinishda bo‘ladi[18].

To‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirish mexanizmining joriy etilishi natijasida byurokratik vositachilarning qisqarishi hisobiga resurslarning 15-20% tejaladi, aholi o‘z mahallasi byudjetini boshqarishda qatnashishi orqali davlatga bo‘lgan ishonchi ortadi, ijtimoiy buyurtmalarning mahalliy tadbirkorlarga berilishi natijasida esa mahallada yangi ish o‘rinlari yaratiladi[19].

Mahalla organlariga davlat ijtimoiy buyurtmalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirish — bu "Mahalla – NNT – Biznes" zanjirini harakatga keltiruvchi asosiy vositadir. Ushbu mexanizm ijtimoiy sheriklikni deklarativ darajadan real "mahallabay" ishlash tizimiga aylantiradi. Bunda davlatning roli nazorat qilishdan ko‘ra, metodologik yordam berish va raqamli ekotizimni ta’minlashga o‘tishi zarur.

Uchinchidan, "Mahalla yettiligi" tarkibidagi ijtimoiy xodimlarning professional kompetensiyasini loyihaviy faoliyatga moslashtirish. Ijtimoiy hodimlar nafaqat yordamga muhtojlarni ro‘yxatga olishi, balki hududdagi muammolarni bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy sheriklik loyihalarini professional darajada tuza olishi va ularni monitoring qila olishi shart[20].

"Mahalla yettiligi" tizimining samaradorligi uning tarkibidagi ijtimoiy xodimlarning nafaqat ijtimoiy yordam ko‘rsatish, balki loyihaviy fikrlash qobiliyatiga bevosita bog‘liq. Ijtimoiy hodim passiv yordam tarqatuvchidan loyiha menejeriga aylanishi — ijtimoiy sheriklikning sifat jihatidan yangi bosqichga chiqishidir.

An’anaviy ijtimoiy ish asosan muammoga reaktiv munosabat bildirish (muammo paydo bo‘lgach yordam berish) bilan cheklanadi. Loyihaviy faoliyat esa ijtimoiy hodimdan muammoning ildizini tahlil qilish, resurslarni rejalashtirish va aniq muddatli natijaga erishishni talab qiladi. Bu kompetensiya ilmiy tahlillarda "Social Engineering" (Ijtimoiy muhandislik) deb atalib, mahalla ijtimoiy hodimini strategik subyektga aylantiradi[21].

Germaniyaning ijtimoiy ish tizimida hodimlar "Case Manager" sifatida tayyorlanadi. Har bir og‘ir ahvoldagi oila alohida "loyiha" sifatida ko‘riladi. Hodim loyiha doirasida mahalliy biznes va NNTlarni jalb qilib, oilani inqirozdan chiqarishning "yo‘l xaritasi"ni tuzadi. Koreyada esa mahalla darajasidagi ijtimoiy hodimlar maxsus raqamli platformalar orqali hududdagi ijtimoiy ehtiyojlar uchun "kichik grantlar" yozish ko‘nikmasiga ega. Ular davlat budjetini kutib o‘tirmay, loyihalar orqali xususiy sektordan investitsiya jalb qiladi[22].

"Mahalla yettiligi" ijtimoiy hodimining professional portreti quyidagi 3 ta ustuvor yo‘nalishda transformatsiya qilinishi lozim:

Kompetensiya sohasi Mazmuni va ko‘nikmalar Kutilayotgan natija

Ijtimoiy diagnostika Big Data va so‘rovnomalar orqali mahallaning "ijtimoiy portreti"ni chizish. Muammolarni erta aniqlash va prognozlash.

Fundraising va Networking NNT va biznes vakillari bilan muzokaralar olib borish, ijtimoiy grantlar yozish. Mahallaga davlatdan tashqari resurslarni olib kirish.

Monitoring va Baholash Loyihaning ijtimoiy samaradorligini (Impact) o‘lchash ko‘nikmasi. Resurslarning maqsadli va natijali sarflanishi.

Shuningdek, mahalla ijtimoiy hodimi "Inson" loyihasi doirasida mahalladagi muayyan guruh (masalan, ishsiz xotin-qizlar) uchun ijtimoiy-tadbirkorlik loyihasini ishlab chiqadi. Loyihaga mahalla yettiligidagi boshqa vakillarni (hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi) va biznes subyektlarini jalb qiladi. Loyihaning borishi esa maxsus mobil ilova orqali qayd etib boriladi, bu esa hisobotbozlikni (byurokratiya) 40-50% gacha kamaytiradi[23].

Ijtimoiy hodimlarni loyihaviy faoliyatga moslashtirish uchun oliy ta’lim va malaka oshirish tizimida “Ijtimoiy hodimlar uchun loyiha yozish” o‘quv modullarini joriy etish lozim. Bu modullar nafaqat nazariya, balki real vaziyatlar ustida ishlashni ham nazarda tutadi[24].

"Mahalla yettiligi" ijtimoiy hodimlarining professional kompetensiyasini loyihaviy faoliyatga moslashtirish — ijtimoiy

sheriklikning samaradorligini oshiruvchi asosiy drayverdir. Ijtimoiy hodim "ariza yig‘uvchi"dan "ijtimoiy o‘zgarishlar drayveri"ga aylangandagina, mahalla tizimi haqiqiy ijtimoiy himoya markazi bo‘lib xizmat qiladi.

Xalqaro tajriba (xususan, Kontinental Yevropadagi subsidiarli hamkorlik modellari va Sharqiy Osiyodagi jamoaviy sheriklik tajribasi) shuni ko‘rsatadiki, mahalliy muammolar qanchalik quyi bo‘g‘inda, jamoat faollari ishtirokida hal etilsa, davlat boshqaruvining xarajatlari shunchalik tejaladi va hokimiyat apparatiga bo‘lgan ijtimoiy ishonch darajasi yuqori bo‘ladi[25]. S.f.d. B. Aliev tadqiqotlarida qayd etilganidek, O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining barqarorligi bevosita mahallaning ijtimoiy sheriklik tizimidagi o‘rnini optimallashtirish bilan o‘lchanadi, chunki mahalla milliy mentalitet va zamonaviy demokratik prinsiplar kesishadigan bosh nuqtadir[26].

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatida ijtimoiy sheriklik mexanizmlarini optimallashtirish — mamlakatda markazlashgan ma’muriy boshqaruvdan gorizontal, demokratik boshqaruv tizimiga o‘tishning muhim shartidir. Mahalla institutini sotsial islohotlarning faol va mustaqil subyektiga aylantirish, uning loyihaviy-moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish hamda uchinchi sektor subyektlari bilan sinergetik aloqalarini mustahkamlash, Yangi O‘zbekistonda barqaror ijtimoiy rivojlanish strategiyalarining muvaffaqiyatli bajarilishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – B. 190-205.
2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi Farmoni. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 2023-y.
3. To‘rayev K. Siyosiy institutlar modernizatsiyasi va mahalla fenomeni // Siyosiy tadqiqotlar jurnali. – 2024. – № 1. – B. 55-64.
4.Qirg’izboyev M. Fuqarolik jamiyati va mahalliy boshqaruv mexanizmlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – B. 165-178.
5. Axmedov M. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda jamoatchilik nazoratining siyosiy mexanizmlari. PhD diss. avtoreferati. – Toshkent, 2022. – B. 48-53.
6.Yoqubov J. Mahalla va NNTlar hamkorligining institutsional muammolari // Davlat va huquq. – 2024. – № 2. – B. 38-45.
7.Anheier, H.K. Nonprofit Organizations: Theory, Management, Policy. – London: Routledge, 2014. – P. 385-400.
8.Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasi monitoringi hisoboti. – Toshkent, 2025.
9.Salamon L.M. The Resilient Sector Revisited: The New Role of Nonprofit Organizations in the Age of Digitalization. – Washington: Brookings Institution Press, 2020. – P. 78-82.
10.Bull C., Hildebrandt T. Smart Communities in Germany: Digitizing the Third Sector. // Journal of Urban Technology, 2021. – Vol. 28, Issue 3. – P. 45-56.

11.Kim S., Han J. Blockchain for Social Good: The South Korean Experience in Local Governance. // World Development, 2022. – No. 154. – P. 105-112.
12.Zhang X. Big Data and Community Governance in China: The Case of "Grid Management". // China Quarterly, 2023. – Vol. 251. – P. 210-230.
13.G‘ulomov S.S. Raqamli jamiyatda ijtimoiy sheriklik modellari. – T.: Fan va texnologiya, 2024. – 188-b.
14.Saidov A.X. O‘zbekistonda ijtimoiy sheriklik qonunchiligini takomillashtirish yo‘nalishlari. – Toshkent: Adolat, 2021. – B. 112-126.
15.Jo‘rayev Sh.Z. O‘zbekistonda davlat organlari va NNTlarning ijtimoiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirish tendensiyalari. Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Toshkent, 2021. – B. 175-192.
16.G‘ulomov S.S. Mahalla tizimida ijtimoiy boshqaruv innovatsiyalari. – T.: Iqtisod-moliya, 2024. 42-b.
17.Lowndes V., Sullivan H. Like a Prayer? The Role of Partnership in Local Government. // Local Government Studies, 2022. – Vol. 48. – P. 112-130.
18.World Bank Report. Decentralizing Social Service Delivery: Lessons from East Asia. – Washington, 2023. – P. 55-60.
19.Ismoilov N. O‘zbekistonda ijtimoiy sheriklikning yangi bosqichi: huquqiy tahlil. // Adolat jurnali, 2025. – №1. – 18-21-b.
20.Karimov X. Sotsial ish tizimida ijtimoiy sheriklik metodologiyasi // Jamiyat va boshqaruv. – 2025. – № 1. – B. 62-71.
21.Payne M. Modern Social Work Theory. – London: Palgrave Macmillan, 2020. – P. 112-115.
22.Park Y. Digital Transformation of Social Services in South Korea. // International Social Work, 2023. – Vol. 66. – P. 89-102.

23.G‘ulomov S.S. Mahallabay ishlash tizimida kadrlar salohiyatini oshirish strategiyasi. – T.: Akademiya, 2024. – 56-b.
24.O‘zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy ish to‘g‘risida"gi Qonuni loyihasi tahliliy ma’lumotnomasi. 2025.
25.Rhodes, R.A.W. Understanding Governance: Policy Networks, Governance, Reflexivity and Accountability. – Open University Press, 1997. – P. 155-172.
26.Aliev B.J. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati shakllanishining sotsial-siyosiy jihatlari. Siyosiy fanlar doktori diss. avtoreferati. – Toshkent, 2018. – B. 72-79.

AEROPORTLARDA EHTIMOLIY TARTIBBUZARLARNI ANIQLASHDA PROFAYLING TEXNOLOGIYASI VA PROFAYLERLAR XIZMATINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Voxobov Nuriddin G‘ofurjon o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti katta o‘qituvchisi
Voxidova Kamola Eryigit qizi
I.Karimov Toshkent xalqaro aeroporti Chegara nazorati vzvodi komandiri

Annotatsiya: Maqolada aeroportlarda ehtimoliy tartibbuzarlarni aniqlashda profayling texnologiyasidan foydalanish hamda profaylerlar xizmatining tashkiliy-amaliy xususiyatlari yoritilgan. Yo‘lovchilarning verbal va noverbal xatti-harakatlarini kuzatish, xavf indikatorlarini baholash va tegishli xizmatlar bilan hamkorlik qilish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: aeroport, profayling, profayler, tartibbuzar, yo‘lovchi, xulq-atvor, xavf indikatori, aviatsiya xavfsizligi.

Аннотация: В статье рассматриваются применение технологии профайлинга для выявления потенциальных нарушителей в аэропортах, а также организационно-практические особенности деятельности профайлеров. Анализируются наблюдение за вербальным и невербальным поведением пассажиров, оценка индикаторов риска и взаимодействие с соответствующими службами.

Ключевые слова: аэропорт, профайлинг, профайлер, потенциальный нарушитель, пассажир, поведение, индикатор риска, авиационная безопасность.

Abstract: The article examines the use of profiling technology to identify potential offenders at airports and the organizational and practical features of profilers’ activities. It analyses the observation of passengers’ verbal and non-verbal behaviour, the assessment of risk indicators and cooperation with the relevant security services.

Keywords: airport, profiling, profiler, potential offender, passenger, behaviour, risk indicator, aviation security.

Kirish

Bugungi kunda havo transportidan foydalanuvchilar sonining ortishi aeroportlarda jamoat tartibi va aviatsiya xavfsizligini ta’minlashning zamonaviy usullarini rivojlantirishni talab etmoqda. Aeroport hududida tartibbuzarlik, noqonuniy aralashuv, tajovuzkor xatti-harakat va boshqa xavfli holatlarning oldini olishda an’anaviy texnik nazorat vositalari

bilan bir qatorda inson xulq-atvorini tahlil qilishga asoslangan profayling texnologiyasidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Profayling — shaxsning verbal va noverbal xatti-harakatlari, ruhiy-emotsional holati, muloqot uslubi hamda vaziyatga munosabatini kuzatish orqali ehtimoliy xavf belgilarini aniqlash va baholash usullari majmuidir. Mazkur texnologiya profaylerga yo‘lovchining xatti-harakatlaridagi vaziyatga mos kelmaydigan belgilarni aniqlash, mavjud ma’lumotlarni o‘zaro solishtirish va zarurat tug‘ilganda qo‘shimcha tekshiruv o‘tkazish bo‘yicha tegishli xizmatlarga axborot berish imkonini yaratadi.

Profaylerlar xizmatining asosiy vazifasi shaxsni huquqbuzar deb topish emas, balki xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan xatti-harakatlar va indikatorlarni barvaqt aniqlashdan iborat. Shu sababli profayler yuqori kuzatuvchanlik, xolislik, psixologik bilim, muloqot olib borish va tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim. Profayling jarayonida shaxsning millati, irqi, dini, jinsi yoki tashqi ko‘rinishiga asoslangan subyektiv xulosalarga yo‘l qo‘ymaslik, baholashni obyektiv xulq-atvor belgilari va tekshirilgan ma’lumotlar asosida amalga oshirish muhimdir.

Profayling samaradorligi profaylerlar, aeroportning aviatsiya xavfsizligi xizmati, chegara va bojxona organlari, ichki ishlar tuzilmalari hamda aviakompaniya vakillari o‘rtasidagi hamkorlikka bog‘liq. Ushbu xizmatlarning muvofiqlashtirilgan faoliyati ehtimoliy tartibbuzarlarni o‘z vaqtida aniqlash va xavfli vaziyatlarning oldini olish imkoniyatini oshiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi aeroportlarda ehtimoliy tartibbuzarlarni aniqlashda profayling texnologiyasining ahamiyatini ilmiy jihatdan yoritish, profaylerlar xizmatining o‘ziga xos tashkiliy-amaliy xususiyatlarini tahlil qilish hamda ushbu faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Asosiy qism

Aeroport murakkab transport infratuzilmasi obyekti bo‘lib, unda yo‘lovchilar, kuzatuvchilar, aeroport xodimlari va turli xizmat vakillarining doimiy harakati kuzatiladi. Bunday sharoitda xavfsizlikni faqat texnik tekshiruv vositalari orqali ta’minlash yetarli bo‘lmaydi. Chunki ayrim xavflar shaxsning yonidagi buyumlarda emas, balki uning niyati va xatti-harakatlarida namoyon bo‘lishi mumkin. Shu jihatdan profayling texnologiyasi aeroport xavfsizligi tizimini to‘ldiruvchi muhim profilaktik vosita hisoblanadi.

Profayling shaxsning xulq-atvori, ruhiy-emotsional holati, verbal va noverbal reaksiyalari hamda taqdim etgan ma’lumotlarini kompleks baholashga asoslanadi. Ushbu texnologiyaning asosiy maqsadi sodir etilgan huquqbuzarlikni aniqlashdan ko‘ra, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavfli vaziyatni oldindan sezish va uning oldini olishdan iborat.

Profayling jarayoni kuzatuv, qisqa suhbat, hujjatlar va safar tafsilotlarini o‘zaro solishtirish, aniqlangan belgilarni baholash hamda tegishli xizmatlarga axborot yetkazish kabi bosqichlarni qamrab oladi. Profayler tomonidan aniqlangan alohida belgi shaxsni tartibbuzar deb hisoblash uchun yetarli asos bo‘la olmaydi. Xulosa bir nechta xavf indikatorlari, vaziyat xususiyatlari va tekshirilgan ma’lumotlarning umumiy tahliliga asoslanishi kerak.

Ehtimoliy tartibbuzarlarni aniqlash mezonlari. Ehtimoliy tartibbuzarlarni aniqlashda shaxsning xatti-harakatlari odatiy vaziyatga qanchalik mos kelishi baholanadi. Yo‘lovchining haddan tashqari asabiylashishi, atrofni muntazam kuzatishi, nazorat jarayonidan qochishga urinishi, xodimlarning harakatlariga ortiqcha qiziqish bildirishi yoki berilgan savollarga qarama-qarshi javoblar qaytarishi qo‘shimcha e’tibor talab qiladigan belgilar bo‘lishi mumkin.

Noverbal belgilar qatoriga yuz ifodasining keskin o‘zgarishi, tana harakatlaridagi nomuvofiqlik, ko‘z bilan muloqotning vaziyatga mos kelmasligi va hissiy zo‘riqishning kuchayishi kiradi. Verbal belgilar esa javoblarning izchil emasligi, safar maqsadini tushuntirishdagi qiyinchiliklar, savollardan qochish yoki oldindan tayyorlangan jumlalarni takrorlashda namoyon bo‘lishi mumkin.

Biroq bunday belgilar har doim ham g‘ayriqonuniy niyat mavjudligini anglatmaydi. Parvozdan qo‘rqish, charchoq, sog‘liq bilan bog‘liq muammolar, til to‘sig‘i, madaniy farqlar yoki shaxsiy hayajon ham o‘xshash reaksiyalarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli profayler har bir belgini vaziyat bilan bog‘liq holda baholashi, shoshilinch va bir tomonlama xulosa chiqarishdan saqlanishi zarur.

Profaylingda xavf indikatorlarini uch guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh shaxsning tashqi xatti-harakati va ruhiy holatiga, ikkinchi guruh taqdim etilgan hujjatlar va safar haqidagi ma’lumotlardagi nomuvofiqliklarga, uchinchi guruh esa aeroportdagi umumiy harakatlar va nazorat tartiblariga munosabatiga taalluqlidir. Ushbu guruhlarga mansub bir nechta belgining bir vaqtda kuzatilishi qo‘shimcha tekshiruv zarurligini ko‘rsatishi mumkin.

Profaylerlar xizmatining o‘ziga xos xususiyatlari. Profaylerlar xizmatining asosiy xususiyati uning profilaktik yo‘nalishga ega ekanligidir. Profayler sodir etilgan hodisani tergov qilmaydi, balki xavfli vaziyatning yuzaga kelish ehtimolini baholaydi. U kuzatuv va muloqot natijalarini tahlil qilib, qo‘shimcha tekshiruv talab qiladigan shaxslar haqida vakolatli xizmatlarga asoslantirilgan axborot taqdim etadi.

Profayler faoliyati yuqori kasbiy tayyorgarlikni talab qiladi. U umumiy va ijtimoiy psixologiya, xulq-atvor tahlili, noverbal muloqot, nizolarni boshqarish, aviatsiya xavfsizligi hamda xizmat etikasi bo‘yicha zarur bilimlarga ega bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, profayler kuzatuvchanlik, diqqatni bir vaqtning o‘zida bir nechta obyektga taqsimlash, tezkor axborotni tahlil qilish va ruhiy bosim sharoitida xolis qaror qabul qilish ko‘nikmalarini egallashi lozim.

Profayler yo‘lovchi bilan suhbat jarayonida xushmuomalalik va xolislikni saqlashi zarur. Savollar aniq va tushunarli shaklda berilishi, shaxsning javoblari esa uning umumiy xatti-harakati va mavjud ma’lumotlar bilan solishtirilishi kerak. Suhbatning maqsadi yo‘lovchiga ruhiy bosim o‘tkazish emas, balki aniqlangan nomuvofiqliklarga oydinlik kiritishdan iborat.

Profaylerlar xizmatining yana bir xususiyati jamoaviy faoliyatga asoslanishidir. Profaylerning o‘zi shaxsni ushlash, tintuv qilish yoki parvozga qo‘ymaslik to‘g‘risida yakuniy qaror qabul qilmaydi. U kuzatuv va tahlil natijalarini vakolatli xavfsizlik xizmatiga yetkazadi. Keyingi choralar belgilangan vakolatlar va tartiblar asosida tegishli organlar tomonidan ko‘riladi.

Profayling jarayonini tashkil etish bosqichlari. Aeroportlarda profayling jarayoni yo‘lovchining terminalga kirishidan boshlab, ro‘yxatdan o‘tishi, xavfsizlik tekshiruvi, pasport nazorati, kutish hududi va havo kemasiga chiqishigacha davom etishi mumkin. Har bir bosqich profaylerga shaxsning xatti-harakatlarini turli vaziyatlarda kuzatish imkonini beradi.

Dastlabki bosqichda yo‘lovchilarning umumiy oqimi kuzatilib, vaziyatga mos kelmaydigan xatti-harakatlar aniqlanadi. Keyingi bosqichda aniqlangan belgilar qo‘shimcha kuzatuv va qisqa suhbat orqali baholanadi. Shaxs taqdim etgan ma’lumotlar safar hujjatlari va mavjud vaziyat bilan solishtiriladi. Yetarli asoslar mavjud bo‘lganda, profayler tegishli xizmatga qo‘shimcha tekshiruv o‘tkazish zarurligi haqida xabar beradi.

Profayling natijalarini hujjatlashtirish ham muhim tashkiliy jarayon hisoblanadi. Hisobotda profaylerning subyektiv taxminlari emas, balki kuzatilgan aniq xatti-harakatlar, berilgan savollar, olingan javoblar va aniqlangan nomuvofiqliklar qayd etilishi kerak. Bu qabul qilingan qarorlarning asoslanganligini tekshirish va keyinchalik profayling amaliyotini takomillashtirish imkonini beradi.

Profayling jarayoni uzluksizlik tamoyiliga asoslanishi lozim. Parvozoldi bosqichida aniqlangan muhim ma’lumotlar zarur hollarda havo kemasi ekipaji va belgilangan aeroport xizmatlariga yetkazilishi mumkin. Bunda axborotning maxfiyligi va undan faqat xavfsizlik maqsadlarida foydalanilishi ta’minlanishi zarur.

Profaylerlarning boshqa xizmatlar bilan hamkorligi. Profayling texnologiyasining samaradorligi aeroportdagi xizmatlararo hamkorlik

darajasiga bog‘liq. Profaylerlar aviatsiya xavfsizligi xizmati, chegara va bojxona organlari, ichki ishlar tuzilmalari, aviakompaniya vakillari hamda havo kemasi ekipaji bilan o‘zaro axborot almashishi kerak.

Hamkorlikning aniq algoritmi ishlab chiqilishi profayler aniqlagan ma’lumotni tegishli xizmatga tezkor yetkazish imkonini beradi. Ushbu algoritmda axborotni kimga, qanday holatda va qaysi tartibda taqdim etish, keyingi tekshiruvni kim amalga oshirishi hamda yakuniy qarorni qaysi vakolatli shaxs qabul qilishi belgilanishi lozim.

Xizmatlar o‘rtasida muntazam amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish ham muhimdir. Bunday mashg‘ulotlar davomida ehtimoliy xavfli vaziyatlar modellashtirilib, profaylerlar va boshqa xodimlarning o‘zaro harakatlari sinovdan o‘tkaziladi. Natijada axborot almashishdagi kamchiliklar aniqlanib, umumiy harakatlar tartibi takomillashtiriladi.

Profaylingda qonuniylik va xolislik tamoyillari. Profaylingni amalga oshirishda inson huquqlari, shaxsiy daxlsizlik va kamsitmaslik tamoyillariga rioya etish zarur. Shaxsning millati, irqi, dini, jinsi, yoshi yoki tashqi qiyofasi uning xavfli ekanligi haqida xulosa chiqarish uchun mustaqil asos bo‘la olmaydi. Baholash aniq xatti-harakatlar, mavjud vaziyat va tekshiriladigan ma’lumotlarga tayanishi kerak.

Profayling jarayonida olingan shaxsga doir ma’lumotlar maxfiy saqlanishi va ulardan faqat belgilangan maqsadda foydalanilishi lozim. Ma’lumotlarga kirish vakolati cheklanishi, ularni uchinchi shaxslarga asossiz ravishda tarqatishga yo‘l qo‘yilmasligi kerak.

Asossiz tekshiruvlar sonini kamaytirish uchun profaylerlarning qarorlari muntazam tahlil qilinishi maqsadga muvofiq. Bunda aniqlangan xavflar, qo‘shimcha tekshiruvlarning natijalari, noto‘g‘ri

baholash holatlari va yo‘lovchilarning murojaatlari o‘rganiladi. Mazkur tahlil profayling mezonlarini takomillashtirish va xodimlarning kasbiy xatolarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, aeroportlarda profayling texnologiyasidan foydalanish ehtimoliy tartibbuzarlarni erta aniqlash va xavfli vaziyatlarning oldini olish imkonini beradi. Uning samaradorligi profaylerlarning kasbiy tayyorgarligi, xavf indikatorlarining obyektiv baholanishi, xizmatlararo hamkorlik hamda qonuniylik va xolislik tamoyillariga qat’iy rioya etilishiga bog‘liq.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, aeroportlarda profayling texnologiyasidan foydalanish ehtimoliy tartibbuzarlarni barvaqt aniqlash va xavfli vaziyatlarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu faoliyatning samaradorligi profaylerlarning kasbiy tayyorgarligi, xavf indikatorlarini xolis baholash hamda aeroport xizmatlari o‘rtasidagi hamkorlikka bog‘liq.

Tavsiyalar:

1. Profaylerlar uchun xulq-atvor tahlili, noverbal muloqot va nizoli vaziyatlarni boshqarish bo‘yicha muntazam amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish.

2. Profaylerlar va aeroport xavfsizlik xizmatlari o‘rtasida tezkor axborot almashishning yagona algoritmini ishlab chiqish.

3. Profayling jarayonida obyektiv xavf indikatorlariga tayanish, kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik va yo‘lovchilarning huquqlarini ta’minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ikanov A. Ko‘zdan kechirish – potensial xavfli shaxslarni aniqlash usuli sifatida (profayling texnologiyasi misolida) // O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti axborotnomasi. – 2025. – № 3 (15). – B. 111–115.

2. O‘rmonov D.A. Rivojlangan davlatlarda jamoat xavfsizligini ta’minlashda profaylingdan foydalanish samaradorligining o‘ziga xos xususiyatlari // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2022. – 2-jild, № 12. – B. 128–132.

3 Valixanov I.I. Jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimida profayling texnologiyasini qo‘llashning ilmiy-amaliy asoslari // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2026. – 6-jild, № 1. – B. 524–528.

4. Mustafayev Sh.B., O‘ktamov D.O‘., Ne’matov A.A. Profayling metodining o‘ziga xos xususiyatlari, shaxslararo munosabatlarda tutgan o‘rni // Modern Science and Research. – 2025. – 4-jild, № 1. – B. 760–764.

5. G‘aniyeva O.B., Xamidova M.A., Jurayev X.O. Shaxs xarakteriga tashxiz qo‘yishda profayling metodining psixologik jihatlari // Advances in Science and Education. – 2025. – 1-jild, № 3. – B. 77–79.

JAHONDAGI TINCHLIK INQIROZI SHAROITIDA DAVLATCHILIKNI STRATEGIK TAHLIL ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Abduvaitova Ra’no Sharafiddin qizi

O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

“Siyosatshunoslik” yo’nalishi talabasi.

XXI asrning ikkinchi choragiga kirib borayotgan xalqaro tizim o’zining Sovuq urushdan keyingi nisbatan barqaror rivojlanish bosqichini ortda qoldirib, yangi turdagi tizimli beqarorlik davriga kirib bormoqda. Ukraina inqirozi, Yaqin Sharqdagi ko’p qatlamli mojarolar, Janubiy Xitoy dengizidagi kuchayib borayotgan geosiyosiy raqobat, shuningdek, yadro qurollanish nazorati bo’yicha shartnomalar tizimining izchil zaiflashuvi — bularning barchasi zamonaviy dunyoda tinchlikning tizimli inqiroz holatiga kirganidan dalolat beradi [1]. Ushbu inqiroz endi alohida davlatlar o’rtasidagi lokal ziddiyat emas, balki xalqaro tartibning tuzilmaviy asoslariga daxldor bo’lgan chuqur transformatsion jarayon sifatida namoyon bo’lmoqda.

Mavzuning dolzarbligi bir necha omil bilan izohlanadi. Birinchidan, bipolyar va keyinchalik unipolyar tartibdan ko’p qutbli tizimga o’tish jarayoni tabiatan beqaror bo’lib, kuchlar muvozanatining qayta taqsimlanishi tarixan har doim yuqori mojaro xavfi bilan kechgan [2]. Ikkinchidan, zamonaviy tahdidlarning gibrid xarakter kasb etishi — kiberhujumlar, dezinformatsiya kampaniyalari, iqtisodiy majburlash va an’anaviy harbiy vositalarning uyg’unlashuvi — an’anaviy xavfsizlik nazariyalarining tahliliy salohiyatini yetarli darajada oshirishni talab qilmoqda [3]. Uchinchidan, klassik diplomatik vositalarning samaradorligi pasayib borayotgan sharoitda strategik tahlilning yangi metodologik yondashuvlariga — stsenariy rejalashtirish, Delfi usuli, ko’p mezonli qaror qabul qilish tahlili (MCDA) kabi vositalarga — ehtiyoj ortmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — jahon miqyosidagi tinchlik inqirozining zamonaviy tendensiyalarini tizimli tahlil qilish va xalqaro

munosabatlarni strategik boshqarish mexanizmlarining amaliy salohiyatini baholashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: 1- "tinchlik inqirozi" tushunchasining nazariy-kontseptual asoslarini aniqlashtirish; 2- zamonaviy xalqaro muhitdagi asosiy beqarorlashtiruvchi tendensiyalarni tasniflash; 3- Inqirozlarni boshqarishning institutsional va diplomatik mexanizmlarini tahlil qilish; 4- O’zbekiston tashqi siyosatining "ko’p variantlilik" (multi-optionality) tamoyili misolida amaliy tajribani baholash.

Tadqiqot metodologik jihatdan tizimli va qiyosiy tahlil, shuningdek strategik tahlilning zamonaviy vositalari — SWOT-tahlil, stsenariy rejalashtirish va ekspert baholash (Delfi) usullariga tayanadi. Bu yondashuv xalqaro munosabatlar fanida so’nggi yillarda kuchayib borayotgan interdisiplinar tendensiyaga mos keladi, unga ko’ra siyosiy hodisalarni tushunish uchun nafayat tavsifiy, balki bashoratli-tahliliy vositalar ham zarur hisoblanadi [4].

Xalqaro munosabatlar nazariyasida "tinchlik inqirozi" tushunchasi yagona ta’rifga ega emas, biroq ko’pchilik tadqiqotchilar buni xalqaro tizimning mavjud institutsional va normativ vositalari yordamida ziddiyatlarni tartibga solish salohiyatining pasayishi sifatida talqin qiladilar. Robert Jervis o’zining klassik asarida davlatlararo qarama-qarshiliklarning katta qismi obyektiv manfaatlar to’qnashuvidan emas, balki "xavfsizlik dilemmasi" deb ataluvchi hodisadan — bir davlatning mudofaa choralari boshqa davlat tomonidan tahdid sifatida idrok etilishidan kelib chiqishini ko’rsatib bergan edi [5]. Ushbu nazariy asos zamonaviy sharoitda, ayniqsa Yevropa xavfsizlik arxitekturasi va Osiyo-

Tinch okeani mintaqasidagi kuchlar muvozanati masalalarida, o’z dolzarbligini yo’qotmagan.

Realistik paradigma nuqtayi nazaridan tinchlik inqirozi ko’pincha kuchlar muvozanatining buzilishi natijasi sifatida talqin etiladi. Graham Allison tomonidan ishlab chiqilgan "Fukidid tuzog’i" (Thucydides Trap) kontseptsiyasi buning yaqqol namunasidir: tarixiy tajriba shuni ko’rsatadiki, mavjud gegemon davlat bilan yangi ko’tarilib kelayotgan kuch o’rtasidagi raqobat aksariyat hollarda harbiy to’qnashuvga olib kelgan [6]. Allisonning tahliliga ko’ra, so’nggi besh asrda kuzatilgan o’n olti shunday holatning o’n ikkitasi urush bilan yakunlangan, bu esa zamonaviy AQSh-Xitoy raqobatini baholashda muhim tahliliy asos bo’lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, liberal-institutsional yondashuv tarafdorlari tinchlik inqirozini birinchi navbatda xalqaro institutlarning zaiflashuvi bilan bog’laydilar. BMT Xavfsizlik Kengashidagi veto huquqi mexanizmining amalda falaj holatga kelishi, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YEXHT) kabi tuzilmalarning nizolarni oldini olish borasidagi cheklangan samaradorligi — bularning barchasi institutsional inqirozning ko’rinishlaridir [7].

Zamonaviy xalqaro munosabatlarni tahlil qilishda oldindan aytib bo’lmaydigan, kam ehtimolli, ammo yuqori ta’sirga ega bo’lgan hodisalarni hisobga olish zarurati kuchaymoqda. Nassim Talebning "qora oqqush" nazariyasi aynan shu masalaga bag’ishlangan bo’lib, u xalqaro tizimdagi keskin o’zgarishlarning aksariyati statistik modellar tomonidan bashorat qilinmasligini, shu sababli institutlar va davlatlarning "antifragil" — ya’ni nafaqat beqarorlikka chidamli, balki undan kuchayib chiquvchi — tuzilmalarga ega bo’lishi zarurligini asoslaydi [8]. Ushbu

yondashuv strategik rejalashtirishda bir yagona stsenariyga tayanishning xavfliligini, aksincha, ko’p muqobil stsenariylarni parallel tarzda ishlab chiqish zarurligini ko’rsatadi.

Aynan shu nuqtada "multi-optionality" (ko’p variantlilik) kontseptsiyasi strategik tahlilning muhim vositasiga aylanadi. Ko’p variantlilik tamoyili davlatning tashqi siyosiy kursini bitta ittifoqchi yoki bitta geosiyosiy yo’nalishga bog’lab qo’ymaslik, balki bir vaqtning o’zida bir necha strategik yo’nalishlar — mintaqaviy integratsiya, buyuk davlatlar bilan muvozanatlashtirilgan hamkorlik, ko’p tomonlama institutlarda faol ishtirok — bo’yicha manevr qilish erkinligini saqlab qolishni nazarda tutadi [9]. Bunday yondashuv, birinchidan, tashqi shoklarga nisbatan chidamlilikni oshiradi, ikkinchidan, muzokara pozitsiyasini mustahkamlaydi, chunki bir nechta muqobil hamkorlik yo’llariga ega bo’lgan davlat har qanday alohida hamkor bilan muzokaralarda ko’proq erkinlikka ega bo’ladi.

Strategik tahlilning amaliy vositalari sifatida stsenariy rejalashtirish (scenario planning), ekspert baholashning Delfi usuli va ko’p mezonli qaror qabul qilish tahlili (Multi-Criteria Decision Analysis, MCDA) alohida ahamiyat kasb etadi. Stsenariy rejalashtirish kelajakning bir nechta muqobil variantlarini modellashtirish orqali qaror qabul qiluvchilarga noaniqlik sharoitida moslashuvchan strategiya ishlab chiqish imkonini beradi [10]. Delfi usuli esa ekspertlar guruhining anonim va bosqichma-bosqich baholashlari asosida konsensusga erishishga xizmat qiladi, bu esa ayniqsa xavfsizlik sohasidagi murakkab, ko’p qirrali masalalarni baholashda samarali hisoblanadi.

Zamonaviy xalqaro tizimda kuzatilayotgan tinchlik inqirozining bir necha o’zaro bog’liq tendensiyalarini ajratib ko’rsatish mumkin.

Birinchidan, kuchlar muvozanatining tub o’zgarishi. Xitoyning iqtisodiy va harbiy salohiyatining o’sishi, Hindiston, Braziliya kabi "o’rta kuchlar"ning mintaqaviy va global arenada faollashuvi AQSh gegemonligiga asoslangan unipolyar tartibning barham topishiga olib kelmoqda [11]. Ushbu jarayon o’tish davri xususiyatiga ega bo’lib, tarixiy tajriba shuni ko’rsatadiki, aynan bunday davrlar xalqaro tizimda eng yuqori beqarorlik xavfini keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, gibrid tahdidlarning kengayishi. Zamonaviy mojarolar tobora kamroq an’anaviy harbiy to’qnashuv shaklida, ko’proq esa kiberhujumlar, moliyaviy sanksiyalar, energetik bosim, dezinformatsiya kampaniyalari va "kulrang zona" operatsiyalari orqali namoyon bo’lmoqda [3]. Bu holat mavjud xalqaro huquqiy normalarning — xususan, tajovuzning ta’rifi va o’zini-o’zi himoya qilish huquqiga oid Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi qoidalarining — amaliy qo’llanilishini murakkablashtirmoqda.

Uchinchidan, yadro qurollanishni nazorat qilish rejimining zaiflashuvi. Strategik Qurollarni Cheklash (START) shartnomalari tizimining amalda ishlamay qolishi, yangi yadro davlatlarining paydo bo’lish xavfi va gipertovush qurollari kabi yangi texnologiyalarning nazorat mexanizmlariga kiritilmaganligi global strategik barqarorlikka jiddiy tahdid solmoqda [1].

To’rtinchidan, iqlim o’zgarishi va xavfsizlik o’rtasidagi bog’liqlikning kuchayishi. Suv resurslari tanqisligi, ekologik migratsiya va oziq-ovqat xavfsizligi muammolari, ayniqsa Sahroi Kabir janubidagi

Afrika va Markaziy Osiyo kabi mintaqalarda, an’anaviy bo’lmagan xavfsizlik tahdidlarining yangi manbaiga aylanmoqda [12].

Beshinchidan, xalqaro institutlarga bo’lgan ishonchning pasayishi. BMT Xavfsizlik Kengashi tarkibidagi doimiy a’zolarning veto huquqidan foydalanish amaliyoti ko’plab jiddiy inqirozlarda tashkilotning samarali choralar ko’rishiga to’sqinlik qilmoqda, bu esa muqobil, ko’proq moslashuvchan ko’p tomonlama platformalarga bo’lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda [7]

Yuqorida sanab o’tilgan tendensiyalarga javoban xalqaro hamjamiyat bir qator institutsional va diplomatik mexanizmlarni ishlab chiqmoqda. Preventiv diplomatiya — ya’ni mojaro keskin bosqichga o’tishidan oldin uni bartaraf etishga qaratilgan choralar majmui — zamonaviy inqirozlarni boshqarish nazariyasida markaziy o’rin egallaydi. BMTning erta ogohlantirish tizimlari, mintaqaviy tashkilotlarning monitoring missiyalari va "yaxshi xizmatlar" (good offices) instituti orqali amalga oshiriladigan vositachilik faoliyati preventiv diplomatiyaning asosiy shakllaridir [13]. Biroq amaliyot shuni ko’rsatadiki, preventiv diplomatiyaning samaradorligi ko’p jihatdan siyosiy iroda mavjudligiga bog’liq bo’lib, texnik-institutsional salohiyatning o’zi yetarli emas. Ko’p tomonlama muzokara platformalari, xususan "kichik guruhlar" (minilateral) formatidagi diplomatiya so’nggi o’n yillikda ahamiyat kasb etmoqda. Yirik universal tashkilotlarning og’ir byurokratik tuzilmasidan farqli o’laroq, manfaatdor tomonlarning tor doiradagi formatlari muayyan mojarolar bo’yicha tezroq va moslashuvchan yechimlarga erishish imkonini beradi [14]. Shu bilan birga, bunday formatlarning legitimligi

va uzoq muddatli barqarorligi masalasi ochiq qolmoqda, chunki ular ko’pincha universal institutlar chetlab o’tilgan holda shakllantiriladi.

Iqtisodiy o’zaro bog’liqlik va "murakkab o’zaro bog’liqlik" (complex interdependence) nazariyasi nuqtayi nazaridan chuqur savdo-iqtisodiy integratsiya davlatlararo mojaro xavfini kamaytiruvchi omil sifatida qaraladi. Biroq zamonaviy amaliyot — xususan, savdo urushlari va texnologik "ajralish" (decoupling) tendensiyalari — bu nazariyaning cheklovlarini ham namoyon etmoqda: iqtisodiy o’zaro bog’liqlikning o’zi geosiyosiy raqobatni to’liq bartaraf eta olmaydi, balki uni boshqa vositalar orqali davom ettirish uchun yangi maydon yaratadi [2].

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, O’zbekiston Respublikasining so’nggi yillardagi tashqi siyosati yuqorida ko’rib chiqilgan ko’p variantlilik tamoyilining amaliy namunasi sifatida alohida qiziqish uyg’otadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasidagi ma’ruzalarida muntazam ravishda ta’kidlanganidek, mintaqaviy xavfsizlik va barqaror rivojlanishga faqat ochiq, ko’p tomonlama va bir-birini istisno etmaydigan hamkorlik formatlari orqali erishish mumkin [15]. Bu yondashuv Markaziy Osiyo davlatlari o’rtasidagi Konsultativ Uchrashuvlar formatining institutsionalashuvida, shuningdek mintaqaviy suv-energetika muammolarini hal qilishga qaratilgan ko’p tomonlama tashabbuslarda o’z aksini topgan.

Strategik va Mintaqaviy Tadqiqotlar Instituti (ISRS) tomonidan olib borilgan tahliliy ishlanmalarda ko’rsatilishicha, O’zbekistonning bir vaqtning o’zida Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti doirasidagi hamkorlikni rivojlantirish bilan birga Yevropa Ittifoqi va AQSh bilan strategik sheriklik munosabatlarini

chuqurlashtirishi, aynan ko’p variantlilik strategiyasining amaliy ifodasidir [16]. Bunday yondashuv, birinchidan, mamlakat xavfsizligini bironta alohida geosiyosiy markazga bog’lab qo’ymaydi, ikkinchidan, mintaqaviy inqirozlar (masalan, Afg’oniston vaziyati) yuzasidan muvozanatlashtirilgan vositachilik pozitsiyasini egallash imkonini beradi.

Orolbo’yi mintaqasidagi ekologik inqirozni "iqlim va xavfsizlik" muammosining mintaqaviy namunasi sifatida ko’rib chiqish, shuningdek uni BMT darajasidagi maxsus fond mexanizmi orqali xalqarolashtirish tashabbusi ham O’zbekistonning an’anaviy bo’lmagan xavfsizlik muammolarini ko’p tomonlama diplomatik vositalar orqali hal qilish strategiyasining yorqin namunasidir [16]. Bu tajriba shuni ko’rsatadiki, o’rta kuchga ega davlatlar uchun ko’p variantlilik nafaqat tashqi tahdidlardan himoyalanish vositasi, balki mintaqaviy inqirozlarni boshqarishda faol ishtirokchi maqomini shakllantirish strategiyasi ham bo’lib xizmat qilishi mumkin.

O’tkazilgan tahlil shuni ko’rsatadiki, zamonaviy tinchlik inqirozi yagona sabab yoki bitta mintaqa bilan chegaralanmagan, balki kuchlar muvozanatining tizimli o’zgarishi, gibrid tahdidlarning kengayishi, yadro nazorati rejimlarining zaiflashuvi va institutsional ishonchning pasayishi kabi bir nechta o’zaro bog’liq omillarning natijasidir. Ushbu murakkab manzarani tushunish uchun an’anaviy tavsifiy tahlil yetarli bo’lmay, stsenariy rejalashtirish, Delfi usuli va ko’p mezonli qaror qabul qilish tahlili kabi strategik tahlil vositalarini qo’llash zaruriyati ortib bormoqda.

Tahlil natijalariga asoslanib, quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin: *birinchidan,* xalqaro erta ogohlantirish tizimlarini strategik tahlilning zamonaviy metodologik vositalari bilan boyitish, xususan

mintaqaviy tahlil markazlarida stsenariy rejalashtirish amaliyotini institutsionalashtirish;

ikkinchidan, BMT Xavfsizlik Kengashi faoliyatidagi tizimli cheklovlarni hisobga olgan holda, minilateral va mintaqaviy vositachilik formatlarining legitimligini oshiruvchi normativ asoslarni mustahkamlash;

uchinchidan, o’rta kuchga ega davlatlar uchun ko’p variantlilik strategiyasini nazariy jihatdan chuqurroq asoslash, uni nafaqat tashqi siyosiy amaliyot, balki xalqaro munosabatlar nazariyasining alohida yo’nalishi sifatida rivojlantirish;

to’rtinchidan, an’anaviy bo’lmagan xavfsizlik tahdidlarini an’anaviy xavfsizlik kun tartibi bilan uzviy bog’liq holda ko’rib chiqishni institutsional darajada mustahkamlash.

Yakuniy xulosa sifatida ta’kidlash joizki, zamonaviy tinchlik inqirozini bartaraf etish yagona universal formula orqali emas, balki turli darajadagi — global, mintaqaviy va ikki tomonlama — mexanizmlarning uyg’unlashtirilgan, moslashuvchan va ko’p variantli tizimi orqaligina mumkin bo’ladi. Bu borada O’zbekistonning mintaqaviy hamkorlik va ko’p tomonlama diplomatiya sohasidagi tajribasi kichik va o’rta davlatlar uchun amaliy ahamiyatga ega namuna bo’lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Kissinger H. World Order: Reflections on the Character of Nations and the Course of History. – New York: Penguin Press, 2014. – 420 p.

2. Nye J.S. The Future of Power. – New York: PublicAffairs, 2011. – 300 p.

3. Hoffman F.G. Conflict in the 21st Century: The Rise of Hybrid Wars. – Arlington: Potomac Institute for Policy Studies, 2007. – 72 p.

4. Lebow R.N. Forbidden Fruit: Counterfactuals and International Relations. – Princeton: Princeton University Press, 2010. – 328 p.

5. Jervis R. Perception and Misperception in International Politics. – Princeton: Princeton University Press, 1976. – 445 p.

6. Allison G. Destined for War: Can America and China Escape Thucydides’s Trap? – Boston: Houghton Mifflin Harcourt, 2017. – 384 p.

7. Weiss T.G. What’s Wrong with the United Nations and How to Fix It. – Cambridge: Polity Press, 2016. – 296 p.

8. Taleb N.N. Antifragile: Things That Gain from Disorder. – New York: Random House, 2012. – 519 p.

9. Karimova N.A. Kichik va o‘rta davlatlarning tashqi siyosati: ko’p variantlilik nazariyasi // O’zbekiston tashqi siyosati masalalari. – Toshkent, 2022. – №2. – B. 15-24.

10. Schwartz P. The Art of the Long View: Planning for the Future in an Uncertain World. – New York: Currency Doubleday, 1991. – 272 p.

11. Ikenberry G.J. A World Safe for Democracy: Liberal Internationalism and the Crises of Global Order. – New Haven: Yale University Press, 2020. – 400 p.

12. Buzan B., Wæver O., de Wilde J. Security: A New Framework for Analysis. – Boulder: Lynne Rienner Publishers, 1998. – 239 p.

13. Lund M.S. Preventing Violent Conflicts: A Strategy for Preventive Diplomacy. – Washington, D.C.: United States Institute of Peace Press, 1996. – 234 p.

14. Zartman I.W. Cowardly Lions: Missed Opportunities to Prevent Deadly Conflict and State Collapse. – Boulder: Lynne Rienner Publishers, 2005. – 250 p.

15. Mirziyoyev Sh.M. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining navbatdagi sessiyasidagi nutqi // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati rasmiy sayti. – Nyu-York, 2023 yil 19 sentyabr.

16. Strategik va Mintaqaviy Tadqiqotlar Instituti. Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik va xavfsizlik: tahliliy hisobot. – Toshkent: ISRS, 2023. – 96 b.

YANGI O‘ZBEKISTON VA HARBIY TA’LIM: YANGI AVLODNI TARBIYALASHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Ishmatova Nargis Murtazokulovna,

O‘R MG Toshkent “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi bosh o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida harbiy ta’lim tizimining o‘rni, uning mazmun-mohiyatidagi yangilanishlar hamda yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy g‘urur, fuqarolik mas’uliyati va yuksak ma’naviyat ruhida tarbiyalash masalalari tahlil qilinadi. Harbiy-akademik litseylar faoliyati misolida ta’lim va tarbiyaning uzviyligi, umumta’lim fanlari, xususan, ona tili va

adabiyot fanlarining bo‘lajak harbiy kadrlarni tayyorlashdagi imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy harbiy ta’limda raqamli texnologiyalar, amaliy ko‘nikmalar, mustaqil fikrlash, nutqiy kompetensiya va ma’naviy-axloqiy tarbiyaning ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, harbiy ta’lim, harbiy-akademik litsey, “Temurbeklar maktabi”, vatanparvarlik, ma’naviy tarbiya, milliy qadriyat, kompetensiya, ona tili, adabiyot, harbiy kadr, yoshlar

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayoni jamiyat hayotining barcha sohalarida, jumladan, ta’lim tizimida ham keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Chunki mamlakat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri — zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sadoqatli, ma’naviy barkamol yosh avlodni tarbiyalashdir.
Ayniqsa, davlat xavfsizligi, jamoat xavfsizligi va mudofaa tizimi uchun kadrlar tayyorlash masalasi alohida mas’uliyat talab etadi. Harbiy xizmatchidan faqat jismoniy chiniqish yoki harbiy texnikani bilish emas, balki yuksak intellekt, mustahkam iroda, keng dunyoqarash, muloqot madaniyati, huquqiy va siyosiy savodxonlik, ma’naviy yetuklik ham talab qilinadi.
Shu nuqtayi nazardan, harbiy-akademik litseylar faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi “Temurbeklar maktabi” faqat harbiy bilim beradigan ta’lim muassasasi emas, balki kelajakdagi harbiy va davlat xizmatchilarining intellektual, ma’naviy-axloqiy hamda fuqarolik pozitsiyasini shakllantiruvchi muhim ta’lim-tarbiya maskanidir. Bu borada Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 28- iyundagi PQ–4375-sonli

“Temurbeklar maktablarini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur qaror asosida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda liderlik, intizom va yuksak ma’naviy fazilatlarni shakllantirish tizimli yo‘lga qo‘yildi. “O‘quvchilarda xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlariga, uning madaniyati va urf-odatlariga chuqur hurmatni, ularda halollik, vijdoniylik, vatanparvarlik, sadoqat, fidokorlik singari shaxs sifatlarini, shuningdek, milliy g‘urur tuyg‘ularini shakllantirish”[1] ustuvor vazifalardan ekanligi ta’kidlangan. [O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-iyundagi “Temurbeklar maktablarini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ – 4375-sonli qarori]

Yangi O‘zbekiston sharoitida harbiy ta’limga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarib bormoqda. Zamonaviy harbiy xizmatchi, eng avvalo, yangicha fikrlashga qodir, tezkor vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qila oladigan, zamonaviy texnologiyalarni egallagan va o‘z fikrini aniq ifodalay oladigan mutaxassis bo‘lishi lozim. Shu ma’noda harbiy ta’limning asosiy vazifalaridan biri — “bilimli askar”dan “intellektual salohiyatli, tashabbuskor va mas’uliyatli harbiy mutaxassis”ni shakllantirishga o‘tishdir.

Harbiy-akademik litseylarda umumta’lim fanlari bilan harbiy tayyorgarlikning uyg‘unlashtirilishi aynan shu maqsadga xizmat qiladi. Chunki matematika, fizika, informatika, xorijiy tillar kabi fanlar bilan bir qatorda ona tili va adabiyot ham o‘quvchining tafakkuri, dunyoqarashi, nutqiy kompetensiyasi va ma’naviy qiyofasini

shakllantiradi. Bugungi harbiy ta’limda “bilim — ko‘nikma — kompetensiya — amaliy faoliyat” izchilligi muhim. O‘quvchi olgan bilimini real hayotiy vaziyatda qo‘llay olishi kerak. Masalan, harbiy xizmatchi buyruqni to‘g‘ri tushunishi, uni aniq yetkazishi, xizmat hujjatlarini savodli rasmiylashtirishi, jamoa oldida fikrini ravon bayon qilishi, turli vaziyatlarda muloqot qila olishi zarur. Demak, harbiy ta’limda ona tili fanining o‘rni faqat grammatik qoidalarni o‘rgatish bilan cheklanmaydi. U kelajakdagi harbiy mutaxassisning nutqiy va kommunikativ kompetensiyasini shakllantiradi.

Yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda adabiyotning imkoniyatlari beqiyosdir. Chunki adabiyot inson qalbiga ta’sir etadi, unda ezgulik, jasorat, sadoqat, or-nomus va fidoyilik kabi fazilatlarni shakllantiradi.

O‘zbek adabiyoti tarixida Vatan himoyasi, xalq va yurt taqdiri uchun kurash, mardlik va jasorat mavzulari salmoqli o‘rin egallaydi. Amir Temur siymosi, Jaloliddin Manguberdi jasorati, Alpomish obrazi, jadid ma’rifatparvarlarining millat kelajagi uchun olib borgan kurashi yoshlar uchun muhim ma’naviy maktabdir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitoblarida: “Tomirlarida buyuk bobolarimizning qoni oqayotgan yoshlarimiz ulug‘ ajdodlarimizning munosib vorislari bo‘lishi, ular kabi ulkan maqsadlar sari intilib yashashi va yuksak marralarga erishishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishimiz zarur[2]”. [Sh.M.Mirziyoyev, “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” , –T: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021-yil, 122-b.] Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, ajdodlarimiz qoldirgan boy tarixiy va madaniy meros yoshlar uchun ma’naviy ozuqa manbai bo‘lib, ularni

yuksak axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalaydi. Buyuk mutafakkirlar, allomalar va tarixiy shaxslarning hayoti va ilmiy-ma'rifiy faoliyatini o‘rganish yoshlarni ilmga intilish, mehnatsevarlik va vatanparvarlik ruhida kamol topishiga zamin yaratadi. “Dushman Chingizxon to‘dalari Xorazmga yaqinlashganda, Muhammad Xorzamshoh qochib ketgan, Lashkar parokanda edi. Shayx muridlarini jamlab, ularga qarab bunday deydi: ”Mashriqdan kelgan bu balo Mashriq-u Marg‘ibni yakson etadi, yondirib kul qiladi. Sizlar har biringiz o‘z yurtingizga boring, o‘z joningizni asrash payida bo‘ling”. Ashob shayxga iltimos qilib deydilar: “Ot-ulovlar tayyor, agar shayx biz bilan hamroh ketishni ixtiyor etsalar, yaxshi bo‘lardi”. Bunga javoban shayx Najmiddin Kubro deydi: “Men bu yerda shahid bo‘laman, menga Xorazmni tark etishga ruxsat yo‘q[3]”. [“Tanidan jonni berib ham, qo‘lidan bayroqni bermagan shayx” maqola. –T.2019-yil. O‘zA.]

Harbiy-akademik litseylarda adabiyot darslarini tashkil etishda mazkur tarixiy va badiiy obrazlardan samarali foydalanish o‘quvchilarda “Vatan men uchun nima berdi?” degan savoldan ko‘ra, “Men Vatanim uchun nima qila olaman?” degan mas'uliyatli fikrni shakllantirishga xizmat qiladi.

Masalan, Jaloliddin Manguberdi obrazini o‘rganishda faqat tarixiy ma'lumotlarni berish bilan cheklanmasdan, uning jasoratini bugungi harbiy xizmatchining burchi, mas'uliyati va fidoyiligi bilan qiyoslash mumkin. Amir Temur faoliyatini o‘rganishda esa intizom, strategik fikrlash, davlat manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yish kabi fazilatlarni tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Bunday yondashuv natijasida adabiyot darsi oddiy nazariy

mashg‘ulotdan ma’naviy-ma’rifiy va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi maydoniga aylanadi.

Harbiy sohada nutqning aniqligi va qisqaligi nihoyatda muhim. Birgina noto‘g‘ri tushunilgan buyruq yoki noaniq ifodalangan fikr jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli harbiy-akademik litseylarda ona tili ta’limining amaliy yo‘nalishini kuchaytirish zarur. O‘quvchilarga:

buyruq va ko‘rsatmalarni to‘g‘ri anglash;

rasmiy uslubda hujjat tuzish;

xizmat yozishmalarini savodli olib borish;

omma oldida nutq so‘zlash;

munozarada dalillar asosida fikr bildirish;

axborotni qisqa va aniq yetkazish;

turli vaziyatlarda muloqot qilish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish kelajakdagi harbiy faoliyat uchun muhim tayyorgarlik vazifasini bajaradi.

Shu jihatdan ona tili darslarida harbiy sohaga oid matnlar, rasmiy hujjatlar, nutqiy vaziyatlar, muammoli topshiriqlar va munozaralardan foydalanish samarali natija beradi. Masalan, “Harbiy xizmatchining nutq madaniyati”, “Vatan himoyachisining ma’naviy qiyofasi”, “Harbiy intizom va mas’uliyat”, “Yoshlar va milliy xavfsizlik” kabi mavzularda yozma va og‘zaki topshiriqlar o‘quvchilarning til ko‘nikmasini rivojlantirish bilan birga, ularning fuqarolik pozitsiyasini ham shakllantiradi.

Harbiy-akademik litseylarning muhim jihati shundaki, bu yerda ta’lim va tarbiyani bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. O‘quvchi har bir fan,

mashg‘ulot va tadbir orqali nafaqat bilim, balki muayyan hayotiy qadriyatlarni ham egallaydi. “Temurbeklar maktabi” bitiruvchilarining oliy harbiy va oliy ta’lim muassasalariga kirish ko‘rsatkichlari ham bunday ta’lim modelining samaradorligini ko‘rsatadi. Masalan, o‘tgan o‘quv yilida Toshkent “Temurbeklar maktabi” bitiruvchilarining oliy ta’limga kirish ko‘rsatkichlari 98 foizni tashkil etganligi fikrimizning tasdig‘idir. Bu natijalar harbiy-akademik litseylarda umumta’lim fanlari va harbiy tayyorgarlikni uyg‘unlashtirish to‘g‘ri yo‘nalish ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, harbiy-akademik litseylar o‘rtasidagi hamkorlik, tajriba almashish va o‘quv jarayonini takomillashtirish ham muhim ahamiyatga ega. 2026-yilda “Temurbeklar maktablari”, shuningdek, Jamoat xavfsizligi va Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetlari o‘rtasida hamkorlikni mustahkamlash, tajriba almashish va yoshlarning zamonaviy bilim-ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan memorandum imzolangan.

Harbiy ta’lim tizimining muvaffaqiyati, avvalo, pedagoglarning kasbiy mahoratiga bog‘liq. Harbiy-akademik litsey o‘qituvchisi o‘z fanini chuqur bilishi bilan birga, harbiy muhit, intizom, vatanparvarlik va yoshlar psixologiyasini ham yaxshi anglashi kerak. Ayniqsa, ona tili va adabiyot o‘qituvchisining vazifasi o‘quvchiga faqat adabiy asar yoki til qoidalarini o‘rgatish emas. U yosh avlodning milliy tafakkuri va ma’naviy immunitetini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli harbiy-akademik litsey pedagoglari uchun metodik qo‘llanmalar, fanlararo integratsiyaga asoslangan dars ishlanmalari, harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishidagi badiiy va publitsistik matnlar

bankini yaratish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida harbiy ta’lim oldida turgan vazifalar nihoyatda keng va mas’uliyatlidir. Zamonaviy harbiy kadr nafaqat jismonan chiniqqan va harbiy bilimlarni puxta egallagan, balki yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, keng dunyoqarashli, kommunikativ kompetensiyaga ega va Vatanga sadoqatli shaxs bo‘lishi kerak.
Bunday avlodni tarbiyalashda harbiy-akademik litseylar muhim o‘rin tutadi. Ularning faoliyatida harbiy tayyorgarlikni umumta’lim fanlari bilan uyg‘unlashtirish, ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni joriy etish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish muhimdir. Ayniqsa, ona tili va adabiyot fanlari harbiy ta’limning ma’naviy-tarbiyaviy imkoniyatlarini kengaytiradi. Ona tili yoshlarni aniq, ravon va mas’uliyatli fikrlashga o‘rgatsa, adabiyot ularda Vatanga muhabbat, milliy g‘urur, jasorat, sadoqat va fidoyilik kabi insoniy fazilatlarni shakllantiradi. Shunday ekan, Yangi O‘zbekistonning kuchli, bilimli va ma’naviy yetuk armiyasi uchun kadrlar tayyorlash jarayoni “ta’lim + tarbiya + harbiy tayyorgarlik + zamonaviy texnologiya + milliy qadriyat” uyg‘unligi asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Bu esa o‘z navbatida, Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining mustahkam poydevorini yaratadigan, Vatan tinchligi va xavfsizligini ta’minlashga qodir yangi avlod harbiy kadrlarini voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-iyundagi “Temurbeklar maktablarini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ–4375-sonli qarori

1. Sh.M.Mirziyoyev, “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” , –T: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021-yil, 122-b.
2. “Tanidan jonni berib ham, qo‘lidan bayroqni bermagan shayx”, maqola. –T. 2019-yil. O‘zA.

AEROPORTLARDA PARVOZOLDI, PARVOZ JARAYONI VA PARVOZDAN KEYINGI BOSQICHLARDA PROFAYLING O‘TKAZISHNING TASHKILIY-AMALIY XUSUSIYATLARI

Voxobov Nuriddin G‘ofurjon o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti katta o‘qituvchisi
Voxidova Kamola Eryigit qizi
I.Karimov Toshkent xalqaro aeroporti Chegara nazorati vzvodi komandiri

Annotatsiya: Ushbu maqolada aeroportlarda parvozoldi, parvoz jarayoni va parvozdan keyingi bosqichlarda profayling o‘tkazishning tashkiliy-amaliy xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Profayling aviatsiya xavfsizligiga tahdid solishi mumkin bo‘lgan shaxslar, xatti-harakatlar va xavf indikatorlarini oldindan aniqlashga qaratilgan kompleks usul sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: aeroport, aviatsiya xavfsizligi, profayling, parvozoldi nazorati, parvoz jarayoni, parvozdan keyingi nazorat, yo‘lovchi xulq-atvori.

Аннотация: В статье проводится научный анализ организационно-практических особенностей профайлинга в аэропортах на предполётном этапе, во время полёта и после его завершения. Профайлинг рассматривается как комплексный метод, направленный на заблаговременное выявление лиц, поведенческих признаков и индикаторов риска, способных представлять угрозу авиационной безопасности.

Ключевые слова: аэропорт, авиационная безопасность, профайлинг, предполётный контроль, полёт, послеполётный контроль, поведение пассажиров.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the organizational and practical features of profiling at airports during the pre-flight, in-flight and post-flight stages. Profiling is examined as a comprehensive method aimed at the early identification of individuals, behavioural signs and risk indicators that may pose a threat to aviation security.

Keywords: airport, aviation security, profiling, pre-flight screening, in-flight monitoring, post-flight control, passenger behavior.

Kirish

Bugungi kunda xalqaro va milliy havo transporti tizimining jadal rivojlanishi aeroportlarda aviatsiya xavfsizligini ta’minlash mexanizmlarini muntazam ravishda takomillashtirishni talab qilmoqda. Yo‘lovchilar oqimining ortishi, noqonuniy aralashuv harakatlari, terrorizm, kontrabanda, hujjatlarni soxtalashtirish hamda havo kemasi bortida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizoli vaziyatlar xavfsizlikni ta’minlashda zamonaviy va kompleks yondashuvlardan foydalanish

zaruratini kuchaytirmoqda. Shunday yondashuvlardan biri profayling bo‘lib, u potensial xavflarni shaxsning xulq-atvori, muloqot xususiyatlari, safar bilan bog‘liq ma’lumotlar va vaziyatga xos xavf indikatorlari asosida aniqlashga xizmat qiladi.

Aviatsiya xavfsizligi sohasida profayling — yo‘lovchilar, kuzatuvchilar, aeroport xodimlari hamda boshqa shaxslarning verbal va noverbal xatti-harakatlarini tizimli kuzatish, tahlil qilish va baholash orqali ehtimoliy xavfni aniqlash jarayonidir. Mazkur usul an’anaviy texnik tekshiruv vositalarini to‘ldiradi hamda xavfli vaziyatlarning kelib chiqish ehtimolini dastlabki bosqichdayoq aniqlash imkonini beradi. Profayling shaxsning millati, irqi, dini, jinsi yoki tashqi ko‘rinishiga asoslanmasligi, balki obyektiv xulq-atvor belgilari, tekshiriladigan ma’lumotlar va aniq xavf indikatorlari asosida amalga oshirilishi lozim.

Asosiy qism

Aviatsiya xavfsizligida profayling potensial xavfni yo‘lovchining xulq-atvori, safar tafsilotlari, taqdim etilgan hujjatlar, verbal va noverbal belgilar hamda mavjud vaziyat o‘rtasidagi muvofiqlikni tahlil qilish orqali aniqlashga qaratilgan kompleks faoliyat hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi muayyan shaxsni aybdor deb topish emas, balki qo‘shimcha tekshiruv o‘tkazishni talab qiladigan xavf belgilarini o‘z vaqtida aniqlashdan iborat.

Profayling jarayoni kuzatuv, qisqa muloqot, ma’lumotlarni o‘zaro solishtirish, xavf darajasini baholash va tegishli qaror qabul qilish kabi o‘zaro bog‘liq amaliy harakatlarni qamrab oladi. Ushbu jarayonda aniqlangan alohida xulq-atvor belgisi shaxsning xavfli ekanligini anglatmaydi. Xavf to‘g‘risidagi xulosa bir nechta belgilar, mavjud holat

va tekshirilgan ma’lumotlarning umumiy tahlili asosida shakllantirilishi kerak.

Profaylingni samarali tashkil etish uchun, birinchidan, xodimlarning vazifalari va vakolatlari aniq belgilanishi; ikkinchidan, xavf indikatorlarini baholashning yagona mezonlari ishlab chiqilishi; uchinchidan, aviatsiya xavfsizligi xizmati, chegara va bojxona nazorati organlari, ichki ishlar tuzilmalari, aviakompaniya vakillari va havo kemasi ekipaji o‘rtasida tezkor axborot almashinuvi yo‘lga qo‘yilishi zarur. Bundan tashqari, profayling natijasida qabul qilingan qarorlar belgilangan tartibda hujjatlashtirilishi va keyinchalik tahlil qilinishi lozim.

Profaylingni amalga oshiruvchi mutaxassis psixologiya, muloqot nazariyasi, nizolarni boshqarish, hujjatlarni tekshirish va aviatsiya xavfsizligi sohalariga oid bilimlarga ega bo‘lishi kerak. Xodim kuzatuvchanlik, xolislik, tezkor fikrlash va ruhiy bosim sharoitida asoslangan qaror qabul qilish ko‘nikmalarini egallashi muhim. Shu bilan birga, u shaxsiy taxmin va stereotiplarga emas, balki obyektiv ma’lumotlar va belgilangan xavf indikatorlariga tayanishi talab etiladi.

Parvozoldi bosqichida profayling o‘tkazish xususiyatlari. Parvozoldi bosqichi xavflarni dastlabki va nisbatan erta aniqlash imkonini beradigan muhim davr hisoblanadi. Mazkur bosqich aeroport hududiga kirish, ro‘yxatdan o‘tish, bagajni topshirish, pasport va bojxona nazorati, aviatsiya xavfsizligi tekshiruvi, kutish hududi hamda havo kemasiga chiqish jarayonlarini qamrab oladi. Har bir nazorat nuqtasida yo‘lovchining xatti-harakati va taqdim etgan ma’lumotlarini baholash uchun alohida imkoniyat mavjud.

Parvozoldi profaylingida, avvalo, yo‘lovchining hujjatlari va safar bilan bog‘liq ma’lumotlari o‘rtasidagi muvofiqlik o‘rganiladi. Shaxsni tasdiqlovchi hujjat, aviachipta, safar yo‘nalishi, bagaj xususiyatlari va safar maqsadiga doir ma’lumotlarda tushuntirib bo‘lmaydigan nomuvofiqliklar aniqlansa, qo‘shimcha tekshiruv o‘tkazilishi mumkin. Biroq har qanday nomuvofiqlik avtomatik tarzda xavf mavjudligini anglatmaydi. U obyektiv sabablar bilan izohlanishi ehtimoli ham hisobga olinishi zarur.

Yo‘lovchi bilan muloqot jarayonida uning savollarga bergan javoblari, javoblarning o‘zaro izchilligi, nutq sur’ati, muloqotdan qochishi yoki haddan tashqari nazoratli xatti-harakatlari kuzatiladi. Noverbal belgilar, jumladan, yuz ifodasi, tana harakatlari va vaziyatga nomuvofiq reaksiyalar yordamchi axborot manbai bo‘lishi mumkin. Bunday belgilar charchoq, parvozdan qo‘rqish, sog‘liq holati yoki madaniy farqlar natijasida ham yuzaga kelishi mumkinligi sababli ular alohida holda qat’iy xulosa chiqarish uchun asos bo‘la olmaydi.

Parvozoldi bosqichidagi profayling birlamchi kuzatuv, xavf indikatorlarini baholash va zarurat tug‘ilganda qo‘shimcha nazoratga yo‘naltirish ketma-ketligida amalga oshiriladi. Qo‘shimcha tekshiruv vakolatli xizmatlar tomonidan qonunchilik va ichki yo‘riqnomalar asosida o‘tkazilishi kerak. Bunda yo‘lovchining sha’ni, huquqlari va shaxsiy daxlsizligi ta’minlanishi muhimdir.

Mazkur bosqichning tashkiliy samaradorligi aeroportdagi turli xizmatlar o‘rtasidagi hamkorlikka bevosita bog‘liq. Masalan, ro‘yxatdan o‘tkazish xodimi aniqlagan shubhali holat xavfsizlik xizmatiga belgilangan tartibda yetkazilishi, zaruratga ko‘ra esa chegara, bojxona

yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar jalb etilishi lozim. Axborot uzatish jarayoni aniq, tezkor va maxfiy bo‘lishi zarur.

Parvoz jarayonida profayling o‘tkazish xususiyatlari. Parvoz vaqtida xavfsizlikni ta’minlash sharoiti aeroportdagi nazorat jarayonidan keskin farq qiladi. Havo kemasining cheklangan hududi, yo‘lovchilar o‘rtasidagi yaqin masofa, tashqi yordam imkoniyatining cheklanganligi va favqulodda vaziyatning tez rivojlanishi ekipajdan yuqori darajadagi tayyorgarlikni talab qiladi. Shu sababli parvoz jarayonidagi profayling, asosan, yo‘lovchilarning xulq-atvorini uzluksiz kuzatish va yuzaga kelayotgan xavfni dastlabki belgilar orqali aniqlashga qaratiladi.

Ekipaj a’zolari yo‘lovchilarning umumiy ruhiy holati, xavfsizlik talablariga munosabati, boshqa yo‘lovchilar va ekipaj bilan muloqoti hamda vaziyatga mos bo‘lmagan harakatlariga e’tibor qaratishi lozim. Qoidalarga takroran bo‘ysunmaslik, tajovuzkor xatti-harakat, ekipaj faoliyatiga asossiz aralashish, yo‘lovchilar o‘rtasida nizo keltirib chiqarish yoki havo kemasining xavfsiz ishlashiga xalaqit beruvchi boshqa holatlar xavf darajasini baholashni talab qiladi.

Parvoz vaqtida aniqlangan holatlarga munosabat mutanosiblik tamoyili asosida tashkil etilishi kerak. Dastlab vaziyatni tinch muloqot orqali barqarorlashtirish, yo‘lovchiga xavfsizlik qoidalarini tushuntirish va nizoning kuchayishiga yo‘l qo‘ymaslik muhimdir. Agar xavf darajasi ortib borsa, ekipaj belgilangan xizmat yo‘riqnomalari asosida harakat qiladi va havo kemasi komandiriga tegishli axborotni yetkazadi. Bunda ekipaj a’zolari o‘rtasida vazifalarning oldindan taqsimlanganligi hamda yagona aloqa tartibining mavjudligi tezkor qaror qabul qilish imkonini beradi.

Parvozdagi profaylingning yana bir muhim jihati parvozoldi bosqichida to‘plangan axborotdan qonuniy va maqsadga muvofiq foydalanishdir. Agar muayyan yo‘lovchiga nisbatan kuchaytirilgan kuzatuv zarurligi aniqlangan bo‘lsa, tegishli ma’lumot maxfiylik talablariga rioya etilgan holda ekipajga yetkazilishi mumkin. Shu tariqa parvozoldi nazorati va bortdagi kuzatuv o‘rtasida uzviylik ta’minlanadi.

Ekipajning profayling bo‘yicha tayyorgarligi faqat xavfli xatti-harakatlarni aniqlash bilan cheklanmasligi kerak. Ular turli ruhiy holatlar, tibbiy muammolar, parvozdan qo‘rqish, madaniy farqlar va nogironligi bo‘lgan yo‘lovchilarning o‘ziga xos ehtiyojlarini ham farqlay olishi zarur. Bu begunoh yo‘lovchining xatti-harakatini noto‘g‘ri talqin qilish ehtimolini kamaytiradi.

Parvozdan keyingi bosqichda profayling o‘tkazish xususiyatlari. Parvozdan keyingi profayling xavfsizlik jarayonining yakuniy, biroq mustaqil ahamiyatga ega bo‘lgan bosqichidir. Ushbu bosqich havo kemasi qo‘nganidan so‘ng yo‘lovchilarning samolyotdan chiqishi, bagajni qabul qilishi, chegara va bojxona nazoratidan o‘tishi hamda aeroport hududini tark etishigacha davom etadi. Mazkur jarayonda parvoz vaqtida kuzatilgan shubhali yoki nizoli holatlarning davom etishi, yo‘lovchining o‘z xatti-harakatini o‘zgartirishi yoki tekshiruvdan qochishga urinishlari aniqlanishi mumkin.

Parvoz vaqtida xavfsizlikka ta’sir ko‘rsatgan voqea sodir bo‘lgan taqdirda, ekipaj a’zolari bu haqda aeroportning tegishli xizmatlarini oldindan xabardor qilishi lozim. Samolyot qo‘ngach, vakolatli xodimlar vaziyatni baholaydi, ishtirokchilarning tushuntirishlarini oladi va zarur ma’lumotlarni rasmiylashtiradi. Ushbu jarayonda voqeaning sabablari,

rivojlanish ketma-ketligi, ekipajning ko‘rgan choralari va ularning natijalari qayd etiladi.

Parvozdan keyingi bosqichda ma’lumotlarni hujjatlashtirish alohida ahamiyatga ega. To‘plangan ma’lumotlar faqat muayyan hodisani huquqiy baholash uchun emas, balki kelgusidagi xavflarning oldini olish, xodimlar faoliyatidagi kamchiliklarni aniqlash va amaldagi xavfsizlik tartiblarini takomillashtirish uchun ham xizmat qiladi. Shu sababli hisobotlar aniq faktlarga asoslangan, xolis va hissiy baholardan xoli bo‘lishi kerak.

Ushbu bosqichda qayta aloqa mexanizmini yaratish ham muhimdir. Hodisa yakunlari bo‘yicha olingan xulosalar aeroport xavfsizlik xizmati, aviakompaniya va boshqa vakolatli tuzilmalarga yetkazilishi, zarur hollarda esa xodimlarni tayyorlash dasturlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishi lozim. Natijada parvozdan keyingi tahlil keyingi parvozlarning xavfsizligini oshirishga xizmat qiladi.

Profayling jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish. Aeroportlarda axborot tizimlari, videokuzatuv vositalari, elektron hujjat tekshiruvi va ma’lumotlarni tezkor almashish platformalaridan foydalanish profayling samaradorligini oshirishi mumkin. Bunday vositalar katta hajmdagi ma’lumotlarni qisqa vaqt ichida qayta ishlash, turli nazorat bosqichlarida aniqlangan belgilarni o‘zaro solishtirish va vakolatli xodimlarga tezkor axborot taqdim etish imkonini beradi.

Shu bilan birga, texnologik tizimlar tomonidan shakllantirilgan xavf bahosi yakuniy qaror sifatida qabul qilinmasligi kerak. Avtomatlashtirilgan tizimlarda xatolik, noto‘g‘ri ma’lumot yoki bir tomonlama baholash ehtimoli mavjud. Shu sababli yakuniy qaror

malakali mutaxassis tomonidan qo‘shimcha tekshiruv natijalari asosida qabul qilinishi maqsadga muvofiq.

Shaxsga doir ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash va uzatish jarayoni qonuniylik, maqsadlilik, axborot xavfsizligi va maxfiylik tamoyillariga muvofiq amalga oshirilishi lozim. Ma’lumotlardan faqat aviatsiya xavfsizligini ta’minlash maqsadida foydalanish, ularga kirish vakolatini cheklash hamda belgilangan muddatdan ortiq saqlamaslik muhim tashkiliy talab hisoblanadi.

Profayling samaradorligini oshirish yo‘nalishlari. Aeroportlarda profayling tizimini takomillashtirish uchun barcha bosqichlarni yagona xavfsizlik tizimiga birlashtirish zarur. Parvozoldi bosqichida aniqlangan ma’lumotlarning parvoz vaqtida hisobga olinishi, bortdagi hodisalar haqidagi axborotning esa parvozdan keyingi nazorat va tahlil jarayoniga yetkazilishi xavfsizlik choralarining uzluksizligini ta’minlaydi.

Profayling samaradorligini oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biri xodimlarni muntazam o‘qitish va amaliy mashg‘ulotlar tashkil etishdir. O‘quv dasturlarida xulq-atvor belgilarini baholash, nizoli vaziyatlarda muloqot olib borish, stress sharoitida qaror qabul qilish, inson huquqlari, madaniy farqlar va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish masalalari qamrab olinishi kerak.

Profayling tizimi samaradorligini faqat aniqlangan shubhali shaxslar yoki o‘tkazilgan qo‘shimcha tekshiruvlar soni bilan baholash to‘g‘ri emas. Baholashda asossiz tekshiruvlar ulushi, xodimlar qarorlarining aniqligi, xizmatlar o‘rtasida axborot almashish tezligi, yo‘lovchilar huquqlariga rioya etilishi va hodisalarning oldini olish darajasi kabi mezonlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Demak, aeroportlarda profayling o‘tkazish bir martalik tekshiruv emas, balki parvozoldi, parvoz jarayoni va parvozdan keyingi bosqichlarni qamrab oladigan uzluksiz tashkiliy-amaliy jarayondir. Ushbu bosqichlarning o‘zaro bog‘liq holda faoliyat yuritishi, xodimlarning kasbiy tayyorgarligi, vakolatli tuzilmalar hamkorligi va qonuniylik tamoyillariga rioya etilishi aviatsiya xavfsizligini ta’minlashning muhim shartlaridan hisoblanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, aeroportlarda parvozoldi, parvoz jarayoni va parvozdan keyingi bosqichlarda profayling o‘tkazish potensial xavflarni o‘z vaqtida aniqlash hamda aviatsiya xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Profayling samaradorligi bosqichlar o‘rtasidagi uzviylik, xodimlarning kasbiy tayyorgarligi, idoralararo hamkorlik hamda inson huquqlariga rioya etilishiga bog‘liq.

Tavsiyalar:

1. Profayling bilan shug‘ullanuvchi xodimlar uchun xulq-atvor tahlili, muloqot psixologiyasi va xavf indikatorlarini aniqlash bo‘yicha muntazam o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish.

2. Parvozoldi, parvoz jarayoni va parvozdan keyingi bosqichlarda aniqlangan ma’lumotlarni tezkor almashish uchun aeroport xizmatlari, ekipaj va vakolatli davlat organlari o‘rtasida yagona hamkorlik tizimini joriy etish.

3. Profayling jarayonida obyektiv xavf indikatorlariga tayanish, kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik hamda yo‘lovchilarning huquqlari va shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish bo‘yicha nazoratni kuchaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ikanov A. Ko‘zdan kechirish – potensial xavfli shaxslarni aniqlash usuli sifatida (profayling texnologiyasi misolida) // O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti axborotnomasi. – 2025. – № 3 (15). – B. 111–115.

2. O‘rmonov D.A. Rivojlangan davlatlarda jamoat xavfsizligini ta’minlashda profaylingdan foydalanish samaradorligining o‘ziga xos xususiyatlari // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2022. – 2-jild, № 12. – B. 128–132.

3. Valixanov I.I. Jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimida profayling texnologiyasini qo‘llashning ilmiy-amaliy asoslari // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2026. – 6-jild, № 1. – B. 524–528.

4. G‘aniyeva O.B., Xamidova M.A., Jurayev X.O. Shaxs xarakteriga tashxiz qo‘yishda profayling metodining psixologik jihatlari // Advances in Science and Education. – 2025. – 1-jild, № 3. – B. 77–79. – DOI: 10.70728/edu.v01.i03.028.

5. Mustafayev Sh.B., O‘ktamov D.O‘., Ne’matov A.A. Profayling metodining o‘ziga xos xususiyatlari, shaxslararo munosabatlarda tutgan o‘rni // Modern Science and Research. – 2025. – 4-jild, № 1. – B. 760–764. – DOI: 10.71337/inlibrary.uz.science-research.62932.

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA MATEMATIKA TA’LIMINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Nuriddinova Dilbar Sayfiddinovna,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent

“Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi matematika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada matematika ta’limini raqamlashtirish muammosi texnik vositalar sonini oshirish emas, balki dars maqsadi, topshiriq tuzilishi va baholash mexanizmini o‘zaro muvofiqlashtirish jarayoni sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi matematika darsini tashkil etishning uch bosqichli raqamli modelini ishlab chiqishda namoyon bo‘ladi: birinchi bosqichda matematik obyekt dinamik model orqali ko‘rgazmali tadqiq etiladi, ikkinchi bosqichda o‘quvchi kuzatilgan qonuniyatni analitik yoki mantiqiy vositalar bilan asoslaydi, uchinchi bosqichda natija formativ tahlil orqali tekshiriladi va individuallashtiriladi. Modelning amaliyotga tatbiqi harbiy-akademik litsey sharoitida koordinata, masshtab, harakat va statistikaga oid topshiriqlar misolida ko‘rsatilgan. Generativ sun’iy intellektning modelning ikkinchi va uchinchi bosqichlaridagi qo‘llanish chegaralari, akademik halollik va ma’lumotlar xavfsizligi talablari asoslangan holda belgilangan. Tadqiqot natijalari matematika o‘qituvchilariga raqamli vositalarni tasodifiy tanlashdan farqli o‘laroq, aniq didaktik mezon asosida tanlash va baholashning amaliy vositasini taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: raqamli pedagogika, matematika darsining uch bosqichli raqamli modeli, dinamik matematik model, asoslangan yechim faoliyati, formativ tahlil, matematik savodxonlik, generativ sun’iy intellekt, akademik halollik.

Yangi O‘zbekistonning ta’lim siyosati bilimni eslab qolish emas, balki murakkab vaziyatni tahlil qilish, dalilga asoslangan qaror qabul qilish va bilimni yangi kontekstga ko‘chira olish qobiliyatini

rivojlantirishni maqsad qiladi. Matematika fani ushbu maqsadga xizmat qilishda alohida o‘rin tutadi, chunki u miqdoriy munosabatlarni aniqlash, qonuniyatni ochish, faraz qo‘yish va uni tekshirish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu sababli matematika darsini yangilash vazifasi dasturga yangi mavzu qo‘shish bilan emas, balki o‘qitish jarayonining o‘zini izlanish va asoslashga yo‘naltirish bilan bog‘liq. Yangi O‘zbekistondagi keng ko‘lamli ta’lim islohotlari, xususan o‘quvchida mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar, mamlakatda intellektual salohiyati yuksak, yangicha fikrlaydigan avlodni — Uchinchi Renessans g‘oyasining amaliy ijrochilarini — tarbiyalash strategik vazifasi bilan uzviy bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’limning uzluksizligi va izchilligi, ta’lim olish shaklini tanlash erkinligi hamda ta’lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta’minlanishi ta’lim sohasidagi asosiy tamoyillar sifatida belgilangan [1, 4-modda]. Ushbu tamoyillar raqamli ta’lim vositalarini baholashning aniq mezonini talab qiladi: texnologiya barcha o‘quvchilar uchun foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lsa, ularning individual ehtiyojini hisobga olsa va bilim olish imkoniyatini kengaytirsa, pedagogik qiymatga ega bo‘ladi; aks holda u darsning tashqi bezagi bo‘lib qolaveradi. Matematika sohasida ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish to‘g‘risidagi PQ–4708-son qarorda matematik ta’limni fan, ishlab chiqarish va amaliyot bilan bog‘lash, iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan [2, 1-band]. Ushbu me’yoriy talablar darsda faqat hisoblash mashqlarini bajarishni emas,

balki matematik g‘oyaning qanday paydo bo‘lishi, qayerda qo‘llanilishi va qanday tekshirilishini o‘quvchiga ko‘rsatishni taqozo etadi. Demak, mavzuning dolzarbligi me’yoriy hujjatlar talabi bilan amaldagi pedagogik amaliyot o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etish zaruratidan kelib chiqadi.

Amaliyotda kuzatilgan asosiy muammo shundaki, raqamli vositalarning joriy etilishi ko‘pincha ilmiy-metodik asoslanishsiz, faqat texnik yangilanish sifatida amalga oshiriladi. Interaktiv doskada tayyor formulani namoyish etish yoki elektron testni qog‘oz test o‘rniga qo‘llash — bular texnik vositani almashtirish bo‘lib, o‘quvchi tafakkurida sifat o‘zgarishini kafolatlamaydi. Shu bois “innovatsion texnologiya” atamasi aniq mazmunga ega bo‘lishi kerak: bu — o‘quvchining bilim olish jarayonidagi mustaqil izlanish va asoslash faoliyatini kengaytiradigan, natijasi kuzatilishi va o‘lchanishi mumkin bo‘lgan pedagogik vosita hamda usullar majmuidir. Ushbu ta'rifga mos kelmagan raqamli vosita, tashqi ko‘rinishidan qat’i nazar, pedagogik jihatdan innovatsion hisoblanmaydi.

Bundan tashqari, raqamli darsning samaradorligi amaliyotda ko‘pincha “qaysi dastur ishlatildi” degan texnik ko‘rsatkich bilan baholanadi, holbuki bu mezon o‘quvchi tomonidan bajarilgan matematik amalning mustaqillik darajasini aks ettirmaydi. Natijada texnologiyaning didaktik salohiyati to‘liq ishga solinmay qoladi: dinamik modellar faqat namoyish vositasi, formativ baholash esa faqat foizli hisobot sifatida qo‘llaniladi, ularning o‘quv jarayonini boshqarish funksiyasi amalga oshmay qoladi. Shu tariqa muammo ikki qismga bo‘linadi: birinchidan, raqamli vositani tanlash va baholashning aniq ilmiy mezoni yo‘qligi;

ikkinchidan, ushbu vositalarni yagona pedagogik izchillikka — dars maqsadi, o‘quvchi faoliyati va baholash mexanizmini bog‘lovchi tizimga — birlashtiruvchi modelning mavjud emasligi.

Dinamik matematik dasturlar abstrakt obyektni o‘zgaruvchan holatda kuzatish imkonini beradi: kvadrat funksiyada koeffitsiyentlarni bosqichma-bosqich o‘zgartirish orqali parabola tarmoqlarining yo‘nalishi, uchining siljishi va ildizlar soni orasidagi bog‘lanishni aniqlash, geometriyada esa shaklning ayrim nuqtalarini siljitib, saqlanib qolayotgan xossalarni kuzatish mumkin. Biroq bunday tajriba isbotning o‘rnini bosa olmaydi — u faqat isbotlanishi lozim bo‘lgan farazni tug‘diradi. Agar o‘qituvchi kuzatishdan nazariy xulosaga o‘tish bosqichini alohida tashkil etmasa, dinamik model faqat ko‘rgazmali namoyish darajasida qolib ketadi va o‘quvchining mustaqil asoslash faoliyatini rivojlantirmaydi.

Aralash ta’lim modeli, xususan “teskari sinf” (Flipped Classroom) yondashuvi, dars vaqtini qayta taqsimlash orqali auditoriya vaqtini murakkab masalani tahlil qilish va individual xatolar ustida ishlashga yo‘naltiradi. Biroq bu model materialning barchasini mustaqil o‘rganishga topshirish degani emas: oldindan beriladigan material hajmi cheklangan va keyingi dars faoliyati bilan uzviy bog‘langan bo‘lishi shart; aks holda “teskari sinf” auditoriya vaqtini tejamaydi, aksincha, tayyorgarlik darajasi past o‘quvchilar uchun qo‘shimcha yuklama yaratadi.

Generativ sun’iy intellekt topshiriq variantlarini yaratish, tushuntirish usullarini solishtirish va matnni o‘quvchi saviyasiga moslashtirishda yordam beradi, biroq uning chiqargan matematik matni

tayyor ilmiy haqiqat sifatida qabul qilinmasligi kerak: formuladagi kichik xato yoki ishonchli ohangda berilgan asossiz xulosa butun yechimni buzishi mumkin. Demak, sanab o‘tilgan uchala yondashuv — dinamik modellashtirish, aralash ta’lim va generativ sun’iy intellekt — alohida qo‘llanilganda faqat qisman samara beradi. Ularning har biri aniq pedagogik bosqichga biriktirilmagan holda qo‘llanilsa, dars tarkibida bir-biri bilan bog‘lanmagan, uzilib qolgan texnik unsurlarga aylanadi. Bu holat izchil, bosqichma-bosqich rivojlanadigan yagona didaktik model zarurligini ko‘rsatadi.

Yuqorida aniqlangan cheklovlarni bartaraf etish maqsadida ushbu maqolada matematika darsini tashkil etishning uch bosqichli raqamli modeli taklif etiladi. Model dinamik modellashtirish, matematik asoslash va formativ tahlilni bitta pedagogik ketma-ketlikka birlashtiradi, bunda har bir bosqich oldingisining natijasiga tayanadi va keyingisi uchun shart yaratadi. Modelning markaziy g‘oyasi shundan iboratki, raqamli vosita o‘z-o‘zicha emas, balki aniq belgilangan bosqichda, aniq maqsadga xizmat qilgandagina pedagogik qiymat kasb etadi. Birinchi bosqich — ko‘rgazmali tadqiq — o‘quvchini matematik obyekt yoki hodisa bilan dinamik model orqali tanishtiradi va kuzatishga asoslangan dastlabki taxminlar shakllantirishga xizmat qiladi. Ikkinchi bosqich — asoslangan yechim faoliyati — o‘quvchidan kuzatilgan qonuniyatni belgi, formula, jadval yoki mantiqiy mulohaza vositasida isbotlashni talab qiladi, ya’ni tadqiqot natijasini ilmiy bilim darajasiga ko‘taradi. Uchinchi bosqich — formativ tahlil — olingan yechimni alternativ usul orqali tekshirish, xato sababini tasniflash va keyingi topshiriqni individual ehtiyojga moslashtirish orqali o‘quv jarayonini

boshqarish funksiyasini bajaradi. Ushbu ketma-ketlik texnologiyani namoyish vositasidan o‘quv faoliyatini boshqaruvchi vositaga aylantiradi, chunki har bir bosqichda o‘quvchi faoliyati passiv kuzatishdan faol asoslashga, so‘ngra tanqidiy tekshiruvga o‘tadi.

Birinchi bosqichda, ya’ni ko‘rgazmali tadqiqda, maqsad matematik obyektning o‘zgaruvchan xususiyatlarini kuzatish orqali dastlabki, tekshirilishi mumkin bo‘lgan faraz shakllantirishdan iborat bo‘ladi. Bu bosqichda o‘qituvchi dinamik model va o‘zgartiriladigan parametrlarni oldindan tayyorlaydi hamda kuzatish yo‘nalishini belgilovchi aniq savollar tuzadi, o‘quvchi esa parametrlarni o‘zgartiradi, natijadagi o‘zgarishni qayd etadi va kuzatilgan qonuniyat haqida taxmin ilgari suradi. Bunda dinamik geometriya va algebra muhitlari, parametrlarni real vaqtda o‘zgartirish imkonini beruvchi interaktiv modellashtirish dasturlari qo‘llaniladi. Bosqich natijasida aniq, keyingi bosqichda tekshirilishi lozim bo‘lgan gipoteza shaklidagi yozma bayonot shakllanadi; bu bosqichsiz o‘quvchi tayyor qoidani yodlaydi va uni mustaqil kashf etish tajribasidan mahrum bo‘ladi, natijada bilim mexanik tarzda o‘zlashtiriladi.

Ikkinchi bosqich, asoslangan yechim faoliyati, birinchi bosqichda kuzatilgan qonuniyatni analitik yoki mantiqiy vosita bilan isbotlash, uni ilmiy bilim darajasiga ko‘tarish maqsadini ko‘zlaydi. O‘qituvchi isbotlash uchun zarur nazariy asosni eslatadi va noto‘g‘ri asoslash yo‘nalishini aniqlab, o‘quvchini qayta yo‘naltiradi, o‘quvchi esa formula, belgi yoki mantiqiy mulohaza yordamida farazni isbotlaydi hamda natijasini boshqa o‘quvchi yoki guruh natijasi bilan solishtiradi. Bu bosqichda elektron jadval va grafik konstruktorlar kuzatishni analitik

yozuvga o‘tkazish uchun qo‘llaniladi; generativ sun’iy intellektdan muqobil isbotlash yo‘lini ko‘rish maqsadida cheklangan tarzda foydalanish mumkin, biroq taklif etilgan yechim o‘quvchi tomonidan mustaqil tekshirilishi shart. Natijada gipoteza isbotlangan yoki rad etilgan, dalillangan bayonotga aylanadi; bu bosqichsiz ko‘rgazmalilik faqat vizual taassurot darajasida qoladi va ilmiy bilim maqomiga ko‘tarilmaydi.

Uchinchi bosqich, formativ tahlil, olingan natijani muqobil usul bilan tekshirish va xato sababini tasniflash orqali keyingi o‘qitish qarorini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘qituvchi diagnostik topshiriqlar tuzadi, natijalarni elektron jadvalda qayd etadi va xato turini — tushunish, hisoblash yoki shartni noto‘g‘ri talqin qilish xatosi — sifatida aniqlaydi, o‘quvchi esa yechimini alternativ usul (analitik, grafik yoki raqamli model) bilan qayta tekshiradi va o‘z xatosining sababini izohlaydi. Bu bosqichda elektron diagnostika jadvali va natijalarni avtomatik qayd etuvchi test tizimlaridan foydalaniladi; generativ sun’iy intellekt muqobil yechim variantlarini taqqoslash uchun yordamchi vosita sifatida ishtirok etishi mumkin, ammo yakuniy pedagogik xulosani faqat o‘qituvchi chiqaradi. Natijada individuallashtirilgan keyingi topshiriq va o‘quvchining o‘z xatosini anglashi ta’minlanadi; bu bosqichsiz raqamli diagnostika faqat statistik ko‘rsatkich yig‘ish vositasiga aylanib qoladi va pedagogik qarorga aylanmaydi.

Taklif etilgan modelning amaliy imkoniyatlarini “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi misolida ko‘rsatish mumkin, bunda o‘quvchilarning kelajak kasbiy faoliyati bilan tabiiy bog‘liq mavzular tanlanadi: koordinatalar bo‘yicha ikki nuqta orasidagi masofani

hisoblash — yo‘nalish va joylashuvni aniqlash masalasi bilan, masshtab mavzusi — hudud rejasini o‘qish bilan, funksiya va grafiklar — harakat jarayonini tahlil qilish bilan, statistika esa — kuzatuv natijalarini baholash bilan bog‘lanadi. Bunda maxsus yoki yopiq ma’lumotlardan foydalanish shart emas: ochiq, shartli ta’lim vaziyatlarining o‘zi matematik model qurish ko‘nikmasini shakllantirish uchun yetarlidir. Litsey konteksti bu yerda modelni almashtiruvchi emas, uni tushuntiruvchi misol vazifasini bajaradi.

Modelning uch bosqichi quyidagi topshiriqda aniq ko‘rinadi: o‘quvchilarga ikki obyektning boshlang‘ich koordinatalari va harakat tezligi beriladi, ular orasidagi masofaning vaqtga bog‘liqligini aniqlash talab etiladi. Birinchi bosqichda o‘quvchilar dinamik modelda obyektlar harakatini kuzatib, masofa qanday o‘zgarishi haqida taxmin qiladi. Ikkinchi bosqichda bir guruh algebraik ifoda tuzadi, ikkinchi guruh natijani grafik ko‘rinishda ifodalaydi, ikkala natija bir-biriga solishtiriladi. Uchinchi bosqichda guruhlar modelning qaysi shartlarda — masalan, obyektlar to‘qnashmasligi yoki tezlik o‘zgarmasligi — amal qilishini tekshiradi va natijani sonli javob emas, balki modelning chegarasi va o‘lchov birligi nuqtai nazaridan baholaydi. Shu tariqa bitta topshiriq algebra, grafik savodxonlik va tanqidiy tahlil ko‘nikmalarini bitta pedagogik jarayonda birlashtiradi, bu esa modelning uchala bosqichi bir-biridan ajralmas ekanligini ko‘rsatadi.

Formativ baholash modelning uchinchi bosqichi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, undan alohida jarayon sifatida emas, balki uning bevosita mantiqiy davomi sifatida qaraladi. Qisqa diagnostik topshiriqlar natijasi elektron jadvalda “1” va “0” ko‘rinishida qayd etilib, har bir savolning

bajarilish foizi, o‘quvchining individual natijasi va guruh uchun murakkab bo‘lgan mavzu aniqlanadi. Biroq foizli ko‘rsatkichning o‘zi pedagogik xulosa hisoblanmaydi: u faqat uchinchi bosqichda talab qilinadigan xato tasnifi uchun boshlang‘ich ma’lumot vazifasini bajaradi. O‘qituvchi noto‘g‘ri javob sababini — tushuncha xatosi, hisoblash xatosi, shartni noto‘g‘ri talqin qilish yoki yechimni asoslay olmaslik — sifatida ajratganidan keyingina diagnostika natijasi keyingi dars qaroriga aylanadi.

Ushbu tasnif asosida differensiatsiya amalga oshiriladi: bir guruh o‘quvchilarga tayanch algoritm va bosqichli ko‘rsatma, boshqalariga xatoni topish topshirig‘i, yuqori tayyorgarlikka ega o‘quvchilarga esa parametrli yoki isbotlashga doir masala taklif etiladi. Bu yerda differensial yondashuv o‘quvchilarni doimiy “kuchli” va “kuchsiz” toifalarga ajratish emas, balki aniq diagnostika asosida vaqtinchalik va o‘zgaruvchan yordam ko‘rsatishni anglatadi. Shu bilan formativ baholash modelning uchinchi bosqichini yakunlab, uni yangi o‘quv siklining boshlang‘ich nuqtasiga aylantiradi.

Modelning ikkinchi va uchinchi bosqichida generativ sun’iy intellektdan foydalanish alohida pedagogik nazoratni talab qiladi. YUNESKOning tegishli qo‘llanmasida generativ sun’iy intellektdan ta’limda foydalanishni inson manfaatlariga yo‘naltirish, ma’lumotlar maxfiyligini himoya qilish va vositalarni yoshga hamda pedagogik maqsadga mos ravishda baholash zarurligi ta’kidlangan [4, 18-23-b.]. Ushbu talab matematika darsida uchta amaliy qoida orqali bajariladi: o‘quvchining shaxsiy ma’lumotini ochiq tizimga kiritmaslik; sun’iy intellekt javobini mustaqil hisob yoki isbot bilan tekshirish; undan

foydalanilgan bosqichni oshkora ko‘rsatish. Ushbu qoidalar texnologiyadan foydalanishni taqiqlamaydi, balki uni mas’uliyatli qo‘llash tartibini belgilaydi.

Akademik halollikni ta’minlash topshiriq mazmunining o‘zgarishini talab qiladi. “Tenglamani yeching” kabi tayyor javob olish oson bo‘lgan topshiriq o‘rniga “har bir qadamni asoslang”, “ikki usulni solishtiring”, “berilgan yechimdagi xatoni aniqlang” kabi vazifalar qo‘llanilishi lozim: bunday topshiriqlarda tayyor javobni nusxalash yechimning to‘g‘riligini kafolatlamaydi, chunki baholash mezoni yakuniy javob emas, fikrlash jarayonining izchilligidir. O‘quvchi sun’iy intellekt tavsiyasidan foydalangan bo‘lsa, qaysi taklifni qabul qilgani, qaysi birini rad etgani va bu qarorning sababini yozma tushuntirishi kerak; shu tariqa baholash predmeti yakuniy natijadan fikrlash iziga ko‘chiriladi.

Texnologiya miqdori ortishi bilan o‘qituvchining pedagogik mas’uliyati kamaymaydi, aksincha ortadi: u raqamli mahsulotning matematik aniqligini, metodik muvofiqligini va xavfsizligini baholaydi hamda qaysi jarayonni avtomatlashtirish, qaysi bosqichda o‘quvchining mustaqil ishlashini talab qilish lozimligini belgilaydi. Pedagogik qarorni dastur emas, o‘qituvchi qabul qilishi ta’lim jarayonining insoniy mohiyatini saqlab qoladi.

Modelni joriy etishda infratuzilma tafovutlari — internet tezligi, qurilma turi va uy sharoitidagi farqlar — hisobga olinishi shart. Shu sababli elektron material mobil qurilmada ochiladigan, kam hajmli va zarur hollarda oflayn ishlaydigan shaklda tayyorlanishi, unga qo‘shimcha ravishda bosma muqobil variant taqdim etilishi maqsadga muvofiq; aks holda o‘quv imkoniyati texnik sharoitga bog‘lanib qolishi

mumkin. Shu bilan bog‘liq holda o‘zbek tilidagi matematik raqamli kontentning sifati ham alohida e’tiborni talab qiladi: atamalarning bir xilda qo‘llanmasligi yoki formulalarning noto‘g‘ri aks etishi o‘quvchi tushunchasiga salbiy ta’sir qiladi, shu sababli resursni ommalashtirishdan oldin matematika o‘qituvchisi, metodist va til mutaxassisi ishtirokidagi qisqa ekspertiza tizimini yo‘lga qo‘yish lozim.

Nihoyat, modelning samaradorligini baholash faqat test ballining o‘sishi bilan cheklanmasligi kerak. Zamonaviy matematika ta’limining maqsadi — OECDning PISA 2022 baholash doirasida ta’riflanganidek — real muammoni matematik shaklda ifodalash, mos usulni qo‘llash va natijani boshlang‘ich vaziyatga qaytarib talqin qilishdan iborat yaxlit faoliyat, ya’ni matematik savodxonlikdir [3, 22-b.]. Shu sababli o‘quvchining yechimni izohlash, yangi vaziyat uchun model tanlash, xatoni topish va natijani baholash qobiliyati ham kuzatiladigan ko‘rsatkichga aylanishi, raqamli vosita joriy etilishidan oldingi va keyingi natijalar qiyoslanishi lozim. Shundagina texnologiyaning “zamonaviyligi” tashqi belgi emas, dalilga asoslangan pedagogik xulosa sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston sharoitida matematika ta’limini rivojlantirish texnik jihozlashdan boshlanadi, biroq natijaga faqat pedagogik loyihalash orqali erishiladi. Ushbu tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan uch bosqichli raqamli model — ko‘rgazmali tadqiq, asoslangan yechim faoliyati va formativ tahlil — dinamik modellashtirish, aralash ta’lim va generativ sun’iy intellekt kabi alohida vositalarni yagona pedagogik ketma-ketlikka birlashtirib, ularning har birini aniq o‘quv maqsadiga bo‘ysundirish imkonini beradi. Modelning

harbiy-akademik litsey sharoitidagi qo‘llanilishi uning nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham asoslanganligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning kelgusi yo‘nalishi sifatida taklif etilgan modelni turli ta’lim muassasalarida sinovdan o‘tkazish, uning samaradorligini o‘quvchilarning matematik savodxonlik darajasi bo‘yicha miqdoriy tadqiqot orqali tekshirish, shuningdek generativ sun’iy intellekt vositalarining ikkinchi va uchinchi bosqichlardagi qo‘llanish chegaralarini aniqroq belgilash mumkin. Bunday tadqiqotlar model asosida ishlab chiqilgan topshiriqlar bankini kengaytirish va uni boshqa fanlar uchun moslashtirish imkoniyatini ham ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ–637-son, 2020-yil 23-sentabr, 4-modda. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-5013007

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. PQ–4708-son, 2020-yil 7-may, 1-band. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-4807552

3. OECD. PISA 2022 Assessment and Analytical Framework. Paris: OECD Publishing, 2023. 291 p. DOI: https://doi.org/10.1787/dfe0bf9c-en

4. Miao F., Holmes W. Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO, 2023. 48 p. URL: https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000386693

ЎЗБЕКИСТОН – ИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОР ВА ФАРОВОН ДИЁР

Носиров Шавкат Шухратович,
Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги худудий бўлинмалари, Самарқанд вилояти бўйича Назорат-тафтиш инспекцияси ходими

Аннотация. Мақолада мустақилликнинг илк йилларида Ўзбекистонда асосан аграр ва хомашё, иқтисодий инқироз, инфлятция ҳолатлари очиб берилган. Шунинг билан бирга ушбу мақолада, Янги Ўзбекистондаги иқтисодий, макроиқтисодий барқарорлик, инвеститция сиёсати, саноат ва қишлоқ хўжалиги ислоҳатлари, автомобилсозлиги, мева-сабзавот экспорти, тўқимачилик кластери, эркин иқтисодий зона, озиқ-овқат хавфсизлиги каби юутиқлар тўлиқ таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: макроиқтисод, инвеститция, иқтисодиёт, рақамли иқтисодиё, инфлятция, “шок терапияси”, экспорт, молиявий инқироз, кластер, либерализатция, инвестор, трансформатция, эркин иқтисодий зона.

Ўзбекистон иқтисодиётининг 1991-йилдан 2025-йилгача бўлган трансформатция йўли бозор иқтисодиётига ўтиш, макроиқтисодий барқарорлик, инвеститция сиёсати, саноат ва қишлоқ хўжалиги ислоҳотлари ҳамда рақамли иқтисодиётнинг шаклланишига бўлган даврни босиб ўтди.

Иқтисодий эркинлик-сиёсий эркинликдан олдин келади. Тадбиркор эркин бўлса, давлат ҳам эркин бўлади. Жаҳон

иқтисодчиларининг бу тамойили Ўзбекистон амалиётида синовдан ўтди.

Албатта, иқтисодиёт бу-давлат кучининг асосидир. Мустақилликнинг дастлабки йилларида Ўзбекистон оғир иқтисодий инқирозни бошдан кечирди, яъни инфлятция юзлаб фоизга ошди, саноат корхоналари ёпилди, аҳолининг реал даромади кескин пасайиб кетди. Бироқ мамлакат бу синовдан ўзига хос йўл-секин, босқичма босқич, ижтимоий ларзаларсиз бозор иқтисодиётига ўтиш модели орқали чиқди. 2017-йилдан бошланган янги босқич эса иқтисодиётни тубдан ислоҳ қилиш даври бўлди. Валюта эркинлаштирилди, солиқ тизими соддалаштирилди, хорижий инвесторлар учун кафолатлар кучайтирилди, хусусий тадбиркорлик учун шарт-шароитлар яратилди. Натижалар рақамларда яққол кўринади: ЯИМ 2016-йилдаги 67 миллиард доллардан, 2025-йилга келиб 145 миллиард доллардан ортиқ бўлди.

1991-йилда Ўзбекистон иқтисодиёти тўлиқ марказлашган, режалаштирилган собиқ совет тизимидан мерос қолган ҳолатда эди. Барча нархлар давлат томонидан белгиланган, хусусий мулк амалда мавжуд эмас, хорижий валюта эркин айирбошлаш қатъиян тақиқланган эди. Пахта етиштириш ва экспорт қилиш асосий иқтисодий фаолият бўлиб, унинг барча даромади ҳам Москва орқали ўтарди.

Мустақилликнинг дастлабки йилларида (1991– 1995) иқтисодий инқироз жуда оғир кечди. ЯИМ(YaIM) 1992–1995-йилларда йилига 4–11 фоизга қисқарди. Инфлятция 1994-йилда 1 280 фоизга етди ва бу аҳолининг барча жамғармаларининг амалда

йўқ бўлиб кетишини англатарди. Ишсизлик кескин ошди, аҳолининг ҳаёт даражаси тушиб кетди, одамларнинг бардоши синалди.

Бироқ Ўзбекистон ҳукумати бошқа постсовет мамлакатлари каби “шок терапияси” йўлини танламади. Ўзбек модели асосий тамойиллари бўлган иқтисодиёт сиёсатдан устун, қонун устуворлиги, давлатнинг бош ислоҳотчилигини сақлаб қолган ҳолда аҳолининг ҳимоясиз қолмаслиги, босқичма-босқич бозор муносабатларини жорий этиш, ижтимоий барқарорликни таъминлашга эътибор қаратилди.

Ушбу миллий модел 1990-йилларда кескин танқидларга учради, халқаро молия институтлари тезроқ либерализатцияни талаб қилди. Бироқ вақт ўзбек моделининг тўғрилигини исботлади, яъни Ўзбекистон 1998-йилдаги иқтисодий инқирозидан минимал зарар билан чиқди, 2008–2009-йиллардаги глобал молиявий инқироз даврида ҳам иқтисодий ўсишни сақлаб қолди.

2017-йилдан бошлаб, Ўзбекистон иқтисодий либераллаштиришнинг янги, кескин босқичига ўтди. Шу йилнинг сентябр ойида валюта бозори тўлиқ эркинлаштирилди, яъни расмий курс бозор курсига яқинлаштирилди. Бу ягона қарор кўплаб хорижий инвесторларнинг мамлакатга қайтишига туртки берди. Солиқ ислоҳотлари доирасида 2020-йилда Ягона Солиқ Кодекси қабул қилинди, солиқ турлари сони 30 дан 12 асосий турга қисқартирилди.

Тадбиркорлик учун муҳит кескин яхшиланди, яъни бизнес очиш муддати 30+ кундан 1 кунга (онлайн) туширилди,

литцензиялар сони 130 турдан 50 га қисқартирилди, божхона расмийлаштируви 15–20 кундан 1–3 кунга туширилди. Бу ўзгаришлар хорижий инвесторлар учун кучли ижобий сигнал бўлди.

Макроиқтисодий барқарорлик – барқарор иқтисодий ўсишнинг асоси бўлиб, Ўзбекистон 1996-йилдан бошлаб ЯИМ(YaIM) ўсиши ижобий бўлиб қолди ва ҳатто глобал инқироз йилларида ҳам (2008–2009) мамлакат иқтисодий ўсишни сақлаб қолди. Бу кўрсаткич дунё бўйлаб ноёб мисоллардан бири сифатида Жаҳон банки томонидан эътироф этилган.

ЯИМ(YaIM) 1991-йилдаги 13,5 миллиард доллардан 2025-йилга келиб 145 миллиард долларга ошди, бу дегани салкам 11 баравардан зиёд ўсишдир. Бу рақамни аҳоли жон бошига ҳисобласак ҳам натижа ижобий: 650 доллардан 4000 долларга яқин ўсиш аҳоли турмуш даражасининг реал яхшиланганини кўрсатади. Айниқса, эътиборли кўрсаткич – тўғридан тўғри хорижий инвеститциялар 2016-йилдаги 1,6 миллиард доллардан 2025-йилда 5,8 миллиард долларга ўсиш. Бу рақам хорижий инвесторларнинг Ўзбекистонга бўлган ишончи ва қизиқиши кескин ошганини исботлайди. Samsung, Hyundai, Total Energies, LUKOIL, Schlumberger каби йирик компаниялар Ўзбекистондаги фаолиятини кенгайтирмоқда.

Ўзбекистон Марказий банки томонидан шакллантирилиб борилаётган валюта захиралари 2025-йилда 35 млрд доллардан ошди. Бу кўрсаткич мамлакатнинг ташқи иқтисодий зарбаларга чидамлилиги (резилентлиги) таъминланганини билдиради.

Таққослаш учун Гретция 2015-йилги молиявий инқирозида атиги 3 млрд долларлик захира билан қолди.

Инфлятция назорати масаласида ҳам ижобий тендентциялар мавжуд. 1994-йилдаги 1 280 фоизлик инфлятциядан бир рақамли инфлятцияга ўтиш – бу Ўзбекистон Марказий банкининг сўнгги йиллардаги асосий муваффақиятларидан биридир. 2024-йилда инфлятция 9,8 фоизга туширилди ва янада пасайтиришга қаратилган пул-кредит сиёсати изчиллик билан давом эттирилмоқда.

Мустақилликнинг илк йилларида Ўзбекистон асосан аграр ва хомашё (пахта толаси, олтин) етказиб берувчи давлат эди. Саноат сектори собиқ совет давридан мерос қолган эскирган корхоналар мажмуйидан иборат бўлиб, улар технологик жиҳатдан замон талабларига жавоб бермай қолган эди. 1990-йилларда бу корхоналарнинг кўпчилиги ёпилди ёки ишлаб чиқариш ҳажмини кескин қисқартирди. 2017-йилдан бошлаб саноатни ривожлантириш давлат сиёсатининг устувор ўналишига айланди. Эркин иқтисодий зоналар (ЭИЗ) ва махсус иқтисодий зоналар (МИЗ) тизими кенгайтирилди, кластер ёндашуви жорий этилди, технопарклар ташкил этилди. Натижада саноат ишлаб чиқариш ҳажми кескин ошди.

Ўзбекистон автомобилсозлиги – мустақил ривожланишнинг ёрқин мисоли. 1996-йилда ташкил этилган GM Uzbekistan (кейинчалик Ўзавтосаноат) корхонаси бугун йиллик 350 000 дан ортиқ автомобил ишлаб чиқаради. Ўзбекистон бу кўрсаткич бўйича МДҲ мамлакатларида етакчи ўринда туради. 2022–2024-йилларда

автомобилсозлик янада кенгайтирилди: Hyundai, BYD, Chery, Foton каби брендлар билан янги қўшма корхоналар ташкил етилди. Электромобил ишлаб чиқариш ўлга қўйилди. Ўзбек автомобиллари хорижга экспорт қилинмоқда, айниқса, Россия, Озарбойжон, Қирғизистон бозорларида харидоргир бўлмоқда.

Ўзбекистон табиий газ захиралари бўйича дунё бўйлаб етакчи ўнталикка киради. Мустақиллик йилларида бу бойликни фақат хомашё экспорт қилиш эмас, балки қайта ишлаб, қўшимча қиймат яратиб, ички бозор ва экспортга етказиб бериш стратегияси амалга оширилди. Шўртан, Муборак ва Қўнғирот газ-кимё мажмуалари ана шу стратегиянинг маҳсули. Энергетика соҳасида қуёш ва шамол энергиясига ўтиш стратегияси жадал амалга оширилмоқда. 2030-йилга келиб қайта тикланадиган энергия манбалари улушини 40 фоизга етказиш мақсад қилиб белгиланган. Бу ўналишда Орол денгизи қирғоғидаги катта қуёш станциялари лойиҳалари амалга оширилмоқда.

Экспорт таркибидаги ўзгаришлар Ўзбекистон иқтисодий трансформатциясининг энг ёрқин кўрсаткичларидан бири ҳисобланади. 1991-йилда экспорт деярли тўлиқ хомашё (пахта толаси, олтин, мис, табиий газ) дан иборат бўлган бўлса, бугунги кунда экспорт таркиби тубдан ўзгариб, тайёр маҳсулотлар улуши йилдан йилга ортиб бормоқда. Пахта толаси экспорти 1,1 млрд доллардан деярли нолга туширилди, 2020-йилдан бошлаб хомашё пахта толасини экспорт қилиш қатъиян тўхтатилди. Бунинг ўрнига тайёр тўқимачилик маҳсулотлари (кийим-кечак, калава ип,

газламалар) экспорти 0,4 млрд доллардан 3,8 млрд долларга ошди, яъни бу дегани натижа 9,5 бараварга кўпайди.

Бу ўзгаришнинг иқтисодий маъноси шундаки, бир тонна пахта толасини экспорт қилиш тахминан 600–700 доллар даромад келтиради. Лекин ўша пахта толасидан тайёр кийим-кечак тайёрлаб сотилса, даромад 5–8 бараварга ошади. Бугун биз худди шу хомашёдан 5–8 баравар кўпроқ қиймат яратмоқдамиз.

Бугунги кунда Ўзбекистонда 170 дан ортиқ тўқимачилик кластери фаолият кўрсатмоқда. Наманган, Андижон, Фарғона, Хоразм вилоятлари бу саноат тури ўчоқларига айланди. Кластер тизими бир ҳудудда пахта етиштириш, уни қайта ишлаш, ип, газлама, тайёр кийим-кечак ишлаб чиқариш ва экспорт қилишгача бўлган тўлиқ занжир асосида қурилади. Бу тизим нафақат иқтисодий, балки ижтимоий жиҳатдан ҳам муҳим бўлиб, кластерлар атрофида янги иш ўринлари, яшаш жойлари, мактаб ва шифохоналар пайдо бўлмоқда. Қишлоқ аҳоли пунктлари амалда саноат шаҳарларига айланиб бормоқда.

Сўнгги йилларда Ўзбекистон мева-сабзавот экспорти ҳам кескин ошди. Ўрик, узум, қовун, тарвуз, помидор каби маҳсулотларимизга Россия, Хитой, Арабистон ярим ороли, Европа бозорларида тобора талаб катта бўлмоқда. 2024-йилда озиқ-овқат экспорти 2,6 млрд долларга етди. Юртимиз қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари бренди дунё бозорларида мустаҳкамланмоқда.

Инвеститция сиёсати ва бизнес муҳити албатта, инвеститцияларни иқтисодий ўсишнинг қони дейиш мумкин. 2017-йилгача бўлган даврда Ўзбекистонга хорижий инвеститцияларни

жалб қилиш сезиларли тўсиқларга дуч келарди, яъни валютани айирбошлаш, судлар мустақиллиги, мулк ҳуқуқи кафолати борасидаги муаммолар мавжуд эди, бюрократия кучли эди. Бунинг натижасида кўплаб потентциал инвесторлар Ўзбекистон ўрнига бошқа мамлакатларга кирар эди. Сўнгги йилларда бу каби муаммоларнинг бартараф этилиши тизимга мислсиз ютуқларнинг гарови бўлиб хизмат қилмоқда.

Бизнес очиш муддати 30+ кундан 1 кунга (онлайн тизим орқали) туширилди ва бу ягона қарор ўз-ўзида мамлакатни янги инвесторлар учун жозибали қилди. Божхона расмийлаштируви 15–20 кундан 1–3 кунга қисқартирилгани эса экспорт-импорт операциялар харажатини кескин камайтирди. Хусусий мулкнинг конститутциявий кафолати эса хорижий инвесторлар учун энг муҳим кафолатни таъминлади. Ҳар қандай инвестор энг аввал ўз капиталининг хавфсизлигини кафолат остига олишни хоҳлайди ва 2023-йилги янги Конституция бу кафолатни олий даражада мустаҳкамлади.

Ўзбекистонда 20 дан ортиқ эркин иқтисодий зона (ЭИЗ) ва махсус иқтисодий зона (МИЗ) фаолият кўрсатмоқда. Навоий, Жиззах, Ургут, Нукус каби зоналарда инвесторлар махсус имтиёзлардан фойдаланади, солиқ имтиёзлари (0 дан 10 йилгача солиқдан озодлик), божхона имтиёзлари, енгиллатилган рухсатномалар тартиби жорий этилди. Натижада ушбу зоналарда юзлаб хорижий ва маҳаллий корхоналар муваффақиятли фаолият олиб бормоқда. Навоий эркин иқтисодий зонаси алоҳида эътиборга лойиқ бўлиб, у Марказий Осиё минтақасида логистика маркази

сифатида шаклланиб, Хитойдан Европага борадиган ўлда транзит пункт вазифасини бажармоқда. Навоий халқаро аеропорти ҳам юк ташиш бўйича минтақада етакчи ўринларга кўтарилди.

Сўнгги йилларда Ўзбекистоннинг инвеститцион жозибадорлиги ошиши натижасида дунё компанияларининг йирик сармоялари кириб кела бошлади. Samsung Ўзбекистонда йирик электроника ишлаб чиқариш ва таъмирлаш марказини очди. Hyundai автомобил ва ускуналар ишлаб чиқариш заводини барпо этди. Total Energies, Masdar, ACWA Power – энергетика соҳасида катта лойиҳалар амалга оширмоқда. Air Products – водород энергетикаси соҳасига инвеститция киритмоқда.

Бу компаниялар нафақат капитал, балки технология, бошқарув тажрибаси ва бозорга кириш имкониятларини ҳам олиб келмоқда. Ўзбек мутахассислар бу компанияларда ишлаш орқали халқаро стандартлар ва технологияларни ўрганмоқда.

Қишлоқ хўжалиги Ўзбекистон иқтисодиётининг тарихан асосий тармоғи бўлиб келган. Мустақилликнинг дастлабки йилларида бу соҳанинг асосий муаммоси бўлган мажбурий меҳнат ва болалар меҳнати билан боғлиқ пахта етиштиришнинг ғайриқонуний амалиёти халқаро ҳамжамият томонидан кескин танқид қилинди. 2017-йилдан бошлаб ушбу амалиётга бар ҳам берилди ва бу Ўзбекистоннинг халқаро обрў-эътиборини яхшилашда муҳим рол ўйнади. 1991-йилдаги 18 с/га дан 2025-йилда 62,8 с/га гача – деярли 3,5 бараварга ошди. Бу ютуқни таъминлаган омиллар эса юқори ҳосилли нав уруғлари жорий этилиши, суғориш тизимини модернизатция қилиш, минерал

ўғитлар қўллаш маданиятининг юксалиши ва фермерлик билим даражасининг ошиши кабилар бўлди.

Пахта ҳосилдорлиги ҳам 27,5 с/га дан 31,2 с/га гача ошди. Аммо бу рақамдан муҳимроқ кўрсаткич шуки, бугун етиштириладиган барча пахтанинг 100 фоизи Ўзбекистонда қайта ишланмоқда. Илгари эса фақат 10–15 фоизи қайта ишланиб, қолгани хомашё ҳолатда экспорт қилинар эди.

Собиқ совет давридан мерос қолган колхоз тизимининг тугатилиши ва фермер хўжаликларига ўтиш ҳолати Ўзбекистон қишлоқ хўжалигидаги асосий тузилмавий ўзгариш бўлди. Фермер хўжаликлари сони 65 мингдан 185 минг ва ҳатто ундан зиёдга ошди. Ҳар бир фермер ўз ерида хўжайин, ўз пули, ўз меҳнати ва ўз масъулияти билан ишлайди. Бу тадбиркорлик руҳи қишлоқ иқтисодиётини жонлантирди.

[24] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон (2022 йил 28 январь) фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2022 й., 06/22/113/0330-сон.

strategiyalarida o‘z aksini topgan. Jamoat xavfsizligini ta’minlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha huquqiy, uslubiy, ilmiy, tashkiliy choralarni ishlab chiqish va samarali amalga oshirish masalalari belgilab olindi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘linmalari faoliyatini boshqarishning mutlaqo yangi qiyofasi shakllantirilib, sohada **“respublika – viloyat – tuman – mahalla”** tizimi asosida yaxlit boshqaruv va uzluksiz nazorat qilish mexanizmi joriy etildi. Xususan, Ichki ishlar vazirligi markaziy boshqaruv bo‘g‘ini tuzilmasini takomillashtirish orqali turdosh sohaviy xizmatlar faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirishning yagona tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Hududiy ichki ishlar organlarining tuzilmasi va rahbar lavozimlarini maqbullashtirish orqali mavjud kuch va vositalardan samarali foydalanish maqsadida, ayrim lavozim va bo‘linmalar negizida yagona boshqaruv tizimlari tashkil etildi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini “Xavfsiz poytaxt”, “Ravon va xavfsiz yo‘l” konsepsiyalari, “Xavfsiz xonadon”, “Xavfsiz hovli” tizimlari, “Smart mahalla” axborot hamda “Xavfsiz shahar” apparat-dasturiy komplekslari asosida tashkil etilishi yo‘lga qo‘yildi.

Mahalla va qishloqlarda jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash faoliyatini bevosita amalga oshiradigan, shuningdek, fuqarolarning xavfsizligi va osoyishtaligini ta’minlash borasida ichki ishlar organlari, boshqa huquq-tartibot organlari va jamoat tuzilmalarining mahallalar kesimida birgalikda ishlashini tashkil etadigan ichki ishlar organlarining eng quyi bo‘g‘ini sifatida **Mahalla huquq-tartibot maskani** tashkil etildi. Mahallalarning “qizil”, “sariq”,

“yashil” toifalarga ajratilishi aholi muammolarini “mahallabay”, “oilabay” va “fuqarobay” ishlash orqali hal etish hamda eng og‘ir va nizoli vaziyatlarni huquqbuzarlikka aylanmasidan mahallalarning o‘zidayoq aniqlash va bartaraf etish imkonini bermoqda. Mahallabay ishlash tizimi “manzilli va ta’sirchan profilaktikani qaysi hududdan boshlash kerak”ligi masalasiga oydinlik kiritishda o‘z samarasini bermoqda. Mahallalarda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi ishlarni hamkorlikda amalga oshirish uchun **mahalla fuqarolar yig‘ini raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli hamda profilaktika inspektori**dan iborat “Mahalla beshligi” tarkibi shakllantirildi. Ushbu beshlikning “temir”, “ayollar”, “yoshlar” va “mehr” daftarlariga kiritilgan mahalladagi ehtiyojmand, kam ta’minlangan oilalar, ijtimoiy ko‘makka muhtoj xotin-qizlar va yoshlar bilan individual ishlarni tashkil etish singari faoliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida Demokratiyaning asosiy talabi bo‘lgan inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini, so‘z va vijdon erkinligini ta’minlashga alohida e’tibor berilmoqda. Xususan, jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda **“Inson qadri uchun”** tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash maqsadida, “2022 – 2026 yillarga

mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” qabul qilindi. Uning 16-maqsadi, “Jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo‘lgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish” deb nomlangan bo‘lib, uni quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirish belgilandi:

birinchidan, *huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish.*

Ushbu bandni amalga oshirish mexanizmi sifatida quyidagi chora-tadbirlar belgilanib o‘tildi:

– jinoyat va ma’muriy huquqbuzarlik haqida xabar berish va ularni ro‘yxatga olishning “YE-huquqbuzarlik” yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimini joriy etish;

– bir yil davomida takroran sodir etilishi og‘irlashtiruvchi holat sifatida baholanadigan ma’muriy huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxslarning hisobini bir yil davomida yuritish va muddat o‘tishi bilan avtomatik ravishda hisobdan olib tashlash tartibini yo‘lga qo‘yish;

ikkinchidan, *jamoat tartibini saqlash bo‘yicha patrullik xizmati faoliyatini tubdan takomillashtirish, shu jumladan zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etgan holda fuqaroni ichki ishlar bo‘limiga tekshirish uchun olib borish amaliyotidan voz kechish.*

Ushbu bandni amalga oshirish mexanizmi sifatida quyidagilar belgilangan:

– “YE-patrul” tizimi joriy etilib, tekshirish uchun fuqaroni ichki ishlar bo‘limiga olib borish amaliyotidan voz kechish va barcha ma’lumotlarni joyida tekshirishni yo‘lga qo‘yish;

– ichki ishlar organlari patrul-post xizmati xodimlarining faoliyatini “bodikamera” yordamida nazorat qilishni yo‘lga qo‘yish;

– patrul xizmatini bosqichma-bosqich avto va motopatrul shakliga o‘tkazish orqali naryadlarning mobilligini va hodisa joyiga tezkorlik bilan yetib borishini ta’minlash;

uchinchidan, *yo‘l infratuzilmasini takomillashtirish va xavfsiz harakatlanish sharoitlarini yaratish orqali yo‘llarda avariya va o‘lim holatlarini qisqartirish, shu jumladan harakatni boshqarish tizimini to‘liq raqamlashtirish va jamoatchilikning ushbu sohadagi ishlarda keng ishtirokini ta’minlash.*

Ushbu bandni amalga oshirish mexanizmi sifatida quyidagilarni nazarda tutuvchi, dastur ishlab chiqilgan:

– avtomobil yo‘llarida harakatni boshqarish tizimini to‘liq raqamlashtirish;

– yo‘llarda xavfsiz harakatlanish uchun barcha ishtirokchilar uchun munosib sharoitlarni yaratish;

– yo‘l infratuzilmasini takomillashtirish jarayonida va xavfsizlikni ta’minlashda keng jamoatchilikning ishtiroki uchun zarur sharoitlarni yaratish.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitusiyaviy tuzumni himoya qilish, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasini samarali ta’minlash imkonini bermoqda.

ВАТАН УЧУН, МИЛЛАТ УЧУН, ХАЛҚ УЧУН

Одилжон Ражабов
Ўзбекистон Республикаси
Жамоат хавфсизлиги
университети
катта ўқитувчиси

Ҳар бир халқнинг тарихида шундай саналар борки, улар миллат қалбида абадий из қолдиради. Ўзбекистон учун бундай муқаддас сана — 1991 йил 1 сентябрь, миллий мустақилликка эришилган кундир. Ўттиз беш йил — инсон умри учун ҳам, давлат тарихи учун ҳам маънодор давр. Бу йиллар мобайнида Ўзбекистон мустақил давлат сифатида шаклланди, ривожланди ва жаҳон майдонида ўз ўрнини топди.

2026 йилда Мустақиллик байрами «Ватан учун, миллат учун, халқ учун!» деган улуғ ғоя остида нишонланмоқда. Ушбу учта тушунча — Ватан, миллат ва халқ — бир-бири билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, миллий тараққиётнинг маънавий асосини ташкил этади. Уларнинг ҳар бири алоҳида эътибор ва меҳрга лойиқдир.

Ватан — муқаддас туйғу.

Ватан — бу шунчаки географик ҳудуд эмас, балки инсон қалбидаги энг муқаддас туйғудир. У она тупроқ, аждодлар руҳи, келажак авлодга қолдириладиган мерос ва ҳар бир фуқаронинг қалбидаги садоқат ҳиссидир. Ватанни севиш — уни асраш, ободонлаштириш ва ривожлантириш демакдир.

Ватан учун яшаш ва меҳнат қилиш ҳар бир фуқаронинг бурчи ва шарафидир. Бугунги кунда Ўзбекистонда амалга оширилаётган кенг кўламли ислоҳотлар, бунёдкорлик ишлари, иқтисодий тараққиёт — буларнинг барчаси Ватан равнақи учун қаратилган.

Мамлакатимиз иқтисодиёти барқарор суръатларда ўсиб бораётгани, халқаро майдондаги обрў-эътибори ортаётгани — халқимиз ўзи танлаган йўлдан дадил бораётганининг ёрқин далилидир.

Миллат — бирлик ва ҳамжиҳатлик

Миллат — тарихий тақдир, умумий қадриятлар ва орзу-интилишлар билан боғланган инсонлар жамоасидир. Ўзбекистон — кўп миллатли давлат бўлиб, унда юздан ортиқ миллат ва элат вакиллари тинч-тотув, аҳил ва иноқ яшамоқда. Бу — миллий бирлигимизнинг ва бағрикенглигимизнинг ёрқин намунасидир.

Миллат учун хизмат қилиш — унинг маънавий меросини асраш, тилини, маданиятини, урф-одатларини ривожлантириш ва келажак авлодга безавол етказиш демакдир. Айни пайтда миллий ўзликни англаш билан бирга умуминсоний қадриятларга содиқлик, замонавий билим ва тараққиётга интилиш ҳам миллатнинг куч-қудратини оширади. Буюк аждодларимиз — Жалолиддин Мангуберди, Ал-Хоразмий, Беруний, Ибн Сино, Амир Темур, Алишер Навоий, Захриддин Мухаммад Бобур каби улуғ зотлар мероси бугунги миллий ғуруримизнинг мустаҳкам пойдеворидир.

Халқ — тараққиётнинг бош манбаи

Халқ — давлатнинг асоси, тараққиётнинг бош манбаи ва ҳокимиятнинг ягона эгасидир. «Инсон қадри учун, инсон бахти учун» деган эзгу тамойил бугунги Янги Ўзбекистон сиёсатининг марказида турибди. Давлат сиёсатининг бош мақсади — халқ фаровонлигини таъминлаш, ҳар бир фуқаронинг ҳақ-ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва муносиб ҳаёт шароитини яратишдир.

Халқ учун хизмат қилиш — унинг эҳтиёжларини қондириш, ижтимоий адолатни таъминлаш, таълим, соғлиқни сақлаш, бандликни ривожлантириш демакдир. Сўнгги йилларда аҳоли турмуш даражасини оширишга, ижтимоий ҳимояни кучайтиришга ва инсон капиталини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Зеро, ҳар бир ислоҳотнинг пировард мақсади — оддий инсоннинг ҳаётини яхшилашдир.

Уч тушунчанинг уйғунлиги

«Ватан учун, миллат учун, халқ учун!» шиори — учта алоҳида ғоянинг оддий йиғиндиси эмас, балки уларнинг яхлит бирлигидир. Ватан ободлиги миллат бирлигисиз, миллат равнақи халқ фаровонлигисиз тасаввур этиб бўлмайди. Бу учта тушунча бир-бирини тўлдиради ва мустаҳкамлайди.

Ҳар бир фуқаро ўз ўрнида — деҳқон далада, ишчи заводда, ўқитувчи мактабда, шифокор шифохонада, олим лабораторияда — Ватан, миллат ва халқ учун хизмат қилмоқда. Айнан шу кундалик фидойи меҳнат орқали буюк мақсадлар рўёбга чиқади. Ёшлар — Янги Ўзбекистон бунёдкорлари сифатида замонавий билим ва касб-ҳунарларни эгаллаб, юртимиз келажагини яратмоқдалар.

Яна шуни алоҳида такидлаш лозимки мустақиллик даврида бизнинг ҳарбий спортчиларимиз жахон ареналарида жудаям катта муфоқиятларга эришиб юртимизнинг байроғини юқори кўтаришга ва Ўзбекистон Республикасининг давлат мадхиясини дунёнинг барча қитъаларида янграшига сабабчи бўлдилар. Шунингдек, мамлакатимиз футбол терма жамоаси мустақилликнинг 35-йиллиги арафасида тарихда биринчи маротаба жаҳон биринчилигида

қатнашиб, тарихга янги сахифа қолдирдилар. Боксчиларимиз дунёда Амир Темур авлодларининг зарбасига тенг келадигонлар йўқлигини исботлаб, жахон миқёсида юқори ўринларни эгалладилар.

Мустақиллик йилларида Қуролли Кучларимизнинг моддий техника базаси тубдан янгиланиб, замон талабларига жавоб берадигон қурол-аслаҳалар, техника воситалари ва компьютерлар билан таминланди. Ҳарбий кадрларни тайёрлашда тапйёрлашда ҳам катта ислоҳатлар қилиниб, Қуролли Кучлар академияси, Фавқуладда вазиятлар вазирлиги академияси, Сержантлар мактаблари, Темурбеклар ҳарбий лицейлари, Жамоат хавфсизлиги Университети ва бошқа ҳарбий кадрларни тайёрловчи билим юртлари ташкил этилди. Ҳозирги кунда Қуролли Кучларимиз тўлиқ равишда ўзимизнинг юртимиздаги билим юртларини тамомлаган миалакали кадрлар билан тўлдирилган.

Энг ачинарли ва тарихда қоладиган сахифалардан бири шуки, бизни мустақиллигимизни кўра олмайдиган салбий кучларни мавжудлиги. Улар бир неча бор бизнинг давлатимизга очиқдан-очиқ тажавуз қилишга ҳаракат қилдилар. Мана мисол, 1999-йилнинг феврал ойичаТошкент шаҳрида, шу йилнинг март ойларида Хоразм вилоятининг Саримой қишлоғи яқинидаги, кейинроқ Сурхандарё вилоятининг Узун туманида, Тошкент вилоятининг Янгиобод қишлоғида ва Андижон шаҳрида ҳалқаро террорчи гуруҳларга қарши қуролли тўқнашувлар бўлиб ўтди. Бу қуролли тўқнашувларда бир неча ҳарбийларимиз ўз жонларини қурбон қилиб, террорчиларнинг ёвуз ниятларига эришишларига

йўл қўймадилар. Яна бир мисол Тошкентдаги туманларнинг бирида инсонлар истиқомат қилувчи хонадонда бўлган ёнғинда Фавқулодда вазиятлар вазирлиги ходими капитан Бобурмирзо Пардаев инсонларни хаётини сақлаб қолиш мақсадида, ўзиниг қутқарувчилик бурчини охиригача бажариб, ўз жонини фидо қилди. Биз мана шундай фидоий, ватанпарвар, ҳалқимиз, давлатимиз манфаатларини ўзиникидан устун қўйиб, мустақилигимиз, ҳалқимизни тинч осойишта ҳаёт кечириши учун ўз жонларини қурбон қилган ҳарбийларимизни номларини доимо қалбимизда сақлаймиз ва уларнинг порлоқ хотиралари ва кўрсатган қахрамонликлари мисолида, ёш авлодларимизни тарбилаймиз.

Хулоса

Мустақилликнинг 35 йиллиги — ўтган йўлга назар ташлаш, эришилган ютуқлардан фахрланиш ва келажакка ишонч билан қараш палласидир. «Ватан учун, миллат учун, халқ учун!» деган эзгу ғоя ҳар бир фуқарони бирлаштирувчи, илҳомлантирувчи ва улуғ мақсадлар сари етакловчи кучли шиордир.

Бу ғояни қалбан англаган ва унга содиқ бўлган ҳар бир инсон — ўз Ватанининг ҳақиқий фарзанди, миллатининг фахри ва халқининг садоқатли хизматкоридир. Келинг, барчамиз бирдамликда, ҳамжиҳатликда ва фидойилик билан Ватанимиз равнақи, миллатимиз бирлиги ва халқимиз фаровонлиги йўлида меҳнат қилайлик. Зеро, буюк келажак — биргаликдаги саъй-ҳаракатларимиз меваси бўлади.

MUSTAQILLIK - MILLIY TARAQQIYOT VA YANGI O‘ZBEKISTON BUNYODKORLIGINING 35 YILLIK YO‘LI

Nasirdinov Dilmurod Ergashaliyevich
Ozbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yillik tarixiy yo‘li, uning mamlakat siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy hayotidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Mustaqillik yillarida milliy davlatchilik asoslarining shakllanishi, bozor iqtisodiyotiga o‘tish, huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimidagi yangilanishlar, mudofaa va xavfsizlik sohasidagi islohotlar hamda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzi va zamonaviy taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: mustaqillik, milliy davlatchilik, taraqqiyot, islohotlar, Yangi O‘zbekiston, iqtisodiy modernizatsiya, ta’lim, ma’naviyat, xavfsizlik, xalqaro hamkorlik.

2026-yil O‘zbekiston xalqi hayotida alohida tarixiy va siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan yil sifatida yodda qoladi. Zero, bu yil mamlakatimiz davlat mustaqilligining 35 yilligi keng nishonlanadi. O‘tgan 35 yil - oddiy vaqt oralig‘i emas, balki mustaqil O‘zbekistonning shakllanishi, rivojlanishi, yangilanishi va bugungi taraqqiyot bosqichiga yetib kelish yo‘lini o‘zida mujassam etgan ulkan tarixiy davrdir [1].

1991-yil 31-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e’lon qilinishi xalqimizning ko‘p asrlik orzu-intilishlari ro‘yobga chiqqan buyuk tarixiy voqea bo‘ldi. 1-sentabr esa mamlakatimizning eng ulug‘ va qadrli bayramlaridan biri - Mustaqillik kuni sifatida tarixdan mustahkam o‘rin oldi.

Mustaqillik xalqimizga o‘z taqdirini o‘zi belgilash, milliy manfaatlarga asoslangan davlat siyosatini yuritish, o‘zining taraqqiyot yo‘lini tanlash va xalqaro hamjamiyatda teng huquqli davlat sifatida faoliyat yuritish imkonini berdi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab mamlakatimiz oldida nihoyatda murakkab va mas’uliyatli vazifalar turganini anglash mumkin. Yangi davlatning huquqiy asoslarini yaratish, davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, aholini ijtimoiy himoya qilish, milliy xavfsizlikni mustahkamlash va xalqaro maydonda O‘zbekistonning munosib o‘rnini egallash ana shunday vazifalar qatoriga kirardi [2].

Mustaqillikning dastlabki yillari mamlakatimiz tarixidagi eng mas’uliyatli davrlardan biri bo‘ldi. Chunki mustaqillikka erishishning o‘zi bilan barcha muammolar hal bo‘lib qolmadi. Aksincha, mustaqil davlatni barpo etish, uning siyosiy va iqtisodiy asoslarini yaratish, davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish kabi murakkab vazifalarni amalga oshirish zarur edi.

O‘zbekiston sobiq markazlashgan iqtisodiy tizimdan yangi bozor munosabatlariga o‘tish vazifasini hal qilishi kerak edi. Bu jarayon mamlakat oldiga juda katta sinovlarni qo‘ydi. Bosqichma-bosqich yangi mulkchilik munosabatlari shakllandi, xususiy sektor rivojlana boshladi, tadbirkorlik faoliyati uchun huquqiy va iqtisodiy sharoitlar yaratildi.

Sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport, energetika va boshqa tarmoqlarda tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirildi.

Keyingi yillarda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va diversifikatsiya qilishga katta e’tibor berildi. Yangi sanoat korxonalari barpo etildi, ishlab chiqarishning zamonaviy texnologik asoslari rivojlantirildi, transport va infratuzilma tizimlari takomillashtirildi [3].

So‘nggi yillarda esa iqtisodiy islohotlar yanada jadallashdi. Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, xususiy mulk daxlsizligini ta’minlash, investitsiyalarni jalb qilish, raqobat muhitini rivojlantirish va iqtisodiyotda davlat ishtirokini maqbullashtirish kabi yo‘nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etdi.

Bugungi kunda iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, balki uning natijalarini aholining turmush darajasini yaxshilashga yo‘naltirishdan iborat [4].

Mustaqillik yillarida ta’lim tizimiga alohida e’tibor qaratilishi bejiz emas. Chunki davlatning kelajagi, eng avvalo, uning yosh avlodiga bog‘liq. O‘tgan 35 yil davomida ta’lim tizimining huquqiy va tashkiliy asoslari takomillashtirildi. Umumiy o‘rta ta’lim, professional ta’lim va oliy ta’lim tizimlarida keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirildi. Keyingi yillarda oliy ta’lim olish imkoniyatlarining kengayishi, yangi oliy ta’lim muassasalarining tashkil etilishi, xalqaro hamkorlikning kuchayishi va zamonaviy mutaxassisliklarga e’tiborning ortishi yoshlarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari, sun’iy intellekt, muhandislik, raqamli iqtisodiyot, tibbiyot va boshqa zamonaviy sohalarda malakali mutaxassislar tayyorlashga ehtiyoj tobora ortmoqda.

Ilm-fan va innovatsiyalarning rivojlanishi esa O‘zbekistonning kelajakdagi raqobatbardoshligini belgilaydigan asosiy omillardan biridir. Shuning uchun ham 35 yillik mustaqillik davrida shakllangan eng katta boyliklardan biri - bu bilimli, zamonaviy fikrlaydigan va Vatan kelajagi uchun mas’uliyatni his qiladigan yosh avloddir.

Mustaqillik xalqimizning milliy o‘zligini anglashida ham beqiyos ahamiyat kasb etdi. Milliy tariximiz, buyuk ajdodlarimizning hayoti va ilmiy merosi, urf-odatlarimiz, an’analarimiz va ma’naviy qadriyatlarimizni tiklash uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Alisher Navoiy va boshqa buyuk ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi yangi avlod tomonidan yanada chuqur o‘rganilmoqda.

Tarixiy xotiraning tiklanishi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda milliy g‘urur va o‘zlikni anglash tuyg‘usini shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Mustaqillik bizga tariximizga o‘z ko‘zimiz bilan qarash, ajdodlarimiz merosini xolis o‘rganish va undan kelajak taraqqiyoti uchun foydalanish imkonini berdi [5].

O‘zbekistonda huquqiy davlat barpo etish asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilandi. O‘tgan yillar davomida qonun ustuvorligini ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, sud-huquq tizimini takomillashtirish va davlat organlarining jamiyat oldidagi mas’uliyatini oshirishga qaratilgan ko‘plab islohotlar amalga oshirildi.

So‘nggi yillarda esa sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish, fuqarolarning huquqiy himoyasini kuchaytirish, davlat organlari

faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekistonning mudofaa va xavfsizlik tizimi shakllantirildi. Zamonaviy xavf va tahdidlarga javob berish imkoniyatlarini oshirish, harbiy xizmatchilarning tayyorgarligini takomillashtirish, zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish masalalariga e’tibor qaratildi.

Bugungi xavfsizlik tushunchasi faqat harbiy tahdidlar bilan chegaralanmaydi. Terrorizm va ekstremizm, kiberxavfsizlik, tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlar, ekologik muammolar, epidemiologik xavflar va boshqa tahdidlar ham zamonaviy xavfsizlik tizimining muhim tarkibiy qismlaridir. Shu bois mustaqillikni mustahkamlash davlatning mudofaa salohiyati bilan bir qatorda fuqarolar xavfsizligini ta’minlash, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va aholining muhofazaga tayyorgarligini oshirishni ham talab etadi [6].

O‘tgan yillar davomida mamlakatimiz ko‘plab davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy va gumanitar aloqalarni rivojlantirdi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish O‘zbekiston tashqi siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Xalqaro hamkorlikning rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilish, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish, ta’lim va ilm-fan sohalaridagi aloqalarni kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzi oshib borishi ham mustaqillik yillarida amalga oshirilgan izchil siyosatning muhim natijalaridan biridir [7].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mustaqillikning 35 yilligi - xalqimiz hayotidagi tarixiy va unutilmas sana. 1991-yildan 2026-yilgacha bo‘lgan davr mamlakatimiz uchun ulkan o‘zgarishlar, izlanishlar, sinovlar va taraqqiyot yillari bo‘ldi.

Mustaqillik tufayli milliy davlatchilikning huquqiy asoslari yaratildi, mamlakatning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi mustahkamlandi, milliy qadriyatlar va tarixiy xotira tiklandi. Iqtisodiyot modernizatsiya qilindi, ta’lim va ilm-fan rivojlandi, yangi avlod uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Bugungi islohotlar esa 35 yillik mustaqillik taraqqiyotining mantiqiy davomi sifatida namoyon bo‘lmoqda. “Inson qadri uchun” tamoyili, iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, huquqiy davlatni mustahkamlash, ta’lim va ilm-fanga e’tiborni kuchaytirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish mamlakatimizning yangi taraqqiyot bosqichini belgilamoqda. Zero, mustaqillikni asrash, uni yanada mustahkamlash va kelajak avlodlarga munosib tarzda yetkazish har birimizning muqaddas burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi Qonuni, 1991-yil 31-avgust.

3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.

4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. – Toshkent, 2023.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2022.

ЎЗБЕКИСТОН ССР МОЛИЯ ТИЗИМИНИ ЁРИТИШДА АРХИВ ҲУЖЖАТЛАРИНИНГ ЎРНИ

Р.Р. Дусчанов
Мирзо улуғбек номидаги
Ўзбекистон Миллий университети
Тарих факультети
“Архившунослик ва манбашунослик” кафедраси
доценти

Ўзбекистон Миллий архивида ва вилоят давлат архивларида сақланаётган фондлар совет давлати молия сиёсатини ёритишучун бирламчи манбалар ҳисобланади. Айниқса, Ўзбекистон Миллий архивида сақланувчи фондлардан, Р-2454 – Ўзбекистон ССР Олий Совети Президиуми фонди, Р-837 – Ўзбекистон ССР Министрлар Совети фонди, Р-1714 – фонд – Ўзбекистон ССР Олий Суди фонди, Р-93 – Ўзбекистон ССР Молия вазирлиги фонди ва бошқа фондларни киритиш мумкин.

Айниқса, Р-2454 – Ўзбекистон ССР Олий Совети Президиуми фонди бўлиб унда Ўзбекистон ССР давлат бюджетини Ўзбекистон ССР Конституциясига кўра, давлат бюджети масаласида асосий қарор қабул қилувчи орган Олий Советнинг ўзи бўлгани, давлат бюджетини тасдиқлаш ва унинг ижроси ҳақидаги ҳисоботни тасдиқлаш фақат Олий Совет ваколати эканлиги ҳақидаги, Олий Совет – бюджетни тасдиқловчи ва ижро ҳисоботини қабул қилувчи олий вакиллик органилиги, Министрлар Совети – бюджет лойиҳасини ишлаб чиқувчи ва ижросини ташкил этувчи ижро органи бўлган бирламчи ҳужжатлар сақланади. Бу ҳолат совет давридаги вакиллик органлари тизимида бюджет устидан назорат ва тасдиқлаш функцияларининг Олий Советга, бюджетни тайёрлаш ва ижро этиш функцияларининг эса Министрлар Советига бириктирилганини кўрсатади.

Жумладан, Р-837 – Ўзбекистон ССР Министрлар Совети фондидаги ҳужжатларда кўрсатилишича, Иккинчи жаҳон урушидан сўнг молия органлари солиқ тўловчилар ва уларнинг даромадларини ҳисобга олишни нотўғри ташкил этганлар. Айрим ҳолларда эса солиқ инспекторларининг ёрдамчилари, солиқ агентлари ва солиқ бухгалтерларига солиқ ҳисобини мустақил амалга ошириш вазифаси топширилган, уй хўжаликларидан маълумот олинмаган ҳамда колхозчилар хўжаликларидаги томорқаларнинг ўлчовлари тўғрисидаги маълумотлар ва бошқа назорат материалларидан тўлиқ фойдаланилмаган ҳолатлар ҳам кузатилган. Оқибатда баъзи хўжаликлар ҳисобга киритилмай қолган, экинлар, чорва, дарахтлар ва деҳқончилик билан боғлиқ

бўлмаган даромадлар тўлиқ ҳисобга олинмаган, оила аъзолари эса нотўғри ҳисобга олинган ва ҳоказо. Масалан, Тошкент вилоятидаги Янгийўл туманида жойлашган Андреев номидаги колхоз бўйича 37 та колхоз хўжаликлари ва Фарғона вилояти Қўқон туманида жойлашган 3 та қишлоқ кенгашидаги 72 та хўжалик ҳисобга олинмаганлиги аниқланган[1, 34-в]. Статистик маълумотларда кўрсатилишича, 1949 йил 1 январь ҳолатига кўра республиканинг айрим туманларида катта миқдордаги маблағлар қарздорликка ўтиб кетган. Масалан, Сирдарё тумани бўйича – 1175,5 минг рубль, Оржаникидзе тумани бўйича – 1132,8 минг рубль, Мирзачўл тумани бўйича – 1083,8 минг рубль, Калинин тумани бўйича – 920,5 минг рублни ташкил этган[2, 58-в].

Р-1714 – фонд – Ўзбекистон ССР Олий Суди фонди бўлиб, унинг эътиборли томони шундаки, молия соҳасида айбсиз қатағон қилинганлар, айниқса Молия халқ комиссари Акбар Исломов ва шу соҳа вакиллари устидан олиб борилган тергов ва суд жараёни тўғрисидаги қимматли маълумотларни учратиш мумкин.

-93 – Ўзбекистон ССР Молия министрлиги фондининг асосий илмий қиммати шундаки, унда республикада давлат молиясини ташкил этиш, бюджетни шакллантириш ва ижро этиш, давлат даромадлари ва харажатларини назорат қилиш билан боғлиқ маъмурий-молиявий ҳужжатлар сақланган. Шу сабабли фондни Ўзбекистон ССРнинг совет давридаги молия-бюджет сиёсатини реконструкция қилиш имконини берувчи муҳим архив манбаларидан бири сифатида кўриш мумкин.

Фонд ҳужжатларидан фойдаланган замонавий тадқиқотларда унинг материаллари бюджет тақчиллиги, молия органлари фаолияти ва давлат молиясининг амалий ҳолатини ёритиш учун қўлланилган.

Бу фонд манбавий жиҳатдан Ўзбекистон ССРда бюджетнинг фақат расмий тасдиқланган кўрсаткичларини эмас, балки бюджет маблағларининг амалда қандай шаклланган ва сарфланганини таҳлил қилиш имкони пайдо бўлади.

Бу жиҳатдан фонд қуйидаги масалаларни тадқиқ этиш учун муҳим:

- давлат бюджетининг даромад манбалари;
- бюджет харажатларининг таркиби;
- бюджет тақчиллиги ва унинг сабаблари;
- республика ва маҳаллий бюджетлар ўртасидаги муносабатлар;
- молиявий режаларнинг бажарилиши;
- бюджет маблағларидан фойдаланиш устидан назорат;
- молия органларининг ҳисобот ва назорат фаолияти.

Шунинг учун Р-93 фондини Ўзбекистонда совет молия-бюджет тизимини очиб берувчи манба сифатида баҳолаш мумкин.

Бундан ташқари, Р-2881 – Давлат солиқ бош бошқармаси фонди бўлиб, 1990 йил 3 апрелда Молия министрлиги тасарруфидаги бошқарма ўрнида “Давлат солиқ бош инспекцияси” ташкил этилиб[4, 1-5-в], инспекция 14 бўлимдан иборат бўлди.

1991 йил 15 июнда Ўзбекистон ССР Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Давлат солиқ бош бошқармаси[5, 1-в] деб

ўзгартирилди. Ўзбекистон ССР Олий Кенгашининг 1991 йил 14 июндаги қарори билан тасдиқланган “Ўзбекистон ССР давлат солиқ органлари тўғрисида”ги низоми тасдиқланган. Бунга кўра, бошқарма соҳанинг самарали ижросини таъминлаш мақсадида солиқлар, йиғимлар ва бошқа мажбурий тўловларнинг тўғри ҳисобланиши ва ўз вақтида тўланиши устидан назоратни амалга ошириш ҳамда бошқа вазифалар белгиланган[6, 5-в].

Ўзбекистон кинофотофоно ҳужжатлари миллий архивидаги фото ҳужжатлари бўлиб, унда (бу архивдаги ҳар бир фото ҳужжат битта сақлов бирлигига эга ҳисобланади)[7,], бу ҳужжатларда Молия халқ комиссари ҳамда Молия министрлари фаолияти (2-илова) билан боғлиқ йиғилишлар ва учрашувларни акс эттирувчи манбалар ҳисобланиб, уларнинг иш жараёнидаги фаолиятлари акс этган.

Қорақалпоғистон АССР молия тизимини ёритиш бўйича Қорақалпағистон АССР Олий Совет Президиуми 229-фонди, Қорақалпағистон АССР Молия министрлиги 322-фондларининг аҳамияти юқори ҳисобланиб, улардан Молия министрлигига эътибор берилса, унда 1937 йилдаги бюджетнинг даромад ва харажатлар қисмига тўхталиб, даромаднинг 7 та тури кўрсатилиб, шулардан 3 таси солиқ ва йиғимлар тўғри келиб, давлат даромадининг 80 фоиздан ортиғини солиқ ва йиғимлар ташкил этган. Давлат харажатлари 8 тага бўлиниб тақсимланган, булардан биринчи ўринда халқ хўжалиги, унга 15 фоиздан ортиғи, иккинчиси ижтимоий-маданий тадбирларга 25 фоизи ажратилган[1, 2-3-в].

Харажатларнинг катта қисми маориф, қишлоқ хўжалиги ва соғлиқни сақлаш соҳаларига тўғри келган.

Ўзбекистон Миллий архиви фондларига таянган ҳолда молия-бюджет муносабатлари, давлат молия сиёсати ва ижтимоий-иқтисодий жараёнлар ҳақидаги маълумотлар қайд этилгани билан муҳимдир. Фондларнинг манбавий аҳамияти, аввало, давлат молиясининг даромад ва харажатларини шакллантириш, бюджет маблағларини тақсимлаш, молиявий режалаштириш ва назорат қилиш жараёнларини ҳужжатлар асосида тиклаш имкони билан белгиланади. Бундай ёндашув бюджет қарорларининг қабул қилиниши, уларнинг молиявий жиҳатдан таъминланиши ва амалиётда бажарилиши ўртасидаги муносабатларни аниқлаш имконини беради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН МАНБА ВА АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. ЎзМА, Р-837-фонд, 33-рўйхат, 5446-йиғмажилд, 34-варақ.

2. ЎзМА, Р-837-фонд, 33-рўйхат, 6190-йиғмажилд, 58-варақ.

3. ЎзМА, Р-93-фонд, 1-рўйхат, 2-йиғмажилд,127-варақ.

4. ЎзМА, Р-93-фонд, 15-рўйхат, 6530-йиғмажилд, 1-5-варақлар.

5. ЎзМА, Р-2881-фонд, 1-рўйхат, 3-йиғмажилд, 1-варақ.

6. ЎзМА, Р-2881-фонд, 1-рўйхат, 3-йиғмажилд, 5-варақ.

7. Ўзбекистон кинофотофоно ҳужжатлари миллий архивидаги ҳужжатлар сақлов бирлиги.

8. Қорақалпоғистон Республикаси МДА, Р-322-фонд, 1-рўйхат, 422-йиғмажилд, 2-3-варақлар.

TURKISTON ASSR SOLIQ SIYOSATINING TARIXI ARXIV HUJJATLARI MISOLIDA

Maxkamova Zulxumor Murodjon qizi
Tadqiqatchi

Turkiston ASSRda 1918–1924-yillarda amalga oshirilgan soliq siyosati davlatning iqtisodiy boshqaruv tizimida muhim o‘rin egallagan. Mazkur davrda mamlakatdagi siyosiy va iqtisodiy jarayonlar ta’sirida soliq tizimi bir necha bor o‘zgartirilib, oziq-ovqat razvyorstkasi, oziq-ovqat solig‘i, yer-suv solig‘i, savdo va boshqa turdagi soliqlar joriy etildi. Ushbu soliqlar davlat budjeti daromadlarini shakllantirish bilan bir qatorda aholining iqtisodiy faoliyati va ijtimoiy holatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatdi.

1917-yilgi oktyabr inqilobidan so‘ng, sobiq Rossiya imperiyasi hududida yangi sovet respublikalari tashkil topdi. Ular orasida 1918-yilda tashkil etilgan Turkiston ASSR Markaziy Osiyodagi muhim siyosiy va iqtisodiy tuzilmaga aylandi[1, 45-52]. Sovet hokimiyatining ilk yillarida davlat boshqaruvi, jumladan, moliyaviy tizimni tashkil qilish ustuvor vazifalardan biri bo‘ldi. Ayniqsa, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash uchun soliq siyosatini joriy etish muhim ahamiyat kasb etdi.

1918-yil aprelda tashkil etilgan Turkiston ASSR, sobiq Rossiya imperiyasi tarkibidagi mustamlaka o‘lkalardan biri sifatida o‘z taraqqiyotining og‘ir va murakkab tarixiy bosqichiga qadam qo‘ydi. O‘lkada iqtisodiy hayotning izdan chiqqanligi, transport tizimining holatga kelishi, yirik sanoat korxonalarining ishdan to‘xtashi, paxta yetishtirishning keskin kamayishi yangi respublikaning moliyaviy tizimini barpo erishni taqazo etgan[2, 12-v].

Shu sharoitda soliqlar nafaqat davlat byudjetining asosiy manbasi, balki iqtisodiy boshqaruvning eng muhim vositasi sifatida shakllandi. Ayniqsa 1921-yildan joriy etilgan yangi iqtisodiy siyosat davrida soliq tizimi bozor munosabatlariga asta-sekin o‘tish jarayonining amaliy mexanizmini belgilab berdi. Yangi iqtisodiy siyosat soliq tizimida tub burilish yasadi va davlat budjetini shakllantirishda muhim rol o‘ynadi. “Harbiy kommunizm” davrida amal qilgan majburiy oziq-ovqat razvyorstkasi bekor qilinib, uning o‘rniga oziq-ovqat solig‘i joriy etildi[3, 514-b]. Bu esa soliqlarning davlat va aholi o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy vositaga aylanganini ko‘rsatdi.

NEP davrida soliqlar dehqon va tadbirkorlar uchun aniq belgilangan, oldindan ma’lum va nisbatan yengil shaklda undirilgan. Natijada ishlab chiqaruvchilarning manfaatdorligi oshib, qishloq xo‘jaligi va savdo jonlandi. Bu jarayon Turkiston ASSRda ham kuzatilib, paxtachilik, hunarmandchilik va ichki savdoning rivojlanishi soliq tushumlarining ko‘payishiga olib keldi.

Shuningdek, NEP sharoitida pul soliqlari, savdo va daromad soliqlari joriy etilib, davlat budjeti asosan soliq tushumlari hisobidan to‘ldirila boshlandi. Bu holat moliya tizimini barqarorlashtirishga, budjet daromadlarini rejalashtirish imkonini berdi. Soliqlar orqali davlat iqtisodiy jarayonlarni nazorat qildi va ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirdi.

Turkiston ASSR da inqirozli davrlar 1918-1920-yillar Turkistonda fuqarolar urushi, milliy ozodlik qo‘zg‘olonlari, bosmachilik harakati, oziq-ovqat tanqisligi kabi omillar bilan tavsiflanadi[4, 25-67]. Bunday vaziyat davlat byudjeti tushumlarining keskin kamayishiga olib kelgan. Masalan, 1919-yilda byudjetning atigi 28% qismi davlat tushumlar bilan

ta’minlangan[5, 6-v]. Bu holat mintaqada fuqarolar urushi oqibatlari, ishlab chiqarishning keskin pasayishi hamda soliqlarni yig‘ish tizimining izdan chiqqani bilan izohlanadi. Davlat byudjetining asosiy qismi markazga qaram bo‘lib qolganligi Turkiston ASSR moliyaviy mustaqilligining cheklanganligini ko‘rsatadi.

Ushbu davrda daromadlarning xarajatlarga nisbati quyidagicha bo‘lgan (foizda):

№	Yillar	RSFSR	Turkiston ASSR
1.	1918	33,4	1,3
2.	1919	22,8	1,8
3.	1920	13,0	0,9

Agar 1918 yilda RSFSRda budjet qoldig‘i 66,6% bo‘lgan bo‘lsa, Turkiston Respublikasida barcha xarajatlarning 99,7 %, 1919 yilda 98,2 %, 1920 yilda 99,9 % doimiy taqchillikni tashkil etadi.

Oldingi yillarda budjet defitsiti qog‘oz pul hisobidan qoplanib, Turkistonga markazdan mablag‘ yo‘naltirilgan. Yuqorida aytib o‘tilganidek, qo‘shimcha emissiya evaziga sababli, qog‘oz pullarning, xatto Kaspi dengizi orqali ham qiymati, kuchidan norozi bo‘lgan.

Oktyabrda Markazning Turkrespublika asosan 1918 yil 3 sentyabr boshida RSFSR hukumati Turkiston xalq bankiga 200 mln. so‘m qog‘oz pul yuborgan. Turkiston milliy pul birligi chiqarishga ruxsat berdi.

Mustaqillik yurt qurishni bosuvchi xarajatlar oshishida kuchli omil bo‘ldi. Turkistonning iqtisodiy rivojlanishining birinchi navbatdagi muammolari orasida bosqinchilik va bosqinchilik natijasida bozorlar

yemirilishi, ishlab chiqarishning pasayishi, iqtisodiy inqiroz va boshqa holatlar mavjud edi.

1920 yil 10 sentyabrda pul emissiyasi miqdori 75 mlrd. so‘mga yetkazildi. Qog‘oz pullar emissiyasi 30 mlrd. so‘mga yetkazildi. RSFSRda muomalaga chiqarilgan qog‘oz pullar 24 barobar oshgan bo‘lsa, Turkistonda 190 barobar ko‘paydi. 1920 yil dekabriga kelib Turkiston xalq banki hisoblangan RSFSR nisbatan 2 barobar ortdi, guruhlar oldingi yillarga nisbatan 3500 barobar ko‘paydi. Emissiyaning to‘xtovsiz kengayib borishi oqibatida kuchli inflyatsiya yuzaga keldi. Budjet hajmi (nominal) 1920 yil avgustga qadar 4 ming barobarga oshdi, holbuki shu davr ichida RSFSR budjeti 28 barobarga ko‘paygan edi, shuning uchun Turkiston budjetining nominal RSFSRga nisbatan 14 barobar yuqori bo‘lgan[6, 103-b].

1918-yilda eng katta daromad manbai favqulodda inqilobiy soliqlar bo‘lgan. Ular 10 000 mln rublni tashkil etib, umumiy daromadning 64,3 % ini egallagan. Bu holat fuqarolar urushi va inqilobdan keyingi og‘ir iqtisodiy vaziyatda davlat mablag‘larni asosan majburiy soliqlar orqali to‘plaganini k o‘rsatadi. Shuningdek, aktsiz soliqlari va sanoat solig‘i ham muhim o‘rin tutgan.1919-yilda soliq tushumlari keskin kamaygan. Favqulodda soliqlar 661 mln rublga tushib, ulushi 1,4 % ga pasaygan. Aktsiz soliqlari va sanoat solig‘idan tushum ham kamayib, bu iqtisodiy inqiroz, ishlab chiqarishning pasayishi va pul tizimining izdan chiqishi bilan bog‘liq.

1920-yilda esa soliq daromadlari yanada qisqargan. Aksariyat soliqlar b o‘yicha tushum juda past bo‘lib, umumiy soliq daromadlari atigi 471 mln

rublni tashkil etgan. Bu davrda bojxona daromadlari va mayda yig‘imlar ham deyarli ahamiyatini yo‘qotgan[7, 7-s].

Moliyaviy inqiroz davlat rahbariyatini qat’iy choralar ko‘rishga majbur qildi. Arxiv hujjatlarida qayd etilishicha, 1920-yilda Turkiston ASSR byudjetining 72 % 28% qismini esa markazdan ajratilgan mablag’lar tashkil etgan[8, 14-v]. Bu holat sovet hokimiyatining mintaqada soliqlarni yig‘ish tizimini qisman tiklagani, harbiy-kommunistik choralar orqali iqtisodiy resurslarni markazlashtirishga intilganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, byudjetning 28 foizi markazdan ajratilgan mablag‘lar hisobiga qoplangan, bu esa Turkiston ASSR moliyaviy mustaqilligining cheklanganligicha qolganini ko‘rsatadi. Mahalliy daromadlar ulushining ortishiga qaramay, iqtisodiyotning zaifligi, ishlab chiqarishning to‘liq tiklanmagani va soliq bazasining torligi mintaqaning o‘zini- o‘zi moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklab qo‘ygan.

Turkiston ASSRning hududi viloyat, uyezd va volostlardan iborat bo‘lib, har bir hududning iqtisodiy imkoniyatlari keskin farq qilgan. Shu sababli soliqlar hududlar bo‘yicha turlicha miqdorda undirilgan bo‘lib, ular hududning salohiyatidan kelib chiqqan.

№	Viloyat nomi	Daromad
1	Sirdaryo viloyati	55 mln rubl
2	Samarqand	40 mln rubl
3	Farg‘ona	25 mln rubl
4	Turkmaniston	11 mln rubl
5	Amudaryo viloyati	4 mln rubl

Keltirilgan raqamlar Turkiston ASSR hududlari bo‘yicha byudjet tushumlari hududlar kesimida notekis taqsimlanganini ko‘rsatadi. Eng katta moliyaviy yuk Sirdaryo viloyati zimmasiga to‘g‘ri kelib, uning hissasi 55 mln rublni tashkil etgan. Bu viloyatda sug‘orma dehqonchilik, savdo yo‘llarining rivojlanganligi va aholi zichligining yuqoriligi byudjet tushumlarining ko‘pligiga sabab bo‘lgan.

Samarqand viloyati 40 mln rubl bilan ikkinchi o‘rinda bo‘lib, tarixan hunarmandchilik, savdo va qishloq xo‘jaligi rivojlangan hudud sifatida byudjetda muhim o‘rin egallagan. Farg‘ona vodiysi esa 25 mln rubl tushum bilan uchinchi o‘rinda turib, bu yerda paxtachilik va aholining ko‘pligi asosiy daromad manbai bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda, Turkiston ASSRda soliq siyosati davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning muhim manbalaridan biri bo‘lgan. O‘zbekiston Milliy arxivi hujjatlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, oziq-ovqat solig‘i, yer-suv solig‘i, savdo va boshqa to‘lovlar budjet daromadlarini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Карр Э. Х. История Советской России. Большевистская революция 1917–1923 гг. – Москва: Прогресс, 1990.
2. O‘zMA, R-17-fond, 1-ro‘yxat, 46-yig‘majild.
3. Ўзбекистон миллий энциклопедияси**.** Ҳарбий коммунизм мақоласи. 3-жилд, – Тошкент, 2002.
4. Абдураҳимов М. Туркистонда фуқаролар уруши тарихи (1918-1920 йй.). – Тошкент: Фан, 1991.
5. O‘zMA, R-37-fond, 1-ro‘yxat, 837-yig‘majild.
6. Собиров Х. Ўзбекистон давлат молияси тарихи. – Тошкент, 2002.

7. Государственный бюджет СССР Статистический сборник часть I 1918-1937 гг. – Москва, 1955.

8. O‘zMA, R-37-fond, 1-ro‘yxat, 58-yig‘majild.

MUSTAQILLIK YILLARIDA DAVLAT XAVFSIZLIGI SOHASINING SIYOSIY-HUQUQIY JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRILISHI.

Ahmedova Hulkar Shermuhammad qizi
O‘z MU mustaqil izlanuvchi

Maqolada davlat xavfsizligi tushunchasining siyosiy-huquqiy mohiyati Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning nutqlaridan hamda milliy xavfsizlik tushunchalarining talqini keltirilgan xorijiy manbalardan foydalangan holda ochib berilgan.

Tayanch iboralar: davlat xavfsizligi, tahdid, xavf-xatar, tavakkalchilik, milliy manfaatlar, milliy qadriyatlar, mudofaa doktrinasi, suverenitet.

В стате при раскритии политико-правового значения понятия националная безопасност били исползовани доклади Президента Шавкат Мирзиёева, а также зарубежние источники, в которих приводится толкования понятия “националная безопасност”.

Ключевие слова: националний безопасност, угроза, опасност, рискованние дей-ствия, националние интереси, доктрина оборони, суверенитет.

This article is about the political-law essence of security conceptions in order to reveal the conceptions of national security and

use of the speeches of President of Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev and also with using of foreign sources.

Key words: national security, threat, risk, national benefic, national interests, defense, sover-eignty.

Davlat xavfsizligi mamlakat suverenligini ta’minlashning zarur shartidir, binobarin, davlat o‘z xavfsizligini ta’minlamasdan yashay olmaydi. Har bir davlat o‘zining izchillik bilan olib borayotgan demokratik islohotlarini amalga oshirishi uchun, jamiyatdagi yangilanish va taraqqiyotning o‘ziga xos yo‘li va strategiyasi barqaror va doimiy rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratishi jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etiladi.

Davlat xavfsizligini ta’minlash – O‘zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qaror toptirish va yanada mustahkamlashning eng muhim shartidir.

Bu haqda, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov o‘zining “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” nomli fundamental asarida shunday yozgan: “Aftidan, bugungi kunda xavfsizlik va barqarorlik yo‘lida paydo bo‘layotgan tahdidlarga tegishli munosabatda bo‘la olishning o‘zigina yetarli emas. Mavjud xavf-xatarlarning tabiatini to‘g‘ri tushunib yetishimiz kerak. Ularning manbalari va o‘zaro aloqalarini vaqtida aniqlashimiz darkor. Jamiyatda barqarorlikni saqlash shart-sharoitlarini belgilab olishimiz va ulardan samarali foydalanishimiz zarur. O‘zbekiston Respublikasining barqaror va sobitqadamlik bilan rivojlanishi shularga bog‘liqdir”[1].

Hozirgi kunda ham har bir mintaqada xavfsizlikni ta’minlash masalalari o‘tmishda bo‘lganidek o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Shuningdek, har bir mintaqaning o‘z xususiyatlari, o‘z tahdid manbalari va xavfsizlikni saqlash omillari mavjud. Shuningdek, xavfsizlikka oid bo‘lgan tushunchalarni o‘rganish va Respublikamizda milliy xavfsizlikka tahdidlarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan holatlarning chuqur ilmiy-tadqiq qilgan holda o‘rganish ishlari biz tadqiqotchilar oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

Har qanday mintaqaning hal qilinmagan va gazak olib ketishi ehtimoli bo‘lgan muammolari o‘z vaqtida xal qilinmasa butun dunyoda zanjir reaksiyasini keltirib chiqarishi mumkin. Vaziyatning beqarorlashuvi esa davlat va jamiyatdagi tartibni izdan chiqarishi, geografik-siyosiy muvozanatni buzish xavfini keltirib chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Afg‘oniston bo‘yicha “Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik” mavzusida o‘tkazilgan xalqaro konferensiyadagi nutqida “...barchamiz qat’iy ishonamizki, xavfsizlik yagona va bo‘linmasdir va uni faqat birgalikdagi say-harakatlar bilan ta’minlash mumkin. Biz xavf-xatarlarning ba’zi birlarini “o‘zimizniki”, boshqasini esa “birovniki”, deb qabul qilmasligimiz kerak, aniqroq aytganda, bunday qilishga haqqimiz yo‘q”[2] deb ta’kidladi.

Davlat xavfsizligi davlatchilikni ta’minlashning tayanch tarkibiy qismi bo‘lib, bunda davlat xavfsizligini ta’minlamay turib ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy rivojlanish haqida so‘zlab bo‘lmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 7-mod-dasiga ko‘ra, “Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir”[3], shuning uchun davlat

xavfsizligi butun O‘zbekiston xalqining manfaati va xavfsizligini ta’minlash uchun amalga oshiriladi.

Shu o‘rinda milliy xavfsizlik tushunchasiga va unga berilgan ilmiy ta’riflarga to‘xtalib o‘tish joiz. Milliy xavfsizlik tushunchasiga adabiyotlarda turli xil yondashuv mavjud bo‘lib, ulardan quyidagilarni keltirib o‘tishimiz mumkin.

Kosolapovning fikricha milliy xavfsizlik obyekti bu ijtimoiy-hududiy tizim bo‘lib, hududning, uning doimiy aholisining, ijtimoiy tashkiliy shakllarining bir butunligidir[4].

Alexnovichning fikricha esa “Milliy xavfsizlik” mazmunan ichki omillar (davlat hududining o‘lchamlari, undagi tabiiy resurslar, mamlakat aholisining soni, mamlakatning harbiy-siyosiy, iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy qudrati, davlat institutlarining barqarorligi jamiyatni jipslashtirish), shuningdek, tashqi omillarning (davlatning jahondagi geosiyosiy o‘rni, xalqaro tashkilotlarda qatnashishi) majmuidir. Milliy xavfsizlik mudofaa, ekologik, siyosiy, iqtisodiy, yuridik, axborot xavfsizligidan tarkib topadi, xavfsizlik turlarining majmui esa “milliy xavfsizlik tizimi” dir [5] .

Proxjevaning tadqiqotlarida “Milliy xavfsizlik”ni shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlari, shuningdek, milliy qadriyatlar turmush-tarzining tabiatiga ko‘ra xilma-xil bo‘lgan ichki va tashqi tahdidlarning turli ko‘rinishlaridan kafolatli himoyalangani sifatida tushunish mumkin[6].

Milliy xavfsizlik – siyosiy fanning tizim va jamiyatning yashashi va rivojlanishining maqbul sharoitlarini saqlab turish bo‘yicha samarali

faoliyatni ta’minlaydigan ijtimoiy institutlar holatini ifodalovchi kategoriyasidir. U millatni yaxlit tizim sifatida ifodalaydi[7].

Milliy xavfsizlik – shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoyalanganligini kafolatlovchi ijtimoiy munosabatlar holatidir[8].

Shu o‘rinda milliy xavfsizlik va davlat xavfsizligi degan tushunchalarga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, davlat xavfsizligini ta’minlash ko‘proq mudofaa jihatlari bilan bog‘liq holat tushuniladi. Milliy xavfsizlik esa davlat xavfsizligiga nisbatan kengroq tushuncha sanalib, o‘z ichiga iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy, mudofaa va harbiy xavfsizlik kabi tushunchalar bilan o‘lchanadi.

Xorijiy davlatlarning tajribasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, milliy xavfsizlikning mohiyati, huquqiy asoslar va muammolari eng muhim hujjatlarda aks etadi. Masalan, AQShda yangi yuz yillik uchun “Milliy xavfsizlik strategiyasi” ishlab chiqilgan bo‘lib, Prezidentning Kongressga **“Milliy xavfsizlik strategiyasi haqida”**gi har yilgi dokladida milliy xavfsizlik deganda o‘zi uchun maqbul sharoitlarda dunyo mamlakatlari bilan iqtisodiy munosabatlarni ta’minlab mamlakat va uning hududini tabiiy butunlikda himoya qilish ta’kidlanadi.

Shuningdek, yangi yuz yillik uchun AQSH “Milliy xavfsizlik strategiyasi” hujjatida (1999 y.) shunday qayd etilgan: “Biz o‘z mamlakatimizda va uning tashqarisida amerikaliklar hayotini va shaxsiy xavfsizligini himoya qilishimiz kerak. Biz Qo‘shma Shtatlar suverenligini, siyosiy erkinligini va mustaqilligini saqlashimiz lozim. Bizning boyliklarimiz, institutlarimiz va hududimiz daxlsiz bo‘lib qolishi lozim. Biz mamlakatning gullab-yashnashi va xalq

farovonligining o‘sishiga intilishimiz kerak”[9]. Mazkur hujjatning muqaddimasida xalqning milliy xavfsizligini, uning turmush-tarzini, AQSH hududini himoya qilish mamlakat Prezidenti ma’muriyatining bosh vazifasi va konstitusiyaviy majburiyati ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Xuddi shunday hujjatlar Xitoyda “Milliy rivojlanish strategiyasi” deb nomlanib, XXRning milliy manfaatlari va milliy xavfsizlik strategiyasi uchun ishlab chiqilgan. Rossiyada esa, “Rossiya Federatsiyasining milliy xavfsizlik Konsepsiyasi”, “Harbiy doktrina”, “Axborot xavfsizligi doktrinasi”, “Rossiya Federatsiyasining 2020 yilgacha bo‘lgan dengiz doktrinasi” kabi hujjatlarni o‘z ichiga olgan. Yaponiyada, “Yaponiya milliy xavfsizligini kompleks ta’minlash” Konsepsiyasi deb nomlangan hujjatlardan iborat bo‘lib shu davlatlarning bevosita manfaatlarini ko‘zlaydi.

O‘zbekiston Respublikasining milliy xavfsizlik Konsepsiyasi boshqa davlatlarning xavfsizlik sohasidagi hujjatlaridan farqli ravishda quyidagi ijobiy tomonlari bilan tavsiflanadi:

-O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish va ularni himoya qilishni ta’minlashga qodir puxta, o‘zaro foydali davlatlararo aloqalar tizimini

barpo etish, uning tevaragida xavfsizlik, yaxshi qo‘shnichilik va hamkorlik halqasini vujudga keltirish;

-Markaziy Osiyo mintaqasida etnik va davlatlararo qarama-qarshilikning oldini olish;

-Markaziy Osiyoda tajovuzkor fundamentalizm, millatchilik va ekstremizm g‘oyalarining tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan ehtiyot choralarini ko‘rish;

-tinchlikni saqlash va mintaqaviy mojarolarning oldini olish, xalqaro terrorchilik va jinoyatchilikka, qurol-yarog‘, giyohvand va psixotrop moddalarning tarqalishiga qarshi kurash yuzasidan samarali mexanizmlarni vujudga keltiruvchi mintaqaviy kollektiv xavfsizlik tizimini shakllantirishdan iborat.

1997 yil 29 avgustda qabul qilingan mazkur konsepsiya milliy xavfsizlikni ta’minlashda nafaqat Respublikamiz manfaatlarini, balki qo‘shni davlatlarning ham xavfsizlik borasidagi manfaatlarini teng ravishda ta’minlashga qaratilganligi bilan ham ajralib turadi.

Hozirgi sharoitda milliy xavfsizlikni o‘rganish bir qator o‘zaro bog‘liq bo‘lgan omillarni aniqlashni nazarda tutadi:

birinchidan, shaxs, jamiyat va davlatga tahdidlarning manbalari va xarakteri;

ikkinchidan, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining rivojlanish mohiyati va tendensiyalari;

uchinchidan, tahdidlar (xavf-xatarlar)ni bartaraf etishning potensial hamda real imkoniyatlarining mavjudligi va shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish jarayonlarini ta’minlash.

Milliy xavfsizlik murakkab ijtimoiy tizim sifatida muayyan tadqiqot tamoyillari va metodlariga ega. Shuning uchun, bir qator tadqiqotchi olimlar o‘z ishlarida milliy xavfsizlik muammolarini tadqiq etishning umumiy tamoyillari hamda metodlarini ochib berishga harakat qilganliklari bejiz emas. Bu, avvalo, tadqiqotning bosh tamoyili va metodi sifatida namoyon bo‘luvchi sistemali yondashishdir. Milliy xavfsizlik rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini, shuningdek,

ularning turli sharoitlarda o‘zgarishini aniqlash imkonini beruvchi tarixiylik tamoyili hisoblanadi.

Davlat xavfsizligini ta’minlashda davlatning barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlari va aholisining rolini hamda ahamiyatini oshirish, milliy manfaatlarni, ularga tahdidlarni, shaxs, jamiyat faoliyatining maqsadlari, asosiy yo‘nalishlarini, hayotning turli sohalarida davlat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha davlat siyosatini to‘g‘ri belgilashga ko‘maklashadigan siyosiy tahlil hamda ijtimoiy tizimlarni tadqiq etishning eng muhim metodi hisoblanadi.

Siyosiy tahlil tadqiqot metodi sifatida davlat xavfsizligi subyektlarining faoliyat yo‘nalishlari va natijalari, mamlakat xavfsizligini ta’minlash siyosati va strategiyasini ishlab chiqishga doir materiallarni yig‘ish, o‘rganish, umumlashtirish va izohlab berishni nazarda tutadi. U kuzatish, tahlil qilish, so‘rov kabi umumiy sotsiologik metodlarga asoslanadi. Davlat xavfsizligi manfaatlar, tahdidlar, himoya obyektlari va subyektlari, kuch va vositalar singari bazaviy elementlarga tayanadi. Binobarin, davlat xavfsizligini ta’minlash muammosini shu nuqtai nazardan ko‘rib chiqish lozim. Davlat xavfsizligi mamlakatning barqarorligini ta’minlash uchun g‘oyat muhim ahamiyat kasb etganligi uchun ham, quyidagi tushunchalarni aniq kategoriyalarini ajratish lozim deb o‘ylaymiz:

“tahdid”–maqsadga qaratilgan faoliyat tufayli vujudga keladigan xavf-xatarning eng aniq va bevosita shaklidir, shuningdek, tahdid muayyan xavf bo‘lmagan, lekin munosabat bildirishni talab etadigan holatlar majmui sifatida ham tushuniladi.

“xavf-xatar”–muayyan obyektga real suiqasd qilish yoki zarar yetkazish mumkin bo‘lgan holat.

“tavakkalchilik”–subyekt faoliyatida nohush va ko‘ngilsiz oqibatlar kelib chiqishi mumkin bo‘lgan tushunchadir (sanoatda foydali namunalar va ixtirolar olish hamda tadbirkorlikda qo‘llash nazarda tutilmoqda).

Davlat xavfsizligida milliy manfaatlar degan, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzumi, iqtisodiy rivojlanish darajasi, xalqaro munosabatlardagi tarixan tarkib topgan o‘rni, geografik o‘rni, milliy va madaniy an’analari, hayot negizining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan fuqarolar, jamiyat va davlatning obyektiv ehtiyojlari tushuniladi.

Milliy manfaatlar asosida hokimiyat organlari va uning tegishli institutlari fuqarolar, jamiyat va davlat manfaatlarini ifoda etuvchi davlat siyosatining maqsad va vazifalarini ishlab chiqadi va shakllantiradi. Davlat siyosati maqsadlariga aylangan manfaatlar ichki va tashqi siyosatda o‘z aksini topib, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy, xalqaro va boshqa sohalarda amalga oshiriladi.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib, hozirgi davr davlat xavfsizligi haqida emas, balki davlat xavfsizligi tizimi haqida fikr yuritish to‘g‘riroq bo‘lur edi, buni quyidagicha ta’riflash mumkin.

Davlat xavfsizligi tizimi – O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlari hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini tashqi va ichki tahdidlardan kafolatlangan tarzda himoya qilish bo‘yicha davlatning eng asosiy va mustahkam vazifalaridan birining bajarilishini ta’minlovchi qonunlar, institusional tuzilmalar, vosita va metodlar majmuidir. Davlat

milliy xavfsizlikni ta’minlash sohasidagi asosiy mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi. Davlat mudofaa qobiliyatining eng muhim qismi uning Qurolli Kuchlaridir.

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining Konstitusiyasi, qonunlari va xalqaro huquqning umume’tirof etgan prinsiplari hamda normalariga tayangan holda davlat xavfsizligi sohasida yagona davlat siyosati asoslarini belgilaydi.

Davlat xavfsizligi sohasidagi yagona davlat siyosatiga quyidagilar nazarda tutiladi:

-O‘zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatidagi o‘rni va rolini belgilash;

-O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlari va ustuvorliklari tizimini belgilash;

-davlat xavfsizligiga ichki va tashqi tahdidlarni aniqlash hamda ularga baho berish;

-davlat xavfsizligiga tahdidlarning oldini olish uchun davlat va jamiyatning real imkoniyatlari va resurslarini aniqlash hamda ularga baho berish;

-davlat xavfsizligini ta’minlashning strategik vazifalarini belgilash va ularni ro‘yobga chiqarish mexanizmlarini ishlab chiqish;

-davlat xavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish va tegishli qonunchilik bazasini yaratish.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, davlat xavfsizligini ta’minlashda quyidagi vazifalarni amalga oshirishni tavsiya etamiz:

birinchidan, davlat xavfsizligini ta’minlash kompleks vazifalarni bajarishni talab qilishini inobatga olib, xavfsizlik tizimini yaratish lozim.

Uning tizimiga kiruvchi siyosiy, harbiy, huquqiy, tashkiliy, ekologik, iqtisodiy va boshqa sohalarda fundamental tadqiqot ishlarini amalga oshirish;

ikkinchidan, davlat xavfsizligini ta’minlashning prinsiplarini, subyektlar vakolatlarini, tizimini belgilovchi davlat xavfsizligini ta’minlash to‘g‘risidagi qonunini qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, davlat xavfsizligi o‘ziga xos tuzilmali va funksional tarkibiy qismli murakkab, ko‘p darajali, ochiq dinamik tizimdir. Mazkur tizimning asosiy tuzilmali tarkibiy qismlari – milliy qadriyatlar, manfaatlar va maqsadlardan iborat bo‘lib, ana shu halqani birdek ushlash davlat xavfsizligini ta’minlashning garovi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O‘zbekiston, 1997.-326 B. 2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Afg‘oniston bo‘yicha “Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik” mavzusida o‘tkazilgan xalqaro konferensiyadagi nutqi.// Xalq so‘zi gazetasi. 2018 yil 28 mart.

3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. Toshkent-“O‘zbekiston” NMIU, 2017 yil.

4. Косолапов Н. Безопасности международная, национальная, глобальная: взаимодопол-няемость или противоречивость?... 27 стр.

5. Алехнович С.О. К вопросу об изменении подходов к теория и практике национальной безопасности// Международное публичное и частное право, 2007, №4(37).

6. Общая теория национальной безопасности. Учебник под ред. д.ю.н., профессор А.А.Прохжева. – М., 2002. – стр. 22.

7. Политология: Энциклопедический словарь. – М., 1993. – стр. 197-198.

8. Военный энциклопедический словарь. – М., 2002. – стр. 153.

9. Стратегия национальной безопасности США для нового столетия// Независимая газета 1999, 10 фев. – стр. 10.

YANGI O‘ZBEKISTONDA TA’LIM SOHASIDA SUN’IY INTELLEKT VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING YANGI BOSQICHIGA O‘TISH: MUAMMOLAR, ECHIMLAR VA ISTIQBOLLI LOYIHALAR

Egamberganov Sh. O.,
IT-park, tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda ta’lim tizimini raqamli transformatsiya qilishning yangi bosqichi, xususan, sun’iy intellekt (SI) va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanishning ilmiy-uslubiy, tashkiliy va institutsional jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda sun’iy intellektning ta’lim sifati, individual ta’lim traektoriyasi, o‘qituvchi mehnati samaradorligi, baholash jarayoni, ta’lim boshqaruvi va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga ta’siri yoritilgan. O‘zbekistonning «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi hamda 2030 yilgacha sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi, UNESCOning sun’iy intellekt va ta’limga oid konseptual yondashuvlari asosida ta’lim sohasida SIdan foydalanishning mavjud muammolari

tizimlashtirilgan. Muallif tomonidan «AI-ustoz», «Aqlli ta’lim analitikasi», «Milliy ta’limiy til modeli», «AI-laboratoriyalar tarmog‘i» va «Raqamli ta’lim sifat monitoringi» kabi istiqbolli loyihalar konsepsiyasi taklif etiladi. Tadqiqot natijasida SIni ta’limga joriy etishda texnologiyani maqsad emas, balki inson salohiyatini rivojlantirish vositasi sifatida qarash zarurligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, raqamli ta’lim, axborot texnologiyalari, ta’lim transformatsiyasi, generativ sun’iy intellekt, raqamli pedagogika, ta’lim analitikasi, individual ta’lim, AI-laboratoriya, raqamli kompetensiya.

XXI asrning ikkinchi choragida ta’lim tizimi raqamli texnologiyalarni oddiy qo‘llash bosqichidan ma’lumotlarga asoslangan intellektual ta’lim muhitini shakllantirish bosqichiga o‘tmoqda. Agar dastlab ta’limni raqamlashtirish elektron darsliklar, masofaviy ta’lim platformalari va elektron jurnallarni joriy etish bilan izohlangan bo‘lsa, bugungi kunda sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar, bulutli hisoblash, tabiiy tilni qayta ishlash, kompyuter ko‘rishi va generativ modellar ta’lim jarayonining mazmuni va boshqaruviga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

UNESCO sun’iy intellekt ta’limda individuallashtirilgan o‘qitish, ma’lumotlarni tahlil qilish va ta’lim jarayonini samarali boshqarish uchun katta imkoniyatlar yaratishini ta’kidlaydi. Biroq texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’limda tenglik, ma’lumotlar xavfsizligi, akademik halollik, algoritmik xolislik va inson nazorati kabi masalalarni ham kun tartibiga olib chiqmoqda.[1]

O‘zbekistonda ham raqamli transformatsiya va sun’iy intellektni rivojlantirish davlat siyosatining strategik yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. 2024 yil 14 oktyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–358-son qarori bilan «Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasi» tasdiqlangan. Unda SI infratuzilmasini rivojlantirish, kadrlar salohiyatini oshirish, ma’lumotlar bazasini shakllantirish va ijtimoiy sohalarda sun’iy intellektdan foydalanishni kengaytirish bo‘yicha vazifalar belgilangan.[2] SHu nuqtai nazardan, ta’lim sohasida SIdan foydalanish masalasi alohida texnologik eksperiment emas, balki YAngi O‘zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishning strategik mexanizmi sifatida qaralishi lozim.

1. Ta’limni raqamlashtirishdan intellektual ta’lim tizimiga o‘tish

Raqamli ta’limning birinchi bosqichida asosiy vazifa axborotni elektron shaklga o‘tkazishdan iborat edi. Keyingi bosqichda ta’lim platformalari o‘quv materiallari, testlar, videodarslar va elektron muloqot imkoniyatlarini bir tizimga birlashtirdi. Hozirgi bosqich esa mazkur tizimlarning o‘quvchining ehtiyojlarini tahlil qilib, unga mos ta’lim mazmuni va tavsiyalarni shakllantira olishi bilan xarakterlanadi.

Bunday tizimda: **ma’lumot → tahlil → bashorat → tavsiya → individual ta’lim traektoriyasi** zanjiri vujudga keladi.

Masalan, o‘quvchi muayyan mavzu bo‘yicha testlarni muntazam ravishda noto‘g‘ri echayotgan bo‘lsa, intellektual tizim faqat natijani qayd etib qolmay, xatoning ehtimoliy sababini aniqlashi, zarur nazariy materialni tavsiya qilishi va keyingi mashqlar murakkabligini

moslashtirishi mumkin. Bu an’anaviy «bir xil dastur — barcha o‘quvchilar» modelidan «o‘quvchi ehtiyojiga mos dastur» modeliga o‘tish imkonini beradi.

UNESCOning ta’limda SI bo‘yicha tahlillarida ham personallashtirilgan ta’lim, adaptiv o‘qitish, raqamli resurslar va ta’lim ma’lumotlarini tahlil qilish SIning muhim imkoniyatlari sifatida ko‘rsatiladi.[3]

SHunday ekan, O‘zbekiston uchun asosiy masala «ta’limga SIni kiritish kerakmi?» emas, balki **«SIni qanday pedagogik maqsadlar asosida, qanday ma’lumotlar bilan va qanday inson nazorati ostida joriy etish kerak?»** degan savolga javob topishdir.

2. O‘zbekistonda sun’iy intellektni ta’limga joriy etishning institutsional asoslari

O‘zbekistonda SIni rivojlantirishning huquqiy-strategik bazasi shakllanib bormoqda. 2024 yilda qabul qilingan PQ–358-son qaror bilan 2030 yilgacha SI texnologiyalarini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari belgilandi. Jumladan, SI asosida yaratilgan dasturiy mahsulotlar va xizmatlar hajmini 1,5 mlrd AQSH dollariga etkazish, Government AI Readiness Index bo‘yicha mamlakatni birinchi 50 davlat qatoriga olib chiqish, ilmiy laboratoriyalar va hisoblash infratuzilmasini rivojlantirish vazifalari belgilangan.[2]

Strategiyaning o‘zida ta’lim ham SI rivojlanishi uchun kadrlar, ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy qo‘llanish sohalaridan biri sifatida qaraladi. UNESCO IITEning 2025 yilgi O‘zbekiston bo‘yicha hisobotida mamlakatda SIni rivojlantirish «Digital Uzbekistan — 2030», 2021 yilgi

PQ–4996 va PQ–5234 qarorlari hamda 2030 yilgacha SI strategiyasi bilan bog‘liq holda shakllanayotgani qayd etilgan.[4]

Bundan tashqari, O‘zbekistonning «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi inson salohiyatini rivojlantirish va ta’lim sifatini oshirishni uzoq muddatli taraqqiyotning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilaydi.[5] 2024 yil iyun oyida Toshkent shahrida UNESCO IITE ishtirokida Markaziy Osiyoda oliy ta’limni generativ sun’iy intellekt asosida transformatsiya qilishga bag‘ishlangan yuqori darajadagi mintaqaviy siyosiy muloqot o‘tkazilgani ham O‘zbekistonda mazkur masala ilmiy va institutsional darajaga ko‘tarilayotganini ko‘rsatadi.[6]

3. Ta’lim sohasida sun’iy intellektdan foydalanishdagi asosiy muammolar

3.1. O‘qituvchilarning SI kompetensiyalari etarli darajada shakllanmagan

Texnologik infratuzilmaning mavjudligi o‘z-o‘zidan intellektual ta’limni ta’minlamaydi. Asosiy omil — texnologiyadan pedagogik maqsadda foydalana oladigan o‘qituvchidir.

UNESCO 2024 yilda o‘qituvchilar uchun SI kompetensiyalarining maxsus modelini ishlab chiqdi. Unda 15 ta kompetensiya besh yo‘nalish — insonga yo‘naltirilgan tafakkur, SI etikasi, SI asoslari va qo‘llanishlari, SI pedagogikasi hamda kasbiy rivojlanish uchun SI — bo‘yicha tizimlashtirilgan.[7]

Bu yondashuv O‘zbekiston uchun ham muhim. CHunki o‘qituvchi faqat ChatGPT yoki boshqa generativ vositadan foydalanishni emas, balki:

- SI bergan natijaning ishonchliligini tekshirish;

- manbalarni verifikatsiya qilish;
- o‘quvchi ma’lumotlarini himoya qilish;
- akademik halollikni ta’minlash;
- SIdan foydalanish chegaralarini belgilash;
- SIni dars metodikasiga integratsiya qilish

kabi kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerak.

3.2. Raqamli tafovut muammosi

Texnologiyalarga kirish imkoniyati shahar va qishloq hududlari, turli ijtimoiy qatlamlar va ta’lim muassasalari kesimida bir xil emas. UNESCO–UNICEF hamkorligida O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan «Empowering Education in Uzbekistan: Leveraging ICT and Digital Learning for High-Quality and Inclusive Education Results» loyihasining asosiy maqsadlaridan biri raqamli tafovutni qisqartirish va ta’lim sifatini oshirishdan iborat.[8SHuning uchun SIga asoslangan ta’lim siyosati faqat zamonaviy kompyuterlar bilan jihozlangan elita maktablar uchun emas, balki chekka hududdagi umumta’lim maktabi, kasb-hunar muassasasi va oliy ta’lim muassasasi uchun ham amaliy imkoniyat yaratishi lozim.

3.3. Akademik halollik va «tayyor javob» muammosi

Generativ SI talabaga insho, referat, dastur kodi, matematik echim yoki tahliliy matn tayyorlab berishi mumkin. Bu esa ta’limda «bilimni o‘zlashtirish» bilan «tayyor natijani olish» o‘rtasidagi chegarani o‘zgartiradi.

SHu sababli SI davrida baholashning asosiy ob’ekti tayyor mahsulot emas, balki **fikrlash jarayoni, manba bilan ishlash, dalillash, amaliy qo‘llash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati** bo‘lishi kerak.

UNESCOning generativ SI bo‘yicha qo‘llanmasida ham ta’limda GenAIdan foydalanishda insonga yo‘naltirilgan yondashuv, ma’lumotlar maxfiyligi, xavfsizlik va pedagogik maqsadga muvofiqlikni ta’minlash zarurligi qayd etilgan.[9]

3.4. O‘zbek tilidagi intellektual resurslar tanqisligi

O‘zbekiston uchun alohida strategik muammo — o‘zbek tilidagi yuqori sifatli ta’limiy ma’lumotlar, terminologik bazalar, korpuslar va sohaviy raqamli kontentning etarli emasligidir.

Agar milliy ta’lim tizimi faqat xorijiy tillarda yaratilgan umumiy modellarga tayansa, milliy o‘quv dasturlari, pedagogik terminologiya, madaniy kontekst va O‘zbekiston ta’lim standartlariga moslik masalasi yuzaga keladi.

Shu sababli milliy ta’limiy til modelini yaratish strategik vazifa sifatida qaralishi lozim.

4. Muammolarni hal etishning ustuvor yo‘nalishlari

Birinchi yo‘nalish — «AI-Teacher» milliy kompetensiya modelini joriy etish

O‘zbekistonda pedagoglarning raqamli kompetensiyalariga SI bilan ishlash ko‘nikmalarini tizimli ravishda kiritish maqsadga muvofiq.

Taklif etilayotgan model uch bosqichdan iborat:

1-bosqich — Foydalanuvchi.

O‘qituvchi SIning imkoniyatlari, cheklovlari va xavflarini biladi.

2-bosqich — Integrator.

O‘qituvchi SIni dars rejasi, test, individual topshiriq va ta’lim analitikasiga moslashtiradi.

3-bosqich — Yaratuvchi.

O‘qituvchi SI asosida yangi pedagogik ssenariylar, ta’limiy mahsulotlar va tadqiqot metodlarini ishlab chiqadi. Bu UNESCOning «Acquire — Deepen — Create» progressiyasiga yaqinlashtirilgan milliy model sifatida ishlab chiqilishi mumkin.[7]

Ikkinchi yo‘nalish — milliy ta’limiy sun’iy intellekt modelini yaratish

O‘zbekiston ta’lim standartlari, darsliklar, ilmiy-metodik materiallar, milliy terminologiya va ochiq ta’lim resurslari asosida maxsus ta’limiy til modeli yaratish mumkin.

Bunday model:

- o‘zbek tilida muloqot qiladi;
- milliy o‘quv dasturlarini hisobga oladi;
- o‘quvchi yoshiga mos javob beradi;
- manbani ko‘rsatadi;
- noto‘g‘ri yoki tekshirilmagan ma’lumotni aniqlashga harakat qiladi;
- o‘qituvchiga dars ssenariylari tayyorlashda yordam beradi.

Buning uchun universitetlar, ilmiy institutlar, ta’lim vazirliklari va IT kompaniyalar o‘rtasida ochiq hamkorlik platformasini tashkil etish zarur.

Uchinchi yo‘nalish — ta’lim analitikasi milliy platformasi

O‘quvchi davomati, o‘zlashtirishi, test natijalari, fanlar kesimidagi qiyinchiliklar va ta’lim traektoriyasiga oid ma’lumotlarni integratsiya qiluvchi «Aqlli ta’lim analitikasi» platformasini yaratish mumkin.

Platforma uch darajada ishlashi lozim:

maktab darajasi: o‘quvchilarning o‘zlashtirish dinamikasini ko‘rsatish;

hudud darajasi: ta’lim sifatining hududiy farqlarini aniqlash;

milliy daraja: ta’lim siyosati uchun prognoz va qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash.

UNESCO IIEP ta’lim boshqaruvida SI katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, prognozlash va muammoli sohalarni aniqlashda qo‘llanishi mumkinligini ta’kidlaydi.[10] Bunda muhim prinsip: **SI qaror qabul qilmasligi, qaror qabul qiluvchi shaxsga dalil va tavsiya taqdim etishi kerak.**

5. Istiqbolli innovatsion loyihalar

5.1. «AI-Ustoz» loyihasi

«AI-Ustoz» o‘qituvchining raqamli assistenti sifatida ishlaydigan milliy platforma bo‘lishi mumkin.

Uning funksiyalari:

1. dars rejasini tayyorlash;
2. turli murakkablik darajasida topshiriqlar yaratish;
3. test savollarini shakllantirish;
4. o‘quvchilar xatolarini tahlil qilish;
5. individual topshiriqlar taklif qilish;
6. dars materiallarini multimedia formatiga moslashtirish;
7. pedagogning kasbiy rivojlanish traektoriyasini tavsiya qilish.

Bu loyihada SI o‘qituvchini almashtirmaydi. Aksincha, o‘qituvchining vaqtini takroriy ishlardan bo‘shatib, uning asosiy

e’tiborini tarbiya, muloqot, ijodkorlik va individual yondashuvga yo‘naltiradi.

5.2. «Milliy AI-laboratoriyalar tarmog‘i»

Oliy ta’lim muassasalari bazasida hududiy SI laboratoriyalarini tashkil etish mumkin. Ular maktablar bilan hamkorlikda amaliy tadqiqotlar olib boradi.

Laboratoriyalarning ustuvor mavzulari:

- o‘zbek tili NLP;
- ta’lim analitikasi;
- kompyuter ko‘rishi;
- intellektual baholash;
- robototexnika;
- inklyuziv ta’lim texnologiyalari;
- adaptiv ta’lim;
- ta’limda kiberxavfsizlik.

O‘zbekistonning SI strategiyasi ilmiy laboratoriyalar va yuqori unumli hisoblash infratuzilmasini rivojlantirishni nazarda tutadi.[2] **5.3. «AI School» — maktablarda sun’iy intellekt ta’limi**

O‘zbekistonda SI bo‘yicha maxsus maktab modeli joriy etish tashabbusi xalqaro darajada ham ilgari surilgan. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2025 yilda UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasida UNESCO bilan hamkorlikda «School of Artificial Intelligence» modelini O‘zbekistonda amalga oshirishga tayyorlik bildirgan.[11] Ushbu tashabbusni faqat SI dasturlashini o‘rgatish bilan cheklamasdan, quyidagi modullar asosida qurish maqsadga muvofiq:

- AI savodxonlik;

- algoritmik fikrlash;
- ma’lumotlar savodxonligi;
- robototexnika;
- generativ SIdan mas’uliyatli foydalanish;
- kiberxavfsizlik;
- AI etikasi;
- loyihaviy tadqiqot.

5.4. «Raqamli inklyuziya AI» loyihasi

SI imkoniyatlaridan nogironligi bo‘lgan bolalar, maxsus ta’lim ehtiyojlari mavjud o‘quvchilar va til o‘rganishda qiyinchilikka duch keluvchi bolalar uchun foydalanish mumkin.

Masalan:

- nutqni matnga aylantirish;
- matnni ovozli o‘qish;
- vizual materiallarni tavsiflash;
- individual mashqlarni moslashtirish;
- imo-ishora tilini raqamli vositalar orqali qo‘llab-quvvatlash.

Bu yondashuv SIni faqat samaradorlik vositasi emas, balki **ta’limda teng imkoniyatlarni ta’minlash instrumenti**ga aylantiradi.

6. Sun’iy intellektdan foydalanishning etik modeli

Ta’limda SIni joriy etishda texnologik samaradorlik bilan bir qatorda inson huquqlari va pedagogik qadriyatlar birinchi o‘rinda turishi kerak.

Taklif etilayotgan «5E» modeli quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Equity — tenglik. SIdan foydalanish imkoniyati barcha o‘quvchilar uchun ta’minlanishi kerak. **2. Ethics — etika.** Algoritmlar

qarorlari inson huquqlari va ta’lim etikasiga mos bo‘lishi lozim. **3. Evidence — dalilga asoslanganlik.** SI tavsiyalari ishonchli manbalar bilan tekshirilishi zarur. **4. Empowerment — inson salohiyatini kuchaytirish.** Texnologiya o‘qituvchi va o‘quvchining mustaqilligini susaytirmasligi kerak. **5. Explainability — tushuntirish mumkinligi.** Muhim ta’limiy qarorlarda algoritm qanday xulosaga kelganini tushuntirish imkoniyati bo‘lishi lozim. UNESCOning generativ SI bo‘yicha tavsiyalarida ham insonga yo‘naltirilgan, xavfsiz, adolatli va mazmunli foydalanish, ma’lumotlar maxfiyligini himoya qilish va institutsional nazorat zarurligi ta’kidlangan.[9] **7. Ta’limda SIni joriy etishning taklif etilayotgan bosqichlari.**

O‘zbekiston uchun quyidagi uch bosqichli modelni taklif qilish mumkin.

I bosqich — 2026–2027 yillar: tayyorgarlik.

- pedagoglarning AI-kompetensiyalarini baholash;
- milliy AI-ta’lim standartlarini ishlab chiqish;
- ta’lim ma’lumotlarini tartibga solish;
- pilot maktablar va universitetlarni tanlash;
- milliy ta’limiy ma’lumotlar korpusini yaratish.

II bosqich — 2027–2028 yillar: pilot joriy etish.

- «AI-Ustoz» platformasini sinovdan o‘tkazish;
- AI School modelini kengaytirish;
- 15 tagacha oliy ta’lim muassasasida SI laboratoriyalari tarmog‘ini rivojlantirish;
- ta’lim analitikasi platformasini pilot qilish;
- o‘zbek tilidagi ta’limiy AI modelini sinovdan o‘tkazish.

III bosqich — 2029–2030 yillar: masshtablashtirish.

- samaradorligi isbotlangan echimlarni respublika miqyosida joriy etish;
- ta’lim sifatini SI asosida monitoring qilish;
- milliy ta’limiy AI ekotizimini shakllantirish;
- xususiy sektor va universitetlar bilan davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish.

YAngi O‘zbekistonda ta’limni raqamlashtirishning keyingi bosqichi elektron resurslar miqdorini oshirish emas, balki **ma’lumotlar, sun’iy intellekt va inson salohiyati o‘zaro uyg‘unlashgan intellektual ta’lim ekotizimini shakllantirish** bilan belgilanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda bunday transformatsiya uchun muhim institutsional asoslar shakllangan: «O‘zbekiston — 2030» strategiyasida inson kapitali va ta’lim ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan, 2030 yilgacha SIni rivojlantirish strategiyasi qabul qilingan, ta’lim va SI bo‘yicha xalqaro hamkorlik kengaymoqda.[2; 5; 6]

Biroq texnologiyani joriy etishning o‘zi ta’lim sifatini avtomatik ravishda oshirmaydi. Buning uchun uchta shart hal qiluvchi ahamiyatga ega: birinchidan — malakali pedagog; ikkinchidan — sifatli va xavfsiz ma’lumot; uchinchidan — aniq pedagogik va etik me’yorlar.

Shu asosda maqolada taklif etilgan «AI-Ustoz», «Aqlli ta’lim analitikasi», «Milliy ta’limiy til modeli», «AI School», «Milliy AI-laboratoriyalar tarmog‘i» va «Raqamli inklyuziya AI» kabi loyihalarni o‘zaro bog‘langan yagona ekotizim sifatida amalga oshirish mumkin.

Eng muhim xulosa shundan iboratki, ta’limda sun’iy intellektning maqsadi insonni texnologiyaga moslashtirish emas, texnologiyani

insonning intellektual, ijodiy va ma’naviy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qildirishdir. SHu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda SIni ta’limga joriy etishning eng maqbul modeli «AI o‘qituvchining o‘rnini bosadi» emas, balki «AI o‘qituvchining imkoniyatlarini kengaytiradi» tamoyiliga asoslanishi lozim.

Bu yondashuv Yangi O‘zbekistonning inson kapitaliga asoslangan taraqqiyot modeli, raqamli iqtisodiyot va zamonaviy bilimlar jamiyatini barpo etish maqsadlari bilan hamohangdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNESCO. *Artificial intelligence in education.* UNESCO Digital Education. Parij: UNESCO.

2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Sun’iy intellektni qo‘llash orqali yuzaga keladigan munosabatlar tartibga solinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida” O‘RQ-1115-son 2026 yil 21 yanvar// Lex.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 14 oktyabrdagi. *«Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida».* PQ–358-son qaror // Lex.uz

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyevning UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi ochilishidagi nutqi. 2025. // president.uz

5. UNESCO IITE. AI in Education: Change at the Speed of Learning. UNESCO Institute for Information Technologies in Education. 2020/2021.

6. UNESCO IITE. ICT Skills Development in the Republic of Uzbekistan: Insight Report with Recommendations. 2025.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni «Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida 05.10.2020 yildagi PF-6079-son//Lex.uz.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “Mamlakat taraqqiyotining 2030 yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-21-son 2026 yil 16 fevraldagi // Lex.uz.

QUROLLI KUCHLARNING STRATEGIK SALOHIYATINI YUKSALTIRISH VA MAMLAKAT MUDOFAA QOBILIYATINI MUSTAHKAMLASHNING MILLIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHDAGI AHAMIYATI

Egamov Elnur Eson o‘g‘li
Milliy iftihor va harbiy vatanparvarlik kafedrasi, gumanitar fanlar sikli boshlig‘i

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining qudrati, mamlakat mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yuksaltirishning davlat mustaqilligi, suverenitet va hududiy yaxlitlikni ta’minlashdagi o‘rni ilmiy-siyosiy va huquqiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Qurolli Kuchlar, mustaqillik, suverenitet, mudofaa qobiliyati, harbiy salohiyat, milliy xavfsizlik, jangovar shaylik, harbiy ta’lim, mudofaa sanoati, kiberxavfsizlik, vatanparvarlik, armiya va xalq birligi.

XXI asrning ikkinchi choragida xalqaro xavfsizlik muhiti tobora murakkab va ko‘p o‘lchovli tus olmoqda. Dunyoning turli nuqtalaridagi qurolli ziddiyatlar, geosiyosiy raqobat, yuqori texnologiyalarga asoslangan harbiy tizimlarning tez rivojlanishi, kiber va axborot makonidagi tahdidlar, logistika va strategik resurslar uchun raqobat davlat mudofaa siyosatiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Bunday sharoitda davlat mustaqilligini mustahkamlash faqat diplomatik va iqtisodiy vositalar bilan cheklanmaydi; mamlakat o‘z suveren qarorlarini himoya qilishga qodir, zamon talablariga mos, professional va barqaror mudofaa tizimiga ham ega bo‘lishi zarur. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ushbu masalaning huquqiy mohiyati aniq belgilangan. Xususan, 152-modda Qurolli Kuchlar davlat suvereniteti, hududiy yaxlitlik, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuzilishini belgilasa, 153-moddada “O‘zbekiston Respublikasi o‘z xavfsizligini ta’minlash uchun yetarli darajada Qurolli Kuchlariga ega” degan norma mustahkamlangan [1,33-b.].

Mustaqillik va mudofaa qobiliyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni, avvalo, suverenitetning amaliy mazmuni orqali anglash lozim. Suveren davlat o‘z ichki va tashqi siyosati bo‘yicha qarorlarni mustaqil qabul qiladi, hududiy yaxlitligini himoya qiladi va fuqarolar xavfsizligini ta’minlaydi. Biroq bunday vakolatlarning barqaror amal qilishi davlatning siyosiy irodasi bilan bir qatorda, turli tahdidlarni barvaqt aniqlash, ularni tiyib turish va zarur hollarda qonuniy mudofaa choralarini amalga oshirish imkoniyatiga ham bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, harbiy qudrat urushga intilish vositasi emas, balki tinchlikni saqlash, ehtimoliy tajovuzni tiyib

turish va suveren taraqqiyot uchun barqaror muhit yaratishning muhim institutsional omilidir.

O‘zbekistonning amaldagi Mudofaa doktrinasi mudofaa xususiyatiga ega bo‘lib, harbiy xavfsizlikni ta’minlashda milliy manfaatlar ustuvorligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, harbiy tashkilotni davlatning real ehtiyojlari va iqtisodiy imkoniyatlariga muvofiq rivojlantirish kabi yondashuvlarni belgilaydi [4]. Shu bilan birga, xavfsizlik muhiti tez o‘zgarayotgani sababli doktrinal qarashlarni muntazam yangilab borish zarurati paydo bo‘lmoqda. 2026 yil 13 yanvardagi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida yangi Mudofaa doktrinasi yuqori texnologiyalarga asoslangan strategiya, harbiy mustaqillik va mintaqaviy barqarorlik yo‘nalishlarini qamrab olishi lozimligi ta’kidlandi [6]. Bu holat mudofaa siyosatining statik emas, balki xavf va imkoniyatlar dinamikasiga moslashuvchan tizim ekanini ko‘rsatadi.

2026–2030 yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston 2030” strategiyasida mazkur yondashuv yanada aniq ifodalangan. Unda 97-maqsad sifatida jahondagi murakkab global jarayonlarni inobatga olgan holda “Qurolli Kuchlarning qudrati, mamlakatning mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yanada oshirish” vazifasi belgilangan [2,196-b.]. Maqsadning bunday ifodasi mudofaa salohiyatini milliy taraqqiyot strategiyasining alohida qismi emas, balki uning xavfsizlik kafolati sifatida ko‘rishni anglatadi. Iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy barqarorlik, investitsiya muhiti, transport va kommunikatsiyalar xavfsizligi ham tinchlik va hududiy daxlsizlik bilan bevosita bog‘liq. Shu jihatdan 2026 yilgi davlat dasturida kibertahdidlarni avtomatik aniqlash va oldini

olishga qaratilgan sun’iy intellekt asosidagi xavfsizlik tizimlarini joriy etish vazifasining belgilanishi ahamiyatlidir [2,196–197-b.]. Mazkur chora harbiy boshqaruvda raqamlashtirishni shunchaki texnik yangilanish emas, balki axborot ustunligi, qaror qabul qilish tezligi va strategik infratuzilmaning barqarorligi bilan bog‘liq xavfsizlik vazifasi sifatida qarash zarurligini ko‘rsatadi.

Milliy armiyaning jangovar salohiyatini oshirish, birinchi navbatda, mavjud kuch va vositalarni zamonaviy xavflar xususiyatiga muvofiq qayta tashkil etishni talab qiladi. Bunda texnik modernizatsiya, qo‘shinlarni boshqarish, ta’minot, razvedka-axborot, aloqa va tayyorgarlik tizimlarining o‘zaro uyg‘unligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Texnik jihozlanish mustaqil maqsad emas; u harbiy xizmatchining malakasi, boshqaruv madaniyati va bo‘linmalar o‘rtasidagi muvofiqlik bilan birlashgandagina real jangovar qobiliyatga aylanadi.

2026 yilgi davlat dasturida Mudofaa vazirligi bo‘linmalarini zamonaviy qurol-aslaha, harbiy va maxsus texnika, boshqa zarur jihozlar bilan ta’minlash, mavjud texnikani ta’mirlash va modernizatsiya qilish doirasida zamonaviy kompleks trenajyorlardan foydalanishni bosqichma-bosqich kengaytirish vazifasi belgilangan [2,197-b.]. Bu yondashuv harbiy tayyorgarlikda resurs tejamkorlik va takroriy mashqlar imkoniyatini kuchaytiradi. Ayni paytda trenajyor texnologiyalari real maydon tayyorgarligini almashtirmaydi; ular uni xavfsiz, maqsadli va tahliliy o‘qitish usullari bilan to‘ldiruvchi vosita bo‘lishi kerak.

Modernizatsiya jarayonida mahalliy mudofaa sanoatining o‘rni ham ortib boradi. Mudofaa sanoati mamlakatning texnologik bazasi,

muhandislik maktabi, ta’mirlash va servis imkoniyatlari, importga kritik bog‘liqlikni kamaytirish bilan bog‘liq. Amaldagi Mudofaa doktrinasida mudofaa sanoati kompleksini bosqichma-bosqich rivojlantirish mamlakat mudofaasining iqtisodiy, texnologik va harbiy-texnikaviy bazasining muhim asosi sifatida belgilangan [4]. Bu vazifa faqat harbiy buyurtmalar bilan cheklanmay, materialshunoslik, radioelektronika, axborot texnologiyalari, robototexnika, aviatsiya va mashinasozlik kabi sohalarda ilmiy-innovatsion zanjirlar rivojini ham rag‘batlantirishi mumkin.

2026 yil 14 yanvardagi Prezident tabrigida “ortga qaytmas islohotlarimizning mustahkam kafolatlaridan biriga aylanib borayotgan Qurolli Kuchlarimizning harbiy qudratini oshirish” ishlari alohida ta’kidlangan [3,1-b.]. Ushbu fikr harbiy islohotlarning umumdavlat modernizatsiyasi bilan uzviy bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Ya’ni kuchli armiya — faqat harbiy tizimning yutug‘i emas, balki davlat boshqaruvi, sanoat, fan, ta’lim va jamiyatning umumiy institutsional salohiyati natijasidir.

Zamonaviy harbiy salohiyatning markazida inson turibdi. Eng ilg‘or texnika ham uni boshqaradigan, vaziyatni baholaydigan, mas’uliyatli qaror qabul qiladigan va yuqori bosim sharoitida vazifani bajara oladigan tayyorlangan mutaxassissiz o‘z imkoniyatini to‘liq namoyon eta olmaydi. Shu sababli ofitser, serjant va mutaxassislarni tayyorlash tizimi harbiy modernizatsiyaning hal qiluvchi bo‘g‘ini hisoblanadi. Harbiy ta’lim nazariya va amaliyot, komandirlik kompetensiyasi, texnologik savodxonlik, huquqiy madaniyat, xorijiy tillar, jismoniy va psixologik barqarorlikni bir butun dasturga birlashtirishi lozim.

So‘nggi islohotlarda harbiy ta’lim tizimini qayta tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. 2026 yilgi rasmiy materiallarda malakali professor-o‘qituvchi va instruktorlar salohiyatini birlashtiruvchi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti tashkil etilgani qayd etilgan [3,1-b.]. Bu jarayon harbiy ta’limni faqat ixtisosiy tayyorgarlik markazi emas, balki harbiy fan, doktrinal tadqiqot, xavfsizlik tahlili va zamonaviy texnologiyalarni o‘rganish platformasi sifatida rivojlantirish imkonini beradi.

Jangovar ruh esa texnika va bilimni harakatga keltiradigan ma’naviy-psixologik omildir. U harbiy xizmatchining Vatanga sadoqati, vazifaning ma’nosiga ishonchi, jamoaga ishonch, komandirning adolatliligi va shaxsiy namunasi, intizom hamda murakkab sharoitlarda o‘ziga ishonch bilan bog‘liq. 2026 yilgi Prezident tabrigida shaxsiy tarkibning kasbiy, intellektual va ma’naviy salohiyatini oshirish, harbiy xizmatchilar qalbida vatanparvarlik tuyg‘usini kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan [3,1-b.]. Ilmiy jihatdan bunday yondashuv “jangovar tayyorgarlik”ni faqat jismoniy va texnik ko‘nikmalar emas, balki ma’naviy-ruhiy barqarorlik bilan birgalikda baholashni talab qiladi.

Harbiy xizmatchining ijtimoiy himoyasi ham jangovar salohiyatga bevosita ta’sir qiladi. Uy-joy, tibbiy xizmat, oila a’zolarini qo‘llab-quvvatlash, munosib maosh va pensiya, kasbiy o‘sishning aniq mezonlari xizmatga ishonch va uzoq muddatli motivatsiyani kuchaytiradi. Professional armiyada ijtimoiy kafolatlar rag‘batlantiruvchi imtiyoz emas, balki kadrlar barqarorligi va institutsional sadoqatni ta’minlovchi xavfsizlik mexanizmi sifatida

ko‘rilishi lozim. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi mudofaa qobiliyati tushunchasini tubdan kengaytirdi. Bugun axborot tizimlari, aloqa kanallari, ma’lumotlar bazasi, navigatsiya va logistika platformalarining barqarorligi harbiy xavfsizlikning ajralmas qismiga aylangan. Shu bois raqamlashtirishni faqat ish jarayonini tezlashtiruvchi ma’muriy vosita sifatida emas, balki axborotning ishonchliligi, boshqaruv uzluksizligi va kibertahdidlarga chidamlilikni ta’minlaydigan strategik yo‘nalish sifatida ko‘rish zarur.

2026 yilgi davlat dasturining 97-maqsadi doirasida Mudofaa vazirligi kiberxavfsizlik tizimini takomillashtirish, axborot infratuzilmasiga nisbatan kibertahdidlarni avtomatik aniqlash va oldini olish imkoniyatiga ega sun’iy intellekt vositalarini bosqichma-bosqich joriy etish vazifalari nazarda tutilgan [2,196–197-b.]. Bu vazifalar kiberxavfsizlikni alohida texnik bo‘linmaning ishi emas, balki har bir boshqaruv darajasidagi xavfsizlik madaniyati sifatida shakllantirishni talab qiladi. Texnologiya bilan birga standartlar, kadrlar tayyorlash, ma’lumotlarni himoya qilish tartibi va insidentlarga javob berish tizimi ham takomillashishi kerak.

Mudofaa qobiliyatining yana bir jihati safarbarlik va zaxira tayyorgarligidir. Tinchlik davrida tayyorlangan zaxira davlatga favqulodda vaziyat va xavfsizlik inqirozlariga tez moslashish imkonini beradi. Yangilangan “O‘zbekiston 2030” strategiyasida rezervdagi harbiy xizmatga majburlarni harbiy yig‘inlarga jalb etish darajasini bosqichma-bosqich oshirish, harbiy-vatanparvarlik tadbirlariga yoshlarni keng jalb qilish va mudofaa sohasidagi ish jarayonlarini raqamlashtirish kabi o‘lchanadigan ko‘rsatkichlar belgilangan [5]. Bunday ko‘rsatkichlar

strategik vazifalarni konkret natija mezonlari bilan bog‘lashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, harbiy xavfsizlikni ta’minlashda xalqaro harbiy va harbiy-texnik hamkorlikdan oqilona foydalanish muhim. 2026 yilgi davlat dasturida mintaqada ishonch choralarini mustahkamlashga qaratilgan faol harbiy-siyosiy muloqotni davom ettirish vazifasi belgilangan [2,198-b.]. Bunday muloqot tajriba almashish, ta’lim, xavflarni noto‘g‘ri talqin qilish ehtimolini kamaytirish va o‘zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. O‘zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati nuqtai nazaridan harbiy hamkorlikning asosiy maqsadi raqobatni kuchaytirish emas, balki milliy mudofaa qobiliyatini mustahkamlagan holda mintaqaviy barqarorlikni saqlashdan iborat.

Qurolli Kuchlar davlat instituti bo‘lsa-da, uning barqarorligi jamiyatning armiyaga ishonchi, harbiy xizmat nufuzi va Vatan himoyasiga daxldorlik hissi bilan uzviy bog‘liq. Shu sababli “armiya va xalq birligi” g‘oyasi harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi doirasidan kengroq ma’no kasb etadi. U fuqarolarning xavfsizlik madaniyati, harbiy xizmatchilarga ijtimoiy hurmat, yoshlarning jismoniy va ma’naviy tayyorgarligi, oila va mahalla institutlarining tarbiyaviy ta’siri, davlat organlarining mudofaa masalalaridagi hamkorligini qamrab oladi.

2026 yilgi davlat dasturida “Vatan tayanchi” harakati a’zolari ishtirokidagi harbiy-sport musobaqalarini kengaytirish va yoshlarni harbiy-vatanparvarlik tadbirlariga jalb qilish kabi choralar belgilangan [2,198-b.]. Bunday loyihalarning qiymati ularni faqat sport yoki tantanali tadbir sifatida emas, balki intizom, jamoaviylik, mas’uliyat,

tarixiy xotira va fuqarolik burchini anglashni shakllantiruvchi tarbiyaviy muhit sifatida tashkil etishga bog‘liq. Yoshlarda Vatanga muhabbatni kuchaytirishda balandparvoz chaqiriqlardan ko‘ra, tarixiy bilim, shaxsiy namuna, harbiy kasb haqida xolis ma’lumot va amaliy faoliyat samaraliroqdir.

Mustaqillikni mustahkamlash nuqtai nazaridan Qurolli Kuchlar qudratini iqtisodiy rivojlanishdan ajratib bo‘lmaydi. Barqaror budjet, raqobatbardosh sanoat, injenerlik kadrlari, fan va texnologiyalar milliy mudofaa tizimining resurs bazasini yaratadi. Shu bilan birga, mudofaa xarajatlarining samaradorligi, xaridlar va modernizatsiyaning uzoq muddatli rejalashtirilishi, mahalliy ishlab chiqarish imkoniyatlari va ekspluatatsiya xarajatlarining hisobga olinishi davlat resurslaridan oqilona foydalanishga xizmat qiladi. Kuchli mudofaa iqtisodiyotni zaiflashtirish hisobiga emas, iqtisodiy salohiyat bilan uyg‘un rivojlanganda barqaror bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, Qurolli Kuchlarning qudrati, mamlakatning mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini oshirish O‘zbekiston mustaqilligi va suveren taraqqiyotining muhim kafolatlaridan biridir. Konstitutsiya Qurolli Kuchlarning davlat suvereniteti, hududiy yaxlitlik va aholi xavfsizligini himoya qilish vazifasini belgilaydi [1,33-b.]. Yangilangan strategik hujjatlar esa bu konstitutsiyaviy vazifani texnologiya, kadrlar, kiberxavfsizlik, modernizatsiya, yoshlar tarbiyasi va mintaqaviy ishonch choralari bilan bog‘langan aniq islohotlar tizimiga aylantirmoqda [2,196–198-b.].

Shu bois harbiy qudratni faqat qurol-yarog‘ miqdori bilan o‘lchash yetarli emas. Zamonaviy mudofaa salohiyati professional inson kapitali,

oqilona boshqaruv, jangovar ruh, texnik tayyorlik, milliy sanoat va ilm-fan, raqamli barqarorlik, ijtimoiy himoya va armiya-jamiyat birligining sinergiyasidir. Ana shu omillar birgalikda rivojlantirilganda Qurolli Kuchlar tinchlikni ishonchli himoya qiluvchi, davlat mustaqilligini mustahkamlovchi va milliy taraqqiyot uchun barqaror tashqi-ichki muhit yaratuvchi institut sifatida o‘z vazifasini to‘liq bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “O‘zbekiston Respublikasi o‘z xavfsizligini ta’minlash uchun yetarli darajada Qurolli Kuchlariga ega”. — O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 153-modda, 33-bet [1].

2. “Qurolli Kuchlarning qudrati, mamlakatning mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yanada oshirish”. — 2026 yilgi Davlat dasturi, 97-maqsad, 196-bet [2].

3. “Qurolli Kuchlarimizning harbiy qudratini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarni amalga oshiryapmiz”. — O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 14 yanvardagi bayram tabrigi, “Yangi O‘zbekiston” gazetasidagi rasmiy nashr, 1-bet [3].

4. 97-maqsad doirasida kiberxavfsizlik tizimlarini joriy etish, harbiy-texnika tayyorgarligi markazlarini jihozlash va qo‘shinlarni zamonaviy trenajyorlar bilan bosqichma-bosqich ta’minlash choralari belgilangan. — 2026 yilgi Davlat dasturi, 196–197-betlar [2].

5. “Vatan tayanchi” harakati ishtirokidagi harbiy-sport tadbirlari va mintaqada ishonch choralarini mustahkamlashga qaratilgan harbiy-siyosiy muloqot vazifalari. — 2026 yilgi Davlat dasturi, 198-bet [2].

6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. 2023 yil 30 aprel. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining rasmiy veb-portali.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 16 fevraldagi PF-22-son Farmoni: “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Davlat dasturi.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi. 2026 yil 14 yanvar. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2026 yil 14 yanvar, 8-son.

9. O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 9 yanvardagi O‘RQ-458-son “O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi — LexUZ.

10. “O‘zbekiston 2030” strategiyasi. 2026–2030 yillarga mo‘ljallangan yangilangan tahrir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 16 fevraldagi PF-21-son Farmoni.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Mamlakatimiz harbiy xavfsizligi va mudofaasini mustahkamlash masalalari muhokama qilindi”. 2026 yil 13 yanvar. Prezidentning rasmiy veb-sayti.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Havo hujumidan mudofaa va harbiy aviatsiya tizimini transformatsiya qilish choralari ko‘rib chiqildi”. 2026 yil 8 iyun. Prezidentning rasmiy veb-sayti.

13. O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi — LexUZ.

TINCHLIK VA XAVFSIZLIKKA TAHDIDLAR KUCHAYGAN SHAROITDA MUSTAQILLIK, MILLIY O‘ZLIK VA DAVLATCHILIK

Nurov Eson Igamovich
Milliy iftihor va harbiy va vatanparvarlik kafedrasi, huquqiy fanlar sikli dotsenti

Annotatsiya: Maqolada jahonda xalqaro xavfsizlik muhiti murakkablashayotgan, qurolli ziddiyatlar, geosiyosiy raqobat, harbiy xarajatlar va majburiy ko‘chishlar yuqori darajada saqlanayotgan sharoitda mustaqillikning milliy o‘zlik va davlatchilikni asrashdagi o‘rni ilmiy-siyosiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Mustaqillik faqat davlatning tashqi siyosiy maqomi emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, tili, madaniy merosi, konstitutsiyaviy tuzumi, iqtisodiy va axborot makoni ustidan mas’ul qaror qabul qilish qobiliyatini ta’minlaydigan kompleks institut sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: mustaqillik, suverenitet, milliy o‘zlik, davlatchilik, tinchlik inqirozi, milliy xavfsizlik, konstitutsiyaviy tuzum, madaniy meros, strategik avtonomiya, axborot xavfsizligi.

XXI asrning ikkinchi choragiga kelib xalqaro munosabatlarda barqarorlikni ta’minlab turgan bir qator mexanizmlar jiddiy sinovga duch kelmoqda. Yirik davlatlar o‘rtasidagi strategik raqobat, mintaqaviy urushlar, qurollanish sur’atining o‘sishi, sanksiyalar va texnologik cheklovlar, kibertahdidlar, axborot-psixologik ta’sir hamda majburiy migratsiya jarayonlari tinchlik tushunchasini faqat urushning yo‘qligi sifatida emas, balki davlat va jamiyatning kompleks barqarorligi sifatida anglash zaruratini kuchaytirdi. “SIPRI” ma’lumotiga ko‘ra, 2025 yilda

jahon harbiy xarajatlari 2,887 trillion AQSh dollariga yetgan va bu ketma-ket o‘n birinchi yillik o‘sishni anglatadi [3,1-b.]. “UNHCR” ma’lumotlari esa 2025 yil oxirida majburiy ko‘chirilganlar soni hali ham juda yuqori darajada qolganini ko‘rsatadi [5,1-b.]. Ushbu raqamlar zamonaviy tinchlik inqirozining iqtisodiy va gumanitar ko‘lamini ifodalaydi.

Bunday sharoitda mustaqillikning mazmuni yanada kengayadi. Davlat o‘z hududi va chegaralarini himoya qilish bilan birga, iqtisodiy tanlovlar, milliy qonunchilik, ta’lim va madaniyat siyosati, axborot makoni, raqamli infratuzilma hamda tashqi sherikliklar bo‘yicha mustaqil va mas’ul qaror qabul qila olishi kerak. Shu ma’noda suverenitet siyosiy-huquqiy maqomdan tashqari, jamiyatning ichki birdamligi va milliy o‘zlikni saqlash qobiliyati bilan ham belgilanadi.

Xalqaro tizimdagi tinchlik inqirozi bir vaqtning o‘zida bir necha darajada namoyon bo‘lmoqda. *Birinchidan,* harbiy kuchdan foydalanish va kuch bilan tahdid qilish xavfi oshib bormoqda. *Ikkinchidan,* iqtisodiy bog‘liqlik ayrim holatlarda siyosiy bosim vositasiga aylanmoqda. *Uchinchidan,* raqamli platformalar va transmilliy axborot oqimlari jamoatchilik ongiga ta’sir qilish imkoniyatlarini keskin kengaytirdi. *To‘rtinchidan,* urush va zo‘ravonlikning gumanitar oqibatlari aholining ko‘chishi, infratuzilmaning vayron bo‘lishi, ta’lim va madaniyat tizimlarining izdan chiqishi davlatchilikning ijtimoiy asoslarini zaiflashtiradi.

BMT Ustavi xalqaro tizimning huquqiy poydevori sifatida davlatlarning suveren tengligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish va hududiy yaxlitlik yoki siyosiy mustaqillikka qarshi kuch ishlatmaslik

prinsiplarini belgilaydi [2,3-b.]. Bu prinsiplar zamonaviy dunyoda mustaqil davlat mavjudligining xalqaro-huquqiy kafolatini ifoda etadi. Biroq yuridik kafolatning o‘zi yetarli emas. Suverenitetning real mazmuni davlat institutlarining samaradorligi, iqtisodiyotning tashqi shoklarga chidamliligi, aholining fuqarolik birdamligi va milliy manfaatlarni aniq anglash qobiliyati bilan mustahkamlanadi.

Shu sababli hozirgi sharoitda “mustaqillik” va “o‘zaro bog‘liqlik” tushunchalarini bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish to‘g‘ri emas. Zamonaviy davlat xalqaro savdo, texnologiya, fan, transport va xavfsizlik sohalarida hamkorlik qiladi. Lekin hamkorlikning maqbul modeli milliy manfaatlarning ustuvorligi, qaror qabul qilish erkinligi va bir tomonlama qaramliklarni kamaytirish tamoyiliga asoslanishi lozim. Bunday yondashuvni shartli ravishda “mas’ul strategik mustaqillik” deb ifodalash mumkin. Davlatchilik muayyan hudud, aholi, ommaviy hokimiyat, huquqiy tartib va xalqaro sub’ektlikning barqaror birligiga tayanadi. Mustaqillik ushbu elementlarning tashqi irodaga bo‘ysunmasdan faoliyat yuritishini ta’minlaydi. Shuning uchun suverenitetning zaiflashishi, avvalo, davlatning qonun chiqarish, ichki va tashqi siyosatni belgilash, resurslarni boshqarish va xavfsizlikni ta’minlash qobiliyatiga ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat suvereniteti birinchi bo‘limning birinchi bobida mustahkamlangan. Konstitutsiyaning 1-moddasi O‘zbekistonni suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatida belgilaydi [1,1-b.]. 3-modda mamlakatning milliy-davlat va ma’muriy-hududiy tuzilishini, davlat hokimiyati organlari tizimini mustaqil belgilashi, ichki va tashqi

siyosatini amalga oshirishini nazarda tutadi [1,1-b.]. Bu normalar mustaqillikni davlatchilikning deklarativ belgisi emas, balki huquqiy va institutsional vakolatlar majmuasi sifatida ko‘rsatadi. Mustaqil davlatchilikning muhim sharti qonun ustuvorligi. Suverenitetni faqat tashqi tahdidlarga qarshi tura olish bilan o‘lchash bir tomonlama yondashuv bo‘lar edi. Davlatning ichki legitimligi fuqarolar huquqlarining kafolatlanishi, davlat organlarining hisobdorligi, sud-huquq tizimining ishonchliligi va qonunning barcha uchun bir xil amal qilishi bilan ta’minlanadi. Demak, huquqiy davlat institutlari qanchalik mustahkam bo‘lsa, tashqi bosim yoki ichki destabilizatsiyaga qarshi immunitet ham shunchalik yuqori bo‘ladi.

Milliy o‘zlik — inson va jamiyatning umumiy tarix, til, madaniy xotira, urf-odat, qadriyatlar, ramzlar va Vatanga daxldorlik hissi orqali o‘zini muayyan siyosiy-madaniy hamjamiyatga mansub deb anglashidir. Uning davlatchilik uchun ahamiyati shundaki, fuqarolar o‘rtasida umumiy taqdir va umumiy mas’uliyat tuyg‘usini shakllantiradi. Davlat institutlari huquqiy tartibni ta’minlasa, milliy o‘zlik jamiyatning ma’naviy birligini ta’minlaydi.

Milliy identiklikni yopiqlik yoki boshqa madaniyatlarni inkor etish bilan tenglashtirish ilmiy jihatdan xato. Barqaror milliy o‘zlik o‘z madaniyatiga ishonch va boshqalarga hurmatni birlashtira oladi. “UNESCO”ning “MONDIACULT” 2022 deklaratsiyasida madaniy xilma-xillik xalqlar identikligining asosi sifatida ta’kidlanadi va uni muhofaza qilish tinchlik, ijtimoiy birdamlik hamda barqaror rivojlanish bilan bog‘lanadi [6,3-b.]. Bu yondashuv ko‘p millatli jamiyatlarda umumfuqarolik birdamligi bilan etnomadaniy rang-baranglikni

uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Konstitutsiyasi davlat tilining o‘zbek tili ekanini belgilash bilan birga, mamlakat hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analarini hurmat qilish hamda ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratish majburiyatini ham mustahkamlaydi [1,1-b.]. Bu norma milliy o‘zlikning ikki muhim jihatini uyg‘unlashtiradi: davlatchilikning umumiy ramziy-madaniy asosi va jamiyat tarkibidagi madaniy xilma-xillikka hurmat.

Tinchlik inqirozi sharoitida milliy xotira va madaniy merosga tahdidlar ham xavfsizlik masalasiga aylanadi. Qurolli mojarolarda tarixiy yodgorliklar, muzeylar, arxivlar, ta’lim muassasalari va diniy-ma’naviy ob’ektlarning zarar ko‘rishi jamiyatning faqat moddiy emas, balki ramziy kapitaliga ham zarba beradi. Shu sababli milliy madaniy merosni muhofaza qilish milliy xavfsizlik siyosatining gumanitar yo‘nalishi sifatida qaralishi zarur.

Bugungi geosiyosiy raqobatda axborot makoni alohida maydonga aylandi. Manipulyativ kontent, soxta axborot, tarixiy voqealarni bir tomonlama talqin qilish, jamiyatda ishonchsizlik va qarama-qarshilikni kuchaytirishga qaratilgan narrativlar davlatning ichki barqarorligiga bevosita ta’sir qiladi. Milliy o‘zlik yetarlicha shakllanmagan, tarixiy bilim parchalangan va fuqarolik mas’uliyati zaif bo‘lgan muhitda bunday ta’sirning samarasi yuqori bo‘lishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, tarixni o‘rganish faqat o‘tmishni bilish vazifasi emas. Ilmiy asoslangan tarixiy xotira jamiyatga davlatchilikning uzviyligini anglash, mustaqillik qadrini his qilish va bugungi qarorlarni uzoq muddatli milliy manfaatlar bilan bog‘lash imkonini beradi. Biroq

tarixiy xotirani siyosiy miflar yoki tanqidiy fikrni cheklovchi vositaga aylantirish ham xavfli. Samarali model dalilga asoslangan tarixshunoslik, ochiq ilmiy bahs va milliy manfaatlarning konstitutsiyaviy qadriyatlar bilan uyg‘unligiga tayanadi.

Media va axborot savodxonligi shuning uchun suverenitetning yangi ijtimoiy kompetensiyasi sifatida ahamiyat kasb etmoqda. Fuqaro axborot manbasini tekshirish, emotsional manipulyatsiyani ajratish, fakt va talqin o‘rtasida farq qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lsa, jamiyatning axborot-psixologik ta’sirlarga chidamliligi oshadi. Bunday immunitet senzura yoki axborotdan izolyatsiya qilish orqali emas, balki sifatli ta’lim, ochiq ma’lumotlar, professional jurnalistika va jamoatchilik ishonchini mustahkamlash orqali shakllanadi.

Mustaqillik tashqi siyosatda ham qaror qabul qilish erkinligini talab etadi. O‘zbekiston Konstitutsiyasining 17-moddasi mamlakatni xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli sub’ekti sifatida belgilab, tashqi siyosatni davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, hududiy yaxlitlik, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish va ichki ishlarga aralashmaslik prinsiplariga bog‘laydi [1,3-b.]. Bu prinsiplar BMT Ustavidagi asosiy normalar bilan uyg‘un [2,3-b.].

Tinchliksevar tashqi siyosat passiv pozitsiya degani emas. Aksincha, u mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlash, savdo va transport bog‘liqligini diversifikatsiya qilish, suv-energetika muammolari bo‘yicha muloqotni rivojlantirish, terrorizm va transmilliy jinoyatchilikka qarshi hamkorlik qilish, xalqaro huquq normalarini himoya qilishni taqozo etadi. Milliy manfaatlar nuqtai nazaridan eng maqbul tashqi siyosat bir tomonga keskin bog‘lanib qolishdan

saqlanadigan, biroq barcha konstruktiv sheriklar bilan amaliy hamkorlikni ochiq saqlaydigan muvozanatli siyosatdir.

2026 yilda yangilangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish alohida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan [7]. Bu milliy taraqqiyot va tashqi xavfsizlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni institutsional darajada ifodalaydi. Chunki iqtisodiy modernizatsiya, investitsiya, ta’lim va infratuzilma loyihalarining uzoq muddatli samarasi, avvalo, tinch va prognoz qilinadigan muhitga bog‘liq.

Jahonda harbiy xarajatlarning muttasil o‘sishi davlatlarning xavfsizlikka nisbatan xavotiri kuchayganini ko‘rsatadi. “SIPRI” 2025 yilda jahon harbiy xarajatlari tarixiy eng yuqori darajaga yetganini qayd etadi [3,1-b.]. Biroq mudofaa qobiliyatini faqat qurol-yarog‘ va harbiy budjet bilan o‘lchash yetarli emas. Zamonaviy milliy xavfsizlik harbiy tayyorgarlik, iqtisodiy barqarorlik, energetik va oziq-ovqat xavfsizligi, kiberxavfsizlik, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik, ilmiy-texnologik salohiyat va aholining fuqarolik mas’uliyatini qamrab oladi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining 152-moddasi Qurolli Kuchlarning vazifasini davlat suvereniteti, hududiy yaxlitlik, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish bilan bog‘laydi [1,31-b.]. Ushbu norma mudofaa sohasining yakuniy maqsadi urush emas, tinch hayot va mustaqil taraqqiyot uchun ishonchli sharoit yaratish ekanini ko‘rsatadi. Shuning uchun harbiy-patriotik tarbiya ham faqat harbiy kasbga qiziqish uyg‘otish bilan cheklanmasdan, Konstitutsiyaga hurmat, tarixiy ong, qonunga itoat, fuqarolik burchi va jamoaviy mas’uliyatni shakllantirishi lozim.

Milliy barqarorlikning yana bir muhim omili davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonch. Axborot tanqisligi, adolatsizlik hissi, ijtimoiy imkoniyatlardagi katta tafovut yoki mahalliy muammolarning yechimsiz qolishi tashqi destruktiv ta’sirlar uchun qulay muhit yaratishi mumkin. Shu bois xavfsizlik siyosatining profilaktik qismini adolatli boshqaruv, samarali davlat xizmatlari, yoshlar bandligi, ta’lim sifati va mahalla darajasidagi ijtimoiy hamjihatlik tashkil etishi kerak.

Suverenitetning zamonaviy talqini iqtisodiy va texnologik qobiliyatlardan ajralmaydi. Strategik tovarlar, energiya, oziq-ovqat, transport yo‘laklari, raqamli infratuzilma va moliyaviy tizim bo‘yicha haddan tashqari tashqi qaramlik siyosiy qarorlar erkinligini qisqartirishi mumkin. Shuning uchun iqtisodiy ochiqlikni diversifikatsiya, ichki raqobatbardosh ishlab chiqarish va mustahkam institutsional muhit bilan birga olib borish lozim.

Texnologik suverenitet barcha texnologiyani mamlakat ichida ishlab chiqarish degani emas. U strategik sohalarda muhim kompetensiyalarga ega bo‘lish, kritik infratuzilmaning uzluksiz ishlashini ta’minlash, ma’lumotlar xavfsizligini himoya qilish va tashqi ta’minot uzilishi holatida muqobil yechimlarga ega bo‘lishni anglatadi. Bu vazifalar ta’lim, fan va innovatsiyaga uzoq muddatli investitsiyani talab qiladi. Milliy o‘zlikning zamonaviy mazmuni ham faqat tarixiy meros bilan emas, balki yangi bilim va texnologiya yaratish qobiliyati bilan boyishi kerak.

Shunday ekan, mustaqillikni saqlashning eng ishonchli usuli yopiq iqtisodiyot yoki tashqi aloqalarni cheklash emas. Aksincha, global bozorlarda raqobatlasha oladigan, turli sheriklar bilan ishlaydigan, tashqi

tavakkallarni oldindan baholaydigan va ichki innovatsion salohiyatga tayanadigan iqtisodiyot milliy davlatchilikka mustahkam moddiy poydevor yaratadi.

Jahonda tinchlikka tahdidlar ko‘payib, harbiy va siyosiy raqobat kuchaygan sharoitda mustaqillikning qadri yanada ravshan namoyon bo‘ladi. Mustaqillik davlatning xalqaro huquqiy maqomi bo‘lish bilan birga, xalqning o‘z kelajagini o‘zi belgilash, milliy madaniyati va tilini rivojlantirish, qonuniy siyosiy institutlarini shakllantirish, xavfsizligini ta’minlash va tashqi sherikliklarni milliy manfaatlar asosida tanlash imkoniyatidir.

Tahlil natijalari milliy o‘zlik va davlat suvereniteti o‘zaro bir-birini to‘ldirishini ko‘rsatadi. Milliy o‘zlik jamiyatga umumiy tarixiy xotira, Vatanga daxldorlik va fuqarolik mas’uliyatini beradi; davlatchilik esa ushbu qadriyatlarni huquqiy institutlar, ta’lim, madaniy siyosat, xavfsizlik va ijtimoiy taraqqiyot orqali himoya qiladi. Biroq milliy o‘zlikning barqaror modeli boshqa madaniyatlarga qarshi qo‘yishga emas, o‘z qadriyatlariga ishonch, konstitutsiyaviy vatanparvarlik va madaniy xilma-xillikka hurmatga asoslanishi zarur.

O‘zbekiston uchun mazkur masalaning ahamiyati Konstitutsiyada suveren davlatchilik, xalq hokimiyatchiligi, davlat tili, tinchliksevar tashqi siyosat va mudofaa vazifalarining yagona huquqiy tizimda mustahkamlanganida ko‘rinadi. Jahondagi beqarorlik sharoitida ushbu konstitutsiyaviy asoslarning hayotda samarali ishlashi, fuqarolarning huquqiy va axborot madaniyati, iqtisodiy raqobatbardoshlik hamda milliy birdamlik mustaqil taraqqiyotning asosiy kafolatlari bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat “Suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” sifatida belgilangan. Manba: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 1-modda, 1-bet [1].

2. Konstitutsiyada “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir” degan qoida mustahkamlangan. Manba: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 4-modda, 1-bet [1].

3. BMT Ustavida tashkilot “barcha a’zolarining suveren tengligi prinsipiga” asoslanishi belgilangan. Manba: BMT Ustavi, 2-modda, 3-bet [2].

4. O‘zbekiston Qurolli Kuchlari “davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini” himoya qilish uchun tuzilishi belgilangan. Manba: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 152-modda, 31-bet [1].

5. UNESCO MONDIACULT 2022 deklaratsiyasi madaniy xilma-xillikni xalqlar identikligining asosi sifatida qayd etadi. Manba: MONDIACULT 2022 Final Declaration, 3-bet [6].

6. SIPRI ma’lumotiga ko‘ra, 2025 yilda jahon harbiy xarajatlari 2,887 trillion AQSh dollariga yetgan. Manba: SIPRI Fact Sheet, “Trends in World Military Expenditure, 2025”, 1-bet [3].

7. UNHCR 2026 yil 11 iyundagi materialda 2025 yilda 5,4 million kishi zo‘ravonlik va ta’qib sabab boshqa davlatlarga qochganini qayd etgan. Manba: UNHCR Global Trends 2025 bo‘yicha press-reliz, 1-bet [5].

8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. 2023 yil 30 aprel referendumida qabul qilingan. Konstitutsiyaning rasmiy veb-portali.

9. Charter of the United Nations and Statute of the International Court of Justice. United Nations, San Francisco, 1945. Official PDF edition.

10. Liang, X., Tian, N., Lopes da Silva, D., Scarazzato, L., Karim, Z., Ricard, J. G. Trends in World Military Expenditure, 2025. SIPRI Fact Sheet. Stockholm International Peace Research Institute, April 2026.

11. SIPRI Yearbook 2026: Armaments, Disarmament and International Security. Stockholm International Peace Research Institute / Oxford University Press, 2026.

12. UNHCR. Global Trends 2025: Press release on global forced displacement and durable solutions. Geneva, 11 June 2026.

13. UNESCO. MONDIACULT 2022 Final Declaration. UNESCO World Conference on Cultural Policies and Sustainable Development, Mexico City, 28–30 September 2022.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 16 fevraldagi PF-21-son Farmoni. 2026–2030 yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

15. Anderson, B. Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism. Revised Edition. London: Verso, 2006.

16. Smith, A. D. National Identity. Reno: University of Nevada Press, 1991.

17. Gellner, E. Nations and Nationalism. Oxford: Blackwell,

YANGI O‘ZBEKISTONDA SUVEREN TARAQQIYOT STRATEGIYASINING SHAKLLANISHI VA UNING IJTIMOIY-SIYOSIY AHAMIYATI

Shokirboev Akmaljon Axmadjonovich
Milliy iftihor va harbiy vatanparvarlik kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Yangi O‘zbekistonning suveren taraqqiyot yo‘li siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va institutsional mezonlar asosida tahlil qilinadi. Davlat suvereniteti milliy manfaatlardan kelib chiqib mustaqil qaror qabul qilish, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, inson huquqlarini kafolatlash, samarali boshqaruv va teng huquqli tashqi siyosat yuritish qobiliyati sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, suverenitet, taraqqiyot strategiyasi, “O‘zbekiston — 2030”, inson qadri, huquqiy davlat, iqtisodiy barqarorlik, qonun ustuvorligi, milliy manfaat, xavfsizlik.

XXI asrda davlat suvereniteti faqat hududiy daxlsizlik va siyosiy mustaqillik bilan cheklanmaydi. Global iqtisodiy bog‘liqlik, texnologik raqobat, axborot makonining tez o‘zgarishi, iqlim muammolari va xavfsizlik tahdidlari davlatdan ichki rivojlanishning barqaror modelini yaratishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar suveren taraqqiyotning yangi bosqichini shakllantirmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 1-moddasida O‘zbekiston “suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” sifatida belgilangan [1,1-b.]. Bu norma suverenitetni demokratiya, qonun ustuvorligi, ijtimoiy mas’uliyat va inson qadri bilan bir butun tizimda

talqin qilish imkonini beradi. 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmon bilan tasdiqlangan Taraqqiyot strategiyasi inson qadrini ulug‘lash, adolat va qonun ustuvorligini ta’minlash, iqtisodiyotni rivojlantirish, xavfsizlik va faol tashqi siyosatni mustahkamlash vazifalarini tizimlashtirdi [2]. 2026 yil 16 fevraldagi PF-21-son Farmon esa 2023–2025 yillardagi natijalar va baholashlar asosida 2026–2030 yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini yangiladi [3].

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining *birinchi ustuni* — inson manfaati va inson kapitali. Konstitutsiyada inson huquq va erkinliklarining bevosita amal qilishi, davlat organlarining fuqaro oldidagi mas’uliyati, ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya kafolatlarining kuchaytirilishi suveren davlatning ijtimoiy asosini mustahkamlaydi. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining birinchi ustuvor yo‘nalishi ham har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlar yaratishga qaratilgan [3,I yo‘nalish; 7,3-b.]. Bilimli, sog‘lom va kasbiy jihatdan raqobatbardosh aholi texnologik va iqtisodiy mustaqillikning eng muhim resursi hisoblanadi.

Ikkinchi ustun — barqaror va diversifikatsiyalangan iqtisodiyot. Iqtisodiy suverenitet tashqi bozorlardan uzilishni emas, balki tashqi shoklarga chidamli, raqobatbardosh va innovatsion iqtisodiy tizimni anglatadi. Yangilangan strategiyada 2030 yilga qadar yalpi ichki mahsulot hajmini 240 milliard AQSh dollaridan oshirish, aholi jon boshiga YaIMni 5,8 ming dollardan yuqori darajaga yetkazish va davlat qarzining YaIMga nisbatini 50 foizdan oshirmaslik belgilangan [3]. Bu maqsadlar iqtisodiy o‘sish bilan makroiqtisodiy barqarorlik o‘rtasidagi muvozanatni talab qiladi.

Milliy statistika qo‘mitasining dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra, 2025 yilda O‘zbekiston YaIMi 7,7 foizga o‘sgan, sanoat ishlab chiqarishi 6,8 foizga, qurilish ishlari 14,2 foizga, bozor xizmatlari 14,7 foizga va eksport 24 foizga oshgan [4]. Xalqaro valyuta jamg‘armasi 2026 yilgi IV modda bo‘yicha maslahatlarida ham iqtisodiy o‘sishning mustahkamligi, inflyatsiyaning bosqichma-bosqich pasayishi hamda fiskal va tashqi pozitsiyalarning yaxshilanishini qayd etgan [5]. Biroq yuqori o‘sishni uzoq muddatli natijaga aylantirish uchun mehnat unumdorligi, xususiy sektor, raqobat va yuqori qo‘shilgan qiymatli ishlab chiqarishni kengaytirish zarur. Jahon bankining 2025 yilgi iqtisodiy memorandumida ham xususiy sektor yetakchiligidagi o‘sish va unumdorlikni oshirish keyingi bosqichning muhim sharti sifatida ko‘rsatiladi [6].

Uchinchi ustun — qonun ustuvorligi va samarali davlat boshqaruvi. Suveren davlatning barqarorligi davlat organlarining qonunga bo‘ysunishi, sud himoyasining ishonchliligi, qarorlar ochiqligi va mansabdor shaxslar hisobdorligi bilan o‘lchanadi. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish, mahallani davlat organlari va jamoatchilik o‘rtasidagi “tayanch ko‘prik”ka aylantirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish va inson huquqlarini himoya qilish vazifalari alohida ustuvor yo‘nalishga birlashtirilgan [3].

PF-21-son Farmonda strategiya indikatorlarini raqamli platforma orqali monitoring qilish, vazirlik va idoralar faoliyatini samaradorlik ko‘rsatkichlari bilan bog‘lash, Vazirlar Mahkamasi va Oliy Majlisga davriy hisobot berish mexanizmlari nazarda tutilgan [3]. Bu strategik

boshqaruvni natijaga yo‘naltirishga xizmat qiladi. Lekin bunday tizimning real samarasi ma’lumotlar sifatli bo‘lishi, mustaqil baholash, jamoatchilik nazorati va rahbarlarning haqiqiy hisobdorligiga bog‘liq.

To‘rtinchi ustun — ekologik va resurs barqarorligi. Markaziy Osiyo sharoitida suv tanqisligi, cho‘llanish va iqlim o‘zgarishi milliy taraqqiyotga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli suv va energiyadan samarali foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish ham ekologik, ham iqtisodiy xavfsizlik vazifasidir. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining uchinchi ustuvor yo‘nalishida suv ishlatish samaradorligini 25 foizga oshirish, irrigatsiya tizimlari samaradorligini yaxshilash va ichimlik suv iste’molchilarini hisoblagichlar bilan to‘liq qamrab olish kabi ko‘rsatkichlar belgilangan [3].

Beshinchi ustun — milliy xavfsizlik va tinchliksevar tashqi siyosat. Yangilangan strategiyaning beshinchi yo‘nalishi “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirishni nazarda tutadi [3, V yo‘nalish; 7, 24-b.]. Mazkur yondashuv ichki barqarorlik, chegaralar daxlsizligi, kiber va axborot xavfsizligini ta’minlash bilan birga, qo‘shni davlatlar va xalqaro sheriklar bilan o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishni talab etadi. Suveren tashqi siyosatning mazmuni yopiqlikda emas, balki turli hamkorlik yo‘nalishlari o‘rtasida milliy manfaatlarga mos muvozanatni saqlashdadir.

Shu bilan birga, suveren taraqqiyot oldida bir qator tizimli vazifalar saqlanib qolmoqda. Aholi soni va mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlar ulushining ortishi sifatli ta’lim va barqaror ish o‘rinlariga talabni

kuchaytiradi. Raqamlashtirish kiberxavfsizlik va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishni yangi darajaga olib chiqadi. Suv resurslariga bosim iqtisodiy rejalashtirishning barcha bosqichlarida resurs tejamkorligini talab etadi. Huquqiy islohotlar esa qabul qilingan hujjatlar soni bilan emas, huquqni qo‘llash amaliyotining adolatliligi va barqarorligi bilan baholanishi lozim. Demak, Yangi O‘zbekistonning suveren taraqqiyot modeli siyosiy mustaqillik, iqtisodiy barqarorlik, huquqiy institutlar, inson kapitali, ekologik mas’uliyat va xavfsizlikning o‘zaro bog‘liq tizimi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Raqamli taraqqiyot sharoitida texnologik suverenitet masalasi ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Davlat xizmatlarining raqamlashuvi, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar va avtomatlashtirilgan boshqaruv vositalari samaradorlikni oshiradi, biroq ular milliy ma’lumotlar infratuzilmasi, kiberxavfsizlik va kadrlar kompetensiyasiga yangi talab qo‘yadi. Strategik ma’lumotlarni himoya qilish, mahalliy dasturiy yechimlar va ilmiy-tadqiqot bazasini rivojlantirish, xorijiy texnologiyalardan foydalanishda xavflarni diversifikatsiya qilish suveren qaror qabul qilish imkoniyatini mustahkamlaydi. Shu bois raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish faqat xizmatlarni elektron shaklga o‘tkazish bilan cheklanmasdan, milliy innovatsiya ekotizimi, mahalliy startaplar, muhandislik maktablari va ilmiy ishlanmalarni iqtisodiyotga joriy etish tizimi bilan uyg‘unlashtirilishi lozim.

Suveren taraqqiyotning yana bir muhim jihati — milliy o‘zlik, fuqarolik birdamligi va jamiyatning islohotlardagi ishtirokidir. Davlat siyosati natijador bo‘lishi uchun fuqaro o‘zini faqat islohot ob’ekti emas, balki uning ishtirokchisi sifatida his etishi zarur. Buning uchun

jamoatchilik eshituvlari, ochiq budjet mexanizmlari, mahalla instituti, nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarining tahliliy salohiyatini kuchaytirish muhim. Turli millat, til va e’tiqod vakillarining umumiy fuqarolik manfaatlari atrofida birlashishi ichki barqarorlikni mustahkamlaydi. Shu ma’noda milliy g‘urur va zamonaviy fuqarolik madaniyati o‘zaro zid emas; aksincha, tarixiy xotira, Vatanga daxldorlik hissi va qonunga hurmat ijtimoiy ishonchni oshiradi. Ijtimoiy ishonch esa islohotlarning uzoq muddatli institutsional tayanchi bo‘lib xizmat qiladi.

Tahlil natijalari O‘zbekistonda suverenitet tushunchasi zamonaviy mazmun bilan boyib borayotganini ko‘rsatadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya mamlakatning suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatidagi modelini belgilagan bo‘lsa, Taraqqiyot strategiyalari uni aniq maqsadlar va samaradorlik indikatorlari bilan ta’minlamoqda [1; 2; 3]. 2025 yildagi yuqori iqtisodiy o‘sish va xalqaro institutlar baholari muhim natija hisoblanadi, biroq ushbu dinamikani uzoq muddatli barqaror taraqqiyotga aylantirish institutsional sifat, inson kapitali va texnologik raqobatbardoshlikni muntazam oshirishni talab qiladi [4; 5; 6]. Suveren taraqqiyotning muvaffaqiyati, eng avvalo, islohot natijalarining inson hayotida, hududlar rivojida va davlat institutlariga ishonchda namoyon bo‘lishi bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “O‘zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.” O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 1-modda [1, 1-b.].

2. “Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish” “O‘zbekiston 2030” strategiyasining birinchi ustuvor yo‘nalishi [7, 3-b.; 3, I yo‘nalish].

3. “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining beshinchi ustuvor yo‘nalishi [7, 24-b.; 3, V yo‘nalish].

4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. 2023 yil 30 aprel referendumida qabul qilingan. Rasmiy nusxa: https://constitution.uz/uploads/constitution_uz.pdf

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/docs/5841063

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 16 fevraldagi PF-21-son Farmoni va 1-ilova — 2026–2030 yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi. https://lex.uz/docs/8050769

7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. “O‘zbekiston Respublikasining 2025 yildagi ijtimoiy-iqtisodiy holati raqamlarda”. 2026 yil 21 yanvar. https://stat.uz

8. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: 2026 Article IV Consultation — Press Release and Staff Report. Washington, D.C., June 2026. https://www.imf.org

9. World Bank. Uzbekistan Country Economic Memorandum: Fostering Private Sector-Led Growth and Productivity. Washington, D.C., 2025. https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/cem-2025

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 1-ilova. — Rasmiy PDF nusxa: https://ngo.gov.uz/media/legacy?path=261bdc7b-4e32-59ae-db3d-e2cd82fcb225_regulation_lang_283.pdf

KENG KO‘LAMLI ISLOHATLAR SHAROITIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH VA UCHINCHI RENESSANS AVLODINI SHAKLLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Nurullayev Adham Axmatovich
Milliy iftihor va harbiy vatanparvarlik kafedrasi, sikl boshlig‘i

Annotatsiya: Maqolada Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning inson kapitali, ta’lim, ilm-fan, innovatsiya va yoshlar siyosatini rivojlantirish orqali uchinchi Renessans yaratuvchilarini shakllantirishga qaratilgan mazmun-mohiyati tahlil qilinadi. Uchinchi renessans g‘oyasi tarixiy xotiraga tayangan holda zamonaviy bilim, mustaqil fikr, ilmiy ijodkorlik, raqamli kompetensiya va yuksak fuqarolik mas’uliyatini uyg‘unlashtiruvchi taraqqiyot modeli sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, Uchinchi Renessans, inson kapitali, ta’lim islohotlari, ilm-fan, innovatsiya, yoshlar siyosati, milliy tarbiya, akademik erkinlik, raqamli kompetensiya.

Har qanday uyg‘onish davrining mazmuni faqat iqtisodiy o‘sish yoki infratuzilmaviy yangilanishlar bilan emas, balki yangi fikrlaydigan,

bilim yaratadigan va jamiyat oldida mas’uliyatni his qiladigan avlodning shakllanishi bilan belgilanadi. Shu ma’noda Yangi O‘zbekistondagi islohotlarning strategik mantig‘i insonni taraqqiyotning asosiy sub’ektiga aylantirishga qaratilgan. Konstitutsiya muqaddimasida davlatchiligimizning uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasi va jahon sivilizatsiyasiga hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy hamda ma’naviy merosiga tayanish alohida qayd etilgan [1]. Bu qoida o‘tmishni ideallashtirish emas, balki tarixiy intellektual an’anani zamonaviy taraqqiyot resurslariga aylantirish zarurligini anglatadi.

Uchinchi Renessans tushunchasi mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga ma’rifiy va intellektual mezon beradi. Uning mazmunini yangi binolar, yangi muassasalar yoki son jihatdan o‘sish bilangina cheklash ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas. Renessans — avvalo, bilim ishlab chiqarish sifati, ilmiy maktablar barqarorligi, ijod va tashabbus erkinligi, yoshlarning jahon miqyosida raqobat qila olishi hamda milliy manfaatlarga daxldorlik hissi bilan o‘lchanadi. Shu sabab maqolada islohotlar “Uchinchi Renessans yaratuvchisi” deb atash mumkin bo‘lgan shaxsning qanday intellektual, ma’naviy va kasbiy sifatlarini shakllantirishi nuqtai nazaridan o‘rganiladi.

O‘zbekiston hududi tarixan ilm-fan, falsafa, tibbiyot, matematika, astronomiya, adabiyot va davlatchilik tafakkurining yirik markazlaridan biri bo‘lib kelgan. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar merosi muayyan davrning madaniy yutug‘i sifatidagina emas, balki ilmiy metod, kuzatish, mantiqiy tahlil, dalilga tayanish va bilimni jamiyat manfaatiga yo‘naltirish an’anasi sifatida ahamiyatlidir. Uchinchi

Renessans g‘oyasining ilmiy qiymati ham aynan ana shu an’anani XXI asrning texnologiyalari va institutsional imkoniyatlari bilan bog‘lay olishida namoyon bo‘ladi.

Qarshi davlat universiteti ilmiy to‘plamida keltirilgan Shavkat Mirziyoevning “Biz o‘z oldimizga jamiyatimizning yangi qiyofasini yaratish, Yangi O‘zbekistonni barpo etish masalasini strategik vazifa sifatida qo‘ydik”, degan fikri [4,3-b.] islohotlarning maqsadi faqat ayrim tarmoqlarni modernizatsiya qilish emas, balki jamiyatning sifat jihatdan yangi qiyofasini shakllantirish ekanini ko‘rsatadi. Ushbu yondashuvda ta’lim, ilm-fan va tarbiya bir-biridan ajralgan sohalar emas, balki yangi ijtimoiy tipdagi shaxsni voyaga yetkazuvchi yagona tizim sifatida qaraladi.

“Uchinchi Renessans yaratuvchisi” tushunchasini shartli ravishda to‘rtta o‘zaro bog‘liq komponent orqali ifodalash mumkin. *Birinchisi* — chuqur fundamental bilim va kasbiy mahorat; *ikkinchisi* — tanqidiy va ijodiy fikrlash, yangi g‘oyani amaliy yechimga aylantirish qobiliyati; *uchinchisi* — milliy o‘zlik, tarixiy xotira va fuqarolik mas’uliyati; *to‘rtinchisi* — ochiq dunyoqarash, chet tillari, raqamli texnologiyalar va xalqaro hamkorlik muhitida ishlay olish salohiyati. Agar islohotlar ana shu to‘rt komponentning uyg‘un rivojiga xizmat qilsa, ular renessans uchun kadr emas, balki renessansni harakatga keltiruvchi intellektual qatlamni shakllantiradi. Bunda tarixiy merosga murojaat qilishning o‘zi yetarli emas. Ilmiy uyg‘onishning real sharti mustaqil tadqiqot olib borishga imkon beradigan institutlar, ochiq akademik muhit, xalqaro standartdagi laboratoriyalar, raqobatbardosh grantlar, ilmiy natijalarni iqtisodiyotga joriy etish mexanizmlari va eng muhimi, xato qilishdan

qo‘rqmaydigan ijodiy tafakkur muhitini yaratishdir. Shu nuqtai nazardan, Yangi O‘zbekiston islohotlari tarixiy iftixorni zamonaviy institutsional imkoniyat bilan birlashtirishi lozim bo‘lgan uzoq muddatli jarayondir.

2023 yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ta’lim va ilm-fanga doir normalarning kengaytirilishi mazkur jarayonning huquqiy poydevorini mustahkamladi. 50-modda har kimning ta’lim olish huquqini belgilab, davlat zimmasiga uzluksiz ta’lim tizimini va uning turli shakllarini rivojlantirish vazifasini yuklaydi [1,8-b.]. 51-modda oliy ta’lim tashkilotlariga akademik erkinlik, o‘zini o‘zi boshqarish, tadqiqot va o‘qitish erkinligini kafolatlaydi [1,9-b.]. Bu normalarning amaliy mazmuni ta’lim muassasalarini faqat ma’muriy topshiriqlarni bajaruvchi tuzilma emas, balki bilim ishlab chiqaradigan mustaqil intellektual muhitga aylantirishda ko‘rinadi.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimidagi o‘zgarishlarning eng ko‘zga tashlanadigan jihati imkoniyatlar doirasining kengayishidir. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotiga ko‘ra, 2024/2025 o‘quv yili boshida respublikada 222 ta oliy ta’lim tashkiloti va filiali faoliyat ko‘rsatgan, ularda 1 million 432 mingdan ortiq talaba tahsil olgan [7]. Bu ko‘rsatkichlar oliy ta’limning jamiyat hayotidagi qamrovi va roli keskin o‘sganini ifodalaydi. Biroq Uchinchi Renessans nuqtai nazaridan asosiy masala son emas, balki ta’lim natijasining sifati, bitiruvchining mustaqil fikrlashi va real iqtisodiy-ijtimoiy muammolarni yecha olish qobiliyatidir.

2026–2030 yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida umumiy o‘rta ta’lim maktablari va akademik litsey

bitiruvchilarini oliy ta’lim bilan qamrab olishni kamida 50 foizga yetkazish, bitiruvchilar bandligini va ish beruvchilar bahosini oshirish, xalqaro akkreditatsiyadan o‘tgan dasturlar sonini ko‘paytirish, 10 ta oliy ta’lim muassasasini jahonning “Top-1000” reytinglariga kiritish kabi ko‘rsatkichlar belgilangan [2; 8]. Mazkur maqsadlar ta’lim siyosatida “kirish imkoniyati” bilan birga “chiqish natijasi” ni ham o‘lchashga o‘tishni ko‘rsatadi.

Renessans yaratuvchisini shakllantirish uchun o‘quv jarayonida reproduktiv yondashuvdan tayyor ma’lumotni yodlashdan tadqiqotga asoslangan ta’limga o‘tish muhim. Talaba darslikdagi ma’lumotni takrorlash bilan cheklanmasdan, savol qo‘yishi, ma’lumotni tekshirishi, gipoteza ilgari surishi, dalillarni solishtirishi va xulosasini asoslay olishi kerak. Bunday kompetensiyalarga ega bitiruvchi mehnat bozorida ham, ilmiy faoliyatda ham tez moslasha oladi. Ayniqsa, sun’iy intellekt va avtomatlashtirish kengayib borayotgan sharoitda oddiy axborotni qayta ishlash emas, muammoni to‘g‘ri qo‘ya bilish va yangi yechim taklif qilish asosiy ustunlikka aylanmoqda.

Pedagog shaxsi bu jarayonning hal qiluvchi omilidir. Konstitutsiyaning 52-moddasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, barkamol avlodni shakllantirish hamda xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini boyitishning asosi sifatida e’tirof etiladi [1,9-b.]. Ushbu huquqiy e’tirof pedagogning ijtimoiy maqomini oshirish bilan birga uning kasbiy mas’uliyatini ham kuchaytiradi. Uchinchi Renessans maktabida o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki tadqiqotga qiziqish uyg‘otuvchi, o‘quvchini mustaqil fikrga chorlovchi va ilmiy halollik me’yorlarini singdiruvchi intellektual

yetakchi bo‘lishi zarur. Shu bois ta’lim islohotlarining keyingi bosqichida pedagoglarning uzluksiz malaka oshirishi, fan va metodikani birlashtirgan tayyorgarlik, o‘quv dasturlarini ortiqcha faktlardan tozalash, laboratoriya va loyiha ishlarini ko‘paytirish, akademik halollikni baholash mezonlariga kiritish dolzarbdir. Ta’lim sifati reyting yoki test natijasi bilan cheklanmaydi; u yosh insonning bilimini yangi vaziyatda qo‘llay olishi, jamoada ishlashi, muloqot qilishi va jamiyat manfaatiga xizmat qiladigan qaror qabul qilishi bilan namoyon bo‘ladi.

Uchinchi Renessansning eng muhim belgisi mamlakatda bilimni o‘zlashtiruvchilar soni emas, yangi bilim yaratuvchilar ulushining ortishi. Konstitutsiyaning 53-moddasi har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligini kafolatlaydi va davlat zimmasiga jamiyatning ilmiy hamda texnik rivojlanishi haqida g‘amxo‘rlik qilish vazifasini yuklaydi [1,9-b.]. Bu norma ilmiy faoliyatni alohida olimlar ishi emas, balki davlat va jamiyat taraqqiyotining institutsional sharti sifatida ko‘rishga asos beradi.

Yangilangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ilm-fan sohasiga ajratiladigan mablag‘larni yalpi ichki mahsulotning 1 foizigacha oshirish, fundamental tadqiqot loyihalarini 400 taga, xorijiy hamkorlikdagi ilmiy loyihalarni 200 taga yetkazish, iqtisodiyot tarmoqlari muammolariga bag‘ishlangan amaliy tadqiqotlarni kengaytirish, 39 yoshgacha bo‘lgan tadqiqotchilar ulushini 61 foizga yetkazish va tijoratlashtirilgan ilmiy ishlanmalar sonini ko‘paytirish maqsadlari belgilangan [8]. Bu ko‘rsatkichlar fanni budjetdan moliyalashtiriladigan alohida sohadan innovatsion iqtisodiyotning faol drayveriga aylantirishga qaratilgan. Biroq moliyalashtirishning o‘sishi

o‘z-o‘zidan yuqori ilmiy natijani kafolatlamaydi. Samarali tizim uchun loyihalarni ochiq va professional ekspertiza qilish, grantlar taqsimotida raqobat va shaffoflikni ta’minlash, yosh olimga mustaqil tadqiqot guruhi tuzish imkoniyatini berish, zamonaviy ma’lumotlar bazasi va laboratoriyalarga kirishni yengillashtirish zarur. Ilmning nufuzi faqat ilmiy unvonlar soni bilan emas, xalqaro retsenziyadan o‘tadigan maqolalar, patentlar, texnologiyalar, yangi mahsulotlar va ijtimoiy muammolarga berilayotgan yechimlar bilan baholanishi lozim.

“Korxona oliy ta’lim muassasasi ilmiy tashkilot” hamkorligi Renessansning amaliy mexanizmi bo‘lishi mumkin. Korxonadagi real texnologik muammo universitetda tadqiqot mavzusiga, tadqiqot natijasi esa korxonada yangi mahsulot yoki texnologiyaga aylanganda ilm va iqtisodiyot o‘rtasida tabiiy aylanma hosil bo‘ladi. Bunday klasterlar talabalarni ham erta bosqichdan tadqiqotga jalb etadi. Natijada yosh inson diplom olishni emas, muammo yechishni kasbiy maqsad sifatida qabul qila boshlaydi.

“Yangi O‘zbekiston” universitetining tashkil etilishi to‘g‘risidagi qarorda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yuqori intellektual salohiyatli, jahon mehnat bozori va ilm-fan texnologiyalari olamida raqobatdosh, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni egallagan mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlash bilan bog‘langan [5]. Bu yondashuvni butun oliy ta’lim tizimiga tatbiq etish zarur: talabaning xorijiy til bilishi, dasturlash yoki muhandislik ko‘nikmasi alohida ustunlik emas, zamonaviy ilmiy faoliyatning oddiy infratuzilmasiga aylanishi kerak.

Renessansni faqat texnokratik loyiha sifatida tushunish bir tomonlama yondashuv bo‘lar edi. Yangi bilim yaratuvchi avlod o‘z

ilmiy va kasbiy salohiyatini qaysi qadriyatlar asosida ishlatishi ham muhim. 2026 yil 28 yanvarda qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 34-son qarori bilan uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dasturi tasdiqlandi. Dasturda “Yangi O‘zbekiston Uchinchi Renessans sari” g‘oyasi asosida yoshlarda jamiyatdagi o‘zgarishlarga daxldorlik hissini, “Men o‘zbekistonlikman” degan faxr tuyg‘usini, mustaqil fikr va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish vazifalari belgilangan [3].

Milliy tarbiyaning zamonaviy mazmuni yoshlarni tashqi axborotdan izolyatsiya qilish emas, aksincha, ochiq axborot muhitida o‘z qadriyatlariga tayangan holda mustaqil fikr yurita olish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Milliy o‘zlik va global kompetensiya bir-biriga zid tushunchalar emas. O‘z tarixi, tili va madaniyatini anglagan, ayni paytda jahon fanining tilini biladigan, boshqa madaniyatlar bilan muloqot qila oladigan yoshgina intellektual mustaqillikka ega bo‘ladi. Shu bois tarixiy merosni o‘qitish faktlarni yodlatish emas, ajdodlar ilmiy tafakkuri qanday muammolarni hal qilgani, qanday metodlardan foydalangani va ulardan bugun qanday ilhom olish mumkinligini ko‘rsatishga yo‘naltirilishi kerak.

2026 yil 20 aprelda davlat rahbariga taqdim etilgan “Yangi O‘zbekiston yoshlari 2030” strategiyasi loyihasida yoshlarning bilim, tadbirkorlik, ijodkorlik, ijtimoiy faollik va xalqaro dasturlarda ishtirokini kengaytirish bo‘yicha kompleks choralar ko‘zda tutilgan [6]. Xususan, nufuzli xorijiy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda minglab yoshlarni o‘qitish, biznes loyihalarini saralash, volontyorlik va ijodiy tashabbuslarni grantlar bilan qo‘llab-quvvatlash kabi mexanizmlar

yoshlarni “tayyor imkoniyat kutadigan” emas, “imkoniyat yaratadigan” ijtimoiy qatlamga aylantirishga xizmat qilishi mumkin. Bu yerda muhim masala imkoniyatlarning hududlar kesimida tengligi. Poytaxt yoki yirik shaharlardagi iqtidorli yosh bilan chekka tumandagi qobiliyatli o‘quvchining laboratoriya, ustoz, til kursi, internet va grantga kirish imkoniyati o‘rtasidagi farq kamaymas ekan, milliy intellektual zaxira to‘liq ishga tushmaydi. Uchinchi Renessans uchun iste’dodni “tanlangan muassasalar” da qidirish emas, butun ta’lim tizimida erta aniqlash, mentorlik qilish va uzluksiz kuzatib borish mexanizmini kuchaytirish talab etiladi. Shu bilan birga, yoshlar bilan ishlashda ma’muriy tadbirbozlikdan natijaga asoslangan yondashuvga o‘tish muhim. Tanlov, forum yoki festivalning qiymati uning miqyosi bilan emas, ishtirokchida qanday yangi kompetensiya, loyiha, ilmiy qiziqish yoki ijtimoiy tashabbus paydo qilgani bilan baholanishi lozim. Renessans muhiti — yosh insonning savol berishidan qo‘rqmaydigan, tashabbusi qo‘llab-quvvatlanadigan va mehnati natijasi adolatli baholanadigan muhitdir.

XXI asrda intellektual ustunlik raqamli texnologiyalardan foydalanish qobiliyati bilan bevosita bog‘langan. Sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar, robototexnika, biotexnologiya, kiberxavfsizlik va “yashil” texnologiyalar yangi iqtisodiy tarmoqlarni shakllantirayotgan bir paytda ta’limning mazmuni ham tez yangilanishi zarur. Yangi avlod uchun kompyuter savodxonligi yetarli emas; algoritmik fikrlash, ma’lumotlarni tahlil qilish, sun’iy intellekt natijasini tanqidiy tekshirish, raqamli xavfsizlik va texnologiyaning axloqiy oqibatlarini anglash kabi kompetensiyalar bazaviy ko‘nikmaga aylanmoqda. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida yangi avlod darsliklari asosida mingta multimedia

dasturini yaratish, kasbiy ta’limni zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga moslashtirish, oliy ta’limda xalqaro dasturlar va ilmiy salohiyatni oshirish vazifalari belgilangan [8]. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda raqamlashtirishni faqat platformalar soni bilan o‘lchashdan saqlanish kerak. Texnologiya pedagogik maqsadga xizmat qilsa, u ta’lim sifatini oshiradi; aks holda an’anaviy muammoning elektron shakli paydo bo‘ladi, xolos.

Uchinchi Renessans avlodi uchun “raqamli iste’molchi” dan “raqamli yaratuvchi” ga o‘tish tamoyili muhim. Maktab o‘quvchisi tayyor ilovani ishlatish bilan birga oddiy dastur yaratishni, talaba sun’iy intellektdan tayyor matn olish bilan birga uning ishlash tamoyili va cheklovlarini tushunishni, yosh tadqiqotchi esa ochiq ma’lumotlardan yangi ilmiy xulosa chiqara olishni o‘rganishi kerak. Bunday yondashuv texnologiyaga qaramlikni emas, texnologik mustaqillik va innovatsion madaniyatni kuchaytiradi.

Shu nuqtai nazardan, ta’lim muassasalarida akademik halollik masalasi alohida ahamiyatga ega. Sun’iy intellekt vositalari kengaygan sharoitda plagiatni faqat jazo choralari bilan cheklash samara bermaydi. Talabaga manba bilan ishlash, iqtibos keltirish, tadqiqot dizayni, ma’lumotlarni tekshirish va o‘z fikrini himoya qilish madaniyatini o‘rgatish zarur. Ilmiy halollik Renessansning ma’naviy mezoni.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar Uchinchi Renessans g‘oyasini ijtimoiy-siyosiy shiordan aniq institutsional vazifaga aylantirish uchun zarur huquqiy va tashkiliy zamin yaratmoqda. Konstitutsiyada ta’lim, akademik erkinlik va ilmiy ijod huquqining mustahkamlanishi, “O‘zbekiston — 2030”

strategiyasida ta’lim sifati, ilmiy salohiyat, yosh tadqiqotchilar va innovatsion iqtisodiyot bo‘yicha o‘lchanadigan maqsadlarning belgilanishi, milliy tarbiyaning uzluksiz tizimini shakllantirish hamda yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash choralari bir-birini to‘ldiruvchi jarayonlardir. Ularning umumiy mantig‘i insonni islohot ob’ekti emas, yangi taraqqiyotning faol muallifiga aylantirishdan iborat.

Shu bilan birga, Uchinchi Renessansni muassasalar soni, tadbirlar miqyosi yoki alohida reyting ko‘rsatkichlari bilan tenglashtirish mumkin emas. Haqiqiy uyg‘onishning mezoni yoshlarning mustaqil fikrlashi, yangi bilim va texnologiya yaratishi, ilmiy halollikni qadrlashi, milliy o‘zligini anglagan holda jahon ilm-fani bilan teng muloqotga kirisha olishi va o‘z salohiyatini jamiyat farovonligiga yo‘naltira bilishidir. Demak, keng ko‘lamli islohotlarning tarixiy natijasi ular qancha hujjat qabul qilgani bilan emas, qancha yangi Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino va Ulug‘beklar yetishib chiqishi uchun adolatli, ochiq va ijodkor muhit yarata olgani bilan baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Biz o‘z oldimizga jamiyatimizning yangi qiyofasini yaratish, Yangi O‘zbekistonni barpo etish masalasini strategik vazifa sifatida qo‘ydik.” Sh. Mirziyoev. Manba: [4], 3-bet.

2. “Davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma’naviy merosiga tayanib”. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Manba: [1], 1-bet.

3. “Har kim ta’lim olish huquqiga ega.” O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 50-modda. Manba: [1], 8-bet.

4. “O‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish asosi sifatida e’tirof etiladi.” O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 52-modda. Manba: [1], 9-bet.

5. “Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi kafolatlanadi.” O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 53-modda. Manba: [1], 9-bet.

6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. 2023 yil 30 aprel. Rasmiy PDF nashr.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 16 fevraldagi PF-21-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2026–2030 yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi. Lex.uz.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026 yil 28 yanvardagi 34-son “Uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarori. Lex.uz.

9. Nabiev D.H. Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans sari // “Markaziy Osiyo sivilizatsiya tizimida O‘zbekiston tarixi va madaniyati” respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Qarshi, 2022. – B. 3–5.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 23 iyundagi PQ-5158-son “«Yangi O‘zbekiston» universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori. Lex.uz.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. “Yangi O‘zbekiston yoshlari – 2030” strategiyasi amalga oshiriladi. 20.04.2026.

12. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. “O‘zbekistonda xorijiy OTMlar soni 30 taga yetgan”. 01.12.2025.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi: 2026–2030 yillarga mo‘ljallangan maqsad va samaradorlik ko‘rsatkichlari.

YANGI O‘ZBEKISTONDA HARBIY FANLARNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Xudoyqulov Yo‘lchi Azamqulovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi, dotsent.

Mustaqillik yillarida, ayniqsa so‘nggi o‘n yillikda amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida O‘zbekiston Respublikasining mudofaa qobiliyati va milliy xavfsizlik tizimi sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. «Yangi O‘zbekiston» taraqqiyot konsepsiyasi doirasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida Qurolli Kuchlarni modernizatsiya qilish, xarbiy kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish va, ayniqsa, xarbiy fanni fundamental hamda amaliy jihatdan rivojlantirish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi doirasida davlat xavfsizligini ta’minlash va barqarorlikni saqlash ustuvor vazifalar qatoriga kiritilgan[25], bu esa o‘z navbatida xarbiy fanni izchil ilmiy asosda rivojlantirishni taqozo etadi. Zamonaviy nizolarning tabiati o‘zgarib borayotgani, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining xarbiy ishga chuqur kirib borayotgani va gibrid tahdidlarning kuchayishi xarbiy fanni doimiy ravishda yangilab borishni talab qiladi. Mazkur maqolada O‘zbekistonda xarbiy fanlarni rivojlantirishning huquqiy asoslari,

[25]“O‘zbekiston-2030” strategiyasi.//O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali (GOV.UZ). https://gov.uz/uz/pages/2030_strategy

institusional tizimi, erishilgan amaliy natijalar hamda kelgusidagi rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi.

Xarbiy fan — Qurolli kurash qonuniyatlari, xarbiy siyosat, strategiya, operativ san’at va taktika masalalarini, shuningdek xarbiy qurilish, xarbiy iqtisodiyot, xarbiy tarix, xarbiy pedagogika va psixologiya, xarbiy-texnika yo‘nalishlarini o‘rganuvchi bilimlar tizimidir. U shartli ravishda nazariy (xarbiy strategiya, doktrinaviy tadqiqotlar) va amaliy (qurollanish tizimlarini takomillashtirish, jangovar tayyorgarlik uslubiyotlari) yo‘nalishlarga bo‘linadi. Zamonaviy sharoitda xarbiy fan tarkibiga kibermudofaa, axborot xavfsizligi, insonsiz boshqaruv tizimlari nazariyasi kabi nisbatan yangi sohalar ham qo‘shilib bormoqda.

Milliy xavfsizlik tizimida xarbiy fanning o‘rni ikki jihatdan namoyon bo‘ladi: birinchidan, u davlat xarbiy siyosatini ilmiy jihatdan asoslantiradi va Qurolli Kuchlarni rivojlantirishning uzoq muddatli rejalarini shakllantirishga xizmat qiladi; ikkinchidan, xarbiy-texnik taraqqiyotni ta’minlash, jangovar tayyorgarlik sifatini oshirish va xarbiy kadrlarning kasbiy salohiyatini mustahkamlash orqali davlatning real mudofaa qobiliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Yangi O‘zbekiston davrida xarbiy fanni rivojlantirishning huquqiy poydevori bir qator davlat hujjatlari orqali yaratildi. 2017 yil 24 yanvarda qabul qilingan Prezidentning «O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlarini yanada isloh qilish va rivojlantirish vazifalarini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida»gi PQ-2738-son qarori xarbiy sohadagi institusional islohotlarning boshlang‘ich nuqtasi bo‘ldi. Mazkur qarorda, jumladan, Mudofaa vazirligiga yangi Qurolli Kuchlar Akademiyasini tashkil etish to‘g‘risida taklif tayyorlash, professor-o‘qituvchilar tarkibining malakasini oshirish va kontrakt

asosida xizmat qiluvchi xarbiy xizmatchilarni tayyorlashning yangi o‘quv dasturlarini ishlab chiqish vazifalari belgilangan edi.[26]

2018 yil 9 yanvarda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida»gi O‘RQ-458-son Qonuni davlatning xarbiy-siyosiy, xarbiy-strategik va xarbiy-iqtisodiy yo‘nalishlardagi ustuvor vazifalarini qonuniy darajada mustahkamladi va mudofaa tusidagi davlat sifatida O‘zbekistonning xalqaro majburiyatlarga sodiqligini tasdiqladi.[27] Doktrina xarbiy xavfsizlikni ta’minlashning ilmiy asoslangan konseptual negizini yaratib, xarbiy fan oldiga aniq ilmiy-amaliy vazifalarni qo‘ydi.

Islohotlar jarayoni so‘nggi yillarda ham izchil davom ettirilmoqda. 2025 yil 14 fevralda Prezidentning «O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining xarbiy nizomlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-23-son Farmoni qabul qilindi, unga ko‘ra ichki xizmat, intizom, garnizon va qorovul xizmati nizomlari yangi tahrirda tasdiqlandi.[28] Bu hujjat xarbiy xizmatning kundalik faoliyatini tartibga soluvchi meyoriy bazani zamon talablariga moslashtirish borasidagi navbatdagi muhim qadam bo‘ldi.

PQ-2738-son qarori[29] asosida 2017 yilda tashkil etilgan Qurolli Kuchlar Akademiyasi bugungi kunda mamlakatda xarbiy fanni rivojlantirishning asosiy markaziga aylandi. Akademiya tarkibida ilmiy-tadqiqot instituti, zamonaviy situatsion markaz va trenajyor-simulyatorlar majmui yaratildi. 2020 yil 10 yanvarda Akademiyaga tashrifi chog‘ida davlat rahbari barcha xarbiy ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Ilmiy-uslubiy kengash tuzilganini

[26]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 yanvardagi PQ-2738-son «O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlarini yanada isloh qilish va rivojlantirish vazifalarini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida»gi qarori, IV bo‘lim. — Huquqiy-axborot portali LEX.UZ. URL: https://lex.uz/docs/3211386

[27]O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 9 yanvardagi O‘RQ-458-son «Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida»gi Qonuni. — Huquqiy-axborot portali LEX.UZ. URL: https://lex.uz/docs/3495885

[28]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 14 fevraldagi PF-23-son «O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining xarbiy nizomlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni. — Huquqiy-axborot portali LEX.UZ. URL: https://lex.uz/uz/docs/7385415

[29]PQ-2738-son Qarori.

ma’lum qildi hamda «xarbiy ta’lim zamon bilan hamnafas, zarur hollarda esa undan bir qadam oldinda bo‘lishi kerak» deb ta’kidladi.

Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2020 yil yakunlari bo‘yicha Akademiya professor-o‘qituvchilar tarkibining qariyb yarmi ilmiy daraja va unvonga ega bo‘lgan, 15 nafar o‘qituvchi «dotsent» ilmiy unvoniga sazovor bo‘lgan, mustaqil izlanuvchilar soni 72 nafarni, doktorantura tinglovchilari esa 15 nafarni tashkil etgan. Shu yil davomida 114 ta ilmiy maqola chop etilgan, shundan 14 tasi Scopus xalqaro ilmiy bazasiga kiritilgan jurnallarda, 200 dan ortig‘i esa respublika ilmiy jurnallarida nashr qilingan; shuningdek 27 ta (shu jumladan 8 tasi xalqaro) ilmiy konferensiya, 21 ta davra suhbati va 11 ta ilmiy seminar o‘tkazilgan.

Xarbiy ta’lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida ixtisoslashtirilgan «Temurbeklar maktabi» xarbiy akademik-litseylari tarmog‘i ham yaratildi; jumladan, Shahrisabz shahridagi «Temurbeklar maktabi» yoshlarda xarbiy-vatanparvarlik ruhini shakllantirish va ularni oliy xarbiy ta’lim muassasalariga tayyorlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, xarbiy-tarixiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish maqsadida idoralararo ilmiy aloqalar ham kengaymoqda: 2022 yil 13 iyunda Prokuratura akademiyasi bilan Qurolli Kuchlarning Xarbiy meros va zamonaviy tadqiqotlar instituti o‘rtasida axborot-resurs markazlari fondlaridan o‘zaro foydalanish va ilmiy izlanishlarni rag‘batlantirishga qaratilgan Memorandum imzolandi.

Xarbiy fanni rivojlantirishda xalqaro hamkorlik muhim omil hisoblanadi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, Qurolli Kuchlar Akademiyasi mamlakat ichkarisidagi 35 dan ortiq oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, shuningdek 30 dan ortiq xorijiy xarbiy-ta’lim va ilmiy markazlar bilan hamkorlik o‘rnatgan; professor-o‘qituvchilar AQSH, Germaniya, Fransiya va Xitoyda malaka oshirgan, xarbiy xizmatchilar esa Rossiya Bosh shtab akademiyasi va Belarus xarbiy ta’lim muassasalarida tahsil olmoqda. Bunday almashinuv dasturlari milliy

xarbiy fan maktabini jahon tajribasi bilan boyitish, zamonaviy xarbiy-texnik va xarbiy-ta’lim tendensiyalarini chuqur o‘rganish imkonini bermoqda.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan tajriba va erishilgan natijalar xarbiy fanni yanada rivojlantirish uchun bir qator istiqbolli yo‘nalishlarni belgilash imkonini beradi.

Birinchidan, xarbiy fanni raqamlashtirish va sun’iy intellekt texnologiyalarini jangovar boshqaruv, razvedka tahlili hamda o‘quv jarayoniga integratsiyalash dolzarb vazifaga aylanmoqda. Zamonaviy nizolarda axborot ustunligi hal qiluvchi omilga aylanayotgan bir paytda, kibermudofaa va axborot xavfsizligi bo‘yicha mustaqil ilmiy yo‘nalishlarni shakllantirish zarurati ortib bormoqda.

Ikkinchidan, xarbiy va fuqaro fan-ta’lim tizimlari o‘rtasidagi integratsiyani chuqurlashtirish muhim ahamiyatga ega. Qurolli Kuchlar Akademiyasining mamlakat ichkarisidagi 35 dan ziyod ta’lim muassasalari bilan o‘rnatgan hamkorligi bu borada yaxshi negiz yaratgan bo‘lsa-da, kelgusida Fanlar akademiyasi institutlari va texnika yo‘nalishidagi universitetlar bilan qo‘shma laboratoriyalar hamda ilmiy dasturlar tashkil etish, xarbiy-sanoat majmui korxonalarida amaliy tadqiqotlarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, ilmiy kadrlar salohiyatini sifat jihatidan oshirish, xususan, doktorantura tizimini kengaytirish, yosh olimlarni xalqaro reytingdagi jurnallarda chop etishga rag‘batlantirish va Scopus, Web of Science kabi xalqaro ilmiy bazalarda nashrlar sonini ko‘paytirish ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda. 2020 yilgi 14 ta Scopus nashri boshlang‘ich natija bo‘lib, kelgusi yillarda uni bir necha barobar oshirish imkoniyati va zarurati mavjud.

To‘rtinchidan, xarbiy doktrinaviy tadqiqotlarni muntazam yangilab borish, ya’ni 2018 yilgi Mudofaa doktrinasini zamonaviy geosiyosiy vaziyat, gibrid va noan’anaviy tahdidlar nuqtai nazaridan ilmiy tahlil qilish va takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqish zarur. Bu

borada xarbiy olimlar, diplomatlar va xavfsizlik sohasi mutaxassislarini birlashtiruvchi, doimiy faoliyat yurituvchi ilmiy-ekspertlik maydonchalarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Beshinchidan, «Temurbeklar maktabi» kabi ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari tarmog‘ini yanada kengaytirish, ularda ilmiy-tadqiqot to‘garaklari va loyiha faoliyatini rivojlantirish orqali kelajakda xarbiy fan bilan shug‘ullanadigan yosh kadrlar zaxirasini shakllantirish lozim. Shuningdek, xarbiy oliy o‘quv yurtlari va Xarbiy meros va zamonaviy tadqiqotlar instituti kabi tuzilmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi, ularning tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etishni ta’minlovchi yagona ilmiy-axborot tizimini yaratish istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston sharoitida xarbiy fanlarni rivojlantirish davlat mudofaa qobiliyatini mustahkamlashning strategik omili sifatida ko‘rib chiqilmoqda. So‘nggi o‘n yillikda yaratilgan huquqiy-meyoriy baza, Qurolli Kuchlar Akademiyasi boshchiligidagi ilmiy-ta’lim infratuzilmasi, shuningdek kengayib borayotgan xalqaro hamkorlik aloqalari bu borada sezilarli natijalarga erishilganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya, kibermudofaa, xarbiy-fuqaro ilmiy integratsiyasi va ilmiy kadrlar salohiyatini oshirish borasidagi vazifalar dolzarbligicha qolmoqda. Ushbu yo‘nalishlarda izchil va tizimli ishlarni davom ettirish O‘zbekiston xarbiy fanini jahon standartlari darajasiga olib chiqish, shu orqali mamlakat mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi // O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali. https://gov.uz/uz/pages/2030_strategy

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 yanvardagi PQ-2738-son «O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlarini yanada isloh qilish va rivojlantirish vazifalarini amalga

oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida»gi Qarori //Huquqiy-axborot portali LEX.UZ. https://lex.uz/docs/3211386

3. O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 9 yanvardagi O‘RQ-458-son «Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida»gi Qonuni // Huquqiy-axborot portali LEX.UZ. https://lex.uz/docs/3495885

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 14 fevraldagi PF-23-son «O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining xarbiy nizomlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni //Huquqiy-axborot portali LEX.UZ. URL: https://lex.uz/uz/docs/7385415

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JAMOAT XAVFSIZLIGI TIZIMINING RIVOJLANISHI: NATIJALAR VA YANGI BAHOLASH MEZONLARI

Atajanov O‘tkir Mamatsalayevich
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Jamoat Xavfsizligi Universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston mustaqilligining 35 yili davomida jamoat xavfsizligini ta’minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimining huquqiy-institutsional rivojlanishi tahlil qilinadi. Yangi O‘zbekiston bosqichida mahallabay ishlash, profilaktika inspektori instituti, hududiy xavfsizlikni baholash va raqamli boshqaruv mexanizmlaridagi o‘zgarishlar yoritiladi. Amaldagi baholash tizimida jinoyatlar soniga ortiqcha tayanish muammosi asoslanib, profilaktik faoliyat samaradorligini aholi ishonchi, takroriy huquqbuzarlik, xavf guruhlari bilan ishlash va real ijtimoiy natijalar asosida baholashga qaratilgan mualliflik yondashuvi taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: jamoat xavfsizligi, huquqbuzarliklar profilaktikasi, profilaktika inspektori, mahalla, natijaga asoslangan baholash, aholi ishonchi, hududiy xavfsizlik, raqamli boshqaruv.

KIRISH

O‘zbekiston davlat mustaqilligining 35 yilligi huquqni muhofaza qilish tizimining o‘tgan davrdagi natijalarini tarixiy ketma-ketlikda sanab chiqish

bilangina cheklanmay, davlat va jamiyat xavfsizligini ta’minlash usullari mazmunan qanday o‘zgarganini ilmiy baholash uchun ham muhim mezondir. Mustaqillik yillarida mamlakat aholisi 1991-yildagi 20,6 milliondan 2026-yil boshiga 38,2 million kishiga yetdi. Aholi soni, shaharlar ko‘lami, iqtisodiy faollik va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi jamoat xavfsizligini avvalgi tashkiliy usullar bilangina ta’minlash yetarli emasligini ko‘rsatdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 1-apreldagi PQ–120-son “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarorida ham mustaqillik davrida erishilgan natijalarni ilmiy tahlil qilish, islohotlarning mazmunini ochish va kelgusi vazifalarni aniqlashga alohida urg‘u berilgan [1].

Jamoat xavfsizligi sohasidagi eng muhim huquqiy natijalardan biri huquqbuzarliklar profilaktikasining mustaqil institut sifatida shakllanganidir. 2014-yildagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonun profilaktikaning turlari, subyektlari va hamkorlik yo‘nalishlarini qonun darajasida tizimlashtirdi [2]. 2016-yildagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonun esa ichki ishlar organlari faoliyatining huquqiy asoslarini va fuqarolar huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan vazifalarni mustahkamladi [2]. 2017-yildan profilaktika bo‘linmalarining quyi bo‘g‘ini kuchaytirilib, profilaktika inspektorining mahalla bilan bevosita ishlash modeli qayta tashkil etildi [3]. 2021-yilgi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi ushbu jarayonni alohida xizmatlar faoliyatidan yagona jamoat xavfsizligi boshqaruviga olib chiqdi [4].

So‘nggi bosqichda e’tibor manzilli va ijtimoiy profilaktikaga, xavfni mahalla kesimida aniqlashga va aholi roziligiga erishishga qaratildi. 2026-yilgi PQ–1-son qarorda ijtimoiy profilaktika samaradorligini oshirish, oila-turmush munosabatlari, ayollar va yoshlar jinoyatchiligining asl omillarini ilmiy tahlil qilish hamda murojaatlarga joyida tezkor munosabat bildirish ustuvor vazifa etib belgilandi [5]. Shu bilan birga, 2026-yil 29-iyundagi Prezident taqdimotida jinoyatchilikni oddiy raqamlarni taqqoslash asosida baholash amaliyotidan to‘liq voz kechilmagani qayd etilib, aholi ishonchi, qayta huquqbuzarlik va xavf guruhidagi shaxslar bilan ishlash natijasini asosiy mezonlarga aylantirish zarurligi ko‘rsatildi [6].

Shu holat maqolaning markaziy ilmiy savolini belgilaydi: mustaqillik davrida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimi mazmunan profilaktik, manzilli va aholiga xizmat ko‘rsatuvchi modelga o‘tgan bir paytda, uning samaradorligini baholash usuli ham shu darajada yangilandimi? Maqolaning maqsadi mazkur huquqiy-institutsional o‘zgarishni tahlil qilish, faqat statistik ko‘rsatkichlarga tayangan baholashning cheklangan jihatlarini aniqlash va profilaktika inspektori hamda jamoat xavfsizligi bo‘linmalari faoliyatini real profilaktik natija va aholi ishonchi asosida baholashga doir mualliflik modelini taklif etishdan iborat.

Tadqiqotda formal-yuridik, tarixiy-huquqiy, statistik, qiyosiy-huquqiy va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi.

ASOSIY QISM

Mustaqillik davridagi jamoat xavfsizligi tizimining rivojlanishini shartli ravishda to‘rt bosqichga ajratish mumkin. Dastlab milliy huquqni muhofaza qilish institutlarining tashkiliy asoslari yaratildi. Keyingi bosqichda, ayniqsa 2014–2016-yillarda, huquqbuzarliklar profilaktikasi va ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy qoidalari qonun darajasida tizimlashtirildi. 2017–2021-yillarda profilaktika inspektorini mahalladagi tayanch mansabdor shaxs sifatida kuchaytirish, xizmatni aholiga yaqinlashtirish va jamoat xavfsizligini yagona boshqaruv doirasiga olib kirish ustuvor bo‘ldi. 2022–2026-yillarda esa manzilli, ijtimoiy va raqamli profilaktikaga o‘tish, kriminogen vaziyatni mahalla kesimida boshqarish hamda xizmat natijasini aholi roziligi bilan bog‘lashga intilish kuchaydi. Ushbu davrlashtirishning asosiy mezoni hujjatlar soni emas, profilaktik faoliyatning “hodisaga javob berish”dan “xavfni boshqarish va natijani o‘lchash”ga tomon o‘zgarishidir.

2017-yilgi islohotlar bu o‘zgarishning muhim burilish nuqtasi bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi IIVning rasmiy ma’lumotlarida 2017-yil aprel oyidagi qarorlar asosida boshqaruv apparati maqbullashtirilgani, tuman-shahar ichki ishlar organlarining shtat imkoniyatlari kengaytirilgani, huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari qayta tashkil etilgani va profilaktika inspektorlarini xizmat uy-joyi bilan ta’minlash tizimi yo‘lga qo‘yilgani qayd etiladi [3]. Bunday choralar profilaktika inspektorini faqat nazorat qiluvchi xodim emas, hududdagi ijtimoiy-huquqiy vaziyatni biladigan doimiy vakil sifatida shakllantirishga qaratilgan edi. I. Ismoilov ham profilaktika tizimini takomillashtirishda huquqbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, subyektlar o‘rtasidagi hamkorlikni aniq tashkil etish va profilaktik ta’sirni manzilli olib borishni ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida ko‘rsatgan [8, 14–20-b.].

2021-yilgi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi profilaktika, patrul-post, yo‘l harakati xavfsizligi, Milliy gvardiya va boshqa kuchlar faoliyatini yagona xavfsizlik maqsadiga bog‘lash orqali tizimning mazmunini kengaytirdi [4]. 2025–2026-yillardagi qarorlar esa kriminogen vaziyati murakkab mahallalarda manzilli yo‘l xaritalari, ijtimoiy profilaktika, huquqbuzarlik omillarini ilmiy tahlil qilish va murojaatlarga tezkor munosabat bildirishni ustuvor yo‘nalishga aylantirdi. 2026-yilgi PQ–1-son qarorda 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar natijasida mahallalarda jinoyatchilik qariyb 1,5 baravarga kamaygani qayd etilgan [5]. Biroq ushbu ko‘rsatkichni respublika bo‘yicha umumiy ro‘yxatga olingan jinoyatlar soni

bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri solishtirish metodologik jihatdan ehtiyotkorlikni talab qiladi.

Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, respublika bo‘yicha ro‘yxatga olingan jinoyatlar soni 2024-yildagi 132 298 tadan 2025-yilda 155 002 taga yetib, 17,2 foizga oshgan. 2025-yilda jinoyatchilik darajasi 10 ming aholiga 40,5 holatni tashkil etgan. Shu bilan birga jinoyat turlari bir xil yo‘nalishda o‘zgarmagan: qasddan odam o‘ldirish va o‘ldirishga suiqasd qilish 364 tadan 316 taga kamaygan, talonchilik va bosqinchilik ham qisqargan; aksincha, firibgarlik hamda giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlar sezilarli ko‘paygan [7]. Bu farqlar umumiy jinoyat soni profilaktika sifatini to‘liq ifodalovchi yagona mezon bo‘la olmasligini ko‘rsatadi.

Ro‘yxatga olingan jinoyatlar soniga real kriminogen vaziyat bilan birga murojaatlarni qabul qilish sifati, yashirin qilmishlarning aniqlanishi, hisobga olish intizomi, jinoyat tuzilmasining o‘zgarishi va ayrim turdagi huquqbuzarliklarni aniqlash faolligi ham ta’sir qilishi mumkin. Shu sababli jinoyat sonining ko‘payishi har doim profilaktika yomonlashganini, kamayishi esa har doim profilaktika yaxshilanganini anglatmaydi. Xizmat faoliyatini faqat “o‘tgan yilga nisbatan necha foiz kamaydi?” mezoni bilan baholash xodimda statistik natijani “yaxshilash”ga noto‘g‘ri rag‘bat paydo qilishi, hududlarning aholi soni, odam oqimi, savdo-transport faolligi va boshqa tabiiy farqlarini esa e’tibordan chetda qoldirishi mumkin.

Bu muammo 2026-yil 29-iyundagi Prezident taqdimotida davlat siyosati darajasida ochiq qo‘yildi: qariyb 9 ming mahallada 10 mingdan ortiq profilaktika inspektori xizmat qilayotgani, ularga amalda 50 ga yaqin o‘ziga xos bo‘lmagan qo‘shimcha vazifa yuklangani, eng muhimi esa jamoat xavfsizligi bo‘linmalari faoliyatini “aholiga xizmat ko‘rsatuvchi tizim” tamoyili asosida baholash zarurligi qayd etildi [6]. 2026-yil avgustida birinchi o‘qishda ko‘rib chiqilgan “Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorining maqomi to‘g‘risida”gi qonun loyihasida inspektorning 9 ta asosiy va 6 ta ko‘maklashuvchi vazifasini aniq belgilash, kasbiy faoliyatiga asossiz aralashish va xizmatga aloqador bo‘lmagan ishlarni yuklashga yo‘l qo‘ymaslik nazarda tutilgani mazkur masalani huquqiy jihatdan mustahkamlash uchun yangi imkoniyat yaratadi [9].

Xorijiy ilmiy yondashuvlar ham “faoliyat bajarildi” bilan “natija olindi”ni ajratish zarurligini ko‘rsatadi. Lourens Sherman dalillarga asoslangan politsiya faoliyati konsepsiyasida eng yaxshi ilmiy dalillardan amaliy qarorlarni tanlash va ularning natijasini baholashda foydalanishni taklif etadi. U hudud xavfini hisobga olgan jinoyat ko‘rsatkichlari, qayta jabrlanish va qayta huquqbuzarlik kabi natijalarni kuzatish zarurligini asoslaydi [10, 4–5-b.]. Tom Taylerning protsessual adolat va huquqni muhofaza qiluvchi organlar legitimligiga oid tadqiqotlari esa

fuqarolarning hamkorligi faqat jinoyatni fosh etish natijasiga emas, muomala adolatliligi, hurmat va qarorlarning asosli tushuntirilishiga ham bog‘liqligini ko‘rsatadi [11]. Demak, aholi ishonchi ikkilamchi “yumshoq” ko‘rsatkich emas, profilaktika uchun axborot va hamkorlik resursidir.

Qiyosiy amaliyot ham ko‘p o‘lchovli baholashga o‘tgan. Angliya va Uelsda politsiya faoliyatini baholash samaradorlik, tejamkorlik va qonuniylik kabi o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlarni qamrab oladi [12]. Yangi Zelandiyada esa politsiya faoliyatiga oid milliy so‘rovlar jamoatchilik ishonchi, politsiya bilan aloqa tajribasi, xizmat samaradorligi va xavfsizlik hissini alohida o‘lchaydi [12]. Bu tajribalarni to‘liq ko‘chirish shart emas, biroq ular O‘zbekiston uchun bitta saboq beradi: jamoat xavfsizligi faqat sodir etilgan jinoyatlar soni bilan emas, xizmat sifati va fuqarolarning real xavfsizlik tajribasi bilan ham o‘lchanishi kerak.

Shu asosda muallif jamoat xavfsizligi bo‘linmalari va profilaktika inspektori faoliyatini baholash uchun “uch blokli xavfsizlik natijalari kartasi”ni taklif etadi. Birinchi blok obyektiv xavfsizlik natijalarini qamrab olib, aholiga nisbatan hisoblangan og‘ir va zo‘ravon jinoyatlar, qayta huquqbuzarlik, qayta jabrlanish hamda muayyan hududdagi barqaror jinoyat o‘choqlarining o‘zgarishini ko‘rsatadi. Ikkinchi blok profilaktik ta’sir natijasini ifodalaydi: xavf guruhidagi shaxs bilan ishlashdan keyingi holat, aniqlangan sabab va shart-sharoitlarning bartaraf etilishi, vakolatli idoraga yo‘naltirilgan ijtimoiy muammoning hal etilishi, murojaatga munosabat tezligi va takroriy murojaatlarning holati. Uchinchi blok aholi ishonchi va xizmat sifatini qamrab olib, fuqarolarning murojaat qilish imkoniyati, xodim muomalasi, xolislik, muammoning yechimidan qoniqish va hududdagi xavfsizlik hissini standartlashtirilgan so‘rov orqali o‘lchaydi. Bu uch blokni bitta umumiy ballga majburan birlashtirish emas, parallel tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Mazkur modelning huquqiy kafolati sifatida profilaktika inspektorining maqomi to‘g‘risidagi qonun loyihasiga quyidagi mazmundagi prinsipni kiritish taklif etiladi: “Profilaktika inspektorining faoliyati xizmat hududida ro‘yxatga olingan jinoyatlar yoki ma’muriy huquqbuzarliklar sonining o‘zgarishi bilangina baholanmaydi. Faoliyat samaradorligini baholashda aholi ishonchi va xizmatdan qoniqishi, huquqbuzarliklarning qayta sodir etilishi, xavf guruhidagi shaxslar bilan ishlash natijasi, huquqbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish holati, murojaatlarga o‘z vaqtida va qonuniy munosabat bildirish hamda profilaktik choralar natijadorligi hisobga olinadi. Ro‘yxatga olingan huquqbuzarliklar sonining o‘sishi yakka holda profilaktika inspektori faoliyatiga salbiy baho berish uchun asos bo‘la olmaydi”. Bunday norma statistikani inkor etmaydi, aksincha, uni boshqa natijalar bilan birgalikda xolis talqin qilishni majburiy qiladi.

Keyingi qadam sifatida jamoat xavfsizligi bo‘linmalari uchun yagona baholash uslubiyotini tasdiqlash zarur. Unda har bir ko‘rsatkichning aniq ta’rifi,

ma’lumot manbai, hisoblash davri va tekshirish tartibi ko‘rsatilishi; aholi ishonchi bir xil savollar asosidagi mustaqil tanlanma so‘rov bilan o‘lchanishi; hududlar taqqoslanganda aholi soni va zichligi, kunduzgi odam oqimi, savdo-ko‘ngilochar hamda transport obyektlarining ko‘lami kabi xavf omillari hisobga olinishi lozim. “Xavf guruhidagi shaxs bilan ishlash natijasi” o‘tkazilgan suhbatlar soni bilan emas, takroriy huquqbuzarlik sodir etilmagani, ishga yoki o‘qishga jalb etilgani, aniqlangan ijtimoiy muammoning vakolatli subyekt tomonidan hal etilgani kabi yakuniy holatlar bilan bog‘lanishi kerak.

Baholashni takomillashtirishning uchinchi yo‘nalishi “ta’lim – tadqiqot – amaliyot” zanjirini doimiy mexanizmga aylantirishdir. Yangi profilaktik usul yoki “xavfsiz mahalla” tajribasini respublika bo‘yicha ommaviy joriy etishdan oldin tanlangan hududlarda tajriba tariqasida sinash, boshlang‘ich holat bilan keyingi natijani solishtirish va ilmiy xulosa berish tizimi yo‘lga qo‘yilishi maqsadga muvofiq. Bunda IIV Akademiyasi va Jamoat xavfsizligi universitetining ilmiy salohiyatidan foydalanish, yil yakunida shaxsga doir ma’lumotlarni oshkor qilmaydigan umumlashtirilgan tahliliy hisobotlarni e’lon qilish profilaktika siyosatini dalillarga tayangan boshqaruvga yaqinlashtiradi [6; 10, 4–5-b.].

Taklif etilayotgan model jinoyat statistikasining ahamiyatini kamaytirmaydi. Aksincha, jinoyatlarning tarkibi, og‘irligi, hududiy to‘planishi va takrorlanishini chuqur tahlil qilishga undaydi. Qasddan odam o‘ldirishning kamayishi bilan firibgarlik yoki giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlarning o‘sishi bir xil profilaktik strategiyani talab qilmaydi. Statistik tahlilning vazifasi hududlarga “yaxshi” yoki “yomon” reyting berish emas, xavf qayerda, qaysi shaklda va nima sababdan o‘zgarayotganini aniqlashdir. Mustaqillik davrida tizimning eng katta institutsional yutug‘i uning markazdan mahallaga yaqinlashgani bo‘lsa, yangi bosqichdagi vazifa natijani o‘lchash falsafasini ham fuqaroga yetgan real xavfsizlik natijasi tomon o‘zgartirishdir.

XULOSA

O‘zbekiston mustaqilligining 35 yillik davrida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimi milliy huquqni muhofaza qilish institutlarini shakllantirishdan huquqbuzarliklar profilaktikasini qonun darajasida tizimlashtirishga, xizmatni mahallaga yaqinlashtirishga, yagona jamoat xavfsizligi konsepsiyasini yaratishga va nihoyat manzilli hamda ijtimoiy profilaktikaga o‘tishga qadar izchil rivojlandi. Mazkur taraqqiyotning mantiqiy davomi endi xizmat samaradorligini baholash mezonlarini ham yangilashni talab etadi.

2024–2025-yillardagi rasmiy statistika turli jinoyat turlarining bir-biridan farqli yo‘nalishda o‘zgarganini ko‘rsatadi. Shu bois umumiy jinoyat sonini profilaktika tizimining yagona bahosi sifatida qo‘llash metodologik jihatdan yetarli

emas. 2026-yilda aholi ishonchi, qayta huquqbuzarlik va xavf guruhidagi shaxslar bilan ishlash natijasini baholashning asosiy mezonlariga aylantirish vazifasi qo‘yilgani ham ushbu muammoning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi [6].

Muallif taklif etgan “uch blokli xavfsizlik natijalari kartasi” obyektiv xavfsizlik, profilaktik ta’sir hamda aholi ishonchi va xizmat sifati ko‘rsatkichlarini bir-birini to‘ldiruvchi tarzda baholash imkonini beradi. Uni profilaktika inspektori maqomiga oid qonunda baholash prinsipi sifatida mustahkamlash, yagona uslubiyot bilan rivojlantirish hamda yangi profilaktik usullarni ilmiy tajriba asosida sinash xodimni statistik raqamni “yaxshilash”ga emas, huquqbuzarlik xavfini real kamaytirishga rag‘batlantiradi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashning yangi bosqichida bosh natija hisobotdagi past raqam emas, fuqaroning kundalik hayotidagi real xavfsizlikdir. Shuning uchun mustaqillikning 35 yillik tajribasidan kelib chiqadigan keyingi vazifa “qancha jinoyat qayd etildi?” degan savolni inkor etmasdan, uni “qaysi xavf kamaydi, nima sababdan kamaydi va fuqaro buni qanday his qildi?” degan savollar bilan to‘ldiradigan huquqiy baholash tizimini yaratishdan iborat. Ana shunda jamoat xavfsizligi boshqaruvi statistik hisobotdan dalil, xizmat sifati va aholi ishonchiga tayangan natijador boshqaruvga o‘tadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 1-apreldagi PQ–120-son “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi O‘RQ–371-son “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi hamda 2016-yil 16-sentyabrdagi O‘RQ–407-son “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonunlari // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: Lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi. Vazirlik tarixi: 2017-yilda ichki ishlar organlari tizimini isloh qilish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar sharhi // gov.uz/iiv.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF–27-son “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi PQ–1-son “Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo‘nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Profilaktika inspektorlari faoliyati va jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish masalalari muhokama qilindi”. 29.06.2026 // president.uz.
7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati, 2025-yil yanvar–dekabr; SIAT jinoyatchilik ko‘rsatkichlari // stat.uz, siat.stat.uz (murojaat sanasi: 27.08.2026).
8. Ismoilov I. O‘zbekistonda huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari // O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuni ijrosini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlari: respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – B. 14–20.
9. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi. “Profilaktika inspektorlarining maqomi qonun darajasida belgilanmoqda”. 25.08.2026 // parliament.gov.uz.
10. Sherman L.W. Evidence-Based Policing. Ideas in American Policing. – Washington, D.C.: Police Foundation, 1998. – 16 p.
11. Tyler T.R. Procedural Justice, Legitimacy, and the Effective Rule of Law // Crime and Justice. – 2003. – Vol. 30. – P. 283–357. DOI: 10.1086/652233.
12. His Majesty’s Inspectorate of Constabulary and Fire & Rescue Services. What is PEEL? // hmicfrs.justiceinspectorates.gov.uk; New Zealand Police. New Zealand Crime and Victims Survey – Police Module. – 2026 // police.govt.nz.

MUNDARIJA

Kirish……	**3**
Tolipov A.A. Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy qiyofasi……**…**	**14**
Mirzayev G. R. Millatlararo totuvlik siyosati– turli millat va elat vakillari o‘rtasida do‘stlik va bag‘rikenglik garovi…….	**23**
Saitxodjayev X. B. Milliy mustaqillik – Yangi O‘zbekistonning mustahkam asosidir……...	**30**
Худойқулов Й.А. Янги Ўзбекистон миллий тараққиётнинг янги босқичи: кенг қамровли ислоҳотларнинг муҳим натижалари…….	**39**
Turayeva S. R. Yangi O‘zbekistonda ta’lim –tarbiya, ilm-fan sohasida olib borilgan islohotlar, natijalar, muommolar va kelajak strategiyasi …….	**45**
Расулова Н. С. Мустақиллик неъмати: жамоатчилик назорати — фуқаролик жамиятининг асосий белгиси ва янги босқичи……..	**58**
Хотамов Ш. Н. Янги ўзбекистон: улуғ мақсадлар ва истиқбол сари **……**	**67**
Sattorov A. A. BMT faoliyati samaradorligi mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashdagi muhum tendensiya.....	**75**
Xaknazarov X. D. Jamoat xavfsizligini ta’minlashga doir islohotlarning ilmiy asoslari	**84**
Rashidov R. R. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish…….	**96**
Мамадалиев У. Ю. Внедрение цифровой платформы исполнения процессуальных поручений между правоохранительными органами как направление совершенствования института экстрадиции по уголовным делам…….	**105**
Захидова Н. Х. Юридические аспекты договорных переговоров в спортивном праве Нового Узбекистана как фактор совершенствования профессионального спорта в условиях реализации идей Третьего Ренессанса…….	**116**
Raxmonova B.Sh. Zamonaviy dunyoda tinchlik qadri va uni saqlashning strategik ahamiyati…….	**127**

Nishanbayeva E.Z. O‘zbekistonda ijtimoiy sheriklik munosabatlari evolyutsiyasi…….	**133**
Botirova S. R. Yangi O‘zbekiston sharoitida davlat tilida ish yuritish madaniyati va harbiy sohada terminologiyani milliylashtirish masalalari…….	**145**
Shoyliyev S. B. Yangi O‘zbekiston ta‘lim islohotlari sharoitida *“*Temurbeklar maktabi”da matematika fanidan individual mustaqil ishlar uchun didaktik majmua yaratish metodikasi…….	**153**
Abdullayev D. A. Yangi O‘zbekistonda raqamli hukumatni takomillashtirish istiqbollari.....	**166**
Axmadaliyeva S.R. O’zbekistonda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatida ijtimoiy sheriklik mexanizmlarini optimallashtirish.....	**182**
Voxobov N.G‘.,Voxidova K.E. Aeroportlarda ehtimoliy tartibbuzarlarni aniqlashda profayling texnologiyasi va profaylerlar xizmatining o‘ziga xos xususiyatlari…….	**195**
Abduvaitova R. Sh. Jahondagi tinchlik inqirozi sharoitida davlatchilikni strategik tahlil asosida rivojlantirish mexanizmlari……	**204**
Ishmatova N. M. Yangi O‘zbekiston va harbiy ta’lim: yangi avlodni tarbiyalashning ustuvor yo‘nalishlari.....	**215**
Voxobov N.G‘.,Voxidova K.E. Aeroportlarda parvozoldi, parvoz jarayoni va parvozdan keyingi bosqichlarda profayling o‘tkazishning tashkiliy-amaliy xususiyatlari.....	**223**
Nuriddinova D.S. Yangi O‘zbekiston sharoitida matematika ta’limini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish istiqbollari	**233**
Носиров Ш. Ш. Ўзбекистон – иқтисодий барқарор ва фаровон диёр…….	**246**
Xamrayeva M. O. Yangi O‘zbekiston yoshlari va xitoy tili: yangi imkoniyatlar debochasidir…….	**257**
Usmonov S. M. Yangi O‘zbekistonda milliy armiya va mudofaa tizimida olib borilyabgan islohotlar.....	**270**
Haydarov A. U. Yangi O‘zbekistonda Jamiyat xavfsizligini ta’minlashda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligi…….....	**284**

Ражабов О. Ватан учун, миллат учун, халқ учун.....	**291**
Nasirdinov D. E. Mustaqillik - milliy taraqqiyot va Yangi O‘zbekiston bunyodkorligining 35 yillik yo‘li.....	**296**
Дусчанов Р.Р. Ўзбекистон ССР молия тизимини ёритишда архив ҳужжатларининг ўрни.....	**302**
Maxkamova Z. M. Turkiston assr soliq siyosatining tarixi arxiv hujjatlari misolida……..	**308**
Ahmedova H. Sh. Mustaqillik yillarida davlat xavfsizligi sohasining siyosiy-huquqiy jihatlarini takomillashtirilishi……	**314**
Egamberganov Sh. O.,Yangi O‘zbekistonda ta’lim sohasida sun’iy intellekt va axborot texnologiyalaridan foydalanishning yangi bosqichiga o‘tish: muammolar, echimlar va istiqbolli loyihalar……..	**325**
Egamov E. E. Qurolli kuchlarning strategik salohiyatini yuksaltirish va mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlashning milliy xavfsizlikni ta’minlashdagi ahamiyati.....	**339**
Nurov E. I. Tinchlik va xavfsizlikka tahdidlar kuchaygan sharoitda mustaqillik, milliy o‘zlik va davlatchilik.....	**350**
Shokirboev A. A. Yangi O‘zbekistonda suveren taraqqiyot strategiyasining shakllanishi va uning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati.....	**361**
Nurullayev A. A. Keng ko‘lamli islohatlar sharoitida inson kapitalini rivojlantirish va uchinchi renessans avlodini shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlari …….	**368**
Xudoyqulov Y A. Yangi O‘zbekistonda harbiy fanlarni rivojlantirish istiqbollari.....	**380**
Atajanov O‘.M. O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligi tizimining rivojlanishi: natijalar va yangi baholash mezonlari.....	**386**
Mundarija	**394**

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGINING 35 YILI: TARAQQIYOT, ISLOHOTLAR VA YANGI O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI TO‘PLAMI

2026-yil 25-avgust

Texnik muharrir: RahmonovA.A.

Bosishga ruxsat etildi: _____--yil. Buyurtma № ___ Bichimi 60x84/16.
Times New Roman garniturasi bilan raqamli bosma usulda chop etildi.
Shartli bosma tabog‘i_____ Adadi ___ nusxa.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bosmaxonasi